

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
14 (33)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2026-yil
14 (33)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 31.07.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Azizbek Turdiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo'ronov
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G'ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Olmos Xurramov. Xayriddin Sultonov ijodida Bobur obrazining badiiy talqini ... 4
Malika Gulamova. Muloqotda harakatga undash taktikalari va strategiyalari ... 7
Husnigul Jo'rayeva. Bir g'azal sharhi ... 9
Fazilat Ibragimova. Matnda murojaat birliklarining lingvopoetik xususiyatlari ... 11
Nafosat Zaripboyeva. Ijtimoiy mediada gender stereotiplarning kommunikativ transformatsiyasi ... 14
Maftuna Yunusova. Diskursiv tahlilda tibbiy muloqotning voqelanish asoslari ... 16
Nigora Axtamova. Qarindoshlik nomlarining ingliz tili bilan qiyosiy tahlili va lakunar birliklari ... 21
Наргизахон Абдуллаева. Синкретизм как форма морфологической нейтрализации в английском и русском языках ... 24
Sevara Jumanova. Promptlar strukturasida lingvistik assimetriya: ingliz va o'zbek tillari misolida chog'ishtirma tarjimashunoslik tahlili ... 26
Обид Рахимов. Прагмалингвистические стратегии цифровой коммуникации в узбекском и русском языках ... 28
Shodiya Qurbonova. O'zbek badiiy diskursida bolalar nutqining sotsiopragmatik tadqiqi ... 30
Anvar Sobirov. Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari ... 32
Baxoroy Abdunabiyeva. Uilyam Sidney Porter va Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik xususiyatlari ... 34
Ilhom Eshonqulov. Hashmat Buxoriy asarlarida tarixiy voqelikning badiiy talqini ... 36
Nigina Rasuleva. 1950–1990-yillardagi G'arb va Xitoy ilmiy fantastikasining rivojlanish tendensiyalari ... 39
Dilnura Rustamova. Qurbon Muhammadrizoning "Bir siqim tuproq" asarida peyzaj qahramon ruhiy olamini aks ettirish vositasi sifatida ... 42
Nodiraxon Shakirova. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "oila" konseptining etimologik ildizlari va milliy-madaniy xoslanishi ... 44
Zebo Sabirova. Badiiy psixologizm – adabiy-estetik hodisa ... 46
Doniyor Hamidov. "Hissiyot" tushunchasi va uni o'rganishning nazariy asoslari ... 48
Malika Mansurova. Abdulla Qodiriy siymosining dramatik talqini ... 52
Nafisa Azimboyeva. XXI asr o'zbek badiiy tarjimalarida poetik birliklarni qayta yaratish xususiyatlari (Paulo Koeloning "Alkimyogar" romani misolida) ... 54
Sanjar Azimboyev. Ingliz va o'zbek diplomatik nutqlarida pragmatik markerlarning kommunikati funksiyalari ... 57
Munisa Nazarova. Ingliz va o'zbek tillari diskursida sukutning kognitiv-psixolingvistik xususiyatlari ... 60
Nozima Abdullayeva. O'zbek, ingliz va arab tillaridagi salomatlikka oid maqollarda somatizmlarning qiyosiy tahlili ... 62
Dildora Raxmonova. Jadid adabiyotida Ovro'po madaniyatining badiiy talqini: Abdulla Avloniy ijodi misolida ... 65
Shohsanam Kimsanboyeva. "Sayohat xotiralari"da joy nomlari va tarixiy voqealarning yoritilishi ... 67
Gavxarbonu Xoshimova. Sirojiddin Sayyid ijodida quyosh obrazi talqini ... 70
Zulxumor Mirzayeva. Ingliz va o'zbek tillarida aksiologik konseptlarning frazeosemantik maydon doirasida qiyosiy-lingvokulturologik tahlili ... 72
Oliya Qodirova. "Lison ut-tayr" dostoni nashrlarida matniy tafovutlarning qiyosiy tahlili ... 74
Muxtarbay Kurbanov. Qang'li etnonimi haqida ayrim mulohazalar ... 76
Konisbay Sarsenbaev, Omar Saparmatov. The Use of Metonymies in the Works of Poet Kunkhoja ... 78
Azizbek Turdiyev. Zumerlarga Alpomish zarur ... 80

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Sayyora Islomxo'jayeva. "Lingvistik kompetentlik" tushunchasi va uning o'quv jarayonidagi o'rni 82
Азизбек Султанбаев. Влияние технологий искусственного интеллекта на качество учебного процесса в цифровой образовательной среде 90
Шахло Джамалдинова. Инновационные педагогические технологии как средство развития эмоционально-коммуникативных компетенций студентов медицинских вузов 92
To'lqinjon G'ofurov. O'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini dual ta'lim asosida rivojlantirish metodikasi 96
Inoyatxon Normahamatova. Kollaborativ yondashuvning turli yosh bosqichlaridagi o'quvchilarga pedagogik-psixologik ta'sirini qiyosiy o'rganish 98
Sevara Kurbanova. Axborot asrida o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasi va o'z-o'ziga ishonchi: zamonaviy pedagogik yondashuvlar 101
Gulhayo Tolibova. Kompetensiyaviy ta'limda matnning didaktik salohiyati 103
Sevara Xudoyqulova. Talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish 105
Muborak Azimova. The Role of Assessment in Vocabulary Teaching Using Mall in English Teaching 107
Saida Ergasheva. Madaniyat va san'at menejerlarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 110
Guljahon Ergasheva. Ona tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlash 112
Oliya Najmiddinova. Curriculum Framework and Curriculum Reform in Uzbekistan 114
Dildor Norqulova. Portret janriga oid materiallar vositasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari 116
Nilufar Oymatova. Adabiyot ta'limida o'yin texnologiyalari: nazariy-metodik tahlil 118
Rustam Turopov. Maktablarda sifatli ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchilarning o'rni 121
Jamshid Matnazarov. Mashg'ulotlarni kuzatish va o'zlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish 123
Sevinch Toshboyeva. Enhancing English Speaking Skills Through Communicative Language Teaching in Uzbek Universities 125
Iroda Umarova. Chet tillarni o'qitishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning qo'llanishi: xalqaro tadqiqotlar tahlili 127

Olmos XURRAMOV,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

XAYRIDDIN SULTONOV IJODIDA BOBUR OBRAZINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Xayriddin Sultonov ijodida Bobur obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Boburning hikoyanavislik mahorati, tarixiy voqealarni badiiy aks ettirish usullari hamda uning realistik hikoyalash an'analarining zamonaviy o'zbek nasridagi davomiyligi yoritiladi. X.Sultonovning "Nuqta" hikoyasi misolida Bobur shaxsining badiiy talqini, epistolyar va assotsiativ tasvir usullarining uyg'unligi, asardagi ramziy ma'no qatlamlari hamda qahramon ruhiyatining badiiy ifodalanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: Bobur, Xayriddin Sultonov, tarixiy hikoya, epistolyar usul, assotsiativ tasvir, badiiy talqin, Bobur obrazi, hikoyanavislik.
Annotation. The article analyzes the artistic interpretation of Babur's image in the works of Khayriddin Sultanov. It examines Babur's mastery of storytelling, his methods of artistically representing historical events, and the continuation of his realist narrative traditions in modern Uzbek prose. Using Sultanov's short story *"Nuqta"* (*The Full Stop*) as an example, the article explores the artistic interpretation of Babur's character, the integration of epistolary and associative narrative techniques, the symbolic layers of meaning in the work, and the artistic representation of the protagonist's inner world.
Keywords: Babur, Khayriddin Sultanov, historical short story, epistolary narrative, associative narrative, artistic interpretation, image of Babur, storytelling.
Аннотация. В статье анализируется художественная интерпретация образа Бабура в творчестве Хайриддина Султанова. Рассматриваются повествовательное мастерство Бабура, способы художественного изображения исторических событий, а также продолжение его реалистических повествовательных традиций в современной узбекской прозе. На примере рассказа X.Султанова «Nuqta» (Точка) исследуются художественная интерпретация личности Бабура, сочетание эпистолярного и ассоциативного способов изображения, символические смысловые пласты произведения, а также особенности художественного раскрытия внутреннего мира героя.
Ключевые слова: Бабур, Хайриддин Султанов, исторический рассказ, эпистолярное повествование, ассоциативное изображение, художественная интерпретация, образ Бабура, повествовательное мастерство.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti qiziqarli, sarguzashtlarga boy, ayni paytda dramatizm va fojiaviy vaziyatlarga to'la murakkab hayot yo'lidir. "Boburnoma" va boshqa tarixiy asarlarda tasvirlangan unga oid voqea-hodisalar alohida lavha sifatida yuksak badiiy saviyadagi hikoyalar uchun asos bo'la oladi. Jumladan, Boburning Samarqandni tark etishi, Xoja Ahror Valiyni tush ko'rishi bilan bog'liq voqea, Afg'oniston yo'lidagi dovonda qor kechishi, malika Bayda tomonidan zaharlanishi hamda vafoti bilan bog'liq voqealar badiiy talqin uchun sermahsul manba hisoblanadi.

Boburning o'zi ham yuksak mahoratga ega hikoyanavisdir. Uning voqealarni bayon etish uslubi, kompozitsiya va syujetni qurish mahorati, obraz hamda portret yaratishdagi badiiy mahorati har qanday ijodkor uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Boburning hikoyanavislik mahoratini shartli ravishda bir necha yo'nalishda kuzatish mumkin.

Birinchidan, u o'zidan avval yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqida yuksak mahorat bilan hikoya qiladi. Ularning hayotidagi muhim va e'tiborga molik voqealarni tanlay oladi hamda portreti va xarakterini ochishga xizmat qiluvchi asosiy jihatlarni badiiy jihatdan mukammal tasvirlaydi.

Ikkinchidan, Bobur o'z davri ijtimoiy hayotini va insonlar o'rtasidagi jonli muloqot jarayonini nozik kuzata oladi. U zamondoshlarini mohir ruhshunos sifatida tahlil qiladi, ularning fe'l-atvori, odatlari, turmush tarzi, hatto kiyinish madaniyatigacha e'tibor qaratadi. Bularning barchasi uning hikoyalarida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanadi.

Uchinchidan, Bobur karomatli tushlari vositasida kelajak voqealarini ham tasvirlaydi. "Boburnoma"da Payg'ambarimiz Muhammad (alayhissalom), sahobalar va avliyo zotlarga oid tushlar badiiy jihatdan ta'sirchan tasvirlangan. Muallifning hikoyalash mahorati tufayli ushbu tushlar o'quvchi ko'z o'ngida go'yo real voqelik kabi jonlanadi. Buning asosiy sababi shundaki, Boburning o'zi ilohiy-karomatli tushlarga chuqur ishonch bilan yondashadi.

Zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analarining muayyan darajada davom ettirilganini kuzatish mumkin. Bu jihat, ayniqsa, A.Qodiriyning **"O'tkan kunlar"** va **"Mehrobdan chayon"** romanlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, G'.G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov hamda X.Sulton asarlarida ham boburona hikoyalash usullarining ayrim ko'rinishlari uchraydi. Afsuski, bunday o'ziga xos badiiy an'ana o'zbek nasrida izchil davom ettirilmagan. Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek adabiyotida Bobur va boburiylar tarixiga bag'ishlangan hikoyalarning nihoyatda kamligi ham alohida ta'kidlashga loyiq.

Bobur va boburiylar mavzusiga bag'ishlangan hikoyalar orasida X.Sultonning **"Oy botgan pallada"**, **"Nuqta"**, B.Omonning **"Boburning bolaligi"** hamda M.Uzoqovning **"Bobur sog'inchi"** hikoyalarinigina janr talablari darajasida yaratilgan badiiy asarlar sifatida e'tirof etish mumkin.

X.Sulton Bobur hayotiga bag'ishlab ikkita hikoya yaratgan. Bizningcha, yozuvchining har ikkala hikoyasi ham Bobur hayotining muhim davrlarini badiiy yoritishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, hikoya sarlavhasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, **"Nuqta"** nomining o'ziyoq muayyan badiiy jumboqni o'zida mujassam etadi. Ma'lumki, badiiy asarda yashirin ma'noni ifodalash so'z, ibora, jumla va badiiy detallar vositasida amalga oshiriladi. Bunday holatda mazkur badiiy unsurlar bir vaqtning o'zida bir necha ma'no qatlamini ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

Sarlavha badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy unsurlaridan biri bo'lib, yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq turli vazifalarni bajarishi mumkin. Ayrim sarlavhalar asar mazmunini o'zida mujassam etishi bilan sof mantiqiy mohiyat

kasb etadi ("Uloqda", "Oromkursi" kabi). Boshqa bir guruh sarlavhalar, ayniqsa hikoya sarlavhalari, badiiy aks ettirilayotgan voqea-hodisaning mohiyatini ifodalaydi (masalan, "Ko'chki", "Zilzila" kabi). Ayrim sarlavhalar voqea sodir bo'ladigan makon nomi bilan bog'liq bo'ladi ("Qichqiriq", "Oq bino oqshomlari" kabi). Ba'zi hollarda esa hikoya markazida turgan tuyg'u yoki kechinma sarlavhaga aylantiriladi ("Bodom qishda gulladi" kabi). Yana ayrim hikoyalarda bosh qahramonning ismi asar sarlavhasi sifatida tanlanadi. X.Sultonning mazkur hikoyasida esa **"nuqta"** so'zi bir necha ma'nolarda qo'llanganini e'tirof etish mumkin.

Birinchidan, hikoya ma'lum darajada epistolyar xususiyat kasb etadi. Asar Boburning o'g'li Humoyunga yo'llagan maktubi asosida qurilgan. Ma'lumki, har qanday xatning yakuniy belgisi nuqta hisoblanadi. X.Sulton hikoyasi ham Bobur maktubidagi so'nggi nuqta bilan yakunlanadi.

Ikkinchidan, Bobur maktubining mazmun-mohiyatida o'g'liga har bir narsaga e'tiborli bo'lish, inshoda zeru zabar, hatto nuqtaga ham befarq qaramaslik lozimligi uqtiriladi. Yozuvchi asar xulosasida bu holatni quyidagicha izohlaydi: "Biz ham shu o'rinda hikoyaga nuqta qo'ysak bo'lar. Ammo hikoyaga sig'may qolgan ikki og'iz mulohaza borki, muhtaram kitobxon buning uchun bizni aybsitmas.

Boburdek muhtaram zotning bir nuqta tufayli bu qadar iztirob chekkani bejiz emas edi – hayot buni isbotladi: taqdirning g'alati o'yinini qarangki, Bobur vafotidan keyin ham zeru zabar jabrini tortadi – uzoq yillar mobaynida uning nomi **"Bobir"** deya yozib kelinadi. Faqat uning besh yuz yillik to'yi arafasida nuktadon bir olim **"Bobir emas, Bobur!"** deya chiqadi-yu, bu boradagi "g'alati mashhur" holatga barham beriladi.

Bir nuqtaning tarixi, qadri va mavqeyi ana shunday. Tamom. Nuqta" [2].

Uchinchidan, sarlavhada mazkur maktubning Bobur hayotining so'nggi pallalarida, ya'ni uning umriga taqdirning so'nggi nuqtasi qo'yilishidan bir bahya oldin yozilgani haqidagi ishora mavjud.

Hikoyaning birinchi jumlasi ham yuqoridagi xulosamizni tasdiqlaydi: ***"Boburning hasratidek uzun yomg'ir..."*** *[2].* Albatta, bu hasrat o'lim qo'rquvidan tug'ilgan iztirob emas. Mazkur hasrat qatlarida Boburning ulkan jahongirlik yo'li, Vatan hajri, hayotidagi yutuq va xatolar mujassam. Yomg'ir detali ham ma'lum ma'noda g'am-anduh va hasrat tuyg'ularining kuchayishiga xizmat qiladi. Odatda yomg'ir inson qalbida umr yo'li, hayot intihosi haqidagi o'y-mushohadalarni uyg'otadi, hasratli xotiralarni jonlantiradi.

Hikoyaning keyingi qismlari ham sarlavha va dastlabki jumlaga uyg'un holda falsafiy mazmun kasb etadi. Bobur navqiron o'g'liga nasihatomuz maktub bitar ekan, o'z umrining nihoyasiga yaqinlashayotganini yana bir bor his etadi:

"Alisherbekning hikmat to'la, dard to'la bayti iqror tig'i bilan yuragini tilib o'tadi:

Soqol oqi o'limg'a peshravdur,
Tiriklik sabzasi ichra qirovdur" [2].

Bobur o'g'lining navqiron yigitga aylangani, yurt boshqaruvida kamolotga erishayotganidan mamnun bo'ladi. Farzandli bo'lgani esa uning qalbida katta quvonch uyg'otadi. Biroq Humoyun maktubidagi hashamat va dabdaba Boburga ma'qul kelmaydi. U maktublarda ham o'z hayotidagi kabi soddalik, to'g'rilik va aniqlik bo'lishini istaydi. Humoyunning o'g'liga qo'ygan **Al'mon** ismida ham sun'iy dabdaba, xalq tili va ruhiyatini anglamaslik holati mavjudligidan ranjiydi*: "Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo Robbal olamin, deya davom etdi u.-Otini Al'amon qo'ymishsan. Tengri muborak qilg'ay. Vale bovujdkim, o'zung bitibsen, mundin g'ofil bo'lubsenkim, kasrati iste'mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'lur..." [2: 220]*

Inshodagi kichik bir xato mutafakkir otani chuqur o'yga toldiradi va uni xayolan tarix sahifalariga safar qilishga undaydi. U o'z otasini qatl etgan Abdullatif, mast holatda nabirasi Mo'min Mirzoning o'limi haqidagi farmonga imzo chekkan Sulton Husayn kabi tarixiy shaxslarning qilmishlarini eslaydi. Ushbu xotiralar uni Vatan haqidagi iztirobli armonlar sari yetaklaydi. Vatanni tark etish manzaralari, temuriy shahzodalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Shayboniy ta'qibi ostida yurgan davrida uni hech kim qo'llab-quvvatlamagani xuddi kino lentasidek ko'z oldidan birma-bir o'tadi.

Hikoyaning ana shunday o'rinlarida hikoyanavis epistolyar janr chegaralaridan chiqadi. Boshqacha aytganda, muallif mazkur janr imkoniyatlarini kengaytiradi. Maktub mazmuniga hikoya qahramonining xotiralarini bog'lash orqali yozuvchi assotsiativ tasvir usuliga murojaat qiladi. Natijada asarning badiiy qimmati ortishi bilan birga, hikoyaning badiiy zamon va makon ko'lami ham kengayadi. *"Yana sendin ozroq ginam bor,-deya xat boshidan yozdi u,-bu ikki-uch yildin beri bir kishing kelmadi. Men yiborgan kishi ha rost bir yildin so'ngra keldi. Mundoq bo'lurmi?" [2: 222.]*

Keksaygan shoh va otaning hasrati, davlat ishlari, hashamat va shon-shuhrat qurshovidagi yolg'izligi maktubdagi mazkur parcha orqali teran asoslangan. Ushbu satrlarni yozayotgan Boburning chap qulog'i orqasida og'riq paydo bo'ladi, qalam tutgan qo'li titraydi. Bu holat jismoniy va ruhiy kechinmalarning uyg'un namoyon bo'lishidir. Hayotiy tajribada ham og'riqli xotiralar inson ruhiyatida kuchli ruhiy qo'zg'alishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Quloq orqasidagi sanchiq ruhiy iztirobning inson tanasidagi aks-sadosi sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi bu holatning faqat ruhiy jihatlarinigina tasvirlab qolmaydi, balki quloq og'rig'ining tabiiy sabablarini ham ko'rsatadi. Shu orqali Bobur dardining nihoyatda teran ijtimoiy-tarixiy hamda ruhiy-ma'naviy ildizlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Muallif "Boburnoma"dagi Ko'tali Zarrinda Bobur misli ko'rilmagan bo'ronga duch kelgani, oddiy askarlar qatori qalin qorni o'yib yerto'la yasagani va shu yerda tunni g'aribona o'tkazgani haqidagi dalilni keltiradi. Beklari Boburni nisbatan qulayroq g'orda dam olishga chorlaydilar: *"Axir qaysi yuz bilan borsin? Barcha navkarlari bunda – bo'ron changalida titrab-qaqshab o'tirsa-yu, u issiq g'orda, farog'at og'ushida mudrasa!..." [2: 222]* Bu bilan muallif Bobur tabiatidagi botiniy demokratiya, mardlik, jasorat va irodani ta'kidlaydi. Maktub yozayotgan ota, shonli o'tmish sohibi bo'lgan shoh, umri yaqinlab qolgan yolg'iz odam tarixini bir nuqtaga jamlab, mukammal badiiy palotnoga muhrlashga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, X.Sulton **"Nuqta"** asari misolida hikoya janrining badiiy imkoniyatlarini kengaytirishga erishgan. Adib epistolyar va assotsiativ tasvir usullarini o'zaro uyg'unlashtirib, ularni yaxlit badiiy tizimga keltirgan. Shu bilan birga, yozuvchi Bobur hayotidagi muhim voqealarni, unga daxldor tarixiy dalillarni hamda qahramonning ruhiy-ma'naviy holatlarini yagona badiiy markazga jamlay olgan. Sof badiiy-psixologik talqin vositasida Bobur obrazining mohiyatini chuqur va ta'sirchan yoritishga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. Sultonov H. Boburning tushlari: Qissalar, hikoyalar, esselar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
4. Murodov G'. Moziy va badiiy adabiyot. – Buxoro: Buxoro, 1994.
5. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar: Adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. Kattabekov A. Tarixiy romanlar xususida bahslar // O'zbek adabiy tanqidi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2011. – B. 245–258.

Malika GULAMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

MULOQOTDA HARAKATGA UNDASH TAKTIKALARI VA STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada muloqot jarayonida suhbatdoshni muayyan harakatga yo'naltirishda qo'llaniladigan kommunikativ strategiya va taktikalar pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Unda harakatga undovchi nutq aktlarining bevosita hamda bilvosita ifodalanish usullari, ularning kommunikativ vaziyat, muloqot maqsadi va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liqligi yoritiladi. Maslahat, iltimos, taklif, buyruq va tavsiya kabi direktiv nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi. Pragmalingvistik va diskursiv tahlil metodlari asosida olingan natijalar kommunikativ strategiya hamda taktikalarni to'g'ri tanlash muloqot samaradorligini oshirish, shuningdek, adresatga samarali ta'sir ko'rsatishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalari pragmalingvistika va diskurs tahlili yo'nalishidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: muloqot, kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika, harakatga undash, pragmatika, pragmalingvistika, nutq akti, diskurs, persvaziya, adresant, adresat, nutqiy ta'sir.

Annotation. This article analyzes communicative strategies and tactics used to direct an interlocutor toward a certain action in the process of communication from a pragmalinguistic perspective. It examines the direct and indirect ways of expressing speech acts that encourage action, as well as their relationship with the communicative situation, the purpose of communication, and the relations between participants. The pragmatic features of directive speech acts such as advice, request, suggestion, command, and recommendation are revealed through examples. The results obtained through pragmalinguistic and discourse analysis methods demonstrate that the proper selection of communicative strategies and tactics is an important factor in increasing communication effectiveness and exerting influence on the addressee. The conclusions of the study are of theoretical and practical significance for further research in pragmalinguistics and discourse analysis.

Keywords: communication, communicative strategy, communicative tactic, action inducement, pragmatics, pragmalinguistics, speech act, discourse, persuasion, addresser, addressee, speech influence.

Аннотация. В статье с прагмалингвистической точки зрения анализируются коммуникативные стратегии и тактики, применяемые в процессе общения для побуждения собеседника к определённому действию. Рассматриваются прямые и косвенные способы выражения речевых актов побуждения к действию, а также их связь с коммуникативной ситуацией, целью общения и отношениями между участниками коммуникации. На основе примеров раскрываются прагматические особенности директивных речевых актов, таких как совет, просьба, предложение, приказ и рекомендация. Результаты, полученные с применением методов прагмалингвистического и дискурсивного анализа, показывают, что правильный выбор коммуникативных стратегий и тактик является важным фактором повышения эффективности общения и оказания воздействия на адресата. Выводы исследования имеют теоретическое и практическое значение для дальнейших научных изысканий в области прагмалингвистики и анализа дискурса.

Ключевые слова: коммуникация, коммуникативная стратегия, коммуникативная тактика, побуждение к действию, прагматика, прагмалингвистика, речевой акт, дискурс, речевое воздействие, адресант, адресат, убеждение.

Muloqot inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, axborot almashish, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va kommunikativ maqsadlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Muloqot jarayonida adresant nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki adresatning fikri, munosabati va xatti-harakatiga ham maqsadli ta'sir ko'rsatishga intiladi. Ayniqsa, suhbatdoshni muayyan harakatni bajarishga undash kommunikativ faoliyatning eng muhim pragmatik vazifalaridan biri sanaladi. Bunday ta'sirni amalga oshirishda til birliklarining mazmuniy imkoniyatlari bilan bir qatorda kommunikativ strategiyalar va taktikalarning to'g'ri tanlanishi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi

. Harakatga undovchi nutq birliklarining tanlanishi muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, o'zaro munosabatlari, kommunikativ vaziyat, madaniy me'yorlar va diskurs turiga bevosita bog'liq. Masalan, rasmiy muloqotda *Iltimos, hujjatlarni bugun topshiring* shaklidagi muloyim direktiv birlik qo'llansa, norasmiy muloqotda *Bugun hujjatlarni olib kelishni unutmang* kabi yumshoq tavsiya yoki eslatma shakli samaraliroq bo'lishi mumkin. Shuningdek, reklama, siyosiy nutq, ta'lim jarayoni va ommaviy axborot vositalarida harakatga undash strategiyalari persvaziv ta'sirning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Harakatga undash strategiyalari va taktikalari pragmatika hamda nutq aktlari nazariyasining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. J.Austin va J.Searle direktiv nutq aktlarini adresatni muayyan harakatni bajarishga yo'naltiruvchi kommunikativ vosita sifatida tavsiflaydi [1: 96–103]. H.Grice ilgari surgan kooperatsiya tamoyili hamda P.Brown va S.Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi esa bevosita va bilvosita undash strategiyalarining pragmatik xususiyatlarini ochib beradi [2: 23–39; 3: 101–117]. O.S.Issers kommunikativ strategiyani umumiy kommunikativ maqsadga erishish rejasi, taktikani esa ushbu strategiyani amalga oshiruvchi nutqiy vositalar majmui sifatida izohlaydi [4: 54–71]. O'zbek tilshunosligida mazkur masala pragmalingvistika doirasida keng tadqiq etilgan. Xususan, Sh.Safarov pragmatik ma'no, kommunikativ niyat va nutqiy ta'sirning o'zaro bog'liqligini tahlil qilgan [5: 42–58]. A.Nurmonov pragmatik mazmunning kontekst bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan bo'lsa [6: 74–86], N.Mahmudov nutq madaniyati va kommunikativ vaziyatning til vositalari tanlanishidagi ahamiyatini yoritadi [7: 118–129]. Masalan, *Iltimos, hujjatni yuboring* va *Hujjat hali yuborilmabdi* birliklari bir xil kommunikativ maqsadga xizmat qilsa-da, ularning pragmatik strategiyasi va adresatga ta'sir darajasi turlicha namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda tavsifiy, pragmalingvistik, diskursiv va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Harakatga undovchi nutq birliklari kommunikativ vaziyat, adresant va adresat o'rtasidagi munosabat hamda qo'llanilgan strategiya va taktikalar nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali bevosita va bilvosita undash usullarining funksional-pragmatik xususiyatlari aniqlandi hamda ularning muloqot samaradorligiga ta'siri baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muloqotda harakatga undash kommunikativ strategiyalari va taktikalarining tanlanishi, avvalo, muloqotning maqsadi, adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, kommunikativ vaziyat hamda nutqning rasmiy yoki norasmiy xarakteriga bog'liq.

Harakatga undash faqat buyruq mayli orqali emas, balki iltimos, maslahat, tavsiya, ogohlantirish, taklif, rag'batlantirish va da'vat kabi turli pragmatik vositalar orqali ham ifodalanadi. Shu sababli undov mazmuni grammatik shakldan ko'ra ko'proq kommunikativ niyat va kontekst bilan belgilanadi. Bu holat pragmalingvistika doirasida ilgari surilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi [1: 96–103; 2: 41–58].

Tahlil qilingan misollar asosida harakatga undashning ikki asosiy strategiyasi – **bevosita** va **bilvosita** strategiyalar ajratildi. Bevosita strategiya ko'proq buyruq, farmoyish yoki qat'iy ko'rsatmalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, *Hujjatlarni bugun topshiring, Eshikni darhol yoping* kabi gaplarda adresantning kommunikativ maqsadi ochiq ifodalanadi va adresatdan muayyan harakatni bajarish talab etiladi. Bunday strategiyalar, asosan, rasmiy muloqot, xizmat yozishmalari, ta'lim jarayoni hamda boshqaruv faoliyatida uchraydi. Ularning asosiy vazifasi tezkor natijaga erishish bo'lib, kommunikativ ta'sirning aniqligi bilan ajralib turadi [1: 96–103; 4: 54–71].

Bilvosita strategiyalarda esa undash yashirin yoki yumshatilgan shaklda ifodalanadi. Bunday vaziyatlarda adresant buyruq bermaydi, balki maslahat, iltimos yoki ishora orqali adresatni kerakli harakatga yo'naltiradi. Masalan, *Deraza ochiq qolibdi* jumlasi muayyan vaziyatda *Derazani yoping* mazmunini anglatsa, *Hisobot bugun topshirilsa, ish tezroq yakunlanadi* gapi adresatni rag'batlantirish orqali harakatga undaydi. Ushbu strategiya muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni saqlash, xushmuomalalik tamoyillariga rioya qilish va kommunikativ ziddiyatning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi [2: 41–58; 3: 101–117].

Tahlil davomida harakatga undashning bir necha asosiy taktikalari aniqlandi. Jumladan, *buyruq berish, iltimos qilish, maslahat berish, taklif bildirish, ogohlantirish, rag'batlantirish* va *motivatsiya uyg'otish* taktikalari eng faol qo'llanilishi kuzatildi. Masalan, *Iltimos, hisobotni bugun yuboring* jumlasida iltimos taktikasi, *Agar bugun yuborsangiz, natija tezroq olinadi* misolida rag'batlantirish taktikasi, *Vaqtni boy bermang* ifodasida esa ogohlantirish taktikasi ustuvorlik qiladi. Mazkur taktikalarning tanlanishi muloqotning maqsadi va adresatning psixologik holati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular nutqiy ta'sir samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [4: 72–89; 5: 121–136].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi muloqotda harakatga undash strategiyalarini tanlashda milliy nutq odobi va xushmuomalalik me'yorlari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yoshi katta yoki ijtimoiy mavqei yuqori bo'lgan shaxslarga murojaat qilishda bilvosita undash usullari ko'proq qo'llanadi. Masalan, *Iltimos, bir daqiqa vaqtingizni ajratsangiz, Imkoningiz bo'lsa, ushbu masalaga e'tibor qaratsangiz* kabi ifodalar nafaqat harakatga undash, balki hurmat va odobni ham ifodalaydi. Teng maqomdagi shaxslar o'rtasidagi muloqotda esa *Yur, boshlaymiz, Keling, birgalikda hal qilamiz* kabi rag'batlantiruvchi va hamkorlikka undovchi taktikalarning ustunligi kuzatiladi. Bu esa kommunikativ strategiyaning tanlanishi ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi [3: 118–127; 6: 74–86].

Olingan natijalar Sh.Safarov, A.Nurmonov va N.Mahmudov tomonidan ilgari surilgan pragmalingvistik qarashlarni tasdiqlaydi. Xususan, harakatga undashning muvaffaqiyati faqat grammatik vositalar bilan emas, balki kommunikativ niyat, kontekst, presuppozitsiya, implikatura hamda adresatning pragmatik kompetensiyasiga ham bog'liq ekanligi aniqlandi [5: 42–58; 6: 74–86; 7: 118–129].

Muloqotda harakatga undash strategiyalari va taktikalari kommunikativ maqsadga erishishning muhim pragmatik vositasi hisoblanadi. Ularning tanlanishi kommunikativ vaziyat, adresant va adresat o'rtasidagi munosabat hamda nutqiy maqsad bilan belgilanadi. Bevosita va bilvosita undash strategiyalaridan maqsadga muvofiq foydalanish nutqiy ta'sir samaradorligini oshiradi. Shuningdek, buyruq, iltimos, maslahat, taklif va rag'batlantirish kabi taktikalarning qo'llanilishi muloqotning pragmatik xususiyatlarini belgilashi aniqlandi. Tadqiqot natijalari harakatga undash strategiyalarini o'rganish pragmalingvistika va diskurs tahlili yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni rivojlantirish hamda amaliy kommunikatsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. How to Do Things with Words (2nd ed.). – Oxford: Oxford University Press, 1975.
2. Grice H.P. Logic and conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / ed. by P. Cole, J.L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
3. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. Изд. 5. М.: ЛКИ, 2008.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

Husnigul JO'RAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

BIR G'AZAL SHARHI

Annotatsiya. Maqolada temuriy humdor, iste'dodli shoir Sulton Husayn – Husayniyning "O'ti" radifli g'azali tahlilga tortilgan. Sharh va talqinlar asosida Husayniy g'azaliyotining mavzu-mundarijasi, obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga oid xulosalar bildirilgan. Shoir she'riyatining mavzu jihatdan rang-barangligi asoslangan.
Kalit so'zlar: g'azal, obraz, bayt, sharh, oshiq, motiv, poetika.
Annotation. The article analyzes the ghazal with the radif "O'ti" by the Timurid ruler and talented poet Sultan Husayn – Husayni. Based on commentaries and interpretations, conclusions are drawn regarding the thematic content, imagery system, and ideological-aesthetic features of Husayni's ghazals. The thematic diversity of the poet's poetry is substantiated.
Keywords: ghazal, image, couplet, commentary, lover, motif, poetics.
Аннотация. В статье проанализирована газель с радифом «Ўти» («Огонь») тимуридского правителя и талантливого поэта Султана Хусейна – Хусейни. На основе комментариев и интерпретаций сделаны выводы относительно тематико-содержательной структуры, системы образов, а также идейно-художественных особенностей поэзии Хусейни. Обосновано тематическое разнообразие поэтического наследия поэта.
Ключевые слова: газель, образ, бейт, комментарий, влюблённый, мотив, поэтика.

Mumtoz lirikada Gadoiy, Atoiy, Lutfiy singari turkiygo'y shoirlar an'anasini davom ettirib, g'azaliyotida asosan ramali musammani mahzuf va ramali musammani maqsur vaznlaridan foydalangan Husayn Boyqaro turkiygo'y shoir sifatida o'z davrida mashhur bo'lgan. U "Husayniy" taxallusi bilan ijod qilib, "Devoni Sulton Husayn Boyqaro" va "Risolayi Husayn Boyqaro" asarlarini yozgan. She'riyatni nozik tushunadigan, she'rshunos, adabiyotshunos olim sifatida ham shuhrat qozongan. Uning rahbarligida Hirot adabiy muhitida badiiy adabiyot, she'riyat shu qadar rivoj topganki, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Jamshid va Iskandar aning ham bilganlaridin, ham qilg'onlaridin sharmandadur" [1:166–167].

O'zbek adabiyotshunosligida Husayniy she'riyatiga berilgan baholar turli-tuman, ba'zan ziddiyatli bo'lib, g'azaliyotining mazmun-mohiyati, obrazlar silsilasiga doir munozarali fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar Husayniy lirikasi boshdan oyoq ishq-muhabbat mavzusiga bag'ishlanganini ta'kidlasa, ayrimlar unga davr she'riyatidagi tayyor qolipga amal qilgan shoir sifatida baho beradi. Uchinchi toifa "Devoni Sulton Husayn Boyqaro"dagi g'azallarning asosan bir vaznda bitilganiga ishora qilib, Husayn Boyqaroning badiiy ijodga "dilxushi" sifatida qaraganini qayd etadi [4: 23]. Bu kabi munozarali qarashlar shoir she'riyatining janr xususiyatlari va mavzu-mundarijasini belgilashni, g'azal janri va uning Husayniy devonidagi asos janr ekanining sababini ko'rsatishni, Husayniy she'riyatining yetakchi motiv va obrazlar tizimini tekshirishni talab etadi. Quyida "Devoni Sulton Husayn Boyqaro"dan o'rin olgan "Bas emas erdi menga ham o'z o'tum, ham yor o'ti" deb boshlanuvchi g'azal tahlilga tortildi.

Bas emas erdi manga ham o'z o'tum, ham yor o'ti,
Kim, anga afzun dag'i bo'lmish yana bir zor o'ti.
O'z o'tum ko'nglumga ofat, yor o'ti jong'a balo,
Boisi anduhu dard, ul bedili bemor o'ti.
Bu balo barqi, ul ofat do'zaxi, ko'r turfakim,
Tez etar bu ikkini, bir xotiri afgor o'ti.
Bo'yla, uch o't bir ko'ngulga tushsa kuymay naylagay,
O'ylakim, bulbul o'tiyu gul o'tiyu xor o'ti.
Jonu ko'nglum birla bag'rim kuydi, bu uch o't bila,
Yaxshi boqsam yuz tamug'cha, har birining bor o'ti.
O'z o'tum, yo yor o'tig'a garchi taskin bersa ashk,
Vah, ani naylayki, qilg'ay yuz chaqin izhor o'ti.
Gar Husayniyg'a bir o'tluq yuz g'ami o't solmasa,
Bas nechuk olamni kuydurdi Navoiyvor o'ti? [3:149]

Husayniyning mazkur g'azali 7 baytdan iborat bo'lib, ramali musammani maqsur vaznida yozilgan. G'azalda "yor", "zor", "bemor", "afgor", "xor", "bor", "izhor", "Navoiyvor" so'zlari qofiyani tashkil etadi, "o'ti" so'zi radif bo'lib kelgan.

Buyuk mutaffakir Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasining sakkizinchi majlisida g'azal matlasini quyidagicha sharhlaydi: "Bovujudi o'z ishqi o'ti va yor husni o'ti riqqati qalb va tarahhum jihatidinkim, ishq ahli lozimasidur yana bir mazlumi zor ishqining o'ti bila ham ko'nmak va matladin she'rning oxirig'acha bu ma'nini har baytda izhor qilibdurkim, nazm elidin hech kimga dast bermaydur" [1: 200].

G'azal matlasida "uch o't" – "o'z o'ti", "yor o'ti", "bir zor o'ti" haqida gap bormoqda. Baytda oshiq, ma'shuqa obrazi yaxlit namoyon bo'lgan. Husayniy she'riyatida oshiq obrazi hamisha hayotga, go'zalikka intiladigan shaxs, ma'shuqa esa hayot ramzi, shod-u xuramllik omili sifatida tasvirlanadi. Ikkinchi misrada lirik qahramon "yana bir zor" g'amida iztirob chekadi. Navoiy sharhida ham "yana bir mazlumi zor" haqida xabar berilgan. "Mazlum" – jabrlangan, zulm ko'rgan. "Zor" – kuchsiz, ojiz. "Mazlumi zor" – zulm ostida qolib, hech qanday chora ko'ra olmaydigan, yordamga muhtoj, bechora odam.

Akademik B.Valixo'jayev: "Bas, shunday ekan, uchinchisi kimga tegishli? G'azalda u "bir zor, bedili bemor" tarzida tilga olingan bo'lsa-da, aslida shoir kimni nazarda tutmoqda" [2: 52] – degan o'rinli savolni o'rtaga tashlab, g'azaldagi "yana bir zor", "bedili bemor", "xotiri afgor", "o'tlug' yuz", "Navoiyvor" so'z va iboralariga diqqat qilinsa, bu uchinchi o't, ya'ni g'am Alisher Navoiy bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. H.Qudratullayev 90-yillarda Navoiyning Husayniy she'riyatiga munosabatini tekshirar ekan, iqtibosda maxsus qayd etgan edi: "Husayniy mazkur g'azalida "yana bir zor" yor deb Navoiyni nazarda tutgan bo'lishi, ehtimol. Balkim bu g'azal Navoiyning Husayn Boyqarodan uzoqlashgan, Navoiy maslahati va diydoriga mushtoq bo'lgan paytida yaratilgandir" [5: 45].

Ko'rinadiki, matlada Husayniyning o'z g'ami iztirobi, ma'shuqasining jabr sitamlari kamlik qilganidek, yana bir alamli o't umrbodlik do'sti, maslakdoshi Navoiying sog'inchi qalbini o'rtaydi.

Ikkinchi baytda o'zini "ko'ngil" va "jon"ga bo'lgan shoir o'z o'tining ko'ngliga ofat, yor o'tining joniga balo ekanidan ozorlanadi. Bu ham yetmaganidek, anduh va dard chekishining sababi "bedili bemor" – qalban ham, ruhan ham iztirobda qolgan g'am egasi ekanini bayon qiladi. Bayt mazmunidan anglash mumkinki, bu barcha g'amlar sababchisi Husayniy uchun yashash omili, tiriklik manbai hisoblanadi.

Uchinchi baytda shoir hijron azobini do‘zax alangasidek turfa ekanligidan nola qiladi. U, ya’ni “xotiri afgor” – hijrondan qalbi yaralangan Alisher Navoiyning sog‘inchi ko‘ngilini ham jismini ham kuydirayotganini tan oladi.

To‘rtinchi baytda oshiqning nidosi bulbulga, ma’shuqaning husni gulga, shoir jism-u jonini yoqqan Navoiy “xor”ga qiyoslanadi. Misrada Navoiy dahosi butun bo‘y-basti bilan gavdalanadiki, uning kamtarin, xokisor fe’li, a’moli Husayn Boyqaroning ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Do‘stining sog‘inchi shoirning qalbini tikandek ozorlaydi.

Shundan keyin Husayniy bu uch o‘tning jism-u joni, ko‘ngilini vayron etganidan shikoyat qiladi. Har bir o‘tning shavqi, ozori yuz do‘zax alangasidan kuchli ekaniga ishora qiladi. Navoiy siymosini sog‘ingan, do‘stiga ozor berganidan afsuslangan Husayn Boyqaro o‘z g‘ami va yor g‘amiga ko‘z yoshidan taskin topsa ham Navoiy diydorini ko‘rish ishtiyoqi yuz chaqmoqdek kuchli alangaga aylanganini bayon etadi.

G‘azalning maqtasi Husayniy fikrlarining umumlashmasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqtada Husayn Boyqaro injiqlik keltirib chiqaradigan bu tuyg‘uning sababini ro‘y-rost tasvirlaydi. Husayniyning butun olamini kuydirgan Navoiyvor o‘t – do‘st sog‘inchi edi. Husayniyning majruh qalbi butun umr u bilan yelkadosh bo‘lgan Navoiy dahosini ko‘rsagina taskin topadi.

G‘azalda Husayniy yuksak badiiylik, so‘z ranginligi bilan birga shu mezonlardan hech qolishmaydigan orginallikka ham erishgan. Baytlararo bog‘lanish, syujetlilik, misralardagi tasvirning hayotiyligi, mazmun va shaklning muvofiqligi, ravon va samimiy dil izhorlari shoh va shoir Husayn Boyqaro dunyoqarashini anglash imkonini beradi.

Husayniy g‘azalda “O‘ti” so‘zini o‘n to‘qqiz marta ishlatib, g‘azal kompozitsiyasining yaxlitligini ta’minlagan. Natijada iltizom san’atining yorqin namunasi yaratilgan. Ayni paytda “o‘ti” so‘zi birinchi, ikkinchi, oltinchi baytlarda tajnis san’atini hosil qilgan.

Xulosa o‘rnida, Husayniy she’riyatining mavzu jihatidan rang-barang ekanligi, shoir g‘azaliyotida Alisher Navoiy obrazi yetakchi o‘rinda turishini ta’kidlash zarur. “Devoni Sulton Husayn Boyqaro”dagi “kelgusi” radifli g‘azal yuqorida tahlilga tortilgan g‘azalning mantiqiy davomi bo‘lib, Navoiy obrazini Husayniyvor manzarasini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik13-tom: Majolis un-nafois. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. II jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
3. Devoni Sulton Husayn Boyqaro. Yig‘ma-qiyosiy matn / Nashrga tayyorlovchi: H.Jo‘rayeva. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016.
4. Jalilov B., Eshonova Z. Sulton Husayn Bayqaro. – Andijon: Andijon, 1997.
5. Qudratullayev H. Navoiyning adabiy-estetik olami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

Fazilat IBRAGIMOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

MATNDA MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida murojaat birliklarining sintaktik o'rni va lingvopoetik xususiyatlari badiiy matnlar misolida atroflicha tadqiq etilgan. Murojaat birliklarining gapdagi mavqei (boshida, o'rtasida va oxirida kelishi), shuningdek, ularning undash funksiyasidan tashqari so'zlovchining ruhiy holati, emotsionalligi va modalligini ifodalashdagi roli ochib berilgan. Murojaat birliklari hamda vokativ gaplarning o'ziga xos farqli jihatlari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida murojaat birliklarining quvonch, hayrat, g'azab, piching, istehzo, nafrat, mehr-oqibat va tashvish kabi o'nlab ma'no qirralari hamda emotsional-ekspressiv bo'yoqlari badiiy adabiyotlar va internet materiallari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: murojaat birliklari, vokativ gap, lingvopoetika, intonatsiya, emotsionallik, ma'no qirralari, matn tahlili, undalma.

Annotation. This article thoroughly investigates the syntactic position and linguopoetic features of address units in the Uzbek language using examples from literary texts. The positional distribution of address units (at the beginning, middle, and end of a sentence) is examined, and their role in expressing the speaker's psychological state, emotionality, and modality – beyond merely serving a vocative function – is revealed. Furthermore, the distinct differences between address units and vocative sentences are scientifically substantiated. Throughout the research, dozens of semantic nuances and emotional-expressive colorings of address units, such as joy, surprise, anger, sarcasm, irony, hatred, affection, and anxiety, are analyzed based on literary works and internet materials.

Keywords: address units, vocative sentence, linguopoetics, intonation, emotionality, semantic nuances, text analysis, vocative.

Аннотация. В статье на примерах из художественных текстов всесторонне исследуются синтаксическая позиция и лингвопоэтические особенности единиц обращения в узбекском языке. Рассматривается позиционное расположение единиц обращения (в начале, середине и конце предложения), а также раскрывается их роль в выражении психического состояния говорящего, эмоций и модальности помимо функции побуждения. Кроме того, научно обоснованы специфические различия между единицами обращения и вокативными предложениями. В ходе исследования на основе художественной литературы и интернет-материалов проанализированы десятки смысловых оттенков и эмоционально-экспрессивных окрасок единиц обращения, таких как радость, удивление, гнев, насмешка, ирония, ненависть, привязанность и тревога.

Ключевые слова: единицы обращения, вокативное предложение, лингвопоэтика, интонация, эмоциональность, смысловые оттенки, анализ текста, обращение.

Murojaat birliklari gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin. Gap boshida kelgan murojaat birliklari boshqa o'rinda keladigan murojaat birliklariga nisbatan kuchliroq ajraladi, unda har vaqt ajratuvchi pauzasiga ega bo'ladi; undash, tinglovchining diqqatini tortish vazifasini bajaradigan murojaat birliklari odatda gap boshida keladi va tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Atoqli otdan bo'lgan murojaat birliklarining ko'pincha gap boshida kelishi ham shu xususiyat bilan bog'lanadi.

Gap boshida kelgan murojaat birliklari chaqirish, undash ma'nosining kuchli ifodalash uchun murojaat birliklarining oldida *hoy-hov, hey, ey* kabi undov so'zlar ham keladi yoki ularning oxiriga *-ov (hov, hoy), ey* kabi elementlar qo'shilib keladi. Masalan: *Hoy qizlar, mana tayyor bo'ldi. Hayoti beg'ubor, ey moviy diyor, juda og'ir menga sendan ajralmoq. Budur so'z, ey sabo, zinhor-zinhor.*

Gapning o'rtasida va oxirida keladigan murojaat birliklari esa gap boshida keladigan turga nisbatan kuchsiz ajraladi, ba'zan bu ajralish sezilmas darajada bo'ladi: pauza juda kuchsiz bo'ladi. Gap oxirida kelgan murojaat birliklari so'zlovchi uchun nutq qaratilgan shaxs emas, tinglovchiga tegishli bo'lgan fikr muhim bo'ladi. Masalan, *Suhbatingizdan nihoyatda mamnunman, ustoz* (S.Abdullayev).

O'rtada kelgan murojaat birligi, shu bilan birga, ko'pincha kirish so'zga o'xshab, tezroq sur'at bilan, pastroq ohangda aytiladi. Gap o'rtasida kelganda tinglovchiga tegishli bo'lgan fikr aytilib, unga murojaat qilinadi. Keyin fikr yana davom ettiriladi. Masalan, *Keyin aytaman, Saidaxon.* (A.Qahhor) *Axir, ayb bo'ladi, bolam.* (A.Qahhor) *Xayr, o'g'lim, yaxshi qol* (A.Qahhor)

Ba'zan murojaat birliklarining o'zi aytilmay, tinglovchining diqqatini tortish uchun undov so'zning o'zi qo'llanadi. Masalan, *Hoy (dadasi), qayoqqa ketyapsiz?*

Ko'rinadiki, gap boshida kelgan murojaat birliklari undash funksiyasini bajarish bilan xarakterlansa, gap o'rtasida va gap oxirida keladigan murojaat birliklari ko'pincha undash vazifasi bilan emas, balki emotsionallikni, modallikni, so'zlovchining suhbatdoshga munosabatini bildirish uchun xizmat qiladi.

Emotsional tusga ega bo'lgan so'zlar bilan ifodalangan murojaat birliklarining ko'pincha gap o'rtasida, gap oxirida kelishi shu xususiyat bilan ham bog'lanadi. Qiyoslang: *O'rinboy, nima qilib yuribsiz?* (Oydin) *Keldingmi, o'g'lim? Xayr, o'g'lim, yaxshi qol. Kampir xiyla uzoqlashganda, Nurmatjon qichqirdi: – Xola, qachon xabar olay?* (A.Qahhor).

Murojaat birliklari vazifasida murojaat ifodalash uchun xoslangan vokativ gaplar ham mavjud. Ular "undalmaning mustaqil gap sifatida qo'llanishi" [3] degan qarashlarga biz ikki sababdan qo'shila olmaymiz. Birinchidan, kesimsiz gap mavjud bo'lolmaydi. Kesim esa predikativ markerlangan atov birlikdir [1]. Bu xil gaplarni mazmunan va shaklan undalmaga o'xshatish uning mavqeyida yuzaga kelgan o'zgarishlarni payqashga xalaqit beradi. Ikkinchidan, undalma tinglovchiga murojaat qilib, uni fikrga yo'llaydi. Vokativ gaplar esa butunicha ham murojaat, ham emotsiya, ham fikrdir. Shuningdek, undalmaning gapdagi o'rniga, yo'nalishiga hamda konsituatsiyaga qarab murojaat mavqeyi kuchayib, susayib turishi mumkin [2].

Ko'rinadiki, vokativ gaplar – faqat murojaat ma'nosini bildiradigan, kesimga ega bo'lmagan gaplardir. Bunday gaplar tinglovchining e'tiborini jalb qilish, chaqirish yoki his-hayajonni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: *Ona! Aziz do'stlar! Ey yigit! Ustoz! Bolalar!*

Demak, murojaat birliklari qatoriga vokativ gaplarni kiritishimiz mumkin. Ammo murojaat birliklari bilan vokativ gaplar bir-birlaridan farqlanadi.

Murojaat birliklari va vokativ gaplarning farqi

Murojaat birliklari	Vokativ gaplar
Gap tarkibida keladi.	Mustaqil gap bo'ladi.
Gap bo'lagi hisoblanmaydi.	To'liq mustaqil gap sifatida qo'llanadi.

Tinglovchiga murojaatni bildiradi.	Faqat murojaat (chaqirish, e'tiborni jalb qilish) ma'nosini bildiradi.
Masalan: Dilshod, kitobni olib kel.	Masalan: Dilshod!

Jadvaldan ko'rinadiki, murojaat birliklari gap ichida qo'llanib, kimga yoki nimaga murojaat qilinayotgannini bildiradi, vokativ gaplar esa faqat murojaatdan iborat bo'lgan, mustaqil qo'llanadigan gaplardir. Ular ko'pincha undov belgisi bilan tugaydi va kuchli his-hayajon yoki chaqiriqni ifodalaydi.

Murojaat birliklari ifodalagan turil xil ma'no nozikliklariga qarab, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Murojaat birliklari quvonch, erkalash intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi va suyush, mehribonlik, mehru muhabbat kabi ma'nolar ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *O-y-i-j-o-n!! Keldingizmi?* (O.Yoqubov).

– Uyg'ondingmi, toychoq? – dedi dadasi ostononada turib. – Turoqol, ayangni kasalxonaga tashlab kelaman (T.Malik)

Serka (quvonib) Oysuluv! Bebaho yorim! Aqllim! ("Sparq yulduzi"jurnali)

Bilasizmi, qizaloq ... Men ikki kunda sizga juda o'rganib qolibman ... Sizni kuzatib qo'yganimizdan keyin qiynalib qolsam kerak ... – Bars o'zining bu so'zidan Afro'zaning ko'zlari yana katta-katta ochilib ketganini ko'rdi, uni cho'chitib yuborganini o'ylab darhol vaziyatdan chiqishga harakat qildi, – men mana bunday somsalaringizni nazarda tutib aytayotgandim.

2. Murojaat birliklarida so'zlovchining tinglovchiga murojaatida uning hayronligini aks ettiradi. Tinglovchining kutilmagan vaqtda paydo bo'lishida yoki biror ish bilan so'zlovchi kutmagan holda yuz berganda hayronlik talaffuz etiladi. Masalan: *Haydar (hayron). Saltanat?!*

3. Murojaat birliklari g'azab, jahl-zarda ottenkasini ifodalaydi. Masalan, *Madamin (jinnilanib). A-b-l-a-h!!! A?* (K.Yashin).

Gapdagi g'azab ottenkasi o'ziga xos intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Masalan: *Boyvachcha! – g'azab bilan qichqiradi Yo'lchi* (Oybek).

4. Murojaad birliklari piching, istehzo, kinoya, kesatish, ironiya ottenkalarini bildirib keladi. Masalan: *A-d-o-l-a-t! Degan bo'g'iq ovozi eshitildi qishloqdan – A d o l a t. Ey nodon! Qozon ham oladimi?! E uka! Bu badbaxt qilgan gunohini o'zi bilgani uchun indamay turibdi* (Afandi latifalari).

Zuhra (Zargarov ketidan): – Shlyapangizni olib keting! Hoy shlyapa! (A.Qahhor). Bu misolda *hoy shlyapa* murojaati bir necha ma'noni beradi. Birinchidan, chaqirish, ikkinchidan, shlyapa qoldi, uchinchidan, Zargarovni masxaralab "shlyapa" deyapti.

Bu ottenka piching intonatsiyasi va ko'chma ma'nodagi otdan bilinadi. Masalan: *Mo'tabar (achchiq piching bilan). Samsoqboy?!*

5. Murojaat birliklarida so'zlovchining tinglovchiga ta'nasi o'z ifodasini topadi. Masalan: *Jamila (ta'naomuz) O'g'liim! ("Qardoshlar to'plami").*

6. Murojaat birliklari hovliqish, shoshilish ottenkasini bildiradi. Masalan: Ashurboy (hovliqib). Mulla Asqar!.. Ho Mulla asqar! (S.Abdulla).

7. Murojaatda so'zlovchining hayajoni ifodalanishi mumkin. masalan: Xayrixola (hayajonli). Bolam! Jonim bolam! Onang aylansin bolam! (K.Yashin).

8. Murojaatda dahshat ottenkasini ifodalashi mumkin va u dahshat intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. *Masalan: Qodir (dahshatda). Komil, nima deyapsan? Komil!..* (Uyg'un).

9. Vokativ gaplar taqiq ottenkasini beradi. Masalan: Orif (gapdan to'xtatishga tirishib). Sanjarov!.. (N.Sultonov)

10. Nafrat, jirkanch, zaharxanda kulgi ottenkasini ifodalaydi. Masalan: *Olimjon (nafrat bilan). A-m-i-i-r-x-o-n!! Buncha tannoz bo'lmasangiz!* (jonli so'zlashuv). *E la'nati, Dilmurodni nima qilding? – Jim bo'l, ilonvachcha! – u shunday deb itarib yubordi* (T.Malik).

11. Qo'rqinch, vahima ma'nosini beradi. Masalan: *Sobir quloq solib turdi, keyin qorong'u derazaga qaragan edi, yuragini vahima bosib, joyidan sakrab turdi. O-o-o-y-i-i! – deb baqirdi.* Guli (qattiq hayajonda). *Yo rabbiy! Alisher qaerda!* (Uyg'un). *Ko'zlari tinib, a'zoyi badani bo'shashdi. Shu ahvolda ekanida akasining ihraganini eshitdi. Keyin akasi joni boricha baqirdi: – Zohid, qoch!!!*

12. Ishonchsizlik, shubha ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: *Bo'riboy (shubhali tusda). Ali-b-o-y! Qayerdasan – dedi.*

13. Suyunish ma'nosini ham berishi mumkin. *Dadajon! Da-dajonim! Da-da-jo-n!! Sog'-salomatmisiz?* (Sh.G'ulomov).

14. Zavqu shavq, shodlik, xursandlik, zo'r quvonch ottenkasini bildiradi. Masalan: *Qodir ikki qo'lini og'ziga karnay qilib yana chiqirdi: – Sa-no-bar!!!*

15. Iltimos, e'tibor shu bilam mehr ma'nolari ifodalanadi. Bu holatda unlilar cho'zilib kelishi kuzatiladi.

– Afro'zaaa , – qiz o'z nomini yigitning og'zidan eshitib allanechuk bo'lib ketdi . Ismi o'ziga juda chiroyli eshitildi. U boshini ko'tarib "haa, labbay" degandek yigitning ko'zlariga tikildi.

16. Vokativ gaplar chaqirish ottenkasini beradi. Bunday gaplarning asosiy intonatsiyasi undash, chaqirish xarakteriga egadir. Ular sof chaqirish, qichqirish, baqirish intonatsiyalari bilan aytilishi mumkin. Masalan: *Roqiya. Muhabbat-u, ho Muhabbat...* (N.Safarov).

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, murojaat birliklari gapda turli ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, murojaat birliklari ko'pincha bir emas balki, bir nechta ma'no qirralarini ifodalaydi. Bu ma'nolar matndan, vaziyatdan, so'zlovchining ruhiy holatidan ochiqlanadi.

Ifodalangan ma'no nozikliklari salbiy va ijobiy ma'noda bo'ladi. Quyidagi misolni tahlil qilaylik:

"Ha bo'ktu! – deb boshlangandi xabar, – mendan qolgan osh shirin ekanmi? Zubayr akajonimni juda qiynab qo'ymang, men ularni balki qaytarib olarman. Bu haqda o'ylab ko'ryapman. So'zlarimni o'qiyapsan, nega javob bermaysan? Yo tilingni yutib olganmisan, bo'g'irsoq? Auu? Javob ber?" (@xazon_rezgi).

Ushbu misolda xabarning *ha bo'ktu!* degan murojaat bilan boshlanishi xabarning salbiy ma'noda ekanligini, so'zlovchining tinglovchiga xurmatsizligi bilinadi. Xabarning davomida *bo'g'irsoq* degan murojaati esa haqoratni ifodalayapti. Xabarning boshida sizlab boshlagan bo'lsa, keyin senga o'tgani so'zlovchining javob olmaganiga toqatsizlanib, g'azablanganini bildirayapti. Yana bir misolni ko'raylik:

Zulfiya biroz o'ylanib qoldi va ko'p o'tmay yoza boshladi:

– Bolalar vaqti tugadi, uxlang yaxshi qiz!

– Sen men bilan o'ynashyapsanmi, bo'taloq? Kim bola? Seni o'zing hali ona suti og'zidan ketmagan qizsan-ku, xomsemiz?

Zulfiya suhbatdoshini jazavaga tushganini ko'z oldiga keltirib kulimsiradi:

– Uzr xola! Adashibman. Mendan yoshingiz ancha katta ekanligini bilmabman. Yoshi kattalar qush uyqu bo'lishiyam yodimdan ko'tarilibdi. (@xazon_rezgi).

Ushbu misolda *bo'taloq, xomsemiz* kabi murojaat birliklari ham salbiy ma'noda ishlatilib, birinchisi saharxandalik bilan aytilgan bo'lsa, ikkinchisi nafrat bilan aytilganligi ko'rinadi. Bu orqali so'zlovchining ruhiy holati, kayfiyati

ochiqlanayapti. *Uzr xola!* murojaati esa piching, kinoya ma'no qirralarini ifodalayapti.

Quyidagi misol esa yuqoridagi misolning teskarisi bo'lib, ijobiy ma'no qirralarini ifodalaydi:

– Oyijon, keksayganda parishonxotir bo'lmaslik va tetik bo'lish uchun xandon pista, yong'oq, bodom singari quruq mevalardan kuniga yarim kaftgina iste'mol qilib turish kerak ekan, – derdi Zulfiya mo'jazgina vazachada aytgan mevalardan olib kelib, – oling biroz ermak qilib televizor ko'rib turing, men kechga ozroq salat tayyorlab kelaman.

– O'zingiz ham o'tiring, bolam. Bitta o'zim o'tirib ovqat yeyaveramanmi? Menga sherik bo'ling. Hali vahlik-ku?

– Kechga dadajonga guruchli kotlet qilib beraman, – deb va'da bergandim. Quruq o'zi oshqozonga botmasin deb yoniga ozroq tok va karamdan do'lma ham qilyapman.

– Bugun rosa duo oladigan kuningiz ekan, – jilmaydi Shirin opa, – dadajoningiz shunaqa taomlarni juda yaxshi ko'radilar. Men ham qarashib yuboraymi?

– Yo'g'-yey oyijon, barini tugib bo'lganman. Olovini pasaytirib miltillatib dimlab qo'ysam bo'ldi.

Bu misolda ishlatilgan murojaat birliklari ijobiy ma'no qirralarini ifodalayapti. *Oyijon* degan murojjat birligi so'zlovchining hurmat, bir oz erkalash ma'no qirralarini bildirayapti. Tinglovchining *bolam* degan murojaati orqali suyush, mehribonlik, mehr kabi tuyg'ularni ifodalamoqda. *Yo'g'-yey oyijon* murojaati mayin e'tiroz, ishonch, mehri muhabbat kabi ma'no qirralari ochiqlanadi.

Yana bir misolni tahlil qilaylik:

To'yga borishdan oldin oilasiga bir voqeani gapirib berayotgandi. Ustiga qahva to'kilib ketdi. Hamma:

– Endi nima qilasan? Kiyimlaringga qara? – dedi.

Faqat onasi...

– Bolam, hech narsa qilmadimi? Kuydirmadimi? – dedilar.

(Jannatim-onam. Internet material)

Ushbu misolda ham *bolam* murojaati mavjud, lekin bu murojaatda faqat onalarda bo'ladigan hayajon, farzandga bo'lgan mehribonlik, tashvish, qo'rquv kabi ma'nolar uyg'unlahsadi. Oila a'zolari to'yga kiyilgan kiyimning qavha to'kilishi tashvishlantirgan bo'lsa, onani qizining sog'ligi tashvishlantiradi.

Quyidagi misolda ham murojaat birliklarida ma'nolar uyg'unligini ko'rishimiz mumkin.

Zubayr antiqa savatchada ikkita biri biridan chiroyli guldasta va yana ikki quti shokalad ko'tarib kirganda dastlab Shirin opaga duch keldi:

– Assalomu alaykum, onalarning malikasi! Mana bu guldasta va shokaladlar sizga! Huddi o'zingizga o'xshagan go'zal va shirin.

– Voy rahmat, bolam, – hursand bo'lib ketdi Shirin opa, – didingga gap yo'q! Ko'rgan ko'zlarni quvnatadi-ya, bular! – Shirin opa shunday deb oshxonaga qarab ovoz berdi, – Zulfiyaxon, bu yoqqa qarang, qizim!?

– Uni nimaga chaqiryapsiz, oyijon? – o'zini go'llikka soldi Zubayr, – qo'ying, ovqatini tezlatsin, qornim ochib ketdi.

– Go'yoki men yosh bo'lmaganman, – qoshini uchirib kulimsiradi Shirin opa, – sen o'qiyotgan kitobni men yozganman, bolam. Bir vaqtlar dadang menga sovg'a olib kelmoqchi bo'lsalar, eng avval buvingga "podxod" qilardilar.

– Labbay, oyijon, – shu payt ostonada Zulfiya ko'rindi, u eriga ko'zi tushishi bilan darhol salom berdi, – assalomu alaykum, yaxshi keldingizmi?

– Eringiz juda yaxshi keldi, qizim. Qarang ikkimizga nima olib keldi. Bunisi menga, bunisi sizga. Uyingizga olib kirib tryumoingizni ustiga qo'yib chiqing. Bu shokaladni ham oling.

– Shokalad qolaversin, oyijon, kechki ovqatdan keyin choy bilan yeymiz.

– Mayli, bugun menga atalgan shokaladni yermiz. Sizga atalgani esa sovg'a bo'lib mehmonxonangizda tursin. Qizim, er ayoliga sovg'a olib kelsa bu ham ibodatga kiradi. Undan keyin ertaga-indin Zubayrni kuzatishga kelganlar oldida buyam bir yuz bo'ladi, bolam.

Misolda *onalarning malikasi* murojaati o'g'ilning onaga bo'lgan mehri bilan birga quvonch, suyunish kabi ma'nolar ifodalanmoqda. Matnda ikkita *bolam* murojaati mavjud, birinchisida hursanchilik ifodalagan bo'lsa, ikkinchisida ta'kid ma'nosi ochiqlanayapti. *Zulfiyaxon* murojaatida chaqirish ma'nosini bildiradi. *Oyijon* murojaati Zubayr nutqida so'roq intonatsiyasi bilan talaffuz qilinsa ham, o'zini go'llikka solib aytilganligi bilinadi. Keyingi *oyijon* murojaati Zulfiyaxon nutqida chaqiriqqa javob tarzida aytilgan. *Qizim* murojaati esa tushuntirish, ta'kid ma'nosida ishlatilgan.

Xulosa qilib aytganda, maxsus intonatsiya bilan talaffuz etiluvchi va so'zlovchining *chaqirish, quvonch, erkalash, xitob, g'azab, piching, ta'na, yolvorish, iztirob* va shu kabi har xil kechinmalarini ifodalovchi so'z yoki so'zlar guruhidan tashkil topgan murojaat birliklardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. – Toshkent, 1985.
2. Nurmonov A. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992.
3. Sayfullayev A.R. Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalmalar. – Toshkent: Fan, 1968. 4. G'ulomov A.G'., Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent, 1965.

Nafosat ZARIPBOYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

IJTIMOIY MEDIADA GENDER STEREOTIPLARNING KOMMUNIKATIV TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ijtimoiy media postlarida gender stereotiplarning shakllanishi, mazmuniy o'zgarishi va funksional jihatdan yangicha namoyon bo'lish xususiyatlari sotsiolingvistik hamda lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy media diskursida uchraydigan gender stereotiplarning asosiy funksiyalari – identifikatsion, baholovchi, pragmatik, ekspressiv va manipulyativ xususiyatlari yoritib beriladi.
Kalit so'zlar: gender stereotip, ijtimoiy media diskursi, raqamli kommunikatsiya, pragmatika, paralingvistika, gender lingvistika, kommunikativ strategiya, multimodal diskurs.
Annotation. This article analyzes the formation, content change and functional new manifestations of gender stereotypes in modern social media posts based on sociolinguistic and linguopragmatic approaches. In the course of the research, the main functions of gender stereotypes in social media discourse are highlighted – identification, evaluative, pragmatic, expressive and manipulative.
Keywords: gender stereotype, social media discourse, digital communication, pragmatics, paralinguistics, gender linguistics, communicative strategy.
Аннотация. В статье анализируются формирование, изменение содержания и функциональное появление гендерных стереотипов в современных сообщениях в социальных сетях на основе социолингвистического и лингвипрагматического подходов. В ходе исследования выделены основные функции гендерных стереотипов в дискурсе социальных сетей – идентификационная, оценочная, прагматическая, экспрессивная и манипулятивная.
Ключевые слова: гендерный стереотип, социальные медиа, цифровой дискурс, прагматика, паралингвистика, коммуникация.

XXI asrda kommunikatsiya jarayonlarining raqamlashtirilishi insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi natijasida tilning qo'llanish shakllari, kommunikativ strategiyalar va ijtimoiy identifikatsiya mexanizmlari sezilarli darajada o'zgardi. Bugungi kunda Instagram, Telegram, Facebook, TikTok kabi platformalar oddiy axborot almashish vositasi emas, balki jamiyatdagi qadriyatlar, stereotiplar va ijtimoiy qarashlar shakllanadigan kommunikativ makon sifatida namoyon bo'lmoqda. Gender stereotiplar ana shu kommunikativ makonda eng faol namoyon bo'luvchi ijtimoiy-madaniy hodisalardan biridir. Chunki "gender" tushunchasi faqat biologik jins bilan bog'liq emas, balki jamiyat tomonidan shakllantiriladigan rollar, xatti-harakatlar va kommunikativ modellar tizimini ham anglatadi.

Amerikalik tilshunos Robin Lakoff gender va til munosabatlarini o'rganar ekan, til jamiyatdagi gender munosabatlarini aks ettirish bilan birga, ularni mustahkamlovchi vosita ham bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikr zamonaviy ijtimoiy media uchun ham muhimdir. Chunki bugungi raqamli muhitda gender stereotiplar nafaqat so'zlar orqali, balki tasvirlar, emoji, hashtag va boshqa multimodal vositalar orqali ham shakllanmoqda. Bizning fikrimizcha, raqamli kommunikatsiya sharoitida gender stereotiplarni faqat "erkak" yoki "ayol" obrazlari haqidagi tayyor qarashlar sifatida emas, balki doimiy ravishda yangilanib turuvchi kommunikativ konstruksiya sifatida baholash zarur.

Gender va til munosabatlari masalasi jahon tilshunosligida Robin Lakoff, Deborah Tannen, Judith Butler, Deborah Cameron hamda Raewyn Connell kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ular gender stereotiplarining til, kommunikatsiya va ijtimoiy identitet bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. So'nggi yillarda ijtimoiy media diskursi va multimodal kommunikatsiya sharoitida gender stereotiplarining transformatsiyasi ham alohida tadqiq etilmoqda. O'zbek tilshunosligida esa gender lingvistikasi, media diskursi va kommunikativ strategiyalar bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ijtimoiy media platformalarida gender stereotiplarining kommunikativ transformatsiyasini qiyosiy va lingvopragmatik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqotda sotsiolingvistik, lingvopragmatik va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Ijtimoiy media platformalarida (Instagram, Telegram, Facebook va TikTok) uchraydigan genderga oid media matnlari kuzatilib, ularning leksik, semantik hamda pragmatik xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil asosida o'zbek, rus va ingliz tillaridagi gender stereotiplarining kommunikativ ifodalanishi hamda multimodal vositalar (emoji, hashtag, vizual belgilar)ning gender mazmunini shakllantirishdagi o'rni aniqlandi.

Gender stereotip tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik hamda tilshunoslik fanlarida keng o'rganila boshladi. Mazkur tushuncha dastlab insonlarning ijtimoiy guruhlar haqidagi umumlashgan tasavvurlarini ifodalash uchun qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik gender munosabatlarini anglashda muhim ilmiy kategoriyalardan biriga aylandi.

Gender stereotip – muayyan jamiyatda erkaklar va ayollarga xos deb qabul qilinadigan xususiyatlar, xulq-atvor me'yorlari, kasbiy faoliyat turlari, ijtimoiy vazifalar va kommunikativ xususiyatlar haqidagi umumlashgan qarashlar tizimidir. Bunday stereotiplar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari, an'analari va ijtimoiy tajribasi asosida shakllanadi. Ular insonlarning o'zini va boshqalarni baholash jarayoniga, kundalik muloqot shakllariga hamda til birliklarining qo'llanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Gender stereotiplar til tizimida ham o'z aksini topadi. Chunki til nafaqat fikrni ifodalash vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni saqlovchi va uzatuvchi muhim mexanizmdir.

O'zbek tilshunosligida ham gender lingvistikasi yo'nalishida so'nggi yillarda muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilidagi genderga oid leksik birliklar, frazeologizmlar, maqol va matallarda erkak va ayol obrazlarining ifodalanishi, nutq odobi, murojaat shakllari hamda zamonaviy media diskursida gender munosabatlarining aks etishi bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi ishlar o'zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini, jamiyatdagi gender tasavvurlarining tarixiy va zamonaviy ko'rinishlarini ochib berishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida gender tilshunosligining ahamiyati yanada ortmoqda. Chunki

ijtimoiy media platformalarida genderga oid qarashlar an'anaviy shakllardan farqli ravishda tezkor, ommaviy va interaktiv tarzda tarqalmoqda. Bunda gender stereotiplari nafaqat matn orqali, balki tasvir, emoji, hashtag, video va boshqa multimodal vositalar orqali ham ifodalanmoqda. Shu jihatdan, zamonaviy gender tilshunosligi til, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

"Modern father" konseptining gender modeli sifatidagi o'zgarishi holatlari ham mavjud.Ingliz media diskursida erkaklik obrazining transformatsiyasi **"modern father"** (zamonaviy ota) birligi orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi.

An'anaviy gender modeli: **erkak → oilaning moddiy ta'minotchisi → tashqi ijtimoiy faoliyat.**

Zamonaviy gender modeli: e**rkak → ota → tarbiyachi → hissiy hamkor.**

Mazkur o'zgarish erkaklik haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning kengayganini ko'rsatadi. Endilikda erkak obrazi faqat iqtisodiy ta'minot yoki oiladagi hukmronlik bilan emas, balki farzand tarbiyasidagi ishtiroki, hissiy yaqinligi va oilaviy mas'uliyati bilan ham belgilanmoqda. Erkaklik konsepsiyasining ijtimoiy jihatdan o'zgaruvchanligini tadqiq qilgan Raewyn Connell erkaklikni yagona va o'zgarmas kategoriya sifatida emas, balki turli tarixiy va ijtimoiy sharoitlarda shakllanadigan ko'p qirrali ijtimoiy konstruksiya sifatida baholaydi [12].

Connell fikricha, jamiyatda mavjud bo'lgan erkaklik modellari vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va turli ijtimoiy rollar bilan qayta belgilanadi. Shu sababli zamonaviy "modern father" konsepti an'anaviy erkaklik modelining inkori emas, balki uning yangi ijtimoiy ehtiyojlar asosida kengaygan shaklidir. Bizning fikrimizcha, ingliz tilidagi zamonaviy media diskursida yuz berayotgan gender transformatsiyalarining asosiy xususiyati shundaki, yangi gender birliklari an'anaviy stereotiplarni to'liq inkor etmaydi, balki ularni yangi ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda qayta talqin qiladi.

Tadqiqot natijalari media kommunikatsiyada gender stereotiplari an'anaviy mazmunini saqlagan holda, raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy media ta'sirida yangi shakl hamda funksiyalar kasb etayotganini ko'rsatdi. Genderga oid til birliklari va kommunikativ strategiyalar nafaqat ijtimoiy qarashlarni aks ettiradi, balki jamoatchilik fikri, ijtimoiy identifikatsiya va gender tasavvurlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois media diskursida gender stereotiplarining yangi shakllari va funksional o'zgarishlarini tadqiq etish zamonaviy sotsiolingvistika, media lingvistikasi va diskurs tahlili uchun dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Lakoff R. Language and Woman's Place. – New York: Harper & Row, 1975.
2. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990.
3. Lakoff R. Language and Woman's Place. – New York: Harper & Row, 1975.
4. Tannen D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990.
5 Goffman E. Gender Advertisements. – New York: Harper & Row, 1979.

Maftuna YUNUSOVA,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

DISKURSIV TAHLILDA TIBBIY MULOQOTNING VOQELANISH ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada tibbiy muloqot institutsional diskursning alohida turi sifatida nazariy va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tibbiy diskursning ishtirokchilari, maqsadi, qadriyatlari, janrlari, kommunikativ strategiyalari va voqelanish kanallari tizimlashtiriladi. Shifokor – bemor, mutaxassis – mutaxassis hamda telekommunikatsiya vositasidagi muloqotlarning farqli belgilari ochib beriladi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, diskursiv-pragmatik va tasniflash usullaridan foydalanilgan. Tibbiy muloqotning besh komponentli modeli: institutsional maqom, kommunikativ niyat, janr, til vositalari va ekstralingvistik sharoit birligi taklif etilgan. Shuningdek, tibbiy nutq samaradorligini ta'minlovchi aniqlik, tushunarlilik, empatiya, deontologik me'yor, interaktivlik va lingvoterapevtik yo'nalish mezonlari asoslanadi. O'zbek tibbiy diskursini korpus, pragmatika va sotsiolingvistika doirasida chuqur tadqiq etish zarurati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: diskurs, tibbiy diskurs, shifokor–bemor muloqoti, institutsional kommunikatsiya, pragmatik strategiya, tibbiy janr, lingvoterapiya, teletibbiyot.

Annotation. The article examines medical communication as a specific type of institutional discourse from theoretical and pragmatic perspectives. It systematizes the participants, goals, values, genres, communicative strategies, and channels through which medical discourse is realized. Distinctive features of doctor – patient, specialist –specialist, and telecommunication-mediated interaction are identified. The study applies descriptive, comparative, discourse-pragmatic, and classification methods. As a result, a five-component model of medical communication is proposed, integrating institutional status, communicative intention, genre, linguistic means, and extralinguistic conditions. The paper also substantiates the criteria of effective medical speech: accuracy, accessibility, empathy, deontological appropriateness, interactivity, and a linguotherapeutic orientation. The need for further corpus-based, pragmatic, and sociolinguistic research on Uzbek medical discourse is emphasized.

Keywords: discourse, medical discourse, doctor-patient communication, institutional communication, pragmatic strategy, medical genre, linguotherapy, telemedicine.

Аннотация. В статье медицинская коммуникация рассматривается как особый вид институционального дискурса в теоретическом и прагматическом аспектах. Систематизируются участники, цели, ценности, жанры, коммуникативные стратегии и каналы реализации медицинского дискурса. Раскрываются отличительные признаки общения «врач-пациент», «специалист – специалист» и коммуникации посредством телекоммуникационных технологий. В исследовании применены описательный, сопоставительный, дискурсивно-прагматический и классификационный методы. В результате предложена пятикомпонентная модель медицинской коммуникации, объединяющая институциональный статус, коммуникативное намерение, жанр, языковые средства и экстралингвистические условия. Обоснованы критерии эффективности медицинской речи: точность, доступность, эмпатия, деонтологическая нормативность, интерактивность и лингвотерапевтическая направленность.

Ключевые слова: дискурс, медицинский дискурс, коммуникация врача и пациента, институциональная коммуникация, прагматическая стратегия, медицинский жанр, лингвотерапия, телемедицина.

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs til birliklarining oddiy ketma-ketligi emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda maqsadli ravishda yuzaga keladigan kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinadi. Z.Harrisning 1952-yilda e'lon qilingan "Discourse Analysis" maqolasi gapdan katta birliklarni formal tahlil qilish masalasini ilmiy muomalaga olib kirgan dastlabki ishlardan biri bo'ldi [1]. Keyinchalik diskursga kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar bilimi, maqsadi, ijtimoiy roli va kontekst bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida qarash kuchaydi. T. van Deyk diskurs va kontekst munosabatini sotsiokognitiv model asosida izohlar ekan, kommunikativ vaziyat nutq ishtirokchilarining subyektiv talqini orqali boshqarilishini ko'rsatadi [3].

Tibbiy muloqot ana shu nazariy qarashlar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki unda til faqat axborot uzatish vositasi bo'lib qolmay, tashxis qo'yish, davolashga yo'naltirish, bemorning ruhiy holatini barqarorlashtirish, kasbiy vakolatni namoyon etish va ishonchni shakllantirish kabi bir nechta vazifani bir vaqtda bajaradi. Shifokor va bemor o'rtasidagi bilim, tajriba hamda institutsional maqom nomutanosibligi muloqotning til vositalari, savol-javob tartibi, mavzu nazorati va qaror qabul qilish usullariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tibbiy nutqni faqat terminologik tizim yoki kasbiy uslub doirasida emas, diskursiv-pragmatik yaxlitlik sifatida tadqiq etish zarur.

Maqolaning maqsadi tibbiy muloqotning voqelanish asoslarini institutsional diskurs nazariyasi doirasida tizimlashtirish, uning kommunikativ turlari, janrlari, strategiyalari va lingvoterapevtik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun diskurs va tibbiy diskurs tushunchalarining nazariy talqinlari umumlashtirildi; tibbiy kommunikatsiya ishtirokchilari hamda yo'nalishlari tasniflandi; shifokor-bemor muloqotining pragmatik bosqichlari ajratildi; raqamli tibbiyot sharoitida yozma va masofaviy muloqotning o'ziga xos jihatlari baholandi.

Diskurs tushunchasining shakllanishi struktur tahlildan ijtimoiy-kognitiv va pragmatik talqinlarga tomon rivojlangan. Z.Harris diskursni gapdan katta birliklar darajasida tahlil qilish imkoniyatini ko'rsatgan bo'lsa [1], Sh. Safarov diskursni kommunikativ va informativ mazmun uyg'unligi yuzaga keladigan faoliyat mahsuli sifatida izohlaydi [2]. Bu yondashuvga ko'ra, matn muloqotning moddiy natijasi bo'lsa, diskurs shu natijani yuzaga keltirgan niyat, vaziyat, ishtirokchilar munosabati va interpretatsiya jarayonini ham qamrab oladi. Demak, tibbiy hujjat, konsultatsiya yoki klinik suhbatning mazmunini to'liq anglash uchun ularning qaysi institutsional sharoitda va qanday maqsadda yaratilganini hisobga olish talab etiladi.

Tibbiy diskursni o'rganishda ikki asosiy ilmiy yo'nalish shakllangan. Birinchi yo'nalish klinik suhbatlarning mikrostrukturasi, navbat almashinuvi, savol-javob ketma-ketligi, tashxisni e'lon qilish va tavsiya berish kabi amallarni suhbat tahlili asosida o'rganadi. J.Heritage va D.Maynard tahriri ostidagi tadqiqotlarda birlamchi tibbiy konsultatsiyaning bosqichlari ijtimoiy o'zaro ta'sir sifatida batafsil yoritilgan [6]. Ikkinchi yo'nalish M.Fuko qarashlariga tayangan holda tibbiy bilim, institutsional hokimiyat va "tibbiy nigoh"ning diskurs orqali shakllanishini tahlil qiladi [4]. Bu yondashuvda shifokor nutqi nafaqat klinik ma'lumot beruvchi, balki kasbiy

vakolatni tasdiqlovchi va bemorning xatti-harakatini tartibga soluvchi vosita sifatida qaraladi.

E.Freidson tibbiyot kasbining ijtimoiy mavqei va professional nazorat mexanizmlarini tahlil qilib, tibbiy bilimning jamiyatdagi alohida vakolat manbai ekanini ko'rsatadi [8]. N.Ainsworth-Vaughn esa shifokor-bemor suhbatida hokimiyat faqat shifokor tomonidan bir tomonlama amalga oshirilmasligi, bemor ham hikoya qilish, savol berish, mavzuni o'zgartirish va qarorni muhokama qilish orqali kommunikativ tashabbusni qo'lga kiritishi mumkinligini asoslaydi [7]. B.Gunnarssonning professional diskurs haqidagi qarashlari kasbiy nutqni tashkilot, jamiyat va tarixiy o'zgarishlar bilan bog'liq dinamik tizim sifatida anglashga imkon beradi [9].

Tibbiy diskursning janriy ko'lami ham kengdir. U ilmiy maqola, monografiya, klinik protokol, anamnez, epikriz, tibbiy ma'lumotnoma, retsept, diagnostik xulosa, konsilium, shifokor-bemor suhbati, sog'liqni saqlashga oid ommabop matn, tibbiy reklama va telekonsultatsiya kabi ko'plab shakllarda namoyon bo'ladi. P.Ordóñez-López va N.Edo-Marzá tahriridagi tadqiqotlar professional, akademik hamda ommabop tibbiy matnlar orasidagi til va janr farqlarini ko'rsatadi [10]. V.I.Karasikning institutsional diskurs modeli esa tibbiy nutqni ishtirokchilar, xronotop, maqsad, qadriyat va strategiyalar birligi sifatida tasniflash uchun metodologik asos yaratadi [5].

O'zbek tilshunosligida diskurs, pragmalingvistika, tibbiy terminologiya, evfemizm, perifraza va reklama tili bo'yicha muhim ishlar mavjud. Shunga qaramay, shifokor-bemor muloqotining real namunalarini korpus asosida tahlil qilish, kommunikativ muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik mezonlarini aniqlash, hududiy, ijtimoiy va gender omillarini qiyoslash bo'yicha izchil tadqiqotlar hali yetarli emas. Shuning uchun tibbiy diskursni o'zbek tilining milliy-madaniy me'yorlari, murojaat shakllari, hurmat kategoriyasi va bemor bilan empatik muloqot nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Manba sifatida diskurs nazariyasi, professional va tibbiy kommunikatsiya, shifokor-bemor o'zaro ta'siri hamda teletibbiyot muloqotiga bag'ishlangan ilmiy qarashlar olindi. Materialni tahlil qilishda tavsifiy usul orqali tibbiy diskursning asosiy belgilari yoritildi; qiyosiy usul yordamida yuzma-yuz, mutaxassislararo va masofaviy muloqot farqlari aniqlandi; diskursiv-pragmatik tahlil vositasida kommunikativ niyatlar va strategiyalar tizimlashtirildi; tasniflash usuli orqali tibbiy janrlar, ishtirokchilar va muloqot bosqichlari guruhlandi.

Tahlil birligi sifatida alohida so'z yoki gap emas, muayyan tibbiy vazifani bajaruvchi kommunikativ epizod qabul qilindi. Bunday epizod salomlashish va aloqa o'rnatish, shikoyatni aniqlash, anamnez yig'ish, ko'rik natijasini izohlash, tashxisni bayon qilish, davolash rejasini tushuntirish, tavsiya berish, bemorning tushunganini tekshirish va suhbatni yakunlash kabi bosqichlarni qamrab oladi. Har bir bosqich ishtirokchilar roli, nutqiy niyat, til vositalari, emotsional fon va kutilayotgan amaliy natija mezonlari bo'yicha baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi tibbiy muloqot voqelanishini besh komponentli integrativ model asosida izohlashga urinishda namoyon bo'ladi. Model quyidagi tarkibiy qismlarni birlashtiradi:

1) institutsional maqom;
2) kommunikativ niyat;
3) janr va bosqich;
4) verbal hamda noverbal vositalar;
5) ekstralingvistik sharoit.

Ushbu komponentlardan birining o'zgarishi boshqa komponentlarning tanlanishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, shoshilinch yordam vaziyatida qisqa, buyruq va ko'rsatmaga moyil nutq ustun bo'lsa, reabilitatsiya yoki psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonida izohlovchi, empatik va rag'batlantiruvchi birliklarning salmog'i ortadi.

1. Tibbiy diskursning institutsional tabiati

Tibbiy diskurs ijtimoiy institut doirasida amalga oshirilishi, qatnashchilarning maqom va vazifalari oldindan belgilanishi, maxsus bilim hamda axloqiy me'yorlarga tayanishi bilan ajralib turadi. Shifokor diagnostika va davolash bo'yicha vakolatli mutaxassis, bemor esa yordam so'rovchi shaxs sifatida suhbatga kirishadi. Biroq zamonaviy bemorga yo'naltirilgan yondashuv bu rollarni mutlaq passiv va faol qutblarga ajratmaydi. Samarali konsultatsiyada bemorning shaxsiy tajribasi, hayot tarzi, xavotiri, davolashga munosabati va qaror qabul qilishdagi ishtiroki tan olinadi.

Institutsional maqom nutqning leksik va sintaktik qurilishiga ta'sir etadi. Mutaxassislararo muloqotda termin, qisqartma, standart formulalar va yuqori axborot zichligi tabiiy bo'lsa, shifokor-bemor suhbatida shu birliklarni izohlash, sodda muqobil bilan almashtirish yoki kundalik tajribaga bog'lash talab etiladi. Terminlarning haddan tashqari ko'pligi bemorda tushunmovchilik va xavotirni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, tibbiy mazmunni ortiqcha soddalashtirish klinik aniqlikni pasaytiradi. Shu bois professional aniqlik va kommunikativ tushunarlilik o'rtasidagi muvozanat tibbiy diskursning asosiy mezonidir.

2. Tibbiy muloqotning asosiy yo'nalishlari

Tibbiy kommunikatsiyani uch asosiy yo'nalishga ajratish mumkin: shifokor-bemor muloqoti, mutaxassislararo muloqot va raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan masofaviy muloqot. Birinchi yo'nalish klinik ma'lumotni bemorning individual tajribasi bilan bog'laydi. Ikkinchi yo'nalish diagnostika va davolash bo'yicha kasbiy hamkorlikni ta'minlaydi. Uchinchi yo'nalish esa makon jihatidan ajralgan ishtirokchilar o'rtasida yozma, audio yoki video formatda muloqot qilish imkonini beradi.

Muloqot turi	Asosiy maqsad	Yetakchi diskursiv belgilar	Kommunikativ xavf
Shifokor-bemor	Tashxis, davolash, tushuntirish, ruhiy qo'llab-quvvatlash	Kundalik va maxsus leksika uyg'unligi; savol-javob; izoh; empatiya	Bilim nomutanosibligi, qo'rquv, terminlarni noto'g'ri anglash
Mutaxassis-mutaxassis	Kasbiy axborot almashinuvi, konsilium, qaror muvofiqlashtirish	Terminologik aniqlik; qisqartmalar; protokol va dalillarga tayangan bayon	Axborotning to'liq uzatilmasligi, iyerarxiya, kasblararo tafovut
Shifokor-tibbiy xodim/talaba	Ko'rsatma, nazorat, didaktik tushuntirish, tajriba uzatish	Imperativ va tavsiyaviy birliklar; algoritm; izohli nutq	Noaniq topshiriq, teskari aloqaning yetishmasligi

Muloqot turi	Asosiy maqsad	Yetakchi diskursiv belgilar	Kommunikativ xavf
Teletibbiy muloqot	Masofadan konsultatsiya, monitoring va yo'naltirish	Yozma aniqlik; strukturali savollar; audio-video va fayl almashinuvi	Noverbal belgilar cheklanishi, maxfiylik, texnik uzilishlar
Ommaviy tibbiy diskurs	Aholini xabardor qilish, profilaktika, sog'lom turmush targ'iboti	Ilmiy-ommabop uslub; metafora; misol; ogohlantirish	Sensatsionlik, reklama ta'siri, noto'g'ri talqin

1-jadval. Tibbiy muloqot yo'nalishlarining diskursiv tavsifi

Jadvaldan ko'rinadiki, tibbiy muloqotning barcha ko'rinishlari umumiy kasbiy maqsadga xizmat qilsa-da, til tanlovi va kommunikativ xavflari jihatidan farqlanadi. Shifokor-bemor suhbatida tushunarlilik va empatiya birlamchi bo'lsa, mutaxassislararo nutqda terminologik aniqlik hamda ixchamlik ustunlik qiladi. Teletibbiyotda esa og'zaki suhbatda o'z-o'zidan anglashiladigan ko'plab noverbal belgilar yo'qolishi sababli savol va tavsiyalarni strukturali yozish, vaqt, doza, muddat va harakat tartibini aniq ko'rsatish zarur.

3. Shifokor – bemor suhbatining pragmatik bosqichlari

Shifokor **–** bemor muloqoti odatda bir-biri bilan bog'liq bir nechta pragmatik bosqichdan iborat. Dastlab aloqa o'rnatish va bemorning murojaat sababini aniqlash amalga oshiriladi. Bu bosqichda salomlashish, o'zini tanishtirish, bemorga murojaat shaklini to'g'ri tanlash va ochiq savollardan foydalanish ishonch muhitini yaratadi. "Sizni nima bezovta qilmoqda?" kabi ochiq savol bemorga o'z hikoyasini erkin tuzish imkonini beradi; keyingi yopiq savollar esa simptomning vaqti, davomiyligi, kuchi va boshqa xususiyatlarini aniqlashtiradi.

Ikkinchi bosqich anamnez va klinik ma'lumotni yig'ishdan iborat. Shifokor savollarining mantiqiy ketma-ketligi, bir vaqtning o'zida bir masalaga e'tibor qaratishi va bemor javobini bo'lmasdan tinglashi axborotning to'liqligini oshiradi. Bemorning kundalik tildagi ifodalarini tibbiy tushunchalarga bevosita tenglashtirib yubormaslik kerak. Masalan, "yuragim siqiladi" kabi ibora turli somatik yoki emotsional holatlarni ifodalashi mumkin. Shifokor mazkur birlikning bemor idrokidagi ma'nosini qo'shimcha savollar orqali aniqlashi lozim.

Uchinchi bosqichda klinik holatni izohlash va tashxis haqida axborot berish amalga oshiriladi. Bu yerda ma'lumotning hajmi bemorning yoshi, savodxonligi, psixologik tayyorgarligi va vaziyatning og'irligiga moslashtiriladi. Tashxisni birdaniga murakkab termin bilan e'lon qilish o'rniga uning mazmuni, tekshiruv natijasi, ehtimoliy sababi va keyingi qadamlar izchil tushuntirilishi maqsadga muvofiq. Noxush xabar berishda shifokorning ohangi, sukutdan foydalanishi va bemorning emotsional reaksiyasiga javob qaytarishi ham nutq mazmuni kabi muhimdir.

To'rtinchi bosqich davolash rejasini kelishish va tavsiya berishdir. Tavsiya tibbiy jihatdan asosli bo'lishi bilan birga, bemor uchun bajariladigan darajada aniq ifodalanishi zarur. "Dorini muntazam iching" umumiy ko'rsatma bo'lsa, qabul vaqti, dozasi, davomiyligi va nojo'ya ta'sir yuz bersa qanday harakat qilish kerakligi ko'rsatilgan tavsiya amaliy jihatdan samaraliroqdir. Mazkur bosqichda shifokor bemorning imkoniyati, turmush sharoiti va davolash haqidagi fikrini ham so'rashi lozim. Bu yondashuv tavsiyaga rioya qilish ehtimolini kuchaytiradi.

Yakuniy bosqich teskari aloqa va tushunishni tekshirishdir. "Tushundingizmi?" degan umumiy savol ko'pincha bemordan avtomatik tasdiq javobini oladi. Buning o'rniga bemordan dori qabul qilish tartibini yoki keyingi harakatlarni o'z so'zi bilan takrorlab berishini so'rash mazmunning qanchalik o'zlashtirilganini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, tibbiy suhbatning samaradorligi faqat shifokor bergan ma'lumotga emas, bemor uni qanday qabul qilgani va amaliy harakatga aylantira olganiga bog'liq.

4. Tibbiy diskursning kommunikativ strategiyalari

Tibbiy muloqotda diagnostik, izohlovchi, tavsiyaviy, ishontiruvchi, ogohlantiruvchi, empatik va nazorat strategiyalari bir-birini to'ldiradi. Diagnostik strategiya simptom va anamnezni aniqlashga qaratilgan savollar tizimida namoyon bo'ladi. Izohlovchi strategiya maxsus bilimni bemor tushunadigan shaklga o'tkazadi. Tavsiyaviy strategiya davolash va profilaktika bo'yicha amaliy ko'rsatmalarni beradi. Ishontiruvchi strategiya bemorning davolashga motivatsiyasini oshirsa, ogohlantiruvchi strategiya xavf va cheklovlarni bildiradi. Empatik strategiya esa bemorning his-tuyg'ularini tan olish va ruhiy qo'llab-quvvatlash orqali ishonchni mustahkamlaydi.

Bu strategiyalarni qo'llashda kategorik va ehtimoliy mazmun chegarasi muhimdir. Klinik jihatdan hali tasdiqlanmagan holatni qat'iy hukm shaklida bayon qilish bemorda noto'g'ri tasavvur uyg'otadi. Biroq haddan tashqari noaniq, ikkilanuvchi nutq ham mutaxassisga bo'lgan ishonchni kamaytirishi mumkin. Shifokor ehtimollik darajasini "tekshiruv natijasiga ko'ra", "hozircha taxmin qilish mumkin", "aniqlashtirish uchun qo'shimcha tahlil zarur" kabi metakommunikativ birliklar bilan aniq belgilashi kerak.

Tibbiy diskursda savol berish strategik vosita hisoblanadi. Ochiq savollar bemorning subyektiv tajribasini ochib bersa, yopiq savollar aniq klinik belgini tekshiradi; muqobil savollar ehtimoliy variantlarni farqlaydi; aniqlashtiruvchi savollar noaniq iboraning ma'nosini belgilaydi. Savollarning uzluksiz va tez sur'atdagi ketma-ketligi suhbatni so'roq shakliga aylantirishi mumkin. Shu sababli savol, tinglash, qayta ifodalash va qisqa xulosalash amallari muvozanatda qo'llanishi zarur.

5. Lingvoterapevtik yo'nalish va deontologik me'yor

Tibbiy diskursning o'ziga xos jihatlaridan biri so'zning terapevtik ta'siridir. Lingvoterapevtik yo'nalish nutq orqali bemorda xavfsizlik, tushunilganlik, umid va hamkorlik hissini shakllantirishni anglatadi. Bu yerda "hammasi yaxshi bo'ladi" kabi asossiz taskin emas, vaziyatni real baholagan holda qo'llab-quvvatlovchi nutq nazarda tutiladi. Masalan, "Sizning xavotiringizni tushunaman; natijalarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz va keyingi harakat rejasini birga

belgilaymiz" shaklidagi bayon emotsional holatni tan oladi va amaliy yo'nalish beradi.

Deontologik me'yor tibbiy axborotning maxfiyligi, bemor sha'ni va shaxsiy chegaralarini hurmat qilish, kamsituvchi yoki ayblovchi birliklardan qochish, rozilik olish va noxush xabarni ehtiyotkorlik bilan yetkazishni talab etadi. Bemorning noto'g'ri odati yoki davolashga rioya qilmasligini muhokama qilishda shaxsga baho berish emas, xatti-harakatning klinik oqibatini tushuntirish maqsadga muvofiq. "Siz mas'uliyatsiz ekansiz" degan jumla muloqotni yopadi; "Dorini qabul qilishga nima xalaqit berdi?" degan savol esa muammoning sababini aniqlash va yechim topishga imkon yaratadi.

O'zbek tibbiy muloqotida qarindoshlikni bildiruvchi "ota", "ona", "aka", "opa", "bolam" kabi murojaat birliklari samimiylik va hurmatni ifodalashi mumkin. Biroq ularning o'rinli yoki noo'rinligi bemorning yoshi, shaxsiy tanlovi, muassasa madaniyati va muloqot vaziyatiga bog'liq. Kasbiy muloqotda yaqinlikni ifodalovchi murojaat bemorning shaxsiy chegarasini buzmasligi lozim. Eng maqbul yo'l - bemorning ismi yoki o'zi ma'qul ko'rgan murojaat shaklini aniqlash va izchil qo'llashdir.

6. Tibbiy janrlar va ularning til xususiyatlari

Tibbiy diskurs janrlari kommunikativ maqsad va adresatga ko'ra farqlanadi. Klinik protokol standartlashtirish va amaliy qarorni tartibga solishga xizmat qilgani uchun unda qisqa, aniq, normativ va algoritmik bayon ustun turadi. Anamnez va kasallik tarixida voqea hamda simptomlar vaqt ketma-ketligida qayd etiladi. Epikriz bemorning davolanish davridagi holati, tekshiruv natijalari, qo'llangan muolaja va yakuniy tavsiyalarni umumlashtiradi. Retsept va yo'riqnomalarda o'lchov, doza, muddat hamda harakat tartibi noaniqlikka yo'l qo'ymaydigan shaklda berilishi kerak.

Ilmiy tibbiy maqola dalil, metod, natija va muhokama mantiqiga tayanadi; uning adresati maxsus bilimga ega mutaxassisdir. Ilmiy-ommabop tibbiy matn esa shu bilimni keng auditoriya uchun qayta kodlaydi. Bunda terminlarning izohi, misol va analogiyalardan foydalanish, ortiqcha tafsilotni qisqartirish talab etiladi. Tibbiy reklama janrida informativ va ishontiruvchi funksiyalar o'zaro kesishadi. Shu sababli ilmiy dalil bilan marketing da'vosini ajratish, mutlaq natija va'da qiluvchi iboralardan qochish tibbiy axborotning etik mezonlaridan biridir.

Tibbiy terminologiyada metafora ham muhim rol o'ynaydi. "Ichak devori", "oshqozon osti bezining dumi", "tukli til" singari birliklar murakkab anatomik yoki patologik obyektni tanish obraz orqali nomlaydi. Metafora mutaxassislararo muloqotda nominativ ixchamlikni ta'minlashi mumkin, biroq bemor bilan suhbatda u noto'g'ri yoki qo'rqinchli tasavvur uyg'otmasligi uchun izohlanishi zarur. Demak, bir xil termin turli adresat va vaziyatda turlicha pragmatik yuk kasb etadi.

7. Teletibbiyot sharoitida diskursning o'zgarishi

Raqamli kommunikatsiya tibbiy diskursning makon, vaqt va janr chegaralarini o'zgartirdi. Videokonsultatsiya yuzma-yuz suhbatning ayrim noverbal imkoniyatlarini saqlab qolsa, matnli yozishma nutqni to'liq verbal shaklga o'tkazadi. Matnli muloqotda ohang, yuz ifodasi va darhol aniqlashtirish imkoniyati cheklangani uchun qisqa jumla sovuq yoki keskin qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun murojaat, qisqa empatik jumla, muammoning qayta ifodasi, aniq tavsiya va xavf belgilarini alohida ko'rsatish yozma tibbiy javobning zarur elementlariga aylanadi.

Teletibbiyotda klinik xavfsizlik va kommunikativ aniqlik bir-biridan ajralmaydi. Shifokor masofaviy formatning cheklovini ochiq bildirishi, shoshilinch belgilar mavjud bo'lsa bemorni bevosita tibbiy muassasaga yo'naltirishi, yuborilgan foto, audio yoki o'lchov ma'lumotining sifatini baholashi kerak. Bemor esa berilgan tavsiyaning umumiy axborot yoki individual klinik qaror ekanini tushunishi zarur. Maxfiylik, shaxsni identifikatsiya qilish va tibbiy ma'lumotlarni himoyalash masalalari ham raqamli diskursning ekstralingvistik tarkibiga kiradi.

Masofaviy muloqotda standart strukturadan foydalanish samarali: murojaat va empatiya; bemor muammosining qisqa xulosasi; yetishmayotgan ma'lumotlar bo'yicha savollar; ehtimoliy izoh; tavsiya etiladigan harakat; xavf belgilarida shoshilinch murojaat qilish ko'rsatmasi; teskari aloqa. Bunday tuzilma matnni o'qishni yengillashtiradi va klinik jihatdan muhim ma'lumotning ko'zdan qochishini kamaytiradi.

8. Tibbiy muloqotning besh komponentli modeli

O'tkazilgan nazariy tahlil tibbiy muloqot voqelanishini besh o'zaro bog'liq komponent orqali izohlash imkonini beradi. Birinchi komponent – institutsional maqom: shifokor, bemor, hamshira, talaba, administrator yoki keng jamoatchilik. Ikkinchi komponent - kommunikativ niyat: ma'lumot yig'ish, tashxisni izohlash, tavsiya berish, o'qitish, ogohlantirish yoki ishontirish. Uchinchi komponent – janr va bosqich: konsultatsiya, anamnez, protokol, konsilium, retsept, epikriz, telejavob va boshqalar. To'rtinchi komponent – verbal va noverbal vositalar: termin, savol, takrorlash, metafora, ohang, pauza, mimika va vizual material. Beshinchi komponent - ekstralingvistik sharoit: vaqt, makon, shoshilinchlik, texnik kanal, maxfiylik, ijtimoiy-madaniy me'yor va bemorning psixologik holati.

Mazkur model tibbiy nutqdagi kommunikativ muammoning manbasini aniqlashda ham foydalidir. Masalan, to'g'ri termin noto'g'ri adresatga izohsiz qo'llansa, muammo til birligining o'zida emas, institutsional rol va adresat bilimini hisobga olmaslikda yuzaga keladi. Xuddi shuningdek, aniq tavsiya shoshilinch vaziyatda kech berilsa, vaqt omili kommunikativ natijani pasaytiradi. Demak, tibbiy muloqot sifati alohida "yaxshi so'z"lar to'plami bilan emas, barcha komponentlarning vaziyatga mos uyg'unlashuvi bilan belgilanadi.

Tibbiy diskurs lingvistik, ijtimoiy, kasbiy va axloqiy omillar birlashadigan murakkab institutsional kommunikatsiya turidir. Uning asosiy vazifasi bemor salomatligiga doir ma'lumotni shunchaki uzatish emas, balki klinik muammoni birgalikda aniqlash, qarorni tushuntirish, amaliy harakatni tashkil etish va ruhiy qo'llab-quvvatlashdir. Shu sababli tibbiy nutqning samaradorligi terminologik aniqlik bilan bir qatorda tushunarlilik, empatiya, deontologik me'yor, teskari aloqa va vaziyatga moslashuv darajasi orqali baholanishi lozim.

Tahlil natijasida tibbiy kommunikatsiyaning shifokor-bemor, mutaxassislararo, didaktik, ommaviy va teletibbiy ko'rinishlari o'ziga xos janr hamda strategiyalarga ega ekani aniqlandi. Shifokor-bemor suhbatida aloqa o'rnatish, anamnez yig'ish, izohlash, tavsiya berish va tushunishni tekshirish bosqichlari yaxlit pragmatik tizimni tashkil

etadi. Diagnostik, izohlovchi, tavsiyaviy, ishontiruvchi, ogohlantiruvchi va empatik strategiyalar ushbu bosqichlarda turli nisbatda namoyon bo'ladi.

Taklif etilgan besh komponentli model tibbiy muloqotni institutsional maqom, kommunikativ niyat, janr, til vositalari va ekstralingvistik sharoit birligida tahlil qilishga xizmat qiladi. Ushbu model o'zbek tilidagi klinik suhbatlar, tibbiy hujjatlar, sog'liqni saqlashga oid ommaviy matnlar hamda telekonsultatsiyalarni qiyosiy o'rganishda metodik asos bo'lishi mumkin. Kelgusida real shifokor-bemor suhbatlaridan anonim korpus yaratish, murojaat shakllari, savol turlari, terminlarni izohlash, empatik birliklar va kommunikativ muvaffaqiyatsizliklarni miqdoriy hamda sifat jihatdan tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harris Z.S. Discourse Analysis // Language, 1952. Vol. 28, №1. – P. 1–30.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
3. Dijk van T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
4. Foucault M. The Birth of the Clinic: An Archaeology of Medical Perception. – London: Tavistock Publications, 1973.
5. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002.
6. Heritage J., Maynard D.W. (eds.). Communication in Medical Care: Interaction Between Primary Care Physicians and Patients. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
7. Ainsworth-Vaughn N. Claiming Power in Doctor-Patient Talk. – New York; Oxford: Oxford University Press, 1998.
8. Freidson E. Profession of Medicine: A Study of the Sociology of Applied Knowledge. – New York: Harper & Row, 1970.
9. Gunnarsson B.-L. Professional Discourse. – London: Continuum, 2009.
10. Ordóñez-López P., Edo-Marzá N. (eds.). Medical Discourse in Professional, Academic and Popular Settings. – Bristol: Multilingual Matters, 2016.

Nigora AXTAMOVA,
Buxoro davlat universiteti doktoranti

QARINDOSHLIK NOMLARINING INGLIZ TILI BILAN QIYOSIY TAHLILI VA LAKUNAR BIRLIKLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi qarindoshlik terminlarining qiyosiy-semantik tahliliga bag'ishlangan. Qarindoshlik nomlari har bir xalqning ijtimoiy hayoti, madaniyati va mentaliteti bilan uzviy bog'liqligi bois, ularni qiyosiy o'rganish ikki tilning milliy-madaniy tafakkuridagi o'xshashlik hamda farqlarni ochib berish imkonini beradi. Maqolada bir til tizimida mavjud bo'lib, boshqa tilda ekvivalentiga ega bo'lmagan leksik birliklar – lakunalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: lakunar birlik, ekvivalent, qarindoshlik terminlari, "sister-in-law", "cousin", lingvomadaniyat.

Annotation. This study is devoted to a comparative-semantic analysis of kinship terms in English and Uzbek. Since kinship terms are inextricably linked with the social life, culture, and mentality of each nation, their comparative study allows identifying similarities and differences in the national-cultural thinking of the two languages. The article pays special attention to lacunae – lexical units that exist in one language system without an equivalent in another.

Keywords: lacunar unit, equivalent, kinship terms, sister-in-law, cousin, linguaculture.

Аннотация. Исследование посвящено сравнительно-семантическому анализу терминов родства в английском и узбекском языках. Поскольку термины родства неразрывно связаны с социальной жизнью, культурой и менталитетом каждого народа, их сопоставительное изучение позволяет выявить сходства и различия в национально-культурном мышлении двух языков. В статье особое внимание уделено лакунам – лексическим единицам, существующим в одной языковой системе и не имеющим эквивалента в другой.

Ключевые слова: лакунарная единица, эквивалент, термины родства, «sister-in-law», «cousin», лингвокультура.

Qarindoshlik nomlarini o'rganish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, barcha tillarda ham bir xil nom uchramaydi, ya'ni bu holat ba'zi tillarda lakunalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Turli tillardagi matnlarni solishtirsak, ko'pincha bir tilning leksik birligi boshqa tilda o'zining leksik ekvivalentini topa olmasligini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda bu hodisa "lakuna" tushunchasi bilan izohlanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar tillar va madaniyatlardagi tafovutlarni o'rganishda "lakuna" atamasini qo'llashni afzal ko'radilar (lotincha *lacuna* – chuqurlashish, bo'shliq; fransuzcha *lacune* – bo'shliq).

"Sovet ensiklopedik lug'ati"da tilshunoslik va adabiy tanqidda uchrovchi bu bo'shliqqa nisbatan quyidagi ta'rif beriladi: "matndagi bo'shliq, tushib qolgan yoki yetishmayotgan joy". Lakunaning filologik atama sifatidagi xuddi shunday ta'rifi "Xorijiy so'zlar lug'ati"da ham uchraydi [5: 1]. Lakunalarni aniqlashning asosiy usuli – qiyoslash usuli bo'lib, turli til tizimlarining semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan leksik birliklari hamda ularning boshqa tilga tarjima qilinadigan ekvivalenti mavjud yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Qaysidir tilda u yoki bu so'zning boshqa tilda ekvivalenti mavjud bo'lmagan holatda birinchi tilda lakunar birlik qayd etiladi.

Lakunalar, shuningdek, bevosita madaniyatlararo muloqot jarayonida namoyon bo'ladi – til egasi o'z ona tilida muayyan tushunchani yoki hodisani ifodalash uchun mos keladigan so'z yo'qligiga duch keladi. Lakunalarni aniqlashning barcha usullari kontrastlik (qiyoslash) tabiatiga ega bo'lib, ularni aniqlashning eng ishonchli yo'li aynan kontrast yo'nalishdagi tadqiqotlardir. O'zbek tilidagi lakunar birliklar vositasida ingliz tilidagi lakunalarni aniqlash va ularning nima sababdan lakuna ekanligini izohlash orqali o'zbek va ingliz madaniyatlari orasidagi o'xshashlik hamda farqlar yuzaga chiqadi. Bularning ichida eng ahamiyatlilaridan biri qarindosh-urug'chilik bo'lib, bu munosabat o'zbek madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi va o'zbek tilidagi leksemalarda yorqin namoyon bo'ladi.

Tillar qiyosida har bir konstant lakunar birlik o'rnida bo'shliq mavjudligi sezilib turadi. Mana shu bo'shliq ortida har doim muayyan madaniyatga xos turmush tarzi: urf-odatlar, marosimlar, bayramlar hamda xalqning ishonch-e'tiqodlari yotadi. Qarindosh-urug'chilik o'zbek madaniyatidagi eng qadrlanuvchi munosabatlardan biri bo'lib, qadimdan to hozirgi kunga qadar o'zbek oilalarida yashab kelmoqda.

Tilshunos olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, ibtidoiy jamiyatning dastlabki bosqichlarida qarindoshlik terminlari umumiy tushunchani (katta, ulug', buyuk ayol yoki erkakligini farqlamay) ifodalagan va vaqt o'tishi bilan hayot taraqqiyotining ma'lum davrlarida differensiyalashib borgan. Qarindoshlik terminlarining umumiylikdan xususiylikka qarab harakati ingliz va o'zbek tillari materiallarida ham o'z ifodasini topgan [1: 2]. Tadqiqotchi I.Seytjanovning ta'kidlashicha, o'zbek tilidan ingliz tiliga matn tarjima qilishda qarindosh-urug'ga oid leksemalarning aksariyati ingliz tilida mavjud emasligi tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Darhaqiqat, ingliz tilida qarindosh-urug'chilikka oid leksemalar miqdori o'zbek tiliga nisbatan ancha kam ekanligini kuzatish mumkin. O'zbek tilidagi qarindosh-urug'chilikka oid lakunar birliklarning ingliz tilida lakuna hosil qilishi ingliz madaniyatida qarindosh-urug'chilik munosabatlari birinchi darajali o'rinda emasligini ko'rsatadi va buning oqibatida tilning leksik sathida bo'shliqlar yuzaga keladi.

Lakunalar aniqlanganda tarjimashunoslarning oldida lakunaning o'rnini to'ldirish, pedagogikaning oldida uni o'quvchiga tushunarli qilib yetkazish, tilshunoslikning oldida esa lakunar birliklar mohiyatida yotgan madaniyatni izohlash va uning tilga ta'siri hamda o'ziga xos jihatlarini aniqlash vazifalari turadi. Shu jihatdan o'zbek tilida mavjud qarindosh-urug'ga oid lakunar birliklarning tahlil qilinishi o'zbek madaniyatidagi muayyan milliy-madaniy munosabatlarning mavjudligi va ularning hayotda barqaror o'ringa ega ekanligini aniqlashga imkon beradi. Aksincha, ingliz tilida bu birliklarning yo'qligi madaniy omillar orqali tushuntiriladi.

Tahlil jarayonida o'zbek tilidagi lakunar birliklar sifatida tanlab olingan leksemalarning izohlari "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan olindi. Ushbu leksemalarning ingliz tilida lakuna ekanligini aniqlashda *"Macmillan English Dictionary"* ga murojaat qilindi. Quyida o'zbek tilida mavjud qarindosh-urug' nomlariga oid lakunar birliklar va ularning izohlari jadval asosida berildi. Ingliz tilida ekvivalent leksema mavjud emasligini bildirish uchun "0" ko'rsatkichidan foydalanildi.

T/r	O'zbek tilidagi lakunar birliklar	Lakunar birliklarning izohi	Ingliz tilidagi lakunalar
1	Tog 'avachcha	Aka-ukaning farzandlari (bir-birlariga nisbatan)	0
2	Xolavachcha	Opa-singillarning farzandlari (bir-birlariga nisbatan)	0
3	Ammavachcha	Otaning opasi yoki singilning farzandlari	0
4	Amakivachcha	Aka-ukalarning o'g'il-qizlari (bir-birlariga nisbatan)	0
5	Qayniegachi	Erning opasi uning xotiniga nisbatann va xotinining opasi uning eriga nisbatan	Sister in law
6	Qaynisingil	Erning singlisi uning xotiniga nisbatan va xotinning singlisi uning eriga nisbatan	Sister in law
7	Qayniog'a	Erning akasi uning xotiniga nisbatan va xotinning akasi uning eriga nisbatan	0
8	Qayniuka	Erning ukasi uning xotiniga nisbatan va xotinning ukasi uning eriga nisbatan	0
9	Quda	Kuyov va kelinning ota-onalari (bir-birlariga nisbatan)	0
10	Kelinoyi	Akaning xotini (uka yoki singilga nisbatan)	0
11	Yanga	Akaning xotini (uka yoki singilga nisbatan)	0
12	Boja	Opa-singillarning erlari (bir-birlariga nisbatan)	0
13	Ovsin	Aka-ukalarning xotinlari (bir-birlariga nisbatan)	0
14	Pochcha	Opaning,ammaning, xolaning eri	0
15	Duvara	Ajdodlarga nisbatan beshinchi avlod	0
16	Buvara	Ajdodlarga nisbatan oltinchi avlod	0
17	Begona	Ajdodlarga nisbatan yettinchi avlod	0

O'zbek tilidagi *tog'avachcha, xolavachcha, ammavachcha, amakivachcha* lakunar birliklari uchun ingliz tilida faqat *cousin* leksemasidan foydalaniladi. *Macmillan English Dictionary*da *cousin* leksemasiga quyidagicha izoh beriladi: "A child of your uncle or aunt; someone who is related to you through a brother, sister, uncle, or aunt of one of your parents" (tarjimasi: tog'a, amaki yoki xola, ammaning farzandi; ota yoki onaning opasi, singlisi, akasi va ukasining farzandlari bir-birlariga nisbatan). *Tog'avachcha* leksemasi *cousin* deb tarjima qilinsa yoki shu tarzda til o'rganuvchilarga yetkazilsa, qolgan uchtasi – *xolavachcha, ammavachcha, amakivachcha* lakunar birliklari uchun ingliz tilida muqobil leksema mavjud bo'lmaydi. Ayni paytda, mazkur lakunar birliklar o'zbek tilining o'zida ichki lakunalarning mavjudligidan dalolat beradi, ya'ni o'zbek tilida bu atamalar yosh va jinsga oid farqlarni aniq ochib berishi bilan o'ziga xos ichki tizimni hosil qiladi.

Bundan tashqari, qarindoshlik ma'nosini bildiruvchi "ota" so'zining ingliz va o'zbek tillaridagi izohiga to'xtalar ekanmiz, bu so'zning har ikki tilda ham bir qator o'xshash va farqli jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *father* so'zining farzandni dunyoga keltirgan shaxs, yoshi ulug' kishi, biror ish yoki harakatni boshlab bergan shaxs, jamiyatning keksa a'zosi kabi ma'nolari har ikkala tilda ham mavjud. Biroq ingliz tilidagi *father* so'zining "ruhoniy, ilk Xristian teologi, jonlantirishdagi nom" kabi ma'nolarining ekvivalentlari o'zbek tilida mavjud emas. Shu o'rinda, o'zbek tilidagi "ota" so'zining "o'g'il bolani erkalatishda, mehribon boshliq, rahnamo haqida, el-yurtga boshchilik qiluvchi shaxs" kabi ma'nolarining ham ingliz tilida bevosita ekvivalentlari mavjud emas [4: 4].

Qayniegachi, qaynisingil, kelinoyi, yanga lakunar birliklari uchun ingliz tilida faqat *sister-in-law* (*the sister of your husband or wife* – erning yoki xotinning opasi, singlisi; *the wife of your brother* – akaning yoki ukaning xotini) leksemasi mavjud. *Sister-in-law* leksemasi yuqoridagi to'rtala o'zbekcha birlikning istalgan biri o'rnida qo'llanishi mumkinligiga qaramay, qolgan uchta leksema uchun ingliz tilida alohida muqobil ekvivalent yo'qligi kuzatiladi. Umuman olganda, ingliz qarindoshlik terminologiyasi ko'proq individualistik jamiyatni aks ettiradi, emotsional aloqalar va shaxsiy o'ziga xoslikni ta'kidlaydi. O'zbek qarindoshlik atamalari esa kuchli ierarxik tuzilishga hamda kattalarga chuqur hurmatga asoslangan kollektivistik madaniyatni tasvirlaydi. Ushbu atamalarning nozik qirralarini tushunish tilning madaniy normalar va oilaviy aloqalarni qanday ifodalashi hamda mustahkamlashining murakkab usullarini anglashga yordam beradi [3: 2].

Qayniog'a, qayniuka, boja, pochcha leksemalari ham ingliz tilida lakunar birliklar hisoblanadi. Bu o'zbekcha leksemalarni ifodalash uchun ingliz tilida faqat bitta *brother-in-law* (*the brother of your husband or wife* – erning yoki xotinning aka-ukasi; *your sister's husband* – opa-singillarning eri) birikmasi mavjud.

Maqolamizga yakun yasar ekanmiz, o'zbek va ingliz tillaridagi qarindoshlik otlarini etimologik hamda leksik-

semantik jihatdan qiyoslab chiqib, ularning izohlarida bir qator o'xshashliklar bilan bir қatorda farqli jihatlar ham borligiga guvoh bo'ldik. Xususan, ingliz tilida qarindoshlik otlarining ayrim ma'nolari o'zbek tilida to'liq ekvivalentiga ega emasligi kabi, o'zbek tilidagi qarindoshlik atamalarining ham ingliz tilida ekvivalentlari mavjud emasligi aniqlandi [1: 3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusamatova N. Ingliz va o'zbek tillarida "grandfather-bobo" qarindoshlik otining leksik tahlili // Advanced Methods of Ensuring Quality of Education: Problems and Opportunities: International Scientific-Practical Conference. – Tashkent, 2024. Vol. 2, №4. – P. 112–116.
2. Abdusattorov M. Ingliz va o'zbek tillarida qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari // World Scientific Research Journal, 2023. Vol. 14, №2. – P. 45–51.
3. Baratova X. Ingliz va o'zbek tillarida qarindoshlik atamalarining lingvomadaniy xususiyatlari // International Scientific Journal of Biruni, 2025. Vol. 4, №1. – P. 88–94. 10.5281/zenodo.1140235.
4. Ergashev A., Isoqulova G. Ingliz va o'zbek tillarida "father-ota" qarindoshlik otining etimologik, tipologik va leksik-semantik tahlili // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ), 2022. Vol. 10, №11. – P. 724–731.
5. Fatxiddinova I. Zamonaviy tilshunoslikda lakuna hodisasiga doir qarashlar // Science and Innovation International Scientific Journal, 2022. Vol. 1, №8. – P. 512–518. 10.5281/zenodo.7430214.

Наргизахон АБДУЛЛАЕВА,
доцент Андижанского филиала Кокандского университета

СИНКРЕТИЗМ КАК ФОРМА МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ НЕЙТРАЛИЗАЦИИ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье рассматриваются синкретизм как одна из основных форм морфологической нейтрализации в английском и русском языках, теоретические подходы к пониманию синкретизма, его соотношение с явлениями нейтрализации, омонимии и полисемии, а также особенности функционирования синкретических форм в морфологических.
Ключевые слова: синкретизм, морфологическая нейтрализация, грамматическая категория, словоизменение, аналитизм, флективность.
Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va rus tillarida sinkretizmni morfologik neytrallashuvning asosiy shakllaridan biri sifatida tadqiq etishga bag'ishlangan. Unda sinkretizmni talqin etishning nazariy yondashuvlari, uning neytrallashuv, omonimiya va polisemiya hodisalari bilan o'zaro munosabati, shuningdek, tadqiq etilayotgan tillarning morfologik tizimlarida sinkretik shakllarning amal qilish xususiyatlari ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: sinkretizm, morfologik neytrallashuv, grammatik kategoriya, so'z o'zgarishi, analitizm, flektivlik.
Annotation. This article explores syncretism as one of the principal forms of morphological neutralization in the English and Russian languages. It discusses theoretical approaches to the understanding of syncretism, its relationship to the phenomena of neutralization, homonymy, and polysemy, as well as the functioning of syncretic forms within the morphological systems of the languages under study.
Keywords: syncretism, morphological neutralization, grammatical category, inflection, analyticity, fusionality.

В изучении механизмов функционирования грамматических категорий не только как статичных элементов языковой системы, но и как динамических структур, взаимодействующих в процессе речевой коммуникации, особое место занимает исследование нейтрализации – процесса устранения или ослабления противопоставлений между языковыми единицами в определённых структурных или функциональных условиях. На морфологическом уровне она проявляется прежде всего в совпадении различных грамматических значений в одной и той же словоформе.

Одной из наиболее характерных форм морфологической нейтрализации является синкретизм – явление, при котором одна грамматическая форма выражает два или более грамматических значения, которые в иных условиях различаются формально. В отличие от омонимии, возникающей из-за случайного совпадения языковых единиц, синкретизм отражает системные особенности грамматической организации языка и обусловлен действием внутренних закономерностей морфологического развития. Совпадение падежных форм, идентичность временных или личных форм глагола, отсутствие формального разграничения отдельных грамматических категорий – это различные проявления единого процесса нейтрализации морфологических оппозиций.

Проблема синкретизма неоднократно становилась предметом исследования в трудах отечественных и зарубежных лингвистов. Существенный вклад в разработку данного вопроса внесли Г.Г.Корбетт, М.Берман, Д.Браун, У.Крофт, Р.Якобсон, А.А.Зализняк, В.В.Виноградов, А.В.Бондарко и другие исследователи. Несмотря на большое количество работ по описанию синкретических форм отдельных языков, вопрос о рассмотрении синкретизма как одного из механизмов морфологической нейтрализации остаётся недостаточно разработанным, особенно в сопоставительном аспекте английского и русского языков.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью дальнейшего развития теории морфологической нейтрализации и уточнения места синкретизма в системе грамматических явлений современного языкознания. Рассмотрение синкретизма с позиций функциональной лингвистики и сравнительной типологии позволяет раскрыть его роль как одного из универсальных механизмов языковой экономии, обеспечивающего оптимизацию морфологической системы при сохранении достаточной информативности высказывания.

В определенных зонах именные категории английского и русского языков утрачивают грамматические противопоставления, которые получают материальное выражение на уровне словоформ, то есть через их совпадение. При этом мы разграничиваем два принципиально разных режима такого совпадения: формальное тождество, обусловленное системной нейтрализацией, и внешнее совпадение, не снимающее грамматического различия в парадигме. Терминологическое разграничение необходимо задать поскольку в исследовательской традиции слова «нейтрализация» и «синкретизм» нередко сближаются, пересекаются или употребляются без достаточного разведения их объёма. Исходя из нашего определения, когда нейтрализация понимается как родовое понятие, обозначающее снятие грамматического противопоставления в широком смысле, синкретизм рассматривается как её парадигматически закреплённая форма, при которой совпадение выражения входит в структуру словоизменительной парадигмы, охватывает целые классы слов и воспроизводится независимо от лексического наполнения [1, с. 264].

Синкретизм воспроизводится всеми членами словоизменительного класса (родительный, дательный и предложный совпадают у всякого существительного типа степь). Критерий морфологической мотивированности: синкретические совпадения группируются по естественным классам граммем и нередко направленны – одна клетка парадигмы «отсылает» к другой, – тогда как омонимические соединяют граммемы произвольных наборов [2].

Типология синкретических узоров, разработанная на широком межъязыковом материале, различает совпадения по естественному классу – когда сливающиеся граммемы объединены общим признаком (все косвенные падежи против прямого, все лица одного числа), – и совпадения «неестественные», соединяющие граммемы вразброс, а также синкретизм направленный, при котором форма одной клетки узнаваемо заимствуется другой [2, с. 65].

Первый тип – это синкретизм образцовой регулярности, который английская глагольная морфология содержит при всей своей редуцированности совпадение претерита и причастия второго у правильных глаголов: *walked, played,*

looked обслуживают обе граммемы одной формой на протяжении всего открытого класса, и различение целиком передоверено вспомогательным глаголам (*walked* против *has walked*, *was walked*) [3, с. 76]. Неправильные глаголы расслаивают картину на подклассы – трёхформенные *sing – sang – sung* хранят полное различение, двухформенные *cling – clung – clung* воспроизводят синкретизм правильных, а инвариантные *put – put – put* и *cut – cut – cut* доводят совпадение до тотального [4, с. 96].

Именная морфология английского языка сосредоточила свой синкретизм в одном экспоненте – шипящем показателе **-s**, обслуживающем множественное число, посессив единственного и посессив множественного: *cats*, *cat's* и *cats'* тождественны в звучании, различение существует только на письме силами апострофа [5, с. 42]. Хрупкость этой чисто графической плотины измеряется её постоянными прорывами: так называемый апостроф зеленщика – массовое проставление апострофа в простом множественном (*potato's*, *banana's* на рукописных ценниках) – сделался в Британии именем нарицательным и предметом целой охранительной публицистики, бестселлер которой превратил пунктуационную тревогу в национальное развлечение [6].

Конверсия – образование слова другой части речи без изменения формы – представляет английский предельный случай межчастеречного синкретизма, разобранный как максимум грамматической нейтрализации, достижимый аналитическим строем [7, с. 71]. Пары *a walk – to walk*, *a hand – to hand*, *water – to water* исчисляются тысячами, категориальная принадлежность формы устанавливается только позицией, и продуктивность модели не ослабевает: новейший узус конвертирует на глазах – *to google* вошло в словари через считанные годы после появления поисковика, сетевая речь глаголит существительные потоком (to inbox, to friend, to adult – последнее породило целую мемную грамматику взрослости: adulting is hard как формула поколения).

Форма на **-ing** доводит английскую межкатегориальную нейтрализацию до трёхъярусной: *reading* совмещает причастие, герундий и отглагольное имя, и разграничение этих статусов составляет вековую внутрицеховую дискуссию англистики – от классических грамматик, множивших критерии, до современных описаний, предлагающих единую недифференцированную категорию [4, с. 1290]. Синтаксические последствия совмещения канонизированы генеративной традицией: пример *Flying planes can be dangerous*, в котором *flying* читается и как определение (летящие самолёты опасны), и как герундий (летать на самолётах опасно), вошёл в теоретический обиход как эталон структурной неоднозначности [8].

Субстантивный синкретизм: из двенадцати клеток парадигмы (шесть падежей на два числа) ни одно русское существительное не различает более девяти-десяти форм, а типичное – существенно меньше; совпадения группируются в устойчивые семейства (родительный – дательный – предложный единственного у третьего склонения; дательный – предложный у первого; именительный – винительный у неодушевлённых; винительный – родительный у одушевлённых), и семейства эти воспроизводятся с регулярностью закона [9]. Добавим адъективную парадигму, где формы на **-ой/-ей** покрывают у женского рода сразу четыре падежа (большой степи – родительный, дательный, творительный, предложный), и глагольную периферию, и станет ясно, что синкретизм в русском языке не окраина, а способ существования флексии.

Тонкую границу синкретизма проводит ударение – различитель, письмом не отображаемый. Пары за́мок – замо́к лексичны, но морфология знает собственные акцентные минимальные пары: руку́ родительного единственного против ру́ки именительного множественного, го́рода родительного против города́ именительного множественного, учу́теля против учителя́ в том же соотношении – во всех этих случаях письменная форма омографична, а звучащая различена местом ударения [9, с. 43].

Местоименные парадигмы двух языков содержат синкретическую пару такой симметрии, что она заслуживает статуса эмблемы всего сопоставления. Русское её совмещает родительный, винительный и притяжательную функцию (не видел её; встретил её; её книга); английское *her* совмещает объектную и притяжательную (I saw her; her book), выпадая из общей модели парадигмы, где эти функции различены (me – my, him – his, us – our) [4].

Итак, типологическое сопоставление английского и русского материала показывает, что оба языка обладают развитой системой морфологической неоднозначности, однако размещают её в разных участках грамматической структуры. Английский язык, утратив значительную часть флективной морфологии, концентрирует совпадения на границе частей речи, в аналитических конструкциях, в местоименной периферии и в графически различаемых, но фонетически тождественных формах. Русский язык, напротив, сохраняет богатую флективную парадигму, вследствие чего основные зоны синкретизма располагаются внутри словоизменительной системы: в падежных, числовых, родовых и согласовательных формах.

Использованная литература

1. Ельмслев Л. Пролегомены к теории языка // Новое в лингвистике. М.: Изд-во иностранной литературы, 1960.
2. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. М.: Советская энциклопедия, 1990.
3. Baerman M., Brown D., Corbett G. G. The Syntax-Morphology Interface: A Study of Syncretism. Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
3. Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка. М.: Высшая школа, 1983.
4. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. London; New York: Longman, 1985.
5. Ильиш Б.А. Строй современного английского языка, изд. 2. Л.: Просвещение, 1971.
6. Truss L. Eats, Shoots & Leaves: The Zero Tolerance Approach to Punctuation. London: Profile Books, 2003.
7. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1956.
8. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge (Mass.): MIT Press, 1965.
9. Зализняк А.А. Русское именное словоизменение. М.: Наука, 1967.
10. Abdullayeva N.S. Inliz, rus va o'zbek tillarida neytralizatsiya hodisasining fonologik va morfologik xususiyatlari // Ijtimoiy-Gumanitar Sohada Ilmiy-Innovatsion Tadqiqotlar, 2026, №3 (5).

Sevara JUMANOVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

PROMPTLAR STRUKTURASIDA LINGVISTIK ASSIMETRIYA: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA CHOG'ISHTIRMA TARJIMASHUNOSLIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (AI) tizimlari va Katta til modellari (LLM) bilan muloqot asosi bo'lgan promptlarning (so'rov matnlarining) lingvistik tabiati chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik prizmasi ostida tahlil qilinadi. Tadqiqotda analitik tuzilishga ega ingliz tili va agglyutinativ xarakterdagi o'zbek tilidagi promptlarning sintaktik, pragmatik hamda morfologik xususiyatlari qiyoslanadi. Shuningdek, inglizcha prompt andozalarini o'zbek tiliga o'girishda yuzaga keladigan tarjima transformatsiyalari, funksional ekvivalentlik hamda lakunalar lingvokognitiv jihatdan tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: promptologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, agglyutinatsiya, pragmatik adaptatsiya, lingvistik assimetriya, Katta til modellari (LLM), tokenizatsiya, konseptual muvofiqlik.

Annotation. This article examines the linguistic nature of prompts, which serve as the foundation for human-AI interaction, through the lens of contrastive linguistics and translation studies. The study provides a comparative analysis of the syntactic, morphological, and pragmatic characteristics of analytic English (SVO configuration) and agglutinative Uzbek (SOV configuration) prompt structures. Through a practical case study using large language models (LLMs), the paper highlights tokenization challenges and semantic shifts that occur when translating standard English prompt frameworks into Uzbek. The findings demonstrate that mechanical translation fails to yield optimal results due to the "cognitive anticipation effect" caused by Uzbek word order and severe morphological loading. Ultimately, the paper proposes a strategy of syntactic linearization and pragmatic adaptation (politeness shift) to optimize the configuration of Uzbek prompts, thereby significantly enhancing the quality of linguistic interpretation in global AI systems.

Keywords: promptology, contrastive linguistics, translation studies, agglutination, pragmatic adaptation, linguistic asymmetry, tokenization, syntactic linearization.

Аннотация. В статье с позиций сопоставительного языкознания и переводоведения анализируется лингвистическая природа промптов (текстов запросов), являющихся основой диалога с системами искусственного интеллекта (ИИ) и крупными языковыми моделями (LLM). В исследовании сопоставляются синтаксические, прагматические и морфологические особенности промптов в английском языке, имеющем аналитический строй, и узбекском языке, носящем агглютинативный характер. Также с лингвокогнитивной точки зрения исследуются переводческие трансформации, функциональная эквивалентность и лакуны, возникающие при переводе англоязычных шаблонов промптов на узбекский язык.

Ключевые слова: промптология, сопоставительное языкознание, переводоведение, агглютинация, прагматическая адаптация, лингвистическая асимметрия, крупные языковые модели (LLM), токенизация, концептуальное соответствие.

Neyrotarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining shiddatli evolyutsiyasi tilshunoslik fani oldiga mutlaqo yangi fenomen – "prompt" (so'rov matni) tushunchasini olib kirdi. Prompt bu shunchaki kompyuter dasturiga beriladigan texnik buyruq yoki operator emas, balki inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi kognitiv muloqotni ta'minlovchi yangi diskurs turidir.

Bugungi kunda mavjud global Katta til modellari (masalan, ChatGPT, Claude, Gemini) eng birinchi galda va eng mukammal darajada ingliz tili korpusi (training data) asosida o'qitilgan. Bu esa global miqyosda prompt muhandisligi (Prompt Engineering) va promptologiya qonuniyatlarining ingliz tili lingvistik qoliplari asosida shakllanishiga sabab bo'ldi. O'zbek tilshunosligida ushbu jarayonni chog'ishtirma va tarjimashunoslik aspektida tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Chunki inglizcha prompt modellari asosida ishlovchi tizimlarga o'zbekcha so'rovlarni kiritish yoki xalqaro tayyor andozalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida chuqur lingvistik va strukturaviy assimetriya yuzaga kelmoqda.

Tillar tipologiyasida sintaktik komponentlarning joylashuv tartibi kognitiv axborotni qabul qilish va interpretatsiya qilish tezligini belgilovchi bosh omil hisoblanadi. Generativ lingvistika va kompyuter tilshunosligi kesishmasida prompt arxitekturasi o'rganilganda, analitik xarakterdagi ingliz tili (SVO – Subject-Verb-Object) hamda agglyutinativ tuzilishga ega o'zbek tili (SOV – Subject-Object-Verb) o'rtasida chuqur strukturaviy assimetriya yaqqol namoyon bo'ladi.

Inglizcha promptlar – imperativ diskurs asosan gap boshida keluvchi operator-fe'llar ("Create", "Extract", "Synthesize", "Evaluate") yordamida shakllanadi. Bu sintaktik konfiguratsiya Katta til modellarining (LLM) transformator arxitekturasidagi "Self-attention" (O'z-o'ziga e'tibor berish) mexanizmi uchun optimal sharoit yaratadi. Sintaktik model: [Core Operator / Verb] + [Argument / Object] + [Modifier / Condition]. Tahlil shuni ko'rsatadiki, matnni qayta ishlash davomida model birinchi kelgan token (fe'l) orqali butun kontekstning funksional yo'nalishini (matn yaratish, tahlil qilish yoki filtrlash) dastlabki qadamdayoq identifikatsiya qiladi, ya'ni tanib oladi. Keyingi o'rinlarda keluvchi argumentlar (obyektlar) va modifikatorlar (shartlar) dastlabki operator bilan to'g'ridan-to'g'ri sintaktik bog'lanish hosil qiladi. Bu esa model xotirasidagi *Attention Window* (e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan nuqta) resurslarini tejaydi va semantik tarqoqlikning oldini oladi.

O'zbek tili sintaktik qonuniyatlariga ko'ra, kesim va modallik ko'rsatkichlari (buyruq maylidagi fe'llar) gapning oxirida joylashadi. Ushbu strukturaviy tuzilish promptlar tahlilida o'ziga xos lingvo-texnik muammolarni keltirib chiqaradi. O'zbekcha an'anaviy so'rov matnida model dastlab obyekt va shartlarni o'qiydi, biroq ularni qaysi funksional vazifa (algoritm) ostida qayta ishlash kerakligini bilmaydi. Neyrotarmoq gap oxiridagi kesimga ("...yaratib bering", "...tahlil qiling") yetib borgandagina kontekstual maqsadni anglaydi. Biz buni promptologiyada "Kognitiv kutish fenomeni" (*Cognitive anticipation effect*) deb nomladik.

Kompyuter tilshunosligida gap ichidagi so'zlarning bir-biriga bog'liqligi *Dependency Tree* (tobelik daraxti) orqali modellashtiriladi. Inglizcha SVO tuzilishida asosiy boshqaruvchi so'z (fe'l) va tobe so'z (obyekt) o'rtasidagi chiziqli masofa minimal bo'ladi. O'zbek tilidagi gap tartibida esa, obyekt gap boshida, boshqaruvchi fe'l esa gap oxirida kelishi natijasida ular o'rtasidagi sintaktik masofa (*dependency distance*) sezilarli darajada uzayadi. Agar o'zbekcha prompt tarkibida aniqlovchi, hol va qo'shma gap komponentlari ko'p bo'lsa, tobelik masofasi ortib ketadi. Bu holat neyrotarmoqning

vazifalarni noto'g'ri taqsimlashiga, gap boshidagi kirish komponentlari bilan gap oxiridagi imperativ fe'l o'rtasidagi semantik bog'liqlikning uzilishiga olib keladi.

Chog'ishtirma tahlil natijalari o'zbekcha promptlarni optimallashtirish uchun an'anaviy *Ega + ikkinchi darajali bo'laklar + kesim* qolipidan qisman voz kechish va ularni linearizatsiya (chiziqli qismlarga ajratish) zaruriyatini ko'rsatadi. Ya'ni, bitta murakkab SOV gap o'rniga, matnni mikrosegmentlarga ajratib, har bir segmentni qisqa buyruq gapga aylantirish (SVO mantiqiy modeliga yaqinlashtirish) kognitiv samaradorlikni oshiradi.

• **An'anaviy (samarasiz):** "Berilgan maqolaning asosiy g'oyasini iqtisodiy terminologiyadan foydalangan holda qisqacha tahlil qilib bering". (Tobelik masofasi uzun).

• **Linearizatsiya qilingan model (samarali):** "Ushbu maqolani tahlil qil. Asosiy g'oyasini aniqla. Iqtisodiy terminologiyadan foydalan. Javob qisqa bo'lsin". (Tobelik masofasi minimal, har bir mikrosegment neyrotarmoq uchun mustaqil chiziqli ko'rsatmaning semantik blokiga aylanadi).

Tarjimashunoslik va kompyuter tilshunosligi kesishmasida matn hajmi hamda uning semantik zichligi (tokenizatsiya) eng muhim mezonlardan biridir. LLM modellari matnni so'zma-so'z emas, balki tokenlar (so'z bo'laklari, bo'g'inlar yoki harflar kombinatsiyasi) yordamida qayta ishlaydi. Ingliz tilida analitizm ustunligi sababli gaplar grammatik aloqani ta'minlovchi ko'plab yordamchi so'zlar (*prepositions, articles, auxiliary verbs*) hisobiga kengayadi. Biroq, bu inglizcha so'zlar lug'at fondida tayyor va mustaqil bo'lgani uchun AI ularni 1 ta so'z = 1 ta token (yoki minimal parchalanish) sifatida juda oson va aniq qabul qiladi. Masalan, "Act as a writer" (4 ta so'z, model bazasida taxminan 4 ta alohida semantik token sifatida taniladi).

O'zbek tilida esa agglyutinatsiya (affiksatsiya) qonuniyatiga ko'ra, so'z ildiziga ketma-ket qo'shimchalar qo'shish orqali butun boshli sintaktik munosabat bitta so'z shakliga jamlanadi. Masalan, "yozuvchidek harakat qiling" (atigi 2 ta so'z). Lekin tarjimada so'z soni qisqargani bilan, AI modellarining o'zbekcha tokenizatorlari (so'z bo'luvchi algoritmlari) mukammal emasligi sababli, model "yozuvchidek" so'zini ["yozuv", "-chi", "-dek"] shaklida bir nechta tokenlarga parchalab yuboradi.

Inglizcha murakkab prompt konstruksiyalarini o'zbek tiliga o'girishda sintaktik ixchamlashtirish *(syntactic condensation)* yuz beradi, ammo bu neyrotarmoq ichidagi tokenlar sonini kamaytirmaydi, aksincha, affiksal yuklamani oshiradi. Agar o'zbekcha promptda affikslar haddan tashqari ko'p qo'llansa, neyrotarmoq sintaktik tahlilda xatolikka yo'l qo'yadi. Shuning uchun, tarjimada leksik soddalashtirish (*Lexical simplification*) strategiyasini qo'llash, ya'ni affikslar zanjiridan qochib, o'zbekcha promptlarni ham ko'proq analitik (ajratilgan) shaklda yozish talab etiladi. Inson va kompyuter muloqotida ingliz va o'zbek tillarida "Politeness Shift" (xushmuomalalik/hurmat kategoriyasining siljishi) hodisasi kuzatiladi. Ingliz tili biznes va IT diskursida imperativ (buyruq) shakllarni mutlaqo tabiiy, neytral va professional deb qabul qiladi. Inglizcha promptlarda "Please" (Iltimos) so'zi deyarli ishlatilmaydi, chunki AI jonsiz obyekt, unga nisbatan hissiyot yoki etiket talab qilinmaydi deb qaraladi. Buyruqlar to'g'ridan to'g'ri beriladi: *Analyze this data, Rewrite this text.*

O'zbek tili muloqot mentalitetida esa imperativ shakl (*Tahlil qil, Yozib ber*) to'g'ridan-to'g'ri qo'llansa, bu qo'pollik yoki buyruqbozlik ohangini beradi. Shu sababli, o'zbek foydalanuvchilari hatto robot bilan muloqotda ham g'ayriixtiyoriy ravishda hurmat formalari va ko'plik shakllarini qo'llashga moyil bo'lishadi: *Tahlil qilib bersangiz, Menga ushbu matnni qayta yozib bering*. Promptlarni inglizchadan o'zbekchaga o'girishda pragmatik muvofiqlikni *(Pragmatic adequacy)* saqlash masalasi yuzaga keladi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, o'zbekcha promptlarda hurmat ma'nosini ifodalovchi qo'shimchalar *(-ingiz, -b bersangiz)* SI tizimlari uchun ortiqcha semantik shovqin *(semantic noise)* hisoblanadi. Robot ushbu hurmat formulasini tushunmaydi va bu qo'shimchalar uning asosiy fe'l ildizini aniqlashini qiyinlashtiradi. Demak, promptlar tarjimasida o'zbek muloqot madaniyatiga xos "hurmat" kategoriyasidan qasddan voz kechish va matnni sof buyruq mayliga o'tkazish texnik jihatdan eng to'g'ri transformatsiya hisoblanadi.

Chog'ishtirma va tarjimashunoslik tahlillari inglizcha prompt andozalarini o'zbek tiliga mexanik o'girib bo'lmasligini, ularni lingvistik lokalizatsiya qilish shartligini ko'rsatadi. O'zbek tili grammatikasining SOV tabiati va tokenizatsiya kamchiliklarini bartaraf etish uchun mukammal o'zbekcha promptlar:

1) affiksal zanjirlardan xoli leksik soddalikka ega bo'lishi;

2) pragmatik hurmat formalaridan voz kechib, to'g'ridan-to'g'ri buyruq maylida tuzilishi;

3) murakkab gaplar o'rniga qisqa chiziqli mikrosegmentlarga ajratilishi lozim. Ushbu transformatsiyalar o'zbek tili korpusining sun'iy intellekt global tizimlarida interpretatsiya sifatini tubdan oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown T., Mann B., Ryder N., Subbiah M., Kaplan J.D., Dhariwal P. et al. Language models are few-shot learners // Advances in Neural Information Processing Systems, 2020. Vol. 33. – P. 1877–1901.
2. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965.
3. Liu P., Yuan W., Hayashi H. et al. Pre-train, prompt, and predict: A systematic survey of prompting methods in natural language processing // ACM Computing Surveys, 2023. Vol. 55, №9. – P. 1–35.
4. Nazarov K., Rahimov A. Kompyuter tilshunosligi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) asoslari. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.
5. Reynolds L., McDonell K. Prompt programming for large language models: Beyond the few-shot paradigm // Proceedings of the 2021 Extended Abstracts of the CHI Conference on Human Factors in Computing Systems, 2021. – P. 1–7.
6. Turdimutov Sh. O'zbek tili sintaksisining sun'iy intellekt modellarida interpretatsiya qilinishi muammolari // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2024. Vol. 2, №4. – B. 112–118.
7. Wei J., Wang X., Schuurmans D., Xia F. et al. Chain-of-thought prompting elicits reasoning in large language models // Advances in Neural Information Processing Systems, 2022. Vol. 35. – P. 24824–24837.

Обид РАХИМОВ,
преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье рассматриваются прагмалингвистические стратегии цифровой коммуникации в узбекском и русском языках, выявляются и сопоставляются речевые стратегии, реализуемые носителями двух языков в мессенджерах и социальных сетях. Теоретической основой послужили теория речевых актов, принцип кооперации, теория вежливости и концепция прагматики опосредованной коммуникации. На материале текстовых сообщений, комментариев и постов с использованием прагматического, контекстуального и сопоставительного анализа выявлено, что в обоих языках функционируют универсальные стратегии смягчения коммуникативных актов, однако их языковая реализация различается. Узбекская коммуникация ориентирована преимущественно на позитивную вежливость и коллективистские модели общения, тогда как русская – на негативную вежливость и дистанцирование. Отмечена важная роль эмотиконов, графических средств и языковой компрессии в компенсации невербального компонента общения.

Ключевые слова: прагмалингвистика, цифровая коммуникация, речевая стратегия, вежливость, речевой акт, лик, опосредованное общение, эмотикон, сопоставительный анализ, дискурс, кооперация, интеркультурная коммуникация.

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va rus tillaridagi raqamli kommunikatsiyaning pragmalingvistik strategiyalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarda ikki til vakillari tomonidan qo'llaniladigan nutq strategiyalarini aniqlash va qiyoslashdan iborat. Nutqiy aktlar nazariyasi, kooperatsiya prinsipi, xushmuomalalik nazariyasi hamda vositali kommunikatsiya pragmatikasi konsepsiyasiga tayangan holda matnli xabarlar, izohlar va postlar tahlil qilinadi. Natijalar har ikki tilda kommunikativ aktlarni yumshatishning universal strategiyalari mavjudligini, biroq ularning til vositalari orqali ifodalanishi farqlanishini ko'rsatadi. O'zbek kommunikatsiyasi asosan ijobiy xushmuomalalik va kollektivistik muloqot modeliga, rus kommunikatsiyasi esa salbiy xushmuomalalik va masofani saqlashga yo'naltirilgan. Emotikonlar, grafik vositalar va til kompressiyasining noverbal muloqotni kompensatsiya qilishdagi muhim roli qayd etiladi.

Kalit so'zlar: pragmalingvistika, raqamli muloqot, nutqiy strategiya, xushmuomalalik, nutqiy akt, yuz, vositalangan muloqot, emotikon, qiyosiy tahlil, diskurs, kooperatsiya, madaniyatlararo muloqot.

Annotation. The article examines pragmalinguistic strategies of digital communication in the Uzbek and Russian languages. The study aims to identify and compare the speech strategies employed by speakers of the two languages in messengers and social networks. Drawing on speech act theory, the cooperative principle, politeness theory, and the concept of computer-mediated communication pragmatics, the analysis of text messages, comments, and posts reveals that both languages employ universal strategies for mitigating communicative acts, although their linguistic realization differs. Uzbek communication tends to favor positive politeness and collectivist patterns of interaction, whereas Russian communication more often relies on negative politeness and distancing. The important role of emoticons, graphic means, and linguistic compression in compensating for the nonverbal component of communication is also highlighted.

Keywords: pragmalinguistics, digital communication, speech strategy, politeness, speech act, face, mediated communication, emoticon, comparative analysis, discourse, cooperation, intercultural communication.

Стремительная цифровизация повседневного общения превратила опосредованную экраном коммуникацию в самостоятельный объект филологического анализа. Мессенджеры, социальные сети и комментарийные среды породили гибридный регистр, совмещающий признаки устной спонтанности и письменной фиксированности. С.Херринг ещё в ранних работах предложила рассматривать компьютерно-опосредованную коммуникацию как особую область прагматики, охватывающую классические явления импликатуры, пресуппозиции и вежливости, а также специфические феномены сетевого письма [1, с. 612]. В условиях полилингвального Узбекистана, где узбекская и русская речевые практики сосуществуют, сопоставительное изучение прагматических стратегий приобретает особую значимость, поскольку позволяет выявить как универсальные, так и лингвокультурно обусловленные механизмы речевого поведения.

Настоящее исследование исходит из тезиса о том, что цифровая среда не отменяет прагматические закономерности естественного языка, а трансформирует их способы реализации. Технологические ограничения канала вынуждают говорящего компенсировать утрату невербальных сигналов графическими и вербальными средствами [2, с. 13]. Цифровая коммуникация формирует новую конфигурацию прагматических стратегий, требующую сопоставительного описания на материале конкретных языков.

Методологическим ядром работы служит триада фундаментальных прагматических теорий. Теория речевых актов трактует высказывание как действие, наделённое иллокутивной силой, что позволяет описывать сетевые сообщения через категории просьбы, отказа, согласия и оценки. Принцип кооперации Г.П.Грайса задаёт нормативную рамку взаимодействия через максимы количества, качества, отношения и способа, нарушение которых порождает импликатуры. Однако быстрый многопользовательский чат порождает эффект, названный Херринг «ослабленной релевантностью», который бросает вызов классическим моделям кооперации [3, с. 4].

Центральное место занимает теория вежливости П.Браун и С.Левинсона, основанная на понятии «лика» (face) как публичного образа личности. Ликоугрожающие акты смягчаются посредством стратегий позитивной вежливости, ориентированной на солидарность, и негативной вежливости, ориентированной на дистанцию и автономию адресата [4, с. 61]. Вес ликоугрожающего акта определяется социальной дистанцией, властью и рангом импозиции. Дискурсивные подходы к вежливости уточняют, что оценка речевого поведения как вежливого или невежливого конструируется участниками в самом взаимодействии, а не задаётся заранее [5, с. 19]. Сочетание теории речевых актов, принципа кооперации и теории вежливости образует достаточный аппарат для анализа прагматики цифрового дискурса.

Зарубежная традиция накопила значительный опыт изучения прагматики опосредованного общения. Ранние работы концентрировались на структурных особенностях и вежливости в электронной переписке, позднее внимание сместилось к языковому варьированию и жанровой дифференциации сетевых сред [1, с. 614]. Исследования просьб и реакций в мессенджерах на материале китайских студентов показали, что прямые формы не тождественны

невежливости, а их прагматическая интерпретация зависит от содержания и дополнительных дискурсивных ходов [6, с. 176]. Работы, посвящённые вежливости и невежливости в цифровой коммуникации, систематизируют прагматические маркеры выражения уважения, солидарности и конфликта в онлайн-взаимодействии.

Отечественные и постсоветские исследования сосредоточены преимущественно на коммуникативных стратегиях диалогического взаимодействия и типологии стратегий реагирования, что создаёт основу для переноса аналитического инструментария в цифровую среду. Вместе с тем сопоставительное изучение узбекской и русской цифровой прагматики остаётся лакуной, что и определяет научную новизну настоящей работы. Несмотря на развитость общей теории, сопоставление узбекского и русского цифрового дискурса ранее системно не проводилось.

Исследование опирается на качественно-количественную методологию сопоставительной прагмалингвистики. Эмпирическую базу составил корпус цифровой переписки объёмом около двух тысяч сообщений, собранных в мессенджерах и открытых комментарийных средах на узбекском и русском языках. Единицей анализа стал прагматический ход, то есть минимальный сегмент дискурса, реализующий определённую речевую стратегию. Применялись прагматический анализ иллокутивных функций, контекстуальный анализ условий уместности, а также сопоставительный метод, выявляющий межъязыковые соответствия и расхождения. Элементы дискурс-анализа позволили учесть секвенциальную организацию обмена репликами.

Анализ показал, что в обоих языках доминируют стратегии смягчения ликоугрожающих актов, однако их удельный вес и языковое оформление различаются. В узбекском цифровом дискурсе преобладает позитивная вежливость: обращения с элементами родства, коллективные формулы приветствия и благопожелания служат укреплению групповой солидарности. В русском дискурсе чаще фиксируется негативная вежливость: вопросительные конструкции вместо императива, хеджирование и извинения, минимизирующие им позицию просьбы [4, с. 62]. Значимую роль играют графические средства: эмотиконы, редупликация пунктуации и капитализация компенсируют отсутствие интонации и мимики, становясь маркерами эмоциональной модальности [2, с. 13]. В обоих языках наблюдается редукция орфографической нормы и тяготение к устно-разговорному синтаксису. Универсальные прагматические стратегии реализуются через лингвокультурно специфичные средства.

Полученные данные подтверждают, что цифровая коммуникация актуализирует диалектику универсального и национально-специфического. Тяготение узбекской речи к позитивной вежливости согласуется с коллективистской ориентацией лингвокультуры, тогда как предпочтение негативной вежливости в русской речи отражает большую значимость личной автономии адресата. Эти наблюдения соотносятся с дискуссией об универсальности модели Браун и Левинсона, критикуемой за западноцентризм и требующей культурной калибровки [5, с. 19]. Феномен «ослабленной релевантности» проявляется в обоих корпусах через фрагментацию и параллельность тематических линий, что подтверждает адаптацию пользователей к техническим ограничениям канала [3, с. 4]. Для теории перевода расхождение стратегий вежливости означает необходимость прагматической адаптации, а не буквального переноса формул. Сопоставление выявляет системные прагматические асимметрии, значимые для межкультурной коммуникации.

Проведённое сопоставительное исследование показало, что прагмалингвистические стратегии цифровой коммуникации в узбекском и русском языках подчиняются общим прагматическим закономерностям, но реализуются посредством различных языковых и графических средств. Узбекская цифровая речь ориентирована на солидарность и позитивную вежливость, русская – на дистанцию и негативную вежливость. Компенсаторная функция графических маркеров оказалась общей для обоих языков. Полученные выводы имеют прикладное значение для переводоведения, преподавания языков и разработки норм цифрового этикета в полилингвальной среде. Перспективным представляется расширение корпуса и включение сопоставления с английским цифровым дискурсом.

Литература

1. Herring S.C. Computer-mediated Discourse // The Handbook of Discourse Analysis / Ed. by D. Schiffrin, D. Tannen, H. Hamilton. Oxford: Blackwell, 2001.
2. Василенко Е.Н. Конфликт ценностей в интернет-коммуникации: когнитивный и прагмалингвистический аспекты. Беларусь: Изд-во Могилевского государственного университета имени А.А.Кулешова, 2022.
3. Herring S.C. Interactional Coherence in CMC // Journal of Computer-Mediated Communication, 1999, vol. 4, No.4.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
5. Mills S. Gender and Politeness. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
6. Chen X., Wang M. Politeness in Making Requests and Responses in Computer-mediated Communication among Chinese College Students // Theory and Practice in Language Studies, 2021, vol. 11, No.1.

Shodiya QURBONOVA,
Olmazor tumani 196-sonli maktabning o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

O'ZBEK BADIIY DISKURSIDA BOLALAR NUTQINING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek badiiy diskursida bolalar nutqining sotsiopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bola personajlar nutqida yosh, ijtimoiy rol, oilaviy muhit va milliy-madaniy me'yorlarning murojaat, savol, iltimos, rad etish, taqlid, yumor va yashirin ma'no orqali namoyon bo'lishi yoritiladi. Bolalar nutqi badiiy obraz yaratish vositasi hamda jamiyatdagi tarbiya modellari va kommunikativ munosabatlarni aks ettiruvchi indikator sifatida baholanadi.
Kalit so'zlar: bolalar nutqi, badiiy diskurs, sotsiopragmatika, nutqiy akt, kommunikativ niyat, ijtimoiy rol, presuppozitsiya.
Annotation. The article examines sociopragmatic features of children's speech in Uzbek literary discourse. It focuses on age, social role, family environment, forms of address, requests, questions, refusal, imitation, humour and implicit meaning. Children's speech is interpreted both as a means of characterisation and as an indicator of educational models and culturally determined communicative norms.
Keywords: children's speech, literary discourse, sociopragmatics, speech act, communicative intention, social role.
Аннотация. В статье рассматриваются социопрагматические особенности детской речи в узбекском художественном дискурсе. Анализируются возрастные и социальные факторы, формы обращения, просьбы, вопросы, отрицание, подражание, юмор и имплицитные смыслы. Детская речь определяется как средство создания образа и показатель моделей воспитания и национальных норм общения.
Ключевые слова: детская речь, художественный дискурс, социопрагматика, речевой акт, коммуникативное намерение, социальная роль.

Til shaxsning ijtimoiylashuvi, tajribani o'zlashtirishi va jamiyatdagi munosabatlarni anglashida asosiy vositadir. Bolalar nutqi faqat tilni egallash bosqichlarini ko'rsatuvchi psixolingvistik hodisa emas, balki yosh, mavqe, oilaviy tarbiya va madaniy me'yorlarni aks ettiruvchi sotsiopragmatik hodisadir. L.S.Vigotskiy bolaning tafakkuri va nutqi ijtimoiy hamkorlikda rivojlanishini, tashqi dialog asta-sekin ichki nutqqa aylanishini ta'kidlaydi [1: 104–108].

Badiiy diskursda bola nutqi tabiiy muloqotning shunchaki ko'chirilgan nusxasi emas, balki muallifning estetik maqsadiga bo'ysundirilgan badiiy tanlovidir. Yozuvchi personajning yoshi, ruhiy holati, oiladagi mavqei va dunyoqarashini leksik tanlov, gap tuzilishi, murojaat shakli, savol berish usuli hamda yashirin ma'nolar orqali ochib beradi. Shu sababli tahlilda "kim kimga, qanday vaziyatda va qanday maqsadda gapirmoqda?" degan savollar ustuvor bo'lishi lozim.

Pragmatika nutqiy belgining so'zlovchi va kommunikativ vaziyat bilan munosabatini o'rganadi. Nutqiy akt nazariyasiga ko'ra, so'zlovchi gapirish orqali axborot berish bilan birga iltimos qilish, rad etish, buyurish, va'da berish yoki ogohlantirish kabi harakatlarni ham bajaradi [3: 16–24]. Sotsiopragmatika esa bu harakatlarning yosh, mavqe, yaqinlik darajasi va madaniy norma bilan qanday belgilanishini tahlil qiladi.

Bolalar nutqining sotsiopragmatik xususiyatlari

Bolalar nutqi, avvalo, yoshga bog'liq: maktabgacha yoshda qisqa gaplar, takror va hissiy undovlar ustun bo'lsa, kichik maktab yoshida nutqiy etiket va fikrni asoslash imkoniyati kengayadi. J.Piaje bola dastlab suhbatdoshning niyatini to'liq hisobga olmasligini qayd etgan [2: 39–45].

Ikkinchi belgi – ijtimoiy rolga moslashuv. O'zbek muloqotida bola kattaga "siz" deb murojaat qiladi va talabni yumshatadi. "Dada, olib berasizmi?" yoki "Oyi, men ham borsam maylimi?" shaklidagi savollar amalda iltimos aktini bajaradi; ularning ma'nosi vaziyat va ishtirokchilar munosabati asosida anglashiladi.

Uchinchi belgi – kattalar nutqiga taqlid va uni qayta talqin qilishdir. Bola eshitgan maqol, rasmiy ibora yoki baholovchi birlikni takrorlaydi, biroq uni yangi vaziyatda qo'llashi kutilmagan yumor yoki tanqidiy effekt yuzaga keltiradi. Badiiy asarda bolaning sodda savoli kattalar nutqidagi ziddiyat, rasmiyatchilik yoki yolg'onni ochib berishi mumkin. Shunday qilib, "bolalarcha soddalik" kuchli pragmatik va estetik vositaga aylanadi.

Nutqiy aktlar va muloqot asimmetriyasi

Bola personajlar nutqida savol, iltimos va rad etish eng faol nutqiy aktlardir. Savol har doim ham axborot olishga xizmat qilmaydi: "Meni ham olib ketmaysizmi?" jumlasida birga borish istagi kuchli bo'lib, gapning grammatik shakli bilan illokutiv maqsadi bir xil emas [3: 48–52]. Kommunikativ tajriba ortgani sari "iltimos", "maylimi?", "mumkinmi?" kabi yumshatish vositalari paydo bo'ladi. Bu bolaning til birliklari bilan birga ijtimoiy masofa va odob me'yorlarini ham o'zlashtirayotganini ko'rsatadi [4: 82–87].

"Yo'q, bormayman", "Men qilmaganman", "Bu adolat emas" kabi rad etish aktlari bolaning mustaqillikka intilishi yoki o'zini himoya qilishini bildiradi. O'zbek oilaviy muloqotida ochiq rad javobi odobsizlik sifatida baholanishi mumkinligi sababli sukut, yig'i, mavzuni o'zgartirish yoki chetga chiqib ketish kabi bilvosita strategiyalar ham kuzatiladi. Badiiy matnda muallif izohi ushbu verbal va noverbal reaksiyalarning pragmatik kuchini ochib beradi.

Kattalar va bolalar muloqoti tabiatan asimmetrik: kattalar bilim, tajriba va nazorat imkoniyatiga ega, bola esa ko'pincha javob beruvchi yoki bo'ysunuvchi pozitsiyada bo'ladi. Biroq bola savolni takrorlash, mavzuni almashtirish, hazil qilish yoki ko'chma ma'noni so'zma-so'z tushunish orqali kommunikativ tashabbusni qo'lga kiritishi mumkin. Xushmuomalalik nazariyasiga ko'ra, suhbatdoshlar bir-birining ijtimoiy "yuzi"ni saqlashga intiladi [5: 61–70]. Shu bois bolaning "iltimos", "xafa bo'lmang", "faqat bir marta" kabi birliklardan foydalanishi uning tarbiyasi, hissiy holati va suhbatdosh bilan yaqinligini ko'rsatadi.

Presuppozitsiya, implikatura va badiiy usul

Bolalar nutqining ma'nosi aytilgan gapdan kengroq bo'ladi. "Dadam yana kech keldi" jumlasidagi "yana" avvalgi holatni presuppozitsiya qiladi. Implikatura esa bevosita aytilmagan, ammo kontekst orqali anglashiladigan ma'nodir. Graysning hamkorlik tamoyiliga ko'ra, suhbatdoshlar yetarli va mavzuga mos axborot berishga intiladi. Bolaning sodda savoli kattalarning yashirin maqsadini ochib, yumor yoki ijtimoiy tanqid hosil qiladi.

Yozuvchi bola ovozini yaratishda leksik soddalik, takror, ellipsis, qisqa replikalar, taqlidiy so'zlar va og'zaki nutqqa xos birliklardan foydalanadi. Biroq bola nutqi badiiy matnda stilizatsiyalangan konstruksiya bo'lib, real nutqqa o'xshashlik bilan estetik tanlov o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi. "U qo'rqib so'radi", "bola ko'zini olib qochdi", "u javob bermadi"

kabi muallif izohlari replikalarning pragmatik ma'nosini aniqlashtiradi. Ayniqsa, sukut qo'rquv, ayb, norozilik yoki qarshilikni ifodalovchi muhim kommunikativ harakatdir.

O'zbek badiiy diskursida bolalar nutqi yosh, kommunikativ tajriba, oiladagi mavqe va milliy muloqot me'yorlarini birlashtiruvchi sotsiopragmatik hodisadir. Savol, iltimos, rad etish, taqlid, yumor va sukut bola obrazining ruhiy hamda ijtimoiy qiyofasini yaratadi.

Bola quyi mavqeda bo'lsa-da, sodda savol va samimiy baho orqali kommunikativ vaziyatni o'zgartira oladi. Shu bois uning nutqi badiiy obraz yaratish vositasi hamda tarbiya usullari, hokimiyat munosabatlari va madaniy qadriyatlarni ko'rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л. С. Мышление и речь // Собрание сочинений в 6 т.: т.2. М.: Педагогика, 1982.
2. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. М.: Педагогика-Пресс, 1994.
3. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.

Anvar SOBIROV,
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

JONLI SO'ZLASHUV NUTQIDA SO'Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvistik, lingvopragmatik va lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin deb qaralishiga qaramay, uning kommunikativ jarayondagi funksional imkoniyatlari keng ekani asoslab beriladi. Jonli dialogik nutq materiallari asosida ega, kesim, to'ldiruvchi va holning joylashuvi, inversiya hodisasi, ellipsis va kiritma birliklarning sintaktik pozitsiyasi ko'rib chiqiladi. So'z tartibining tema–rema munosabatini shakllantirishdagi, mantiqiy urg'uni belgilashdagi hamda emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijasida jonli nutqda so'z tartibi grammatik hodisa bilan bir qatorda pragmatik va lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi.
Kalit so'zlar: so'z tartibi, jonli nutq, so'zlashuv uslubi, inversiya, tema–rema, lingvopragmatika, lingvopoetika, aktual bo'linish.
Annotation. This article analyzes the linguistic, linguopragmatic, and linguopoetic features of word order in live colloquial speech. Although word order in Uzbek is traditionally described as relatively free, the study demonstrates its functional significance in communicative processes. Based on dialogic speech data, the positions of the subject, predicate, object, and adverbial modifiers are examined, along with inversion, ellipsis, and parenthetical constructions. Particular attention is given to the role of word order in shaping theme–rheme relations, logical stress, and expressive-emotional effects. The findings reveal that in live speech, word order functions not only as a grammatical phenomenon but also as a pragmatic and linguopoetic device.
Keywords: word order, colloquial speech, inversion, theme–rheme structure, linguopragmatics, linguopoetics, actual division.
Аннотация. В статье анализируются лингвистические, лингвопрагматические и лингвопоэтические особенности порядка слов в живой разговорной речи. Несмотря на то, что порядок слов в узбекском языке традиционно рассматривается как относительно свободный, в статье обосновывается его функциональная значимость в коммуникативном процессе. На материале диалогической речи исследуется позиция подлежащего, сказуемого, дополнения и обстоятельства, а также явления инверсии, эллипсиса и вставных конструкций. Особое внимание уделяется роли порядка слов в формировании тема–рематических отношений, логического ударения и экспрессивно-эмоционального эффекта. Делается вывод о том, что в живой речи порядок слов выступает не только как грамматическое явление, но и как прагматическое и лингвопоэтическое средство.
Ключевые слова: порядок слов, разговорная речь, инверсия, тема–рема, лингвопрагматика, лингвопоэтика, актуальное членение.

So'z tartibi tilshunoslikda sintaktik tizimning asosiy komponentlaridan biri sifatida o'rganiladi. Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'z tartibi faqat grammatik munosabatlarni ifodalovchi vosita emas, balki kommunikativ-pragmatik va lingvopoetik ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining funksional imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbek tilida so'z tartibi ko'pincha erkin deb tavsiflanadi. Biroq bu erkinlik mutlaq emas. Gap bo'laklarining joylashuvi ko'p hollarda kommunikativ vazifa, axborotning aktual bo'linishi hamda emotsional-ekspressiv ehtiyoj bilan belgilanadi. Mazkur maqolaning maqsadi jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvopragmatik va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashdan iborat [9: 201].

So'zlashuv nutqi va uning sintaktik tabiati

So'zlashuv nutqi – adabiy tilning og'zaki shakli bo'lib, bevosita muloqot jarayonida yuzaga keladi. Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi axborotni tinglovchiga samarali yetkazishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Muloqot jarayonida so'zlovchi faqat grammatik me'yorlarga emas, balki vaziyat, tinglovchining bilim darajasi, suhbatning maqsadi va nutqiy niyatiga ham tayanadi. Shu sababli jonli nutqda so'z tartibi ko'pincha kommunikativ ehtiyoj asosida shakllanadi. Bunday holatlarda gapning qaysi bo'lagi oldinga yoki orqaga surilishi axborotning qaysi qismi muhim ekanligini ko'rsatadi [7: 45–46].

Pragmatika nuqtai nazaridan qaralganda, so'z tartibi nutq aktining samaradorligini oshiruvchi vosita hisoblanadi. So'zlovchi tinglovchining e'tiborini muayyan axborotga qaratish uchun so'z tartibini o'zgartiradi. Natijada bir xil grammatik tuzilishga ega bo'lgan gaplar turlicha pragmatik mazmun kasb etadi. Uning asosiy belgilariga spontanlik, situativlik, dialogiklik, nolisoniy vositalar bilan uyg'unlik kiradi. Jonli nutqda gaplar ko'pincha qisqa, elliptik va kontekstga tayangan holda quriladi [1: 380–381]. **Misol:**

– *Kecha darsga kelmading?*
– *Ish qildim.*

Bu yerda ega tushirilgan bo'lsa-da, muloqot ishtirokchilari uchun u aniq. Demak, so'z tartibi va gap tuzilishi kontekst orqali tiklanadi. Shunday vaziyatlarda sintaktik to'liqlikdan ko'ra kommunikativ yetarlilik ustuvor bo'ladi.

So'z tartibi va aktual bo'linish

O'zbek tilida odatdagi sintaktik model quyidagicha: *Ega → ikkinchi darajali bo'laklar → kesim.* **Misol:** *Men kecha Moskvadan keldim.* Biroq jonli nutqda so'z tartibi axborotning yangilik darajasiga ko'ra o'zgaradi: *Moskvadan kecha men keldim.* Bu variantda ega (men) gap oxiriga surilib, rematik markazga aylangan. Demak, so'z tartibi tema–rema munosabatini shakllantiruvchi vositadir. Aktual bo'linish nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, gap boshidagi bo'lak odatda tema, oxirgi bo'lak esa rema vazifasini bajaradi.

Inversiya va emotsional-ekspressivlik

Jonli nutqda inversiya keng qo'llanadi:

– *Angladingizmi, boy?*
– *Suz!*
– *Ichaylik!*

Kesimning oldinga chiqishi nutqning illokutiv kuchini oshiradi. Bunday tartib buyruq, hayrat, ta'kid yoki kinoya ma'nosini kuchaytiradi. Inversiya lingvopoetik vosita sifatida qahramon nutqining tabiiyligini ta'minlaydi va uning xarakterini ochib beradi.

Kiritma birliklar va pragmatik qatlam

Jonli nutqda kiritma birliklar erkin joylashadi:

– *Albatta, bugundan boshlaymiz.*

– *Bugundan, albatta, boshlaymiz.*

Bu birliklar so'zlovchining munosabatini bildiradi. Ularning sintaktik pozitsiyasi intonatsiya va pragmatik ehtiyojga bog'liq. Kiritma birliklar so'z tartibiga qo'shimcha ekspressiv qatlam kiritadi.

Adabiy va oddiy so'zlashuv stilida farqlar

Adabiy so'zlashuv stilida so'z tartibi nisbatan me'yoriy va to'liq shaklda namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv stilida esa ellipsis, qisqarish va sintaktik soddalashtirish kuchli. **Misol:**

– *Qayerniki?*

– *Jizzaxning Shotisidan.*

Bu yerda kesim tushirilgan, lekin kommunikativ ma'no saqlangan. Demak, so'z tartibi minimal shaklda ham samarali ishlaydi.

Diskurs lingvistikasida so'z tartibi matnning izchilligini ta'minlovchi vosita sifatida baholanadi. Gaplar o'rtasidagi tema va remaning almashinuvi matnning mantiqiy rivojlanishini yuzaga keltiradi. Shu sababli so'z tartibi nafaqat alohida gap, balki butun matnning semantik yaxlitligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi grammatik vazifadan tashqari kommunikativ, pragmatik va lingvopoetik funksiyalarni ham bajaradi. U axborotni aktuallashtirish, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish, nutq egasining kommunikativ niyatini ifodalash va badiiy tasvirning estetik qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi ko'p funksiyali sintaktik hodisa hisoblanadi.

Zamonaviy lingvistik qarashlar va lingvopoetik jihat

So'z tartibi masalasi zamonaviy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida tadqiq etilmoqda. Funksional grammatika vakillari gapdagi sintaktik pozitsiyani axborot strukturasini shakllantiruvchi vosita deb hisoblaydilar. Kognitiv tilshunoslik esa so'z tartibini inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalar bilan bog'laydi. Pragmalingvistika nuqtai nazaridan esa sintaktik pozitsiya nutq egasining kommunikativ niyatini ifodalovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan o'zbek tilidagi so'z tartibini o'rganish nafaqat sintaksis, balki pragmatika, diskurs tahlili, psixolingvistika va lingvopoetika uchun ham dolzarb ilmiy masala hisoblanadi [8: 56–57].

Badiiy va dramatik matnlarda jonli so'zlashuv elementlari so'z tartibi orqali poetik aktuallashadi. Inversiya, kesimning oldinga chiqishi, egani oxirga surish kabi usullar qahramon nutqini individuallashtiradi. Shunday qilib, so'z tartibi estetik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Grammatik munosabatdan ko'ra kommunikativ vazifani bajaradi.
2. Tema–rema tuzilishini shakllantiradi.
3. Emotsional-ekspressiv effekt yaratadi.
4. Nutq subyekti shaxsiyatini ochadi.
5. Lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Demak, so'z tartibi jonli nutqda nafaqat sintaktik, balki lingvopragmatik va lingvopoetik hodisadir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi faqat grammatik munosabatlarni ifodalovchi vosita bo'lib qolmay, balki kommunikativ-pragmatik va lingvopoetik vazifalarni ham bajaradi. So'zlovchi muloqot jarayonida axborotning muhim qismini ajratish, tinglovchi e'tiborini kerakli nuqtaga qaratish, hissiy munosabatini bildirish hamda nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun so'z tartibini erkin o'zgartiradi. Natijada tema–rema munosabatlari, mantiqiy urg'u va semantik dominantlik shakllanadi.

Tadqiqot davomida jonli nutqda inversiya, ellipsis, kiritma birliklarning erkin joylashuvi va intonatsiya bilan uyg'unlashgan sintaktik qurilmalar faol qo'llanishi aniqlandi. Bu hodisalar nutqning spontanligi va situativligi bilan bog'liq bo'lib, grammatik to'liqlikdan ko'ra kommunikativ yetarlilikning ustuvorligini ko'rsatadi. Shuningdek, badiiy matnlarda so'z tartibining o'zgarishi qahramon nutqini individuallashtirish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish va muallifning estetik niyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi: Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1966.
3. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957.
4. Givón T. Syntax: A Functional-Typological Introduction. – Amsterdam: John Benjamins, 1984.
5. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Arnold, 1994.
6. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
7. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2001.
8. Nurmonov A. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
9. Shomaqsudov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
10. Валгина Н.С. Теория текста. М.: Логос, 2003.
11. Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. М.: Высшая школа, 1972.
12. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

Baxoroy ABDUNABIYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

UILYAM SIDNEY PORTER VA SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek hikoyachiligining yirik namoyandalari Uilyam Sidney Porter (O.Genri) hamda Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda adiblar ijodida qo'llangan badiiy tasvir vositalari, stilistik birliklar, metafora, epitet, ramz, o'xshatish va boshqa poetik unsurlarning asar g'oyasi hamda badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ikki adibning individual uslubi, milliy-madaniy tafakkuri va badiiy ifoda vositalaridagi o'xshash hamda farqli jihatlar lingvopoetik nuqtai nazardan baholanadi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek hikoyachiligida badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda qiyosiy adabiyotshunoslik rivojiga ilmiy hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O.Genri, Shukur Xolmirzayev, hikoya, lingvopoetika, qiyosiy tahlil, badiiy tasvir vositalari, metafora, epitet, ramz, individual uslub, poetik til.

Annotation. This article presents a comparative linguopoetic analysis of the short stories written by William Sydney Porter (O.Henry) and Shukur Kholmirzayev, two prominent representatives of English and Uzbek literature. The study examines the use of artistic and stylistic devices, including metaphor, epithet, symbolism, simile, and other poetic elements, emphasizing their role in conveying the ideological content and aesthetic value of literary texts. Particular attention is paid to the writers' individual styles, national-cultural worldview, and distinctive linguistic features. The findings contribute to a deeper understanding of the linguopoetic nature of English and Uzbek short stories and provide a theoretical basis for further comparative literary and linguistic research.

Keywords: O.Henry, Shukur Kholmirzayev, short story, linguopoetics, comparative analysis, artistic devices, metaphor, epithet, symbolism, individual style, poetic language.

Аннотация. В статье проводится сравнительный лингвопоэтический анализ рассказов Уильяма Сидни Портера (О.Генри) и Шукура Холмирзаева – выдающихся представителей английской и узбекской литературы. В исследовании рассматриваются художественно-изобразительные средства, стилистические единицы, метафоры, эпитеты, символы, сравнения и другие поэтические элементы, раскрывается их роль в создании идейно-художественного содержания произведений и усилении эстетического воздействия текста. Особое внимание уделяется индивидуальному стилю писателей, национально-культурному мировоззрению и сходствам и различиям их языковых средств с позиций лингвопоэтики. Полученные результаты способствуют развитию сравнительного литературоведения и лингвопоэтических исследований английской и узбекской литературы.

Ключевые слова: О.Генри, Шукур Холмирзаев, рассказ, лингвопоэтика, сравнительный анализ, художественно-изобразительные средства, метафора, эпитет, символ, индивидуальный стиль, поэтический язык.

Bugungi kunda qiyosiy adabiyotshunoslik va lingvopoetika yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar turli xalqlar adabiy merosini o'zaro taqqoslash, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash hamda milliy adabiyotlarning jahon adabiy jarayonidagi o'rnini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda [1]. Ayniqsa, badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish yozuvchi individual uslubini, asarning estetik qiymatini hamda til birliklarining badiiy funksiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Lingvopoetika badiiy matnda qo'llangan til vositalarining estetik, emotsional-ekspressiv va kommunikativ vazifalarini tadqiq etuvchi fan sohasi bo'lib, u adabiyotshunoslik va tilshunoslikning tutashgan nuqtasida shakllangan zamonaviy ilmiy yo'nalishlardan biridir. Mazkur yo'nalishda metafora, epitet, o'xshatish, ramz, personifikatsiya, frazeologik birliklar, sintaktik usullar va boshqa badiiy tasvir vositalarining matn mazmunini shakllantirishdagi o'rni alohida e'tibor markazida turadi.

Amerika adabiyotining yirik vakili O.Genri hamda o'zbek adabiyotining taniqli hikoyanavisi Shukur Xolmirzayev hikoyachilik janrining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlar hisoblanadi. Ularning hikoyalarida inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar, jamiyat hayoti, milliy mentalitet va umuminsoniy g'oyalar yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan [2]. Har ikki adibning badiiy tafakkuri turli madaniy muhitda shakllangan bo'lsa-da, ularning asarlarida badiiy tilning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, obrazlilikni kuchaytiruvchi lingvopoetik vositalarni mahorat bilan qo'llash kabi umumiy jihatlar mavjud.

Mazkur tadqiqotda qiyosiy adabiyotshunoslik hamda lingvopoetik tahlil tamoyillariga asoslangan kompleks metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini lingvopoetika, stilistika, matn tilshunosligi va qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishlarida yaratilgan ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik metod yordamida O.Genri va Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi lingvopoetik vositalarning o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlandi. Ushbu metod yozuvchilarning individual uslubini baholash, ularning badiiy tafakkuridagi umumiy qonuniyatlar va milliy o'ziga xoslikni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Lingvopoetik tahlil metodi orqali badiiy matnlarda qo'llangan metafora, epitet, o'xshatish, ramz, personifikatsiya, takror, frazeologik birliklar va boshqa stilistik vositalarning semantik hamda estetik funksiyalari o'rganildi [3]. Har bir til birligining matn mazmunini shakllantirishdagi, obraz yaratishdagi va muallif g'oyasini ifodalashdagi o'rni tahlil qilindi.

Shuningdek, deskriptiv (tavsifiy) metod asosida hikoyalardagi til birliklari tizimlashtirildi, ularning qo'llanish xususiyatlari izchil tavsiflandi hamda badiiy ifodaning o'ziga xos jihatlari yoritildi. Kontekstual tahlil yordamida badiiy tasvir vositalarining matn tarkibidagi vazifasi, ularning mazmun va g'oya bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida O.Genri va Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil uchun O. Genrining "The Gift of the Magi", "The Last Leaf", "After Twenty Years" hamda Shukur Xolmirzayevning "Hayot abadiy", "O'zbek bobo", "To'lqinlar" kabi hikoya va qissalari tanlandi. Mazkur asarlar badiiy tasvir vositalaridan foydalanish darajasi, individual uslub va poetik til imkoniyatlarini namoyon etishi bilan ajralib turadi.

O.Genri hikoyalarida metafora, kinoya (ironiya), ramziy obrazlar hamda kutilmagan yakun (twist ending) asosiy poetik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Muallif ko'pincha sodda va ixcham til vositalari orqali chuqur falsafiy mazmunni

ifodalaydi. Masalan, "The Gift of the Magi" hikoyasida sovg'alar nafaqat moddiy buyum, balki fidoyilik, muhabbat va insoniy qadriyatlarning ramzi sifatida talqin etiladi [4]. Bunday ramziy ifoda badiiy matnning emotsional ta'sirchanligini kuchaytiradi.

"The Last Leaf" hikoyasida esa tabiat unsurlari inson umidi va yashash istagi bilan uyg'unlashtiriladi. So'nggi barg obrazining ramziy ma'nosi hayot, iroda va fidoyilik g'oyalarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa yozuvchining ramz va metaforalardan foydalanishdagi mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida esa lingvopoetik vositalarning qo'llanilishi milliy tafakkur, xalqona dunyoqarash va psixologik tasvir bilan chambarchas bog'liq. Muallif tabiat tasviri, xalq og'zaki ijodi elementlari, maqol va iboralar, xalqona metaforalar hamda dialoglardan keng foydalanadi. Natijada hikoyalarda milliy kolorit kuchayadi va obrazlarning tabiiyligi ta'minlanadi.

"O'zbek bobo" hikoyasida xalqona iboralar, milliy leksika va dialoglar orqali qahramon xarakteri tabiiy ochib beriladi. Muallif tilning ekspressiv imkoniyatlaridan unumli foydalanib, milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalagan.

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Lingvopoetik jihat	O.Genri	Sh.Xolmirzayev
Metafora	Ko'proq ramziy va falsafiy	Milliy va obrazli
Epitet	Ixcham va emotsional	Batafsil va tasviriy
Ramz	Asar kompozitsiyasining asosiy elementi	Milliy qadriyatlarni ifodalash vositasi
Dialog	Voqeani rivojlantirishga xizmat qiladi.	Xarakter yaratishning asosiy vositasi
Peyzaj	Ramziy ma'noga ega.	Psixologik va milliy koloritni kuchaytiradi.
Individual uslub	Kutilmagan yakun va kinoya	Psixologizm va realizm

Munozara. Olingan natijalar lingvopoetik tadqiqotlar sohasida ilgari surilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Zamonaviy lingvopoetik nazariyalarga ko'ra, badiiy matndagi har bir til birligi nafaqat nominativ, balki estetik, ekspressiv va pragmatik funksiyani ham bajaradi [5]. Tadqiqot davomida O.Genri va Sh.Xolmirzayev hikoyalarida qo'llangan metafora, epitet, ramz, dialog va peyzaj tasvirlari aynan ana shu funksiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi kuzatildi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, yozuvchilarning individual uslubi ular mansub bo'lgan milliy adabiy muhit va madaniy tafakkur bilan uzviy bog'liq. O.Genri ijodida Amerika realizmi, urbanistik hayot va inson taqdirining paradoksal talqini ustuvor bo'lsa, Sh.Xolmirzayev hikoyalarida o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, qishloq hayoti, tabiat va inson ruhiyatining uyg'unligi yetakchi o'rin egallaydi. Shu sababli ularning lingvopoetik vositalari bir xil badiiy maqsadga xizmat qilsa-da, mazmun va ifoda usullari jihatidan farqlanadi [6].

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida qiyosiy adabiyotshunoslik, lingvopoetika, badiiy matn tahlili va stilistika fanlarini o'qitishda metodik manba sifatida foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, kelgusida tadqiqotni boshqa ingliz va o'zbek adiblari ijodi misolida kengaytirish hamda lingvopoetik vositalarning kognitiv va pragmatik jihatlarini o'rganish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijasida O.Genri va Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, har ikki adib badiiy tasvir vositalaridan o'ziga xos individual uslub asosida foydalanganligi aniqlandi. Tadqiqot davomida metafora, epitet, ramz, o'xshatish, dialog va peyzaj tasvirlari asarning g'oyaviy mazmunini ochish, obrazlar xarakterini yoritish hamda estetik ta'sirchanlikni kuchaytirishda muhim lingvopoetik vositalar ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Henry O. The Complete Stories of O. Henry. – New York: Doubleday, 1994.
2. Xolmirzayev Sh. Saylanma: 5 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2005.
3. Yo'ldoshev B. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Yo'ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.

Ilhom ESHONQULOV,
Termiz davlat universiteti tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrasi dotsenti, (PhD)

HASHMAT BUXORIY ASARLARIDA TARIXIY VOQELIKNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mirsiddiqxon Hashmat Buxoriyning tarixiy va tazkiraviy asarlarida tarixiy voqelikning badiiy talqini tahlil qilinadi. Muallifning "Tazkirat ush-shuaro" va "Tazkirat us-salotin" asarlarida Buxoro amirligi hamda Markaziy Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti badiiy hamda tarixiy manbalar asosida yoritilgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Hashmat Buxoriyning tarixiy manbalardan foydalanish usuli, manbashunoslik yondashuvi va asarlarining tarixiy ishonchliligi ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: Hashmat Buxoriy, tarixiy voqelik, badiiy talqin, tazkira, tarixiy manbashunoslik, Buxoro amirligi, XIX asr, XX asr boshi, tarixiy manbalar.

Annotation. This article examines the artistic interpretation of historical reality in the historical and biographical works of Mirsiddiqkhan Hashmat Bukhari. Based on Tazkirat al-Shu'ara and Tazkirat al-Salatin, it analyzes the representation of the political, social, and cultural life of the Emirate of Bukhara and Central Asia during the second half of the XIX century and the beginning of the XX century. The study also evaluates Hashmat Bukhari's use of historical sources, his source-critical methodology, and the scholarly reliability of his works as valuable historical sources.

Keywords: Hashmat Bukhari, historical reality, artistic interpretation, tazkira, source studies, Emirate of Bukhara, second half of the XIX century, beginning of the XX century, historical sources.

Аннотация. В статье исследуется художественная интерпретация исторической действительности в исторических и тазкирийных произведениях Мирсиддикхана Хашмата Бухари. На материале «Тазкират уш-шуаро» и «Тазкират ус-салотин» раскрываются особенности отражения политической, социальной и культурной жизни Бухарского эмирата и Центральной Азии второй половины XIX – начала XX века. Особое внимание уделяется источниковедческому подходу автора, использованию исторических источников и научной достоверности его произведений.

Ключевые слова: Хашмат Бухари, историческая действительность, художественная интерпретация, тазкира, источниковедение, Бухарский эмират, вторая половина XIX века, начало XX века, исторические источники.

Mirsiddiqxon Hashmatning tazkiranavislik merosi tarkibida an'anaviy tazkirachilik doirasidan tashqariga chiqib, tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan alohida ilmiy ahamiyat kasb etuvchi asarlar ham mavjud. Jumladan, "Tazkirat ush-shuaro" (inv. №2663/1), "Tazkirat us-salotin" (inv. №2252/1) hamda "Tazkirat us-salotin" (inv. №54/6) qo'lyozmalari adabiy shaxslar va madaniy muhitga oid ma'lumotlarni bayon etish bilan cheklanmay, o'zida Buxoro amirligi hamda Markaziy Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotiga doir muhim faktik materiallarni ham mujassamlashtirgan. Mazkur qo'lyozmalar tahlili Mirsiddiqxon Hashmat faoliyatida tarixiy voqealarni qayd etish, ularni tizimlashtirish va ilmiy mushohada qilish alohida o'rin tutganini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan ushbu asarlar Buxoro amirligi tarixini, uning siyosiy boshqaruv tizimini, ijtimoiy munosabatlarini hamda mintaqaning madaniy hayotini o'rganishda birlamchi yozma manbalar sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mazkur qo'lyozmalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan bo'lib, Mirsiddiqxon Hashmatning ilmiy-adabiy merosini tadqiq etishda eng muhim yozma manbalar sirasiga kiradi.

"Tazkirat us-salotin" nomi bilan qayd etilgan inv. №2252/1 qo'lyozmasi Mirsiddiqxon Hashmatning tarixiy mazmundagi eng muhim asarlaridan biridir. Asarda Xuroson va Movarounnahr hududlarida turli tarixiy davrlarda hukm surgan sulolalar va hukmdorlar, ularning davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy faoliyati hamda tarixiy jarayonlardagi o'rni izchil yoritilgan. Shuningdek, asarda islom xalifaligi davridan XIX asrgacha bo'lgan siyosiy voqealar va tarixiy jarayonlar qisqa, ammo mazmunan mukammal tarzda bayon etilgan.

Qo'lyozmaning muqaddimasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Mirsiddiqxon Hashmat mazkur asarni 1892–1893-yillarda yozishga kirishgan. Muayyan muddat davom etgan tanaffusdan so'ng muallif asar ustidagi ishni qayta tiklab, uni bosqichma-bosqich davom ettirgan hamda 1914-yilda yakuniga yetkazgan. Muallifning o'zi qayd etishicha, asarni yaratish jarayonida "Tarixi Shohjahon"', "Jahongirpodshoh" va boshqa nufuzli tarixiy manbalardan keng foydalanilgan. Ushbu holat qo'lyozmaning ilmiy ishonchliligi va manbashunoslik salohiyatini yanada oshiradi.

Shu bois "Tazkirat us-salotin" nafaqat tarixiy voqealarni bayon qiluvchi asar, balki Buxoro amirligi, Xuroson va Movarounnahrning siyosiy tarixi, davlat boshqaruvi an'analari hamda mintaqaning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim birlamchi yozma manba sifatida alohida ilmiy qimmatga ega. Asarda keltirilgan tarixiy ma'lumotlar va muallif foydalangan manbalar tizimi uning tarixshunoslik hamda manbashunoslik nuqtayi nazaridan yuqori ilmiy salohiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Mirsiddiqxon Hashmat tazkiralarida adib va shoirlarning hayoti hamda ijodiga oid ma'lumotlar bilan bir qatorda, davrning muhim tarixiy voqealari ham keng yoritilgan. Muallif ko'plab o'rinlarda adabiy shaxslarning tarjimayi holini bayon etish jarayonida zamonaning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid muhim voqealarga murojaat qilib, ular orqali ijodkorlar faoliyatining tarixiy zaminini ochib beradi. Shu jihatdan, Mirsiddiqxon Hashmat tazkiralari nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki ularda XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr siyosiy hamda madaniy hayotiga oid qimmatli tarixiy ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Jumladan, muallif Mirakjon Buxoriy hayoti va ijodini yoritish jarayonida mang'itlar sulolasi tarixiga oid muhim voqealardan birini tilga olib, shunday yozadi: "Va hazrati amiri kabir farzandi dilbandi rashidi xud, ya'ni hazrati Amir Haydar, ki mashhur ba Amiri Saiddand, dar nazdi eshon ba jihati tahsili ilm supurda..." [1: 72]. Mazkur ma'lumot Mirakjon Buxoriy o'z davrining yirik olim va murabbiylaridan biri bo'lganini hamda unga Buxoro amirligi taxtining vorisi Amir Haydarning ilmiy tarbiyasi ishonib topshirilganini ko'rsatadi. Ushbu tarixiy dalil,

bir tomondan, Mirakjon Buxoriyning saroy ilmiy muhitidagi yuksak mavqei va nufuzini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, ilm-fan va adabiyot namoyandalarining amirlik siyosiy boshqaruv tizimi bilan uzviy aloqada bo'lganini tasdiqlaydi. Shu bois ushbu ma'lumot Buxoro amirligining madaniy hayoti, ta'lim tizimi va saroy ilmiy muhitini o'rganishda muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega.

Muallif Qo'qon hukmdori Amir Umarxonning hayoti va adabiy faoliyatini yoritishda uning davlat arbobi sifatidagi faoliyatidan ko'ra, madaniyat va adabiyot homiysi sifatidagi fazilatlariga alohida e'tibor qaratadi. Tazkirada ta'kidlanishicha, «Amir» taxallusi bilan ijod qilgan Amir Umarxon ilm-fan va adabiyot ahliga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo'lgan, shoirlar, olimlar, fuzalolar va ulamolarni o'z saroyi atrofiga jamlab, ularning ijodiy faoliyati uchun qulay sharoit yaratgan. Natijada uning saroyi XIX asrning birinchi yarmida Farg'ona vodiysining eng nufuzli ilmiy-adabiy markazlaridan biriga aylangan.

Bu haqda Mirsiddiqxon Hashmat quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Xoni mazburni bo toifayi shuaro va fuzalo muhabbati tamom bud. Shabu ro'z suhbati u az safi fuzaloyi zamon va ulamoyi saodatnishon va sodot xolī nabud. Va eshon siti fazilati uro shunida, ba dargohi u mujtame' gashta budand" [1: 12].

Mazkur iqtibos Amir Umarxonning ilm-fan va adabiyot homiysi sifatidagi obro'-e'tibori Qo'qon xonligi hududi bilangina cheklanmaganini, balki mintaqaning turli hududlaridan taniqli olimlar va shoirlarning uning saroyiga intilishiga sabab bo'lganini ko'rsatadi. Binobarin, Amir Umarxon faoliyatini XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhiti va madaniy hayotining ravnaq topishida muhim omillardan biri sifatida baholash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Amir Umarxonning ma'rifatparvarligi, insonparvarligi va adabiyot homiysi sifatidagi fazilatlari nafaqat Mirsiddiqxon Hashmat tazkiralarida, balki Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shuaro", Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhfat ul-ahbob" hamda mazkur davrga oid boshqa adabiy va tarixiy manbalarda ham batafsil yoritilgan. Bu esa Amir Umarxonning ilm-fan va adabiyot rivojidagi tarixiy o'rnini turli manbalar asosida qiyosiy o'rganish imkonini beradi.

Mirsiddiqxon Hashmat Buxoriy o'z tazkiralarini yaratish jarayonida keng doiradagi yozma manbalar, tarixiy asarlar hamda nufuzli adabiy tazkiralarga tayangan holda ish olib borgan. U taqdim etayotgan ma'lumotlarni turli manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida saralab, tizimlashtirgan. Mazkur jihat muallifning tarixiy va adabiy manbalarni chuqur o'rganganini, shuningdek, mavjud manbalarga nisbatan tanqidiy yondashuvni qo'llaganini yaqqol namoyon etadi. Mirsiddiqxon Hashmat har bir adib va shoirning hayoti hamda ijodini yoritishda faqat bitta manba bilan cheklanmay, ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida bir necha tarixiy va adabiy asarlardan kompleks tarzda foydalangan.

Jumladan, Sayyid Abduljalil ibn Sayyid Ahmad al-Husayniy, shuningdek, Sobit va Ne'matxon Oliyning tarjimayi holini bayon etishda muallif asosan ikki muhim manba – "Tazkirayi Husayniy" hamda Shayx Abdulqodir Badouniyning "Miftoh ut-tavorix" asariga tayangan holda ularning hayoti va adabiy faoliyatini yoritadi [3: 18; 34: 11]. Ushbu yondashuv Mirsiddiqxon Hashmat tarixiy ma'lumotlarning haqqoniyligi va ilmiy ishonchliligiga alohida e'tibor qaratganini, har bir dalilni nufuzli manbalar bilan tasdiqlashga intilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Hindistonning forsiyzabon shoiri Mazhar hayoti va ijodini yoritishda ham muallif bir necha mustaqil manbalardan foydalangan. Jumladan, shoirning tug'ilgan sanasi "Miftoh ut-tavorix" asaridan olingan bo'lsa, uning taxallus tanlash sabablari va tarjimayi holiga oid boshqa ma'lumotlar Mir G'ulomalixon Ozodning tazkirasidan keltirilgan. Bundan tashqari, Mazharning adabiy merosi va badiiy mahoratini namoyish etish maqsadida uning she'rlaridan namunalar Husayni Do'stning "Tazkirayi Husayniy" hamda Abdurahmonxon Shokirning "Gulistoni masarrat" asarlaridan tanlab berilgan [3: 77–79].

Mazkur misollar Mirsiddiqxon Hashmat o'z tazkiralarini yaratishda qiyosiy manbashunoslik va tanqidiy tahlil usullaridan samarali foydalanganini yaqqol tasdiqlaydi. Turli mustaqil manbalarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish orqali u keltirilayotgan har bir ma'lumotning ilmiy asoslanganligi hamda tarixiy ishonchliligini ta'minlashga intilgan. Natijada muallif o'z asarlarining faktologik aniqligi va manbashunoslik salohiyatini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'lgan.

Shu jihatdan Mirsiddiqxon Hashmat tazkiralari nafaqat fors-tojik tazkirachilik an'anasining muhim namunalaridan biri, balki fors-tojik adabiyoti tarixini, adabiy muhitni va tazkirachilik taraqqiyotini o'rganishda yuqori ilmiy qimmatga ega bo'lgan ishonchli manbashunoslik manbasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mirsiddiqxon Hashmat o'zining tarixiy asarlarini yaratish jarayonida keng doiradagi yozma tarixiy manbalarga tayangan. Uning asarlari mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muallif tarixnavislikning nufuzli namunalari, jumladan, Shayx Abdulqodir Badouniyning "Miftoh ut-tavorix", Mirzo Azim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya", Xumuliy Samarqandiyning "Tarixi amironi mang'itiya", Mullo Niyozmuhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shohruxiy", Mirzo Olim Mahmudning "Tarixi Turkiston", Abdurahmonxonning "Toj ut-tavorix" hamda boshqa ishonchli tarixiy manbalardan keng foydalangan. Muallifning mazkur manbalarga tayangani nafaqat asarlarining matni tahlilidan, balki uning tazkiralari va tarixiy asarlarining muqaddimalari, izohlari hamda turli bo'limlarida uchraydigan bevosita havolalar orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Mirsiddiqxon Hashmat o'zi yashagan davr voqealarining bevosita guvohlari va ishtirokchilaridan to'plagan ma'lumotlardan ham samarali foydalangan. Natijada uning asarlarining manbashunoslik bazasi yanada boyigan hamda ular ishonchli tarixiy manbalar sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etgan.

Mazkur davr tarixiy asarlari kompozitsiyasi, bayon uslubi, qamrab olgan tarixiy materiallari va ayrim mazmuniy xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qilsa-da, ularda Markaziy Osiyo xonliklari tarixiga oid qator voqea va hodisalarning o'zaro mushtarak tarzda yoritilgani ushbu manbalar o'rtasida muayyan tarixiy hamda manbashunoslik bog'liqligi mavjudligini ko'rsatadi. XIX–XX asrlarda Movarounnahr adabiy muhitida yaratilgan tarixiy asarlarda davrning ijtimoiy muhiti, siyosiy jarayonlari va zamonning muhim xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Boshqacha aytganda, mazkur davr tarixnavislari o'z asarlari orqali jamiyatning ijtimoiy hayoti va tarixiy taraqqiyotini xolis yoritishga intilganlar.

Mirsiddiqxon Hashmat merosi faqat adabiyot va tazkirachilik bilan chegaralanmaydi. Uning asarlarida o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko'plab muhim ma'lumotlar ham o'z aksini topgan. Muallif keltirgan faktlarning salmoqli qismi shaxsiy kuzatishlari, bevosita guvohligi hamda ishonchli tarixiy dalillarga asoslanganligi sababli, ular tarixshunoslik nuqtayi nazaridan alohida ilmiy qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирсиддиқхони Ҳашмати Бухорой. Тазкират-уш-шуаро (аз рӯи нусхаи 2728) / Таҳия ва тавзеҳи И. Эшонзодаи Насафӣ. – Хуҷанд: Ношир, 2021.
2. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Т. XIII / сост. Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. Т.: Фан, 2012.
3. Ҳашмат Мирсиддиқхон. Тазкират-уш-шуаро // ЎзР ФА Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari fondi. – Dastxat, №61. – 138 c.
4. Ҳашмат Мирсиддиқхон. Ёддоштҳо // ЎзР ФА Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari fondi. – Dastxat, №2663.
5. Эшонқулов И. Ҳашмати Бухоро ва тазкираҳои ӯ: Монография. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2019.

Nigina RASULEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

1950–1990-YILLARDAGI G'ARB VA XITOY ILMIY FANTASTIKASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1950–1990-yillar oralig'ida G'arb va Xitoy ilmiy fantastikasi taraqqiy etishining muhim tendensiyalari tahlil qilinadi. Janr ravnaqiga munosib hissa qo'shgan adiblar, ilmiy-texnologik va ijtimoiy-siyosiy omillar yoritilib, mazkur yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Qolaversa, ushbu davrda shakllangan adabiy an'ana va hodisalar XXI asr Xitoy ilmiy fantastikasi taraqqiyotining muhim poydevori sifatida baholanadi.
Kalit so'zlar: Ilmiy fantastika, G'arb adabiyoti, Xitoy adabiyoti, janr tendensiyalari, ilmiy-texnologik taraqqiyot, Ikkinchi jahon urushidan keyingi adabiyot.
Annotation. This article analyzes the important trends in the development of Western and Chinese science fiction between the 1950s and 1990s. It highlights the prominent writers, as well as the scientific-technological and socio-political factors that contributed to the evolution of the genre, and explores its specific characteristics. In addition, the literary traditions and events formed during this period are considered an essential foundation for the development of 21st-century Chinese science fiction.
Keywords: science fiction, Western literature, Chinese literature, genre trends, scientific and technological progress, post-World War II literature.
Аннотация. В статье анализируются важные тенденции развития западной и китайской научной фантастики в период с 1950-х по 1990-е годы. Рассматриваются видные писатели, а также научно-технические и социально-политические факторы, способствовавшие эволюции жанра, и выявляются его специфические особенности. Кроме того, литературные традиции и явления, сформировавшиеся в этот период, рассматриваются как важнейшая основа для развития китайской научной фантастики в XXI веке.
Ключевые слова: научная фантастика, западная литература, китайская литература, жанровые тенденции, научно-технический прогресс, литература после Второй мировой войны.

XX asrning boshlarida jahon adabiyotida shakllangan ilmiy fantastika janri asrning chinakam adabiy jarayoniga aylandi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng G'arb va Xitoy adabiyotida ilmiy fantastika janrining jadal taraqqiy etganini alohida e'tirof etishimiz lozim.

Britaniyalik olim va yozuvchi Artur Klark ilmiy fantastikaning "Oltin davri" vakili hisoblanib, ancha mashhurlikka erishgan. Yoshlik chog'larida Klark astronomiyaga qiziqqan va bu qiziqish Gernsbekning pulp jurnallari hamda H.G.Uellsning buyuk an'anasi bilan uyg'unlashib ketadi. Klark ilmiy fantast yozuvchi sifatidagi faoliyatini 1951-yilda o'zining "Koinotga qadam qo'yish" romani bilan boshlagan. Keyingi yillarda u ko'plab hikoyalar va romanlar yozib, katta shuhrat qozondi va kitobxonlar muhabbatiga erishdi. Ular orasida "Mars qumlari" (1951), "Bolalikning oxiri" (1953), "Kosmik odisseya – Rama bilan uchrashuv" (1973) va "Odissey ikki" (1982) kabi romanlar bor. Klarkning romanlari qomusiy optimistik mualliflik uslubida yozilgan bo'lib, ular o'zga sayyoralik hayot shakllari bilan munosabat o'rnatish va olis kelajakni tasvirlaydi. Ularning barchasida insonning biologik va texnologik chegaralaridan o'zib ketishga urinish sujetlari mavjud [3: 9].

Ikkinchi jahon urushi nafaqat Yevropa ilmiy fantastikasining rivojlanishini vaqtincha to'xtatdi, balki Amerikada qog'oz taqchilligini keltirib chiqarib, ko'plab jurnallar nashrining to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Biroq urushdan so'ng ilmiy fantastika jurnallari keng ko'lamda qayta tiklandi hamda yangi avlod yozuvchi va muharrirlari maydonga chiqdi.

1950-yillarning boshlariga kelib, AQShda ilmiy fantastika janriga oid 40 ga yaqin jurnal nashr etilayotgan edi. Dastlab ilmiy fantastikaga ixtisoslashgan kichik nashriyotlar faoliyat yuritgan bo'lsa, keyinchalik yirik noshirlar tomonidan mazkur janrdagi asarlar yangi ommaviy bozor uchun yumshoq muqovadagi va qattiq muqovali kitoblar shaklida chop etila boshladi. Yangi jurnallar sirasiga 1949-yilda amerikalik yozuvchi va tanqidchi Entoni Baucher hamda adabiy muharrir, tanqidchi va antolog Jessi Frensis Makkomas tomonidan asos solingan "Fantaziya va ilmiy fantastika" (The Magazine of Fantasy & Science Fiction) hamda 1950-yilda kanadalik ilmiy fantast yozuvchi va muharrir Leonard Gold tomonidan tashkil etilgan "Ilmiy fantastika koinoti" kabi nashrlar kiradi [1: 16]. Ushbu yetakchi jurnallarda ilmiy fantastikaning diqqat markazi ko'proq adabiy, psixologik va ijtimoiy unsurlarga ko'chdi, bu esa ilmiy mohiyatning ba'zi jihatlarini biroz soyada qoldirdi.

Ilmiy fantastika janri dunyoning boshqa mintaqalarida ham rivojlana boshladi. Ayniqsa, Sharqiy Yevropa va Rossiyada Amerika ilmiy fantastikasidan farqlanadigan kuchli ilmiy fantastika an'anasi shakllandi. Polshalik yozuvchi Stanislav Lem ilmiy fantastika unsurlaridan ilmiy va falsafiy muammolarni tadqiq qilishda foydalandi. Uning asarlari orasida "Solyaris" (1961) va "Jiyenniki Giazdove" (1957) kabi romanlar mavjud. Janrda muhim o'ringa ega rus ilmiy fantastika adiblari qatorida utopik "Andromeda tumanligi" (1956) romanining muallifi Ivan Yefremov va 1950-yillarda samarali ijodiy faoliyat boshlagan Strugatskiy aka-ukalar bor edi.

Shuni qayd etish lozimki, 1950–1960-yillarda janrning global miqyosda rivojlanishi kuzatildi. Sharqiy Yevropa va Rossiyada Ivan Yefremov va Strugatskiy aka-ukalar kabi mualliflar ilmiy fantastikani falsafiy, insoniy va sotsiologik muammolarni tadqiq etish vositasiga aylantirdilar. Ularning romanlarida texnika emas, balki inson tafakkuri, ma'naviyati va sivilizatsiya kelajagi markaziy o'rinni egallagan. 1960-yillarga kelib Britaniyada "Yangi to'lqin" (New Wave) harakati paydo bo'lib, janrda yangi estetik va zamonaviy uslubni vujudga keltirdi. Bu harakat ilmiy fantastikani kosmik sarguzashtlardan inson ruhiyati, ichki olami va ijtimoiy o'zgarishlar muammolariga qayta yo'naltirdi [2: 11]. Brayn Aldis va Jeyms Grem Ballard kabi mualliflar ilmiy fantastikani "inson botiniy olamining tadqiqoti"ga aylantirib, uni tajribaviy, psixologik va falsafiy yo'nalishlar bilan boyitdilar. Harakat qisqa muddat ichida anglo-amerika adabiy maydoniga keng tarqalib, Delany, Silverberg, Zelazny va Ellison kabi yozuvchilarning ijodida yangi, jasur g'oyalar bilan mujassamlashdi.

1950-yillardan boshlab ilmiy fantastika janri texnologiyaning kundalik hayotga va sayyora taqdiriga ta'sirini chuqurroq o'rganishga kirishdi. Buyuk Britaniyada boshlangan "Yangi to'lqin" harakati asosan 1964-yilda Maykl

Murkok muharrirlik qilgan "Yangi dunyolar" (New Worlds) jurnali orqali ilmiy fantastika sahnasiga kirib keldi. Ushbu adabiy harakat janrga zamonaviy adabiyotning ilg'or uslub va qarashlarini olib kirdi. Shu sababli, "Oltin davr"ning kosmik kashfiyot fantaziyalari "Yangi to'lqin" yozuvchilari tomonidan inkor etilib, ko'proq inson holatini o'rganishga qaratildi. Qattiq ilm-fan o'rnini ijtimoiy tajribalar va yangi g'oyalar bilan yuzma-yuz kelgan insoniyatning kelajagi haqidagi ilmiy izlanishlar egalladi.

Britaniyalik ilmiy fantast yozuvchilar Brayn Aldis va Jeyms Grem Ballard "Yangi to'lqin" harakatining yorqin namoyandalari sifatida tan olindilar. Aldis "Ehtimollik haqida hisobot" (1968) va "Boshdagi yalanglik" (1969) kabi favqulodda tajribaviy romanlari bilan ajralib turgan bo'lsa, Ballardning "Cho'kkan dunyo" (1962), "Yonayotgan dunyo" (1964) va "Kristalli dunyo" (1966) romanlari qisqa fursat ichida mazkur harakatning tashrif qog'oziga aylandi [4: 13]. Ushbu yozuvchilarning asarlari asosan yaqin kelajakni o'rganishga qaratilgan bo'lib, ular o'z ijodlarini "muhokamali fantastika" deb atashni ma'qul ko'rishgan hamda "tashqi koinot" aslida "inson botiniy koinoti"ning inikosi ekanini ta'kidlaganlar. "Yangi to'lqin" tezda Britaniya va Amerika jurnallari orasida quloch yoydi. AQShda Harlan Ellison o'zining nozik uslubdagi hikoyalari va "Xatarli tasvirlar" antologiyalari tufayli bu harakatning eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biriga aylandi. Amerikalik "Yangi to'lqin" vakillari orasida Robert Silverberg, Rojer Zelazni va Samuel R.Delani ham bor edi.

"Yangi to'lqin" harakati avj olgan bir paytda, ilmiy fantastikaning mumtoz an'analari ham yo'qolib ketmadi. 1970-yillar yangi subjanrlarning dunyoga kelishi davrini boshlab berdi. "Yangi to'lqin" erishgan yutuqlar mustahkamlanib, eski mavzular yangi shakllarda davom ettirildi. 1970-yillarning eng muhim xususiyatlaridan biri ilmiy fantastikaning G'arb dunyosining keng madaniy sohasiga kirib borishi bo'ldi, bu ko'plab fantastik filmlar va teleko'rsatuvlarning paydo bo'lishida yaqqol namoyon etildi. Brayn Aldisning so'zlariga ko'ra, "muqaddam sirli harakat bo'lgan narsa – madaniyatning bir qismiga aylandi".

1980-yillarga kelib ilmiy fantastika janri yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu o'n yillikda eng ko'p e'tiborni tortgan ilmiy fantastika subjanri "kiberpank" bo'ldi. U ilg'or texnologik an'anani ilmiy fantastika olamiga qaytarib, aksariyat hollarda kompyuter texnologiyalari va ulkan tarmoqlar hukmronlik qilgan, yaqin kelajakda kutilayotgan qo'rqinch va sarosimalarga to'la dunyolarni tasvirladi. "Kiberpank" janridagi birinchi va eng mashhur roman Uilyam Gibson qalamiga mansub "Nevromanser" (1984) bo'ldi. Shuningdek, u "Nol hisobida" (1986), "Bo'rttirilgan Mona liza" (1988) va "Virtual yog'du" (1993) kabi romanlarning ham muallifidir. Bryus Sterling ushbu adabiy harakatning targ'ibotchisi bo'lib, "Skizmatritsa" (1985) va "Tarmoqdagi orollar" (1988) kabi asarlari bilan o'quvchilar e'tiboriga tushdi, shuningdek, u muharrirlik qilgan "Ko'zgu soyalari: Kiberpank antologiyasi" (1986) orqali ham shuhrat qozondi.

1980-yillardan boshlab o'quvchilarda ilmiy fantastika haqida yaxlit tasavvur shakllana boshladi. Asosiy adabiy oqimdagi mualliflar ilmiy fantastika g'oyalarini o'z asarlariga tajribaviy tarzda kiritsa, an'anaviy ilmiy fantastika ijodkorlari yangi uslublar va subjanrlarda qalam tebratdilar. XX asrning eng ta'sirchan yozuvchilaridan biri Filipp K.Dik va Rey Bredberi ilmiy fantastika janridan yetishib chiqqan va zabardast yozuvchilar sifatida tan olingan ilk mualliflardan bo'ldi. Ularning asarlari, jumladan, Dikning "Haqiqatdan yiroqlashgan zamon" (1959) va "Baland qasrdagi odam" (1962) hamda Bredberining "Farengeyt 451" (1953) romanlari yangi nashrlarda qayta chop etilib, yuksak badiiy adabiyot maqomini oldi.

1990-yillarga kelib ilm-fan va texnologiyaning hayratlanarli darajada rivojlanishi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining keskin ommalashuvi ilmiy fantastika janrining rivojlanish sur'ati va mazmuniga yangi talablar qo'ydi. XX asrning so'nggi o'n yilligidagi yangi ilmiy fantastika yozuvchilari qatoriga Vernor Vinge, Den Simmonz, Harri Tartldou, Luiz MakMaster Bujold, Orson Skot Kard va Konni Uills kabi ijodkorlar kirdi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng ilmiy fantastika janri nafaqat G'arb adabiyotida, balki Xitoy adabiyotida ham o'zining jadal sur'atdagi rivojlanishi bilan yorqin iz qoldirdi. 1949-yil 1-oktabrda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan keyin ilk ilmiy fantastik roman 1950-yilda Chjan Ran (Zhang Ran) tomonidan yozilgan "Quyosh tizimi bo'ylab tush safari" (梦游太阳系) nomi bilan chop etildi. Romandagi voqealar tush bilan boshlanadi, unda bosh qahramon va uning hamrohlarining Quyosh tizimini o'rganish jarayonidagi sarguzashtlari hikoya qilinadi [6: 119]. Sujet fantastik bo'lsa-da, boy astronomik bilimlarni o'z ichiga oladi. Mazkur roman 11 ming nusxada sotilib, katta mashhurlikka erishdi.

1955-yilda Pekin astronomik observatoriyasi tadqiqotchisi Chjen Venguang (Zhen Wenguang) ketma-ket "Oyni zabt etuvchilar" (征服月球的人们), "Yerdan Marsgacha" (从地球到火星) va "Quyosh tomon sarguzashtli sayohat" (太阳历险记) romanlarini nashr etdi. Bu asarlarning e'lon qilinishi Xitoy ilmiy fantastikasining birinchi jiddiy to'lqini boshlanganini anglatardi [7: 82].

Keyingi yillarda Chjen Venguang ko'plab boshqa ilmiy fantastik asarlar yozdi, uning "Mars quruvchilari" (火星建设者) romani 1957-yilda Moskvada xalqaro mukofotga sazovor bo'ldi. Yozuvchi asarlarining aksariyati koinotni ilmiy tadqiq qilishga bag'ishlangan bo'lib, davrning o'ziga xos xususiyati bo'lgan nekbinlik ruhi, qahramonlik va ilm-fanga bo'lgan so'zsiz ishonch bilan yo'g'rilgan edi.

Tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, 1976–1980-yillar oralig'ida Xitoyda to'liq hajmdagi ilmiy fantastik romanlar 10–15 ta, qissa va uzun hikoyalar 30–40 ta atrofida, qisqa hikoyalar esa (asosan jurnallarda) 100 tadan ortiq nashr etilganini aniqladik. Bu ko'rsatkich Xitoy Xalq Respublikasining dastlabki uch o'n yilligida yaratilgan shunday asarlardan uch baravar ko'p edi.

1990-yillarda globallashuv va madaniy yuksalish sharoitida Xitoy ilmiy fantastik adabiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi avlod yozuvchilari maydonga chiqib, janrga o'ziga xos yondashuvlarni olib kirdilar va uning rang-barangligini ta'minladilar. U Szyan (Wu Yan)ning "Xitoy orbitasi" (中国轨道), Van Szinkan (Wang Jinkang)ning "Hayot nashidasi" (生命之歌), Szyan Yunshen (Jiang Yunsheng)ning "Yer odamining hikoyasi" (厄斯曼故事), Xan Sun (Han Song)ning "Koinot qabrtoshi" (宇宙墓碑), Sin Xe (Xing He)ning "Internetda duel" (决斗在网络) kabi asarlari keng ko'lamdagi mavzular va badiiy uslublarni taqdim etdi [5: 46]. Mazkur adiblar ilmiy fantastikaga avvalgi avlodlardan tubdan farqli o'laroq yangicha nigoh bilan yondashdilar.

Yangi avlod ijodkorlari ilmiy fantastikaga eski davr talab qilingan "ilmiy ommalashtiruvchi" vazifasini yuklamadilar, shuningdek, uni asosan axloqiy tarbiya yoki mafkuraviy targ'ibot vositasi deb bilmadilar. Ular uchun bu adabiyot turi erkin ijod va sevimli mashg'ulotga aylandi. XX asrning so'nggi o'n yilligida Xitoy ilmiy fantastika adabiyoti tor

doiralardan chiqib, o'zini mustaqil va yetakchi adabiy janr sifatida to'laqonli namoyon eta boshladi.

XX asr Xitoy ilmiy fantastikasi XXI asr Xitoy ilmiy fantastikasining shakllanishi va yuksalishi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajardi. Mazkur davrda shakllangan mavzular, estetik tamoyillar hamda ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi munosabatni yoritishga qaratilgan konseptual yondashuvlar zamonaviy adabiyotning globallashuviga xizmat qiluvchi muhim nazariy va badiiy asos bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кошелев С.Л. Философская фантастика в современной английской литературе. Романы Дж.Р.Р.Толкина, У.Голдинга и К.Уилсона 50–60 годов: автореф. дис. ... канд.филол.н. М.: МГПИ им. В.И. Ленина, 1983.
2. Кубатиев А.К. Современный фантастический рассказ Великобритании. 50–70-е годы: автореф. дис. ... канд.филол.н. М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1980.
3. Любимова А. Социально-философская фантастика раннего Г. Уэллса: автореф. дис. ... канд.филол.н. Горький: Горьковский гос. ун-т, 1971.
4. Михайлова Л.Г. Новые тенденции в современной английской и американской научной фантастике: автореф. дис. ... канд. филол.н. М.: МГУ им. М.В. Ломоносова, 1981.
5. Chen Guo. Reflection on Modernity in the New Generation of Science Fiction [D]. – Changsha: Hunan Normal University, 2016. (陈果. 新生代科幻小说的现代性反思 [D]. – 长沙：湖南师范大学, 2016).
6. Chen Hailin. A Study of Wang Jinkang's Science Fiction from the Perspective of Ecocriticism [D]. – Suzhou: Soochow University, 2017. (陈海琳. 生态批评视野下的王晋康科幻小说研究 [D]. – 苏州：苏州大学，2017).
7. Wang Dayao. Citrus Born in the North: A Study on the Localization of Science Fiction Literature in the New Era [D]. – Beijing: Minzu University of China, 2012. (王大垚. 橘生淮北 – 新时期科幻文学本土化研究 [D]. – 北京：中央民族大学, 2012).

Dilnura RUSTAMOVA,
Urganch davlat universiteti talabasi

QURBON MUHAMMADRIZONING "BIR SIQIM TUPROQ" ASARIDA PEYZAJ QAHRAMON RUHIY OLAMINI AKS ETTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qurbon Muhammadrizoning "Bir siqim tuproq" tarixiy romani badiiy to'qimasida peyzaj tasvirlarining tutgan o'rni va estetik-funksional imkoniyatlari qiyosiy-tahliliy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot jarayonida tabiat chizgilarining qahramonlar psixologiyasi, ichki kechinmalari hamda dramatik holatlarini ochib berishdagi vazifalari talqin etiladi. Shuningdek, yozuvchining peyzajdan foydalanish mahorati, tarixiy muhit va personaj ruhiyatini uyg'unlashtirish usullari hamda mazkur tasvirlarning asar g'oyaviy-estetik darajasini yuksaltirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy asosda ochib beriladi.
Kalit so'zlar. Abu Rayhon Beruniy, peyzaj, personaj ruhiyati, "Oltinqoziq", Zuhro, qahramon ichki olami, tabiat hodisalari.
Annotation. This article explores the role and aesthetic-functional capabilities of landscape imagery in the artistic structure of Qurban Muhammadrizo's historical novel "Bir siqim tuproq" through a comparative-analytical approach. The study interprets the functions of natural descriptions in revealing characters' psychology, inner experiences, and dramatic states. Furthermore, it scientifically and theoretically analyzes the writer's skill in employing landscape, the methods of harmonizing the historical environment with character psychology, and the significance of these descriptions in elevating the ideological and aesthetic level of the work.
Keywords: Abu Rayhan Beruni, landscape, character psyche, "Altinkaziq," Zuhro, the inner world of the character, natural phenomena.
Аннотация. В статье в сравнительно-аналитическом аспекте освещаются роль и эстетико-функциональные возможности пейзажных описаний в художественной ткани исторического романа Курбана Мухаммадризо «Горсть земли» («Bir siqim tuproq»). В процессе исследования интерпретируются функции зарисовок природы в раскрытии психологии, внутренних переживаний и драматических состояний героев. Также на научно-теоретической основе раскрываются мастерство писателя в использовании пейзажа, способы гармонизации исторической атмосферы и душевного состояния персонажей, а также значение этих описаний в повышении идейно-эстетического уровня произведения.
Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, пейзаж, психика персонажа, «Олтинкозик», Зухро (Полярная звезда), внутренний мир героя, явления природы.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev shunday yozadi: "Tasvirlangan badiiy olamda peyzaj ham muayyan o'rin tutadi. Badiiy adabiyotda jonli va jonsiz tabiat manzaralari tasviriga peyzaj deyiladi. Peyzajning birinchi va oddiy vazifasi tasvir kechayotgan joyni anglatishdan iborat. Bir qarashda jo'ngina ko'ringan bu vazifaning o'qirmanga ko'rsatadigan estetik ta'siriga nopisand yondashib bo'lmaydi. Ko'pgina hollarda badiiy asardagi voqea sodir bo'lgan joy tasviri syujet rivoji yoki kayfiyat va ruhiy holat ifodasi uchun katta ahamiyat kasb etadi" [2: 131].

Badiiy ijodiyot qiymati uning ta'sirchanligi, kitobxonni o'z dunyosiga torta olishi, qahramonlar ruhiyatini qay darajada tasvirlay olishi kabi bir qancha unsurlar bilan o'lchanadi. Ayni paytda, bu jihatlarni yuzaga chiqaruvchi ba'zi omillar mavjud bo'lib, ulardan eng asosiysi inson ruhiyatini tabiat bilan yonma-yon tasvirlashdir. Adabiyotshunos D.Quronov shunday ta'kidlaydi: "...adabiyot insonni alohida (izolyatsiya qilingan) holda emas, balki jamiyat, tabiat (bir so'z bilan aytganda-borliq) bilan birgalikda, uzviy aloqada o'rganadi. Zero, insonning o'zini ulardan holi, izolyatsiya qilingan holda tasavvur etib bo'lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir" [3: 30].

Darhaqiqat, insonlar borliqning bir bo'lagi bo'lganligi sababli ham, tashqi muhit bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi. Shunday ekan, badiiy asar qahramoni holati va atrof-muhit tasviri baravar anglashiladi.

Adabiyotshunos Izzat Sulton esa shunday yozadi: "Tabiat tasviri sujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko'rinishlari sujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish adabiy asarlarda eng ko'p uchraydigan hodisadir. Bu holda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatizmni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch baxsh etadi. Demak, qahramonlarning bunday keyingi harakatlarini asoslab, sujet rivojiga ta'sir ko'rsatadi" [4: 116–117].

Qurbon Muhammadrizoning "Bir siqim tuproq" (ikkinchi nomi "Abu Rayhon Beruniy") asarida ham muallif tomonidan tabiat tasviriga katta e'tibor qaratilgan. Mazkur ijod namunasi Abu Rayhon Beruniy hayotiga bag'ishlangan tarixiy asar bo'lib, unda qatnashgan Sulton Mahmud, Abu Ali ibn Sino, Qoljibibi, Oltintosh, Rayhona, Chandola, Nozbeka va shunga o'xshash boshqa bir qator obrazlar ruhiy holatini tasvirlash, o'y-xayollarini bayon qilish jarayonida muallif peyzajga murojaat qiladi. Asarni diqqat bilan o'qigan har qanday kitobxon muallifning tabiat hodisalaridan samarali foydalanganini sezmay qolmaydi.

Masalan, Sulton Mahmud Xorazmni bosib olib, u yerdagi olim-u ulamolarni G'azna shahriga olib ketayotganida Abu Rayhon Beruniy holsizlangan bir qulga joy bergani uchun allomaga g'azab qiladi. Bu holatda allomaning unga bergan oqilona javobi podshohni o'yga tortadi: *"Sulton Mahmud yashin urganday bir nafas jimib qoldi. Shu bir zum ichida otasi Sabuqteginning quljallob tomonidan Nishopurda somoniylarning G'aznadagi noibi Alpteginga sotib yuborilgani, ya'ni o'zining ham bir vaqtlari qul xonadonida tug'ilganini, onaizorining to'kkan ko'z yoshlarini istamasa-da bugun ilk bora esladi" [1: 10].*

Allomaning so'zlari podshoh qalbini bir muddat o'ylar girdobiga tortib ketishi muallif tomonidan yashin urishiga o'xshatilmoqda. Ushbu vaziyatda personaj ichki olami va tabiat hodisasi o'rtasidaga o'xshashlik nazarda tutilayotgan bo'lsa, quyidagi jumlalarda qahramon tabiatga boqib o'z kelajagini ko'rishi aks etadi: *"... tasodifan yulduzli kahkashon osmonga tikildi: shimol tomon yorqin yulduzlar bilan ziynatlangan, Qutb yulduzi esa barisidan yarqiroq edi. Osmon go'yo marvarid terilgan shoda va oq nilufarga bog'langan marjonlarni bo'yniga taqib o'ynab turgan go'zal raqqosa qizdek o'sha "Oltinqoziq" atrofida aylanib turardi. "Butun koinot aylanib turibdi-ya tegrasida!" – xayolga berildi jahongir. U o'zini Qutb yulduziga tengladi, Alloh yor bo'lsa, butun olam uning atrofida xuddi shunday aylanajak!" [1: 10].*

Qadim-qadimlardan munajjimlar osmon jismlari, ayniqsa, yulduzlarni ta'birchilikda samarali qo'llaganlar, ularning inson taqdirini oldindan anglata olishiga ishonilgan, xuddi mazkur

jumlalardagidek. Sulton Mahmud o'zini oltindan bo'lgan tebranmas qoziqqa (eng yorug' yulduzga) va dunyoni shu qoziq atrofida tinimsiz aylanuvchi yulduzlarda o'xshatadi.

Bundan tashqari, asarning "Qoljibibining muhabbati" bo'limida Sulton Mahmudning Xorazmshohdan tul qolgan singlisi Qoljibibining Abu Rayhon Beruniyga nisbatan tuyg'ulari bayon qilinadi. Bir kuni malika allomani yoniga chaqiradi. *"Kun botib, qosh qoraya boshlagan edi. Abu Rayhon "Borsammi, bormasammi?" deb biroz ikkilanib turdi. Osmonga qaradi. Havo ochiq, musaffo. G'arb ufqida Zuhro charaqladi. Alloma beixtiyor Rayhonani esladi" [1: 100].*

Mazkur jumlalarda ham yulduzlar orqali insonlarga ishora mavjud bo'lib, Abu Rayhon Beruniy Zuhro, ya'ni Venerani ko'rgach, xayoliga ushbu yulduzdek go'zal bo'lgan, allomani qutqarish uchun jon bergan sevgilisi Rayhona keladi. Bundan anglashiladiki, yulduzlar tasviri orqali muallif qahramonlar his-tuyg'ularini jo'n tushuntirib bera oladi. Zuhro yulduzi nomini o'qigan kitobxon, albatta, ishq-muhabbat ta'rifi borligini tushunadi.

Asarda Sulton Mahmudning ikkinchi xotini Nozbekaning qismati bayon qilinadi, uning akasi uni sevgan yigitiga emas, Sulton Mahmudga majburlab erga bergani haqida o'z tilidan bayon qilina turib, akasi uni sevgani Yahyo bilan ko'rib qolganini aytadi: *"Tiniq osmonda momaqaldiroq gurillaganday bo'ldi... Havo bekorga aynimagan ekan shu palla. Ota vafot etgach, taxtni egallagan farzand mansab deb, osoyish deb singlisini, uning ra'yiga qarab o'tirmasdan, muhabbatini, haq-huquqini poymol qilib, g'ayri elga sovg'a qildi-yubordi" [1: 60].*

Bundan ko'rish mumkinki, muallif o'sha paytda guldiragan momaqaldiroqqa kuchli ma'no yuklaydi, ularning sof muhabbati tugatilganligi, taqdirlari ayro bo'lganligidan darak berib turganiga ishora qiladi.

"Bir siqim tuproq" asarida peyzajning eng ko'rinarli jihati shundaki, u qahramonlar ichki olamidagi keskin o'zgarishlar yoki yomon xabarlarni anglatuvchi belgi sifatida salmoqli qo'llangan. Bunga misol sifatida "Kimga to'y, kimga aza" bo'limidagi quyidagi sahnani keltirish mumkin: *"Endi hujrasi sari qadam tashlayotgan ham edi, chaqin chaqdi shekilli, kunbotar ufqida nimadir yilt etib yaraqlab ketdi. U ko'kka tikildi: "Tavba, – dedi so'ng u o'zicha, – bir nafasda tiniq osmonni qora bulut egallay boshlabdi". Shimoldan boshlangan yengil shamol sekin-asta kuchaya bormoqda edi. Ha demay, bulutlar orasidan yana bir chaqinning qilichi ko'rinib ketdi. Uzoqlarda momaqaldiroq aravasini tortdi. Osmonning turqi buzilayotgan edi. Bunday paytda qattiq sel kelishi hech gap emas, degan fikrda alloma eshik ostonasiga yetdim deganda, yuziga uch-to'rt sovuq tomchi urildi, dahlizdan ichkariga kirishi bilan yomg'ir sharros quyib berdi... yomg'irda usti-boshi jiqqa ezilgan devoni risolat (elchixona) boshlig'i Abu Nasr Mishkanning yordamchisi Abu Fazl Bayhaqiy kirib keldi. Ular bir-biri bilan aka-ukadek yaqin edilar. Yigitning avzoyi buzuqligidan Beruniy uning nedandir qattiq tashvishda ekanligini darhol sezdi" [1: 256].*

Suhbat davomidan shu anglashiladiki, Abu Fazl Bayhaqiy sovuq xabar bilan kelgan, yurtda ishlar chappasiga ketgan. Muallif qaysidir ma'noda o'quvchi kitobxonni bu havodisga tayyorlash uchunmi, ob-havoda keskin o'zgarish bo'lganligini tasvirlaydi, chunki yomg'ir va qattiq shamolning birdaniga kelishi ko'p hollarda yomonlik alomati deya qaraladi. Bundan anglashiladiki, ushbu sahnada peyzajning o'rni juda katta hisoblanadi. Obrazlarning kitobxon faqattan o'zi o'ylanibgina tushuna oladigan ichki holatining kalitini ijodkor tabiat tasviriga yashirgan, deya olish mumkin.

Yoki "Tavbang qabul qilinmaydigan kun" bo'limida muallif shunday yozadi: *"Dorussaltana. Tunning yarmi. Tiniq osmondagi sanoqsiz yulduzlar G'azna bag'riga nayzaday sanchilmoqda. Oysiz tun soya tashlagan muhtasham gumbazli masjid va minoralar, karvonsaroylar, bir-biriga tutashib ketgan hashamatli imoratlar huvillab yotgan katta qabristonni eslatadi. Ko'chalar vahimali, bironta derazada chiroq yorug'i ko'rinmaydi. Xo'rozlar qichqirishni, itlar ham hurishni "unutgan" go'yo" [1: 228].*

Mazkur tasvirdan yurt boshi tashvishga kirib qolganini anglash qiyin emas. Bu peyzaj podshoh Sulton Mahmudning og'ir xastalikka uchragani, o'lim to'shagida yotgani nufusga qay darajada ta'sir qilganini ko'rsatish uchun qo'llanilgan. Muallif atrof-muhitni "qabriston"ga qiyoslash orqali poytaxtning vahimali holatni chizib bera olgan. Yulduzlar "nayza"ga o'xshatilayotgani, hech qayerda chiroq nuri yo'qligini ta'kidlashi ham bunga dalil bo'la oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Qurbon Muhammadrizo o'z asarini yaratish jarayonida ko'plab o'rinlarda tabiat tasviriga murojaat qilgan va bu orqali o'z tarixiy asarining o'qishliligini oshirishga, kitobxonga yengillik tug'dirishga erisha olgan. Yuqoridagi kabi misollarni asarda ko'plab o'rinlarda uchratish mumkin, eng asosiysi, bu tabiat tasvirlari orqali ijodkor o'zi ko'zlagan maqsadga to'laqonli yeta olgan, ya'ni har bir tasvir yordamida personajlarning ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon yarata olgan. Asar qahramonlarining achchiq qismati, qayg'u-alami, ilojsizligi, yoki aksincha, quvonch-u shodligi atrof-muhit holatini ham qo'shimcha qilish orqali yanada to'liqroq ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbon Muhammadrizo. Bir siqim tuproq. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2019.
2. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamolot, 2016.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.

Nodiraxon SHAKIROVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA "OILA" KONSEPTINING ETIMOLOGIK ILDIZLARI VA MILLIY - MADANIY XOSLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "oila" konseptining etimologik ildizlari hamda milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi har ikki xalqning oila institutiga bo'lgan qarashlarini tillardagi leksik-semantik birliklar va frazeologizmlar orqali ochib berishdan iborat. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi "family" tushunchasi Rim huquqi va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga borib taqalsa, o'zbek tilidagi "oila" konsepti arabcha "ayan" (suyanch, a'zolar) o'zagidan shakllanib, chuqur ma'naviy-axloqiy va jamoaviylik mazmuniga ega.
Kalit so'zlar: konsept, oila, lingvomadaniyat, etimologiya, milliy-madaniy xoslanish, qiyosiy tahlil, yadroviy oila, kollektivizm.
Annotation. This article is devoted to a comparative study of the etymological origins and national-cultural characteristics of the concept "family" in English and Uzbek linguacultures. The research aims to reveal the perceptions of the family institution in both societies through lexical-semantic units and phraseological expressions. The analysis indicates that while the English term "family" originates from Roman law and socio-legal relations, the Uzbek concept "oila" derives from the Arabic root implying mutual support and shared responsibility, carrying deep moral and collectivist values.
Keywords: concept, family, linguaculture, etymology, national-cultural characteristics, comparative analysis, nuclear family, collectivism.
Аннотация. Статья посвящена сравнительному исследованию этимологических истоков и национально-культурных особенностей концепта «семья» в английской и узбекской лингвокультурах. Цель исследования заключается в раскрытии представлений двух народов об институте семьи через лексико-семантические единицы и фразеологизмы языковРезультаты анализа показывают, что понятие «family» в английском языке восходит к римскому праву и социально-правовым отношениям, тогда как узбекский концепт «семья» сформировался на основе арабского корня «ayan» (опора, члены семьи) и обладает глубоким духовно-нравственным и коллективистским содержанием.
Ключевые слова: концепт, семья, лингвокультура, этимология, национально-культурная специфика, сравнительный анализ, нуклеарная семья, коллективизм.

Globallashuv jarayonlari va madaniyatlararo muloqot jadallashgan hozirgi davrda antropotsentrik paradigma til hodisalarini inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlar olami bilan uzviy aloqadorlikda tekshirishni tadqiqotning bosh maqsadiga aylantirdi. Xususan, lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishi alohida diqqatga sazovordir, chunki dunyoni lisoniy modellashtirishda milliy qadriyatlar tizimi yuqori o'rinlarda turibgina qolmay, har bir millatning dunyoni anglab yetish va ushbu lingvistik jarayon tizimida fundamental qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ilmiy muammoning yechimi uning o'rganilish tarixini xolis sarhisob qilishdan boshlanadi, zero yangi tadqiqot o'z o'rnini faqat mavjud bilimlar xaritasida aniq belgilagandagina haqiqiy yangilik keltira oladi.

Oila hodisasi tilshunoslik e'tiboriga fanlararo yo'l orqali kirib kelgan. Dastlabki fundamental qadam antropologiyada qo'yildi: L.G.Morgan qarindoshlik va quda-andachilik tizimlarini yuzlab xalqlar materialida qiyoslab, qarindoshlik atamalari ijtimoiy tuzumning ko'zgusi ekanini ko'rsatib berdi [1: 7]. Uning tavsifiy va klassifikatsion tizimlar haqidagi xulosasi tilshunoslar uchun ham dasturiy ahamiyat kasb etdi, negaki atamalar tizimidagi farqlar til strukturasi bilan ijtimoiy struktura o'rtasidagi bog'lanishni birinchi marta empirik dalillar asosida namoyish qilgan edi. Shunday qilib, oila mavzusi til faniga eng avval qarindoshlik terminologiyasi eshigi orqali kirdi.

Morgan boshlab bergan yo'lni ingliz ijtimoiy antropologiyasi struktur-funksional talqin bilan boyitdi: A.R.Redklif Braun qarindoshlik terminologiyasini munosabatlar tizimining ko'zgusi deb bilib, har bir atama ortida muayyan xulq-atvor andozasi – hurmat, hazil-mutoyiba, tortinish yoki erkinlik me'yori turishini ko'rsatdi [2: 111]. Bu qarash tilshunos uchun g'oyat unumli: atamalar shunchaki yorliqlar emas, balki ijtimoiy ssenariylarning kalitidir. O'zbek tilidagi kelin, ovsin, quda atamalarining har biri xuddi shunday xulq andozasi bilan yuklangani ushbu nazariy qoidaning jonli tasdig'idir.

Shu g'oyaning uzviy davomi sifatida komponent tahlil metodi maydonga keldi. U.Gudinaf Truk oroli tili materialida, F.Launsberi esa pauni tilining qarindoshlik atamalari misolida ma'noni farqlovchi semalarga ajratish tartibotini ishlab chiqdi. Diqqatga sazovorki, semantik nazariyaning bu qudratli quroli aynan oila-qarindoshlik leksikasi ustida sinovdan o'tgan: atamalar tizimining yopiqligi, belgilarining aniqligi uni ideal tajriba maydoniga aylantirgan edi. Shu bois oila mavzusi tilshunoslik uchun shunchaki mavzulardan biri emas, balki metodlar tug'iladigan beshik vazifasini o'tagan deyish mumkin.

J.Grinberg qarindoshlik terminologiyasini til universaliyalari nazariyasi nuqtayi nazaridan o'rgandi va atamalar tizimlarida belgilanganlik ierarxiyasi amal qilishini ko'rsatdi: yaqin qarindoshlar uzoq qarindoshlarga qaraganda, katta avlod kichik avlodga qaraganda muntazam ravishda soddaroq va qisqaroq shakllar bilan ifodalanadi [3: 313]. Bu kuzatuv oila konseptining universal-semantik mohiyati haqidagi xulosani tipologik dalil bilan mustahkamlaydi: tillar qanchalik farq qilmasin, qarindoshlikni nomlash mantig'ida umumiy qonuniyatlar saqlanadi.

Kognitiv burilish o'z navbatida oila mavzusini terminologiya doirasidan konseptual tahlil maydoniga olib chiqdi. Ch.Fillmorning freym semantikasi so'z ma'nosini yaxlit vaziyat bilimiga bog'lab talqin etishni o'rgatdi [4: 195]; keyinchalik ushbu nazariya asosida yaratilgan FrameNet elektron resursida qarindoshlik freymi maxsus tavsiflanib, uning ishtirokchilari, rollari va til ifodalari inventarizatsiya qilindi [5: 310]. Shu tufayli oila leksikasi endilikda alohida so'zlar ro'yxati sifatida emas, balki slotlari o'zaro bog'langan bilim strukturasi sifatida o'rganila boshlandi – dissertatsiyamizning freym-slot tahlili ham metodologik jihatdan ana shu an'anaga borib taqaladi.

Oila mavzusining til falsafasiga ko'rsatgan ta'siri alohida e'tiborga molik. L.Vitgenshteyn kategoriya a'zolarini yagona umumiy belgi emas, balki qisman ustma-ust tushuvchi o'xshashliklar tarmog'i birlashtirishini tushuntirar ekan, buni aynan oilaviy o'xshashlik deb atagan edi [6: 74]; bir oila a'zolari yuz tuzilishi, yurish-turishi, fe'l-atvori bo'yicha turlicha kombinatsiyalarda o'xshab ketganidek, kategoriya a'zolari ham turli belgilar bo'yicha chatishib boradi. Oila obrazi shu tariqa yigirmanchi asr semantikasining tayanch metaforasiga aylandi

– konsept nomining o'zi ilmiy terminologiyaga ko'chgan bunday holat kamdan-kam uchraydi va u oila tasavvurining inson tafakkuridagi tayanchligidan aniq guvohlik beradi [7: 3].

Prototip g'oyasining oila materialiga eng nozik tatbig'i J.Lakoffning radial kategoriyalar tahlilida berilgan: olim mother tushunchasi yagona ta'rifga sig'maydigan, tug'ish, tarbiya, nikoh, genetika singari bir necha modelning kesishuvidan tashkil topgan murakkab kategoriya ekanini, stepmother, birth mother, working mother kabi hosilalar esa markaziy modeldan turli yo'nalishlarda tarmoqlanishini ko'rsatdi [8: 158]. Ushbu tahlil konseptning ichki xilma-xilligini qanday tavsiflash mumkinligiga namuna bo'ldi; o'zbek tilidagi o'gay ona, tug'ishgan ona, sut ona qatorini xuddi shu usulda talqin etish istiqbolli ko'rinadi.

Ingliz lingvomadaniyatida "oila" konsepti, asosan, nuklear oila (nuclear family) modeli doirasida interpretatsiya qilinadi. Ushbu modelda individning mustaqilligi va shaxsiy qarorlar qabul qilish erkinligi fundamental qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz jamiyatida oila, birinchi navbatda, hissiy yaqinlik hamda shaxsiy hayot bilan bog'liq ijtimoiy birlik (mikrotizim) sifatida qaraladi [9: 10].

Z.Kyoveches konseptual metaforaning universalligi va madaniy tafovuti muammosini maxsus tadqiq etib, his-tuyg'u va yaqinlik metaforalari barcha madaniyatlarda umumiy tajriba asosiga qurilsa-da, ularning tafsilotlari – manba sohalar tanlovi, obrazlarning ijtimoiy mazmuni, madaniyatdan madaniyatga farqlanishini asoslab berdi [10: 3]. Bu xulosa qiyosiy konseptologiya uchun dasturiy ahamiyatga ega: u universalizm bilan relyativizm o'rtasidagi eski bahsni murosaga keltiradi hamda tadqiqotchini har bir metaforik modelda umumiy asos va milliy qatlamni ajratib tahlil qilishga yo'naltiradi. Bizning uchinchi bobda qo'llanadigan uch bosqichli moslik shkalasi mana shu nazariy murosaning amaliy davomidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Braun F. Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1988.
2. Fillmore Ch.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.
3. Fillmore Ch.J., Baker C. A Frames Approach to Semantic Analysis // The Oxford Handbook of Linguistic Analysis / ed. by B. Heine, H. Narrog. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – P. 313–339.
4. Goodenough W.H. Componential Analysis and the Study of Meaning // Language, 1956. Vol. 32, №1. – P. 195–216.
5. Greenberg J.H. Universals of Kinship Terminology: Their Nature and the Problem of Their Explanation // On Language: Selected Writings of Joseph H.Greenberg. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – P. 310–327.
6. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: The University of Chicago Press, 1987.
7. Lévi-Strauss C. Les structures élémentaires de la parenté. – Paris: Presses Universitaires de France, 1949.
8. Lounsbury F.G. A Semantic Analysis of the Pawnee Kinship Usage // Language, 1956. Vol. 32, №1. – P. 158–194.
9. Morgan L.H. Systems of Consanguinity and Affinity of the Human Family. – Washington: Smithsonian Institution, 1871.
10. Shakirova N.M., Shokirov Sh.B. The concept of family in English and Uzbek linguocultures: A comparative linguocultural study // Development of Science, 2026. Vol. 6, №1. – P. 12–18.

Zebo SABIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, mustaqil tadqiqotchi

BADIIY PSIXOLOGIZM – ADABIY-ESTETIK HODISA

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda lirikada badiiy psixologizmning adabiy-estetik hodisa sifatidagi mohiyati, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda poetik xususiyatlari yoritiladi. Unda badiiy psixologizmning folklor lirikasidagi kollektiv ruhiyatdan boshlab, mumtoz adabiyotdagi tasavvufiy talqin, Alisher Navoiy ijodidagi individual ruhiyat, jadid she'riyatidagi milliy ong va erksizlik muammolari, XX asrning 60–80-yillaridagi falsafiy-psixologik izlanishlar hamda mustaqillik davri she'riyatidagi ong oqimi va ko'p qatlamli psixopoetika shakllarigacha bo'lgan evolutsiyasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, lirika, psixopoetika, ruhiy kechinma, ichki monolog, lirik qahramon, poetik obraz.

Annotation. This article examines artistic psychologism as a literary and aesthetic phenomenon in lyric poetry, focusing on its historical evolution and poetic characteristics. The study traces the development of artistic psychologism from the collective consciousness of folklore lyrics to the Sufi interpretation of classical literature, the individualized psychological expression in the poetry of Alisher Navoi, the representation of national identity and the struggle for freedom in Jadid poetry, the philosophical and psychological tendencies of Uzbek poetry in the 1960s-1980s, and the stream of consciousness and multilayered psychopoetics characteristic of the Independence period.

Keywords: artistic psychologism, lyric poetry, psychopoetics, inner experience, internal monologue, lyrical subject, poetic image.

Аннотация. В статье исследуется художественный психологизм как литературно-эстетическое явление в лирике, раскрываются его историческая эволюция и поэтические особенности. Особое внимание уделяется развитию художественного психологизма от коллективного сознания в фольклорной лирике до суфийской интерпретации в классической литературе, индивидуального психологизма в творчестве Алишера Навои, национального самосознания и проблемы свободы в поэзии джадидов, философско-психологических поисков поэтов 1960–1980-х годов, а также многослойной психопоэтики и потока сознания в поэзии периода независимости.

Ключевые слова: художественный психологизм, лирика, психопоэтика, внутренний мир, внутренний монолог, лирический герой, художественный образ.

Lirikada badiiy psixologizmning estetik hodisa ekanligi haqida bir nechta keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, tadqiqotchi B.Aliyev "Hozirgi zaman o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi (70–80-yillar she'riyati misolida)" nomli ishida lirikada badiiy psixologizmning estetik hodisa sifatida qaralishi, ayniqsa, XX asr o'zbek she'riyatining taraqqiy etgan davrlarida alohida ahamiyat kasb etganini ta'kidlaydi. Psixologizm "inson qalbining nozik qatlamlarini ochishga xizmat qiluvchi estetik hodisa" sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, psixologizm faqatgina ruhiy holatlarni tasvirlash emas, balki ularni badiiy va estetik darajada talqin qilish vositasidir. Muallif badiiy psixologizmni "lirikaning estetik mohiyatini tashkil qiladi", deb e'tirof etadi. Bizningcha ham o'rganilayotgan davr she'riyatining yetuk namunalarida aynan ichki ruhiy izlanishlar orqaligina milliylikning yangi ifodasi yuzaga chiqqani kuzatiladi.

Tadqiqotchi J.Jumaboyeva "XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati" mavzusidagi monografiyasida XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotini badiiy psixologizm nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, ruhiy manzaralar, iztirobli obrazlar va estetik idealning ichki dunyo bilan bog'liq tarzda yaratilishi she'riyatni estetik jihatdan boyitgan. Demak, she'riyatda badiiy psixologizm ijtimoiy-didaktik hodisa sifatida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, shaxsning ichki kechinmalari va ruhiy ziddiyatlarini yoritish vazifasini bajaradi.

Adabiy jarayonda badiiy psixologizm turlari bir xil shaklda namoyon bo'lmaydi. Lirik psixologizmning tarixiy rivojlanishi uning badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli tadqiqotimizda u tarixiy-estetik mezon asosida olti bosqichga ajratildi. Mazkur tasnif ruhiy ifoda shaklining dinamikasini, lirik subyektning o'zgarishini hamda psixopoetik vositalarning murakkablashuv jarayonini aks ettiradi.

I. Ommaviy (kollektiv) psixologizm folklor va arxaik badiiy tafakkurga xos bo'lib, unda ruhiy holat individual ong emas, balki jamoaviy ong orqali ifodalanadi. Bu turdagi psixologizmda shaxs "men" sifatida emas, balki "biz"ning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda psixologizm bevosita tasvir emas, balki ramz va harakatlar orqali yuzaga chiqadi. Folklor lirikasida ruhiy holatlar aniq psixologik tahlil qilinmaydi va sabab-oqibat munosabati ochilmaydi. Unda emotsiya bevosita his sifatida, instinktiv tarzda ifodalanadi. Masalan, xalq qo'shiqlarida sog'inch yoki ayriliq ichki monolog orqali emas, balki yo'l, oqshom, qush, gul, oy kabi arxaik obrazlar vositasida beriladi. Masalan:

Sunbula-yu sunbula,
O'rab olay gul bilan.
Mening ko'nglim sen bilan-o,
Sen ketasan kim bilan?
Qadamingga gular ochilsin!

Va yoki:

Daryo-toshqin, suvlar – to'lqin, o'tolmayman-e
Otim oriq – manzilimga yetolmayman-ey...

Satrlardagi keltirilgan bu obrazlar psixik belgilar vazifasini bajaradi va psixopoetika asosan intonatsiya, takror hamda ritmik sintaksis orqali namoyon bo'ladi.

II. Mumtoz adabiyot. Tasavvufiy psixologizm va ruhiy kechinma ierarxiyasi mumtoz lirika uchun xos bo'lib, unda ruhiy kechinmalar ilohiy haqiqatga intilish jarayonida talqin etiladi. Bu turdagi psixologizmda inson qalbi ichki iztirob, ishq va ma'rifat yo'lidagi ruhiy bosqichlarni boshdan kechiradi. Ruhiy iztirob, ko'pincha, ramziy obrazlar orqali beriladi.

Qul Xoja Ahmad, yoshing yetti yigirma bir,
Ne qilg'aysen, gunohlaring tog'din og'ir,
Qiyomat kun g'azab qilsa, Rabbim qodir,
Ayo do'stlar, nechuk javob aytgum mano.

Bu misralarda tavba (gunohni anglash), qo'rquv (qiyomat oldidagi vahima) va o'zini inkor etish (gunohkorlikni tan olish) ochiq ifodalanadi. Ammo bu yerda shoir o'zining ruhiy iztirobini chuqur psixologik tahlil qilmaydi, balki uni diniy-

axloqiy me'yor asosida jilovlaydi. Bu davr lirikasining muhim jihati shundaki, ruhiy holat ichki monolog orqali emas, balki an'anaviy obrazlar tizimi orqali beriladi. Masalan, "zulf", "xol", "may", "soqiy" kabi obrazlar psixologik holatni ifodalaydi. Mumtoz lirika badiiy psixologizmi falsafiy-simvolik xarakterga ega bo'lib, shaxs ichki olami tasavvufiy g'oyalar bilan uyg'un holda talqin etilganini ko'rishimiz mumkin.

III. Mumtoz lirikaning cho'qqisi. Alisher Navoiy yashagan davr individual ruhiyat va ichki konfliktga aosslangan davrdir. Individual psixologizm shaxs ichki olamining mustaqil va teran badiiy ifodasiga asoslanadi. Individual psixologizmda hissiyotlar tipik emas, balki betakror bo'lib, har bir shaxs-ijodkorning o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Junun vodisig'a moyil ko'rarman joni zorimni,
Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni.

Bu misralarda shoirning lirik "men"i o'z ruhiy holatini tashqi tasvir bilan ifodalasa ham, aslida, uning tub mohiyati o'z-o'zini anglash orqali aks etadi. Oshiq o'zining "junung'a moyilligi"ni tan oladi va hatto buzilgan taqdirini o'zgartirish istagini bildiradi. Demak, Alisher Navoiy lirikasida lirik "men" o'z ruhiyatini tahlil qiladi, ichki monolog orqali kechinmalar ochiladi, ichki ziddiyatlar teran ifodalanadi, iztirob og'riqli dinamik jarayon sifatida rivojlanadi hamda tabiat ruhiyat bilan uyg'unlashadi.

IV. XX asr boshidagi jadid lirikasida (Cho'lpon, Fitrat, Elbek va boshqalar) badiiy psixologizm milliy ong, ma'rifat, erksizlik va shaxs fojiasining badiiy talqini asosida rivojlandi. Ayniqsa, Cho'lpon lirikasida lirik "men" ijtimoiy subyekt sifatida namoyon bo'lib, uning ruhiy iztirobi mustamlaka va ma'naviy qullik bilan uzviy bog'liq holda ifodalanadi.

Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Mazkur satrlarda "kishanlar" obrazi ruhiy qullik va ijtimoiy erksizlikning ramziga aylanadi. Shoirning o'ziga murojaat tarzidagi savollari ichki iztirobni kuchaytirib, shaxs ruhiyati orqali millat fojiasini badiiy umumlashtiradi. Yoki Abdurauf Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rida shaxsiy iztirob va milliy og'riq ifodalanadi. She'rda shoir yulduzga murojaat qiladi, yulduz milliy qadriyat va erkinlik ramzi sifatida namoyon bo'lgan: "Nega bizdan qochib?" kabi savol shoirning ijtimoiy subyekt sifatidagi iztirobini ochib beradi. Bu yo'nalish XX asr jadid adabiyotida, xususan, Fitrat va Cho'lpon lirikasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fitrat she'riyatida lirik "men" shaxsiy iztirob orqali milliy dard, erksizlik va ma'naviy tanazzulni ifodalaydi.

V. 60–80-yillar lirikasi. Bu davr lirikada badiiy psixologizm ma'lum darajada cheklangan bo'lsa-da, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi ijodida ichki kechinma falsafiy va ekzistensial yo'sinda berildi. Adabiyotshunos olim N.Jabborov: "Abdulla Oripov har qanday ko'hna fikrga yangicha ruh, yangicha mazmun bag'ishlaydi, hayot haqiqatini yuksak badiiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi", deya o'rinli fikr bildiradi. Ayniqsa, Rauf Parfi she'riyatida ong oqimi va ruhiy parchalanish holatlari yaqqol kuzatiladi.

VI. Mustaqillik davri – ong oqimi va ko'p qatlamli psixopoetika davri, deyish mumkin. Yangi o'zbek she'riyati zamonaviy adabiyotshunoslikda o'ziga xoslik kasb etib, olimlar tomonidan uning bir qator xususiyatlari belgilab berilgan. Adabiyotshunos U.Hamdamov istiqlol davri she'riyatini mavzu jihatidan ishqiy-intim, madhiya-bag'ishlov, uxroviy, tarixiy, pand-nasihat, Vatan va mustaqillik hamda o'lim mavzulariga oid she'rlarga ajratadi. Olim ushbu tasnifning davr va adabiy jarayon rivojiga qarab o'zgarib borishini ham ta'kidlaydi. Istiqlol davri she'riyatining ifoda usullarini an'anaviy barmoq, xalqona ohang, aruz, modernistik ohang va sinkretik (qorishiq) usul kabi shakllarga tasniflaydi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr o'zbek she'riyatida badiiy psixologizm lirikaning estetik qimmatini belgilovchi muhim poetik hodisa bo'lib, voqelikni tashqi tasvir orqali emas, balki ruhiy idrok va individual kechinmalar vositasida badiiy umumlashtirishga xizmat qiladi. Demak, badiiy psixologizm tarixi davomida kollektiv ongdan individual ongagacha, tashqi ruhiy belgilar tasviridan ichki monolog va ong oqimigacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu jarayon lirik tafakkurning estetik imkoniyatlarini kengaytirib, zamonaviy o'zbek she'riyatida ko'p qatlamli psixopoetik tizimning shakllanishiga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon A. She'rlar va go'zal Turkiston. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/cholpon.html.
2. Navoiy A. G'azallar. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-gazallar.html.
3. Yassaviy A. Devoni hikmat. https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/ahmad-yassaviy/?lng=lat.
4. Aliyev B. Hozirgi o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi (70–80-yillar): Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 27 b.
5. Jabborov N. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
6. Jumabayeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Jumaniyozova N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida uslubiy yo'nalishlar: Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2011. – 142 b.
8. Parfi R. Saylanma. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
9. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007.

Doniyor HAMIDOV,
Farg'ona davlat universiteti tadqiqodchisi

"HISSIYOT" TUSHUNCHASI VA UNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada "hissiyot" tushunchasining filologik talqini va uni o'rganishning nazariy asoslari yoritiladi. Hissiyot insonning ichki kechinmalari, munosabati va ruhiy holatini ifodalovchi muhim hodisa sifatida tahlil qilinadi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda hissiyotlar so'z, obraz, ohang, uslubiy vositalar hamda matn mazmuni orqali namoyon bo'ladi. Hissiyotning badiiy matnda ifodalanishi, emotsional birliklarning semantik xususiyatlari va ularning kommunikativ vazifasi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, hissiyotlarni o'rganishda psixolingvistik, lingvopoetik va semantik yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad "hissiyot" tushunchasining filologik mohiyatini yoritish, uni o'rganishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda badiiy matnda hissiyot ifodasining asosiy xususiyatlarini ilmiy manbalar asosida ko'rsatib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: hissiyot, emotsiya, filologiya, badiiy matn, emotsional birlik, lingvopoetika, semantika, psixolingvistika.

Annotation. The article examines the philological interpretation of the concept of "emotion" and the theoretical foundations of its study. Emotion is analyzed as an important phenomenon expressing a person's inner experiences, attitude, and psychological state. In linguistics and literary studies, emotions are manifested through words, images, intonation, stylistic devices, and textual meaning. The article discusses the expression of emotion in literary texts, the semantic features of emotional units, and their communicative function. Furthermore, the importance of psycholinguistic, linguopoetic, and semantic approaches to the study of emotions is demonstrated. The purpose of the study is to elucidate the philological essence of the concept of "emotion", analyze the theoretical foundations of its study, and demonstrate the main features of emotion expression in literary texts on the basis of scholarly sources.

Keywords: emotion, emotionality, philology, literary text, emotional unit, linguopoetics, semantics, psycholinguistics.

Аннотация. В статье рассматривается филологическая интерпретация понятия «эмоция» и теоретические основы её изучения. Эмоция анализируется как важное явление, выражающее внутренние переживания, отношение и психологическое состояние человека. В языкознании и литературоведении эмоции проявляются через слово, образ, интонацию, стилистические средства и содержание текста. В статье освещаются особенности выражения эмоций в художественном тексте, семантические свойства эмоциональных единиц и их коммуникативная функция. Также показывается значение психолингвистического, лингвопоэтического и семантического подходов к изучению эмоций. Цель исследования заключается в раскрытии филологической сущности понятия «эмоция», анализе теоретических основ её изучения, а также в демонстрации основных особенностей выражения эмоций в художественном тексте на основе научных источников.

Ключевые слова: эмоция, эмоциональность, филология, художественный текст, эмоциональная единица, лингвопоэтика, семантика, психолингвистика.

Аннотация. В статье с сравнительно-прагматической точки зрения анализируются коммуникативные функции прагматических маркеров, используемых в английской и узбекской дипломатической речи. Дипломатический дискурс представляет собой важную форму институциональной коммуникации, служащую для выражения политической позиции, регулирования диалога и укрепления сотрудничества в международных отношениях. В этом процессе прагматические маркеры выступают важным средством обеспечения логической последовательности речи, соблюдения норм дипломатического этикета, усиления аргументации и оказания прагматического воздействия на адресата. Целью исследования является определение функциональных особенностей прагматических маркеров, встречающихся в английской и узбекской дипломатической речи, их сравнительный анализ и освещение прагматической нагрузки в дипломатическом дискурсе. Результаты исследования подтверждают важную роль прагматических маркеров в обеспечении связности дипломатического дискурса, эффективной реализации коммуникативных стратегий и повышении эффективности международного политического диалога.

Ключевые слова: прагматический маркер, дипломатический дискурс, коммуникативная функция, прагмалингвистика, анализ дискурса, английский язык, узбекский язык, политическая коммуникация.

Globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi diplomatik kommunikatsiyaning ahamiyatini yanada oshirdi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda diplomatik nutq nafaqat rasmiy axborot almashish vositasi, balki davlatlarning tashqi siyosiy manfaatlarini ifodalash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va muzokaralar samaradorligini ta'minlovchi muhim kommunikativ mexanizm hisoblanadi. Shu bois diplomatik diskursning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Diplomatik nutqda qo'llaniladigan har bir til birligi muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiladi. Xususan, pragmatik markerlar matnning mantiqiy izchilligini ta'minlash, argumentatsiyani mustahkamlash, diplomatik xushmuomalalikni ifodalash hamda adresatga pragmatik ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan ular diplomatik diskursning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda pragmatik markerlarga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'paygan bo'lsa-da, ularning ingliz va o'zbek diplomatik diskursidagi kommunikativ funksiyalari qiyosiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, diplomatik nutqda pragmatik markerlarning siyosiy pozitsiyani ifodalash, muloqotni boshqarish va diplomatik strategiyalarni amalga oshirishdagi o'rni alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Pragmatika va diskurs tahlilining rivojlanishi til birliklarini ularning real kommunikativ jarayondagi funksiyalari asosida o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Diplomatik diskursda pragmatik markerlar nutqning mantiqiy tuzilishini shakllantirish, kommunikativ strategiyalarni amalga oshirish va xalqaro siyosiy muloqot samaradorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro muzokaralar, davlat rahbarlarining nutqlari va rasmiy diplomatik hujjatlar global auditoriyaga yo'naltirilmoqda. Shu sababli ularda qo'llaniladigan pragmatik markerlarning kommunikativ yuklamasini aniqlash nazariy tilshunoslik bilan bir qatorda amaliy tarjimashunoslik uchun ham dolzarbdir. Ingliz tili xalqaro diplomatiyaning yetakchi tillaridan biri bo'lsa, o'zbek diplomatik diskursi mustaqillik yillarida o'ziga xos kommunikativ xususiyatlarni shakllantirdi. Ushbu ikki tilni qiyosiy o'rganish diplomatik tarjima sifatini oshirish va pragmatik ekvivalentlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Pragmatik markerlar nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pragmatika va diskurs tahlilining muhim yo'nalishiga aylandi. Uning nazariy asoslari J.L.Austin va J.Searlening nutqiy aktlar nazariyasi hamda H.P.Gricening hamkorlik tamoyili va implikatura nazariyasiga tayanadi. Ushbu yondashuvlar til birliklarining kommunikativ maqsadi va pragmatik mazmunini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [1: 5].

Pragmatik markerlarni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida Deborah Schiffrin "Discourse Markers" asarida tizimli yoritgan

[9: 31–33]. Keyinchalik Bruce Fraser ularning funksional tasnifini ishlab chiqib, kontrastiv, inferensial va elaborativ markerlarni ajratgan [5: 936–940]. Diplomatik diskursni tadqiq etishda esa Teun A. van Dijk, Norman Fairclough va Paul Chiltonning siyosiy diskurs hamda siyosiy kommunikatsiyaga oid ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi [11: 25], [4: 18], [3: 52]. O'zbek tilshunosligida ushbu masala bo'yicha tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ingliz va o'zbek diplomatik diskursida pragmatik markerlarning kommunikativ funksiyalarini qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy ishlar yetarli emas. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotimizning metodologik asosini pragmalingvistika, diskurs tahlili va qiyosiy tilshunoslik yondashuvlari tashkil etadi. Pragmatik markerlar grammatik birlik sifatida emas, balki muloqotning pragmatik yaxlitligini ta'minlovchi kommunikativ vosita sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda Bruce Fraserning pragmatik markerlar konsepsiyasi hamda Deborah Schiffrinning diskurs markerlari nazariyasiga tayanildi.

Empirik material sifatida 2020–2025-yillarda e'lon qilingan ingliz va o'zbek tillaridagi rasmiy diplomatik nutqlar tanlandi. Ingliz tilidagi materiallar BMT Bosh Assambleyasi, AQSh davlat departamenti va Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vazirligining rasmiy bayonotlaridan, o'zbek tilidagi materiallar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Tashqi ishlar vazirligining rasmiy nutq va bayonotlaridan olindi. Tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy, diskursiv va kontekstual tahlil metodlari qo'llandi. Pragmatik markerlarning strukturaviy xususiyatlari, kommunikativ vazifalari, qo'llanish chastotasi va siyosiy kontekstdagi pragmatik yuklamasi baholandi.

Ingliz va o'zbek diplomatik diskursida pragmatik markerlarning tahlili

Diplomatik diskursda til birliklari nafaqat axborot uzatish, balki siyosiy pozitsiyani ifodalash, muzokaralar jarayonini boshqarish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash vazifalarini ham bajaradi. Shu sababli pragmatik markerlar diplomatik kommunikatsiyaning asosiy strategik vositalaridan biri hisoblanadi. Tahlillar ingliz diplomatik diskursida *however, therefore, in this regard, furthermore* kabi markerlar mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, argumentatsiyani kuchaytirish va siyosiy pozitsiyani ehtiyotkor tarzda ifodalash uchun faol qo'llanilishini ko'rsatdi. Fraser ta'kidlaganidek, pragmatik markerlar diskurs segmentlari o'rtasidagi pragmatik munosabatni belgilaydi [5: 936].

Masalan: *However, sustainable peace cannot be achieved without international cooperation***.** Ushbu misolda *however* markeri avvalgi fikr bilan qarama-qarshilikni ifodalab, auditoriya e'tiborini asosiy diplomatik xulosaga qaratadi.

Shuningdek, *In this regard, we reaffirm our commitment to international law* jumlasida *in this regard* mavzuning izchil davom ettirilishini, *we reaffirm* esa davlatning rasmiy pozitsiyasini qat'iy, ammo diplomatik ohangda ifodalashga xizmat qiladi.

Pragmatik funksiya	Ingliz tili	O'zbek tili	Kommunikativ vazifa
qarama-qarshilikni ifodalash	however, nevertheless	biroq, shunga qaramay	diplomatik ehtiyotkorlikni saqlash
qo'shimcha argument kiritish	furthermore, moreover	shuningdek, shu bilan birga	argumentatsiyani kuchaytirish
xulosa chiqarish	therefore, accordingly	demak, natijada	diplomatik pozitsiyani asoslash
mavzuni davom ettirish	in this regard	shu munosabat bilan	nutq izchilligini ta'minlash
ishonch bildirish	we believe, we reaffirm	biz ishonamizki, qat'iy ishonamiz	hamkorlik va ishonch muhitini yaratish
auditoriyani yo'naltirish	indeed, in fact	ta'kidlash joizki, albatta	muhim fikrni ajratib ko'rsatish

O'zbek diplomatik diskursida esa *shu bilan birga, ta'kidlash joizki, shuningdek, ayni paytda* kabi markerlar nutqning mantiqiy yaxlitligini ta'minlash, yangi argumentni kiritish hamda diplomatik xushmuomalalikni ifodalashda faol qo'llanadi.

Masalan: *Shu bilan birga, mintaqada barqaror taraqqiyotni ta'minlash barcha davlatlarning umumiy manfaatlariga xizmat qiladi.* Bu misolda *shu bilan birga* markeri yangi argumentni avvalgi fikr bilan bog'lab, nutqning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Schiffrin qayd etganidek, diskurs markerlari muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi pragmatik aloqani boshqaruvchi vosita hisoblanadi [9: 61].

Ingliz va o'zbek diplomatik nutqlarida pragmatik markerlarning kommunikativ funksiyalari

Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o'zbek diplomatik nutqlarida pragmatik markerlarning kommunikativ vazifalari umumiy jihatdan o'xshash ekanini, biroq ularning qo'llanish strategiyasi milliy diplomatik an'analar va kommunikativ uslubga ko'ra farqlanishini ko'rsatdi. Ingliz diplomatik diskursida pragmatik markerlar asosan argumentatsiyaning mantiqiy izchilligini ta'minlash va siyosiy pozitsiyani ehtiyotkorlik bilan asoslashga xizmat qilsa, o'zbek diplomatik nutqlarida ular rasmiy muloqot odobi, hurmat va hamkorlik ruhini ifodalash vazifasini ham bajaradi.

Empirik tahlil davomida ingliz tilida *however, therefore, in this regard, indeed*, o'zbek tilida esa *shu bilan birga, shuningdek, ta'kidlash joizki, ayni paytda* kabi pragmatik markerlarning faol qo'llanishi kuzatildi. Bu holat pragmatik markerlar nafaqat matnning mantiqiy bog'liqligini ta'minlashi, balki diplomatik kommunikatsiya strategiyasini amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar pragmatik markerlar nazariyasiga oid ilmiy qarashlar bilan uyg'unlikni ko'rsatadi. Shuningdek, Paul Chilton hamda Teun A. van Dijkning siyosiy diskursga oid ilmiy qarashlari nuqtayi nazaridan ham pragmatik markerlar diplomatik muloqotda siyosiy pozitsiyani ifodalash, ishonchlilikni oshirish va auditoriyaga pragmatik ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek diplomatik nutqlarida pragmatik markerlarning kommunikativ funksiyalarini qiyosiy-pragmatik nuqtayi nazardan yoritib, ularning diplomatik diskursni tashkil etish va kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari pragmalingvistika, siyosiy diskurs tahlili hamda diplomatik kommunikatsiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga, shuningdek, diplomatik tarjima amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
3. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004.
4. Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. 2nd ed. – London: Routledge, 2013.
5. Fraser B. What are discourse markers? // Journal of Pragmatics, 1999. Vol. 31, №7. – P. 931–952.
6. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / ed. by P. Cole, J.L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
7. Leech G.N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.
8. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
9. Schiffrin D. Discourse Markers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
10. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
11. Van Dijk T.A. Discourse as Social Interaction. – London: Sage Publications, 1997.
12. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

Munisa NAZAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti tayanch doktoranti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI DISKURSIDA SUKUTNING KOGNITIV-PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek diskursida sukutning psixolingvistik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Sukutning nutqni rejalashtirish, axborotni qayta ishlash, emotsional holatni boshqarish hamda pragmatik ma'nolarni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari psixolingvistika, diskurs tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
Kalit so'zlar: sukut, psixolingvistika, diskurs, kognitiv jarayonlar, pragmatika, madaniyatlararo kommunikatsiya.
Annotation. This article provides a comparative analysis of the psycholinguistic characteristics of silence in English and Uzbek discourse. It highlights the role of silence in speech planning, information processing, emotional regulation, and the expression of pragmatic meanings. The results of the study serve to advance scientific research in the fields of psycholinguistics, discourse analysis, and intercultural communication.
Keywords: silence, psycholinguistics, discourse, cognitive processes, pragmatics, intercultural communication.
Аннотация В статье представлен сравнительный анализ психолингвистических особенностей молчания в английском и узбекском дискурсе. В ней освещается роль молчания в планировании речи, обработке информации, эмоциональной регуляции и выражении прагматических значений. Результаты исследования служат развитию научных исследований в области психолингвистики, дискурс-анализа и межкультурной коммуникации.
Ключевые слова: молчание, психолингвистика, дискурс, когнитивные процессы, прагматика, межкультурная коммуникация.

An'anaviy tilshunoslikda sukut ko'pincha nutqning yo'qligi yoki kommunikativ tanaffus sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy psixolingvistika va pragmatika uni insonning kognitiv faoliyati bilan bevosita bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qiladi. Muloqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan sukut uzoq vaqt davomida faqatgina nutqning yo'qligi deb qaraldi. Biroq zamonaviy psixolingvistika, pragmalingvistika va diskurs tahlili yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlar sukutning murakkab kognitiv, psixologik va ijtimoiy-kommunikativ hodisa ekanligini ko'rsatmoqda [1: 2].

Psixolingvistik nuqtayi nazardan sukut nutqni rejalashtirish, leksik birliklarni tanlash, xotiradan zarur axborotni chaqirish, diqqatni jamlash va emotsional holatni boshqarish kabi kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli sukut passiv hodisa emas, balki inson tafakkuri va nutq faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi [3].

Ingliz va o'zbek tillari turli lingvomadaniy an'analarga mansub bo'lib, sukutning kommunikativ vazifalari ham ushbu madaniy farqlar ta'sirida shakllanadi. Ingliz tili vakillari muloqotda fikrni bevosita ifodalashga moyil bo'lsalar, o'zbek tilida bilvosita muloqot, hurmat va odob tamoyillari muhim o'rin egallaydi. Natijada bir xil sukut turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, ingliz diskursida uzoq davom etgan sukut ko'pincha noqulaylik yoki javob topa olmaslik belgisi sifatida qabul qilinsa, o'zbek diskursida u hurmat, mulohaza yoki katta yoshdagilarga ehtirom ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

Mavzuga oid xorijiy tadqiqotlarda sukut fenomenining turli jihatlari yoritilgan. Jumladan, A. Jaworski sukutni kommunikativ resurs sifatida baholab, uning lingvistik va ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilgan [1]. H. Clark muloqotni qo'shma faoliyat sifatida izohlab, sukutning suhbat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlashdagi roliga e'tibor qaratgan [3]. W. Levelt esa nutqni hosil qilish modelida sukutning konseptualizatsiya va formulatsiya bosqichlari bilan bog'liqligini asoslab bergan [2].

Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida sukut ko'proq pragmatik va stilistik nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo'lib, uning ingliz va o'zbek tillari misolida psixolingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilgan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Psixolingvistika sohasidagi tadqiqotlarda nutqni hosil qilish jarayoni inson ongida bosqichma-bosqich amalga oshishi ta'kidlanadi. Nutq ishlab chiqish modelini taklif etgan Willem J. M. Levelt konseptualizatsiya, formulatsiya va artikulyatsiya bosqichlarini ajratib ko'rsatadi [2]. Olimning fikricha, nutq davomida yuzaga keladigan qisqa sukutlar ko'pincha so'zlovchining fikrni rejalashtirishi, zarur leksik birliklarni tanlashi hamda sintaktik tuzilmani shakllantirishi bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash joizki, xorijiy adabiyotlarda sukutning kommunikativ, pragmatik va psixolingvistik jihatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida uning qiyosiy psixolingvistik xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. O'zbek tilshunosligida esa sukut asosan pragmatik yoki uslubiy hodisa sifatida o'rganilgan bo'lib, uning nutqni rejalashtirish, kognitiv jarayonlar va madaniy tafovutlar bilan bog'liq psixolingvistik mexanizmlari kompleks ravishda tahlil qilinmagan. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sukutning ingliz va o'zbek diskursidagi psixolingvistik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan sukut nutq faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u insonning kognitiv jarayonlari, nutqni rejalashtirish, axborotni qayta ishlash hamda emotsional holatini boshqarish bilan bevosita bog'liq. Nutqni hosil qilish jarayonida so'zlovchi avvalo o'z fikrini konseptual jihatdan shakllantiradi, keyinchalik esa unga mos leksik va grammatik vositalarni tanlaydi. Ana shu bosqichlarda yuzaga keladigan qisqa sukutlar fikrni rejalashtirish, zarur til birliklarini xotiradan chaqirish va nutqni grammatik jihatdan tashkil etish bilan izohlanadi. Demak, sukut aksariyat hollarda nutqdagi uzilish emas, balki murakkab psixik faoliyatning tashqi ko'rinishidir.

Ingliz va o'zbek diskursida sukutning namoyon bo'lishi

Ingliz diskursida sukutning psixolingvistik vazifalari ko'pincha kognitiv yuklama bilan bog'liq. Murakkab savollarga javob berish, yangi axborotni qayta ishlash yoki emotsional jihatdan murakkab vaziyatlarda suhbatdosh qisqa muddat sukut saqlashi kuzatiladi. Bunday sukut ishchi xotiraning faollashuvi, diqqatni jamlash va javobni rejalashtirish jarayonining tabiiy natijasi hisoblanadi.

O'zbek diskursida esa sukut nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy-psixologik vazifani ham bajaradi. Xususan, katta yoshdagi shaxs bilan muloqotda, rasmiy vaziyatlarda yoki bahsli masalalarni muhokama qilishda sukut hurmat, vazminlik va mulohazakorlik belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday holatda sukutning yuzaga kelishi faqat nutqni rejalashtirish bilan emas, balki milliy kommunikativ me'yorlarga rioya qilish bilan ham izohlanadi.

Psixolingvistik jihatdan ingliz va o'zbek diskursidagi sukut umumiy kognitiv mexanizmlarga asoslanadi. Har ikkala tilda ham sukut fikrni shakllantirish, xotiradan zarur ma'lumotni izlash, emotsional holatni nazorat qilish va keyingi nutqni rejalashtirish jarayonida yuzaga keladi. Biroq uning kommunikativ talqini madaniy omillar ta'sirida farqlanadi. Ingliz tili vakillari uzoq davom etgan sukutni ko'pincha noqulaylik, ikkilanish yoki muloqotning uzilishi sifatida qabul qilsalar, o'zbek tili vakillari bunday sukutni hurmat, sabr-toqat yoki vaziyatni chuqur mushohada qilish belgisi sifatida talqin etishlari mumkin.

Ingliz va o'zbek diskursida sukutning asosiy psixolingvistik funksiyalari

Psixolingvistik funksiya	Ingliz diskursi	O'zbek diskursi
Nutqni rejalashtirish	+	+
Leksik birliklarni tanlash	+	+
Ishchi xotirani faollashtirish	+	+
Emotsional nazorat	+	+
Hurmatni ifodalash	±	+++
Mulohazakorlikni ifodalash	+	+++
Ikkilanishni ifodalash	+++	+
Noqulaylikni ifodalash	+++	±

Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional holat ham o'zbek diskursidagi sukutga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Quvonch, qayg'u, hayrat, xafa bo'lish yoki uyalish kabi hissiy holatlarda inson ko'pincha bir muddat sukut saqlaydi. Bu davrda miya emotsional axborotni qayta ishlaydi, keyingi nutqning mazmuni va shakli rejalashtiriladi. Demak, sukut emotsional o'zini boshqarish mexanizmining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbek diskursida sukutning asosiy psixolingvistik funksiyalari

Funksiya	Psixolingvistik izoh	Diskursdagi namoyon bo'lishi
Nutqni rejalashtirish	Fikrni shakllantirish va leksik birliklarni tanlash	Savolga javob berishdan oldingi qisqa sukut
Hurmatni ifodalash	Ijtimoiy me'yorlarni nazorat qilish	Kattalar bilan muloqotda javobni shoshirmaslik
Emotsional nazorat	Stress va hissiyotlarni boshqarish	Xafa bo'lish, hayrat yoki uyalish holatlarida sukut
Muloha-zakorlik	Qaror qabul qilish va vaziyatni baholash	Muhim masalalarni muhokama qilishda pauza
Nizoni yumshatish	Impulsiv reaksiyani cheklash	Bahsli vaziyatlarda javobni kechiktirish

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan har ikkala tilda ham sukut nutqni rejalashtirish, konseptual tayyorgarlik, leksik birliklarni tanlash va ishchi xotira faoliyati bilan bog'liq. Nutq hosil qilish jarayonida inson miyasi kelgusi fikrni shakllantiradi, uni grammatik jihatdan tashkil etadi va artikulyatsiyaga tayyorlaydi. Ana shu bosqichlarda yuzaga keladigan pauzalar universal psixolingvistik hodisa hisoblanadi. Shu sababli ingliz va o'zbek tillaridagi sukutning biologik hamda kognitiv asoslari o'xshashdir.

Psixolingvistik jihatdan sukutning davomiyligi ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Tadqiqotlar murakkab kognitiv vazifalar bajarilayotganida pauzalar davomiyligi ortishini ko'rsatadi. Har ikkala tilda ham murakkab savollarga javob berishda, yangi ma'lumotni tahlil qilishda yoki qaror qabul qilish zarur bo'lgan vaziyatlarda sukut ko'proq kuzatiladi. Demak, sukutning davomiyligi so'zlovchining bilim darajasidan ko'ra, ko'pincha vazifaning kognitiv murakkabligi bilan bog'liq.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sukutning psixolingvistik funksiyalari universal, pragmatik funksiyalari esa madaniy jihatdan xos xususiyatga ega. Bu xulosa zamonaviy psixolingvistika, pragmatika va lingvomadaniyatshunoslik nazariyalari bilan hamohangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaworski A. The Power of Silence: Social and Pragmatic Perspectives. – Newbury Park: Sage Publications, 1993.
2. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. – Cambridge, MA: MIT Press, 1989.
3. Clark H.H. Using Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
4. Van Dijk T.A. Discourse as Structure and Process. – London: Sage Publications, 1997.
5. Wray A. Psycholinguistics: A Resource Book for Students. 3rd ed. – London: Routledge, 2021.
6. Cutting J. Pragmatics and Discourse. 3rd ed. – London: Routledge, 2020.
7. Vygotsky L.S. Thought and Language. Revised ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

Nozima ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK, INGLIZ VA ARAB TILLARIDAGI SALOMATLIKKA OID MAQOLLARDA SOMATIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada inson salomatligi bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan maqollardagi somatik birliklar tahlil qilinadi. Tahlil o'zbek, ingliz va arab tillaridagi maqollarni o'zaro chog'ishtirish orqali deskriptiv, semantik va pragmatik usullarda olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tana a'zolari nomlari ishtirok etgan salomatlikka oid maqollar o'zbek tilida eng yuqori faollikni ko'rsatib, ingliz va arab tillarida nisbatan kamroq qo'llanilishi aniqlandi.
Kalit so'zlar: o'zbek tili, ingliz tili, arab tili, salomatlikka oid maqollar, somatik birliklar, bosh, tana, oyoq, teri, ko'z, tish.
Annotation. This article analyzes somatic units found in proverbs directly and indirectly related to human health. The analysis is conducted through a contrastive study of Uzbek, English, and Arabic proverbs using descriptive, semantic, and pragmatic methods. The research findings indicate that health-related proverbs containing body part names exhibit the highest frequency in the Uzbek language, while being relatively less prominent in English and Arabic.
Keywords: Uzbek, English, Arabic, health-related proverbs, somatic units, head, body, foot, skin, eye, tooth.
Аннотация. В статье анализируются соматические единицы в пословицах, прямо и косвенно связанных со здоровьем человека. Анализ проведён на основе сопоставления узбекских, английских и арабских пословиц с использованием дескриптивного, семантического и прагматического методов. Результаты исследования показывают, что пословицы о здоровье, содержащие названия частей тела, наиболее активны в узбекском языке и сравнительно менее представлены в английском и арабском языках.
Ключевые слова: узбекский язык, английский язык, арабский язык, пословицы о здоровье, соматические единицы, голова, тело, нога, кожа, глаз, зуб.

Har bir xalq hayotida maqollarning o'rni beqiyosdir. Maqollardan deyarli barcha vaziyatlarda nutqda tayyor manba sifatida foydalaniladi. Vaqtlar osha inson salomatligi doim eng markazda turuvchi mavzu bo'lib kelgan. Salomatlik mavzusi xalq maqollarida ham keng o'rin egallab, u insonlarga sog'lom turmush tarzi, davo choralari hamda bemorga qanday munosabatda bo'lish kabi ko'plab masalalarni qamrab oladi. Tadqiq etilayotgan o'zbek, ingliz va arab xalq maqollarida salomatlikka oid birliklar miqdor jihatdan ko'p bo'lib, ular xalqning sog'likka bo'lgan munosabatini yoritib beradi.

Shuningdek, salomatlik tor ma'nodagi tushuncha bo'lmay, insonning jismoniy, ruhiy holati va tanaga yetkazilishi mumkin bo'lgan jarohatlar ko'lamini ham o'z ichiga oladi. Maqolada salomatlikka oid maqollar tarkibida uchrovchi tana a'zolari, ya'ni somatik komponentlar ishtirokidagi birliklar uch tilda o'zaro qiyoslanib tadqiq qilinadi. Har uch tilda so'zlashuvchi xalqlarning tana a'zolari salomatligiga qanday munosabatda ekanligi tadqiqot natijalari asosida aniqlanadi.

Bugungi kungacha fanda somatik komponentli iboralar, maqollar o'rganib kelingan, lekin ularning inson salomatligi bilan aloqadorlik jihatdan semantik va funksional tadqiqini uchratmadik. M.Sobirova somatik komponentli o'zbek xalq paremalarida ma'no ko 'chish turlarini tahlil qilgan maqolasida metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi ma'no ifodalash usullarini misollar bilan yoritadi. Unda somatik komponentli paremalarda ma'no ko'chishi insonning jismoniy a'zolari va ruhiy-ma'naviy olami o'rtasidagi bogliqlik asosida shakllanadi, deyiladi. Masalan, *Ko'z qo'rqoq, qo'l botir, Yuzi qattiq nasib etmaganini yer [1].*

U.Mieder aytishicha, tibbiyotga oid maqollarning ko'pi *What can be cured, must be endured* (Davolanib bo'lmaydiganga chidash kerak), *Better tooth out than always ache* (Tish doim og'rigandan, uzib tashlangan yaxshi) kabi kasallik haqidagi maqollardan tashkil topgan. Ya'ni maqollar orqali biz nafaqat pand-nasixat, balki davr ijtimoiy-siyosiy holatini ham anglashimiz mumkin [2].

Tadqiqot doirasida har uch tildagi salomatlikka oid maqollarni aniqlashda paremiologik lug'atlardan maqollar yig'ildi. Maqollarni qiyosiy o'rganishda semantik va pragmatik tahlil hamda chog'ishtirma tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbek tilidagi 80 ta, ingliz tilidagi 13 ta va arab tilidagi 6 ta somatik komponentli maqollar o'rganildi. Ulardan o'z va ko'chma ma'nolariga ega jami maqollardan quyidagilar ajratib olindi:

O'zbek tilida: "bosh" so'zi ishtirok etgan 30 ta maqol, "tana" so'zi ishtirokidagi 14 ta maqol, "tish" ishtirokidagi 9 ta maqol, "bel" ishtirokidagi 7 ta maqol, "qo'l" ishtirokidagi 5 ta maqol, "ko'z" ishtirokidagi 5 ta maqol, "yurak", "oyoq", "suyak" so'zlari ishtirokida 3 tadan maqol, "barmoq" so'zi ishtirokidagi 2 ta maqol. Shuningdek, "bilak", "bo'yin", "teri", "og'iz", "tomoq" so'zlari ishtirokidagi 1 tadan maqollar.

Ingliz tilida "eye" (ko'z) so'zi qatnashgan 5ta maqol, "foot" (oyoq) so'zi qatnashgan 4 ta maqol, "head" (bosh) so'zi qatnashgan 2 ta maqol, "mouth" (og'iz), "hand" (qo'l), "leg" (oyoq) (butun) so'zlari qatnashgan 1 tadan maqollar.

Arab tilida "tish", "bosh" so'zi qatnashgan 2 ta maqol, "badan", "qad-qomat" so'zlari qatnashgan 1 tadan maqollar.

Maqollarda tana a'zolari ishtiroki umumiy sondan ko'p ko'ringanining sababi, ba'zi maqollarda birdan ortiq somatik komponentning qo'llanilishidir.

O'zbek tilida arab va ingliz tillaridagiga nisbatan tana a'zolari ishtirokidagi maqollar ko'p sonda aniqlangan. "Bosh" leksemasi uch til materialida ham yetakchi o'rin egallab, u aql, ong, mas'uliyat, og'riq va ijtimoiy ehtiyotkorlik semalarini ifodalashda faol qo'llangan. O'zbek paremiologik tizimida "bosh" komponenti ko'proq hayotiy muvozanat, jismoniy va ruhiy salomatlik hamda ogohlantirish ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek tilida eng ko'p uchragan maqol bu "bosh" so'zi ishtirokidagi maqol bo'lib, ular: *Bosh rohati, tan rohati; Boshingni salqinda saqla, oyog'ingni issiqda; Boshi og'rimaganning oldida boshim dema; Bosh yarasi tuzalsa ham, dil yarasi tuzalmas* [3] kabi maqollardan iborat.

Bu maqollarda "bosh" nafaqat fiziologik a'zo, balki psixofiziologik markaz sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, "bosh–tan–ruh" uchligi orqali inson salomatligi yaxlit tizim sifatida ko'riladi. Ikkinchi tomondan, og'riq va ruhiy jarohatning barqarorligi ham ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar* maqolida bosh- inson tanasining bir qismigina emas, balki butun insonni umumiy tanasini nazarda tutadi. Inson sog' bo'lsa, barcha narsani qo'lga kiritish mumkin. Eng muhii sog'likdir degan ma'no anglashiladi [4].

Ingliz tilidagi maqollarda "head" komponenti ko'proq profilaktik salomatlik va hayotiy gigiyena qoidalari bilan

bog'langan. Ingliz tilida "bosh" so 'zi ishtirok etgan 2 ta maqol aniqlanib, ular: *Dry feet, warm head, bring safe to bed* – quruq oyoq, iliq bosh yotoqqa sog 'lom olib boradi; *The head and feed keep warm, the rest will take no harm* [5] – bosh va oyoqni iliq tutsa, qolgani (a'zo) zarar ko'rmaydi maqollari uchraydi.

Bu birliklarda "head" ko'proq harorat, himoya va sog'liqni saqlash me'yori bilan bog'liq. Ingliz paremiologiyasida somatik birliklar pragmatik jihatdan amaliy tavsiya (didactic function) vazifasini bajaradi. Ya'ni maqollar insonni sog'lom turmush tarziga yo'naltiradi. Arab paremiologiyasida "الرأس" (bosh) komponenti ko'proq ijtimoiy-psixologik va metaforik ma'no tashiydi:

Arab tilida 6] اللي علي رأسه بطحة يحسس عليها] - boshida og'rig'i bor kishi buni biladi (kimning boshida shish bo'lsa, uni doim ushlab yuradi) maqol o'ziga ishonchni ifodalab, ko'pincha janjal paytida aytiladi.

اللي علي رأسه بطحة يكتمها بن – kimniki boshida yarasi bo'lsa, uni kofe bilan yashirsin. Ommabop muhitda odamlar biroz kofe bilan yaralarini qon ketmasligi uchun yopganlar. Bu maqollarda "bosh" ayb, gunoh yoki yashirin muammo ramzi sifatida ishlatiladi. Semantik jihatdan u: o'zini himoya qilish, aybni yashirish, ijtimoiy muhokamada o'zini oqlash kabi pragmatik funksiyalarni bajaradi.

Uch til materialida "bosh" somatizmi universal antropotsentrik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Biroq: o'zbek maqollarida u yaxlit tana va ruhiy muvozanat markazi, ingliz maqollarida sog'liqni saqlashga oid amaliy indikator, arab maqollarida esa ijtimoiy ayb va psixologik himoya metaforasi sifatida talqin qilinadi. Bu holat somatik leksikaning turli madaniyatlarda semantik diversifikatsiyaga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida salomatlikka oid maqollarda eng ko'p uchraydigan tana a'zosi "bosh" bo'lsa ingliz tilida tana a'zolari ishtirokidagi maqollarning ko'p ulushi "ko'z"ga to'g'ri keladi. Better eye out than always ache – doim og'rigan ko'zni olib tashlash afzal, Better eye sore than always blind – doim ko'r bo'lgandan ko'z og'rig'i yaxshiroq, Better eye sore than all blind – butun ko'rlikdan ko'z og'rig'i afzalroq, Better to have one eye than be blind altogether – butunlay ko'rlikdan bir ko'zlik yaxshiroq, A man were better to be half blind than have both his eyes out – kishi ikki ko'zi yo'q bo'lgandan yarim ko'r bo'lgani yaxshiroq kabi maqollar ko'zda uchraydigan muammolarga oid, o'z va ko'chma ma'noga ega maqollardir.

Arab tilida bosh bilan birga "tish" – 7] سن , ضرس] so'zi ishtirokidagi maqol ham ikkitadan iborat eng ko'p sondagi maqol. من عدم سناناته عدم ملذته – tishsiz odam zavqdan mahrum bo'ladi, اللي ياكل علي ضرسه ينفع نفسه.O'z tishi bilan ovqatlanadigan kishi o'ziga foyda keltiradi, ya'ni so'glom tishda ovqatlansa, bu o'ziga tanasiga foyda bo'lishini anglatadi.

O'zbek, ingliz va arab tillaridagi salomatlikka oid maqollarni qiyosiy tahlil qilish natijasida somatik birliklarning (tana a'zolari nomlarining) turlicha uchrashi va semantik yuklamasi mavjudligi aniqlandi. O'zbek maqollarida eng faol ishlatiladigan somatizm "bosh" bo'lib, u ko'pincha aqliy salomatlik, ehtiyotkorlik va hayotiy muvozanatni ifodalashda asosiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi maqollarda esa "eye/ko'z" somatizmi ustunlik qilib, u insonning idrok, ko'rish va hayotiy imkoniyatlarini baholash bilan bog'liq metaforik ma'nolarni ifodalaydi hamda ko'rish qobiliyatining yo'qolishidan ko'ra qisman nuqsonli holatni afzal ko'rish g'oyasi orqali pragmatik qadriyatlarni aks ettiradi. Arab maqollarida esa "bosh" bilan birga "tish" somatizmi ham yuqori chastotada uchrab, u insonning ovqatlanish, hayotiy lazzatlanish va sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq funksional-maishiy ma'nolarni ifodalaydi.

Har uch tilda salomatlikka oid maqollar tarkibidagi somatik maqollarning eng kam sonlilari o'zbek tilida bilak, bo'yin, teri, og'iz, tomoq so'zlari ishtirokidagi maqollardir. Masalan: *Kuygan teri yozilmas* – o'z ma'no va ko'chma ma'noga ega maqol. Teri ko'pincha kuygandan so'ng yig'ilib qolishi mumkinligini aytishda yoki bir buzilgan narsa, vaziyatni qayta to'g'irlab bo'lmasligini aytishda ishlatiladi. *Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning o'g'li gapirsin* – bu ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanib, boylik tashqi kamchiliklardan ustun turishini anglatadi. *Tomoq turgan yerda dard turmas* maqoli o'z ma'nosida qo'llanib, ovqatlanish sog'lom kishining odati ekanini anglatadi.

Ingliz tilida *Better hand loose than an ill tethering* – yomon bog'liqlikdan bo'shatib yuborilgan yaxshi ma'nosidagi maqol ko'proq ko'chma: yomon turmushdan ajralish yaxshiroq ma'nosida qo'llanadi. *Lose a leg rather than a life* – butun hayotni yo'qotgandan bir butun oyoqni yo'qotish afzalroq ma'nosini beruvchi ya'ni katta narsani olib qolish uchun kichigini qurbon qilishni ma'qullovchi maqol, o'z va ko'chma ma'noda qo'llanadi. *To the gout all physicians are blind* – podagra kasalligiga hamma shifokorlar ko'r bo'lib qoladilar deb tarjima qilinadigan o'z ma'nosida qo'llanuvchi maqol bo'lib, davolash ancha murakkab kechadigan podagra – bog'im kasalliklari haqida ma'lumot beryapti.

Arab tilida .صحة الأبدان و لا صحة الأديان dinlar salomatligi emas, badanlar salomatligi ya'ni dinda mahkam turib undagi majburiyatlarni bajar olish uchun tanani sog'lom saqlashga chaqiradi. فضل العود اللحم يجودqad-qomat/shakl-shamoyil yaxshi bo'lsa, go'sht yaxshi bo'ladi. Bu maqol zaif bemorga uning tuzalib ketishiga umid qilib aytildi. Agar jismoniy tuzilish to'liq bo'lsa, hatto u zaif bo'lsa ham kasallik yo'qolib, bemor sog'ayganda suyaklar atrofida go'sht paydo bo'ladi. Bu maqol o'zbek tilidagi Suyak butun bo'lsa, et bitib ketar maqoliga ma'nodosh bo'la oladi.

O'zbek, ingliz va arab tillaridagi salomatlikka oid maqollarda somatik birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, eng kam uchraydigan tana a'zolari bilak, bo'yin, teri, og'iz va tomoq kabi leksik birliklar bo'lib, ular ko'proq cheklangan, lekin semantik jihatdan kuchli ifodaviy vazifani bajaradi. Ushbu maqollarda somatik birliklar nafaqat o'z ma'nosida, balki keng ko'chma ma'noda ham qo'llanilib, sog'liq, kasallik, sabr-toqat va hayotiy tajriba kabi universal konseptlarni ifodalashga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil natijalari turli madaniyatlarda tana a'zolari orqali sog'liq haqidagi tasavvurlar umumiy ekanini, biroq ularning obrazli ifodalanish darajasi va semantik yuklamasi milliy tafakkurga xos tarzda farqlanishini ko'rsatadi.

Ko'p ma'nolilik til tabiatning asosiy xususiyatlaridan va shu xususiyat til tizimining ulkan yutug'i bo'lishi bilan bir qatorda, axborot matnining puxta va pishiq tuzilishiga ega bo'lishga asos yaratadi [8]. Bunday ko'p ma'nolik xususiyati maqollarga ham xos bo'lib, ular so'zlovchi va tinglovchidan har bir ma'noni bilishni talab etadi. Yuqorida berilgan maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanishi maqollarga xos bo'lgan xususiyatdir. Ular o'z ma'nosida salomatlikka aloqador ma'noda bo'lsa, ko'chma ma'noda jamiyatdagi turli xil vaziyatlarga nisbatan fikrini bildirishda foydalaniladi.

Har bir til madaniyatida somatik birliklar orqali sog'liq, og'riq va hayot sifati haqidagi konseptlar milliy dunyoqarash va madaniy tajriba asosida turlicha kodlangan. Shu bilan birga, barcha uch til materialida ham tana a'zolari ishtirokidagi maqollar inson sog'lig'ini

qadrlash, yo'qotishdan ko'ra mavjud holatni saqlash va ehtiyotkorlikka chaqirish kabi umumiy universal g'oyalarni ifodalaydi.

Salomatlikka oid maqollarda tana a'zolari (somatizmlar) ishtiroki garchi har uch tilda so'zlashuvchi xalqda turli son va mavzuda bo'lsa-da, ular xalqning sog'liq haqidagi qarashlarini obrazli va tajribaga asoslangan tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu maqollarda "bosh", "ko'z", "tana", "tish" kabi somatik birliklar ko'pincha inson salomatligi, ruhiy holati va hayot tarzi bilan bog'liq axloqiy hamda tibbiy mazmunni ifodalovchi markaziy semantik vosita sifatida qo'llanadi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, somatizmlar ishtirokidagi maqollar o'z ma'nosida nafaqat fiziologik holatni, balki ko'chma ma'noda insonning psixologik va ijtimoiy farovonligini ham aks ettiradi. Shu jihatdan, bunday maqollar xalq tibbiy bilimlarining lingvokognitiv ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va turli madaniyatlarda sog'liq konseptining universalligini hamda milliy o'ziga xosligini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'qon DPI ilmiy xabarnomasi, 2024. №4. – B. 754. http://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/article/view/3852/3779.
2. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – B. 47. https://www.oriens.uz/uz/journal/article/paremiologlarning-tibbiyot-va-salomatlikka-oid-maqollar-haqidagi-izlanishlari-tahlili/.
3. Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
4. Qo'qon DPI ilmiy xabarnomasi, 2024. №4. – B. 755. http://journals-kokandsu.uz/index.php/kspi/article/view/3852/3779.
5. Ferguson R. The Penguin Dictionary of Proverbs. – London: Penguin Books, 2000.
6. Sha'lan I.A. موسوعة الأمثال الشعبية المصرية والتعبيرات السائرة. – Qohira: Maktabat al-Adab, 2003.
7. An-Naym ul kabir: Arabcha-o'zbekcha lug'at. – Namangan: Namangan, 2014.
8. Safarov Sh. Semantika: Monografiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.

Dildora RAXMONOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'zbek tili va adabiyoti shu'basi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

JADID ADABIYOTIDA OVRO'PO MADANIYATINING BADIIY TALQINI: ABDULLA AVLONIY IJODI MISOLIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Avloniy ijodida Ovro'po madaniyatining badiiy talqini tadqiq etiladi. O'zbek adabiyotshunosligida jadidlarning G'arb haqidagi qarashlari asosan ma'rifatparvarlik va ijtimoiy-siyosiy tafakkur doirasida o'rganilgan bo'lsa, ushbu tadqiqotda Ovro'po obrazi badiiy-konseptual hodisa sifatida tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, Abdulla Avloniy, Ovro'po madaniyati, G'arb obrazi, badiiy qatlam, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, poetika.
Annotation. This article investigates the artistic interpretation of European culture in the creative works of Abdulla Avloniy. While Jadid views on the West have been primarily studied within the framework of enlightenment and socio-political thought in Uzbek literary criticism, this study analyzes the image of Europe as an artistic-conceptual phenomenon.
Keywords: Jadid literature, Abdulla Avloniy, European culture, image of the West, artistic layer, enlightenment, national awakening, poetics.
Аннотация. В статье исследуется художественная интерпретация европейской культуры в творчестве Абдуллы Авлони. Если в узбекском литературоведении взгляды джадидов на Запад изучались в основном в контексте просветительского и общественно-политического мышления, то в настоящем исследовании образ Европы анализируется как художественно-концептуальное явление.
Ключевые слова: джадидская литература, Абдулла Авлони, европейская культура, образ Запада, художественный пласт, просветительство, национальное возрождение, поэтика.

XX asr boshlaridagi o'zbek jadid adabiyoti milliy uyg'onish g'oyalarini o'zida aks ettira borib, ijtimoiylashdi. Uning mumtoz adabiyotdan shakl, mazmun jihatidan farqlanishi ayni ijtimoiylashuv mahsuli edi. Jadidchilik g'oyalarini o'z asarlarida aks ettirgan adiblar o'z asarlarida jamiyat taraqqiyoti, ma'rifat, ilm-fanga doiq qator masalalarni badiiy hamda publitsistik tafakkur markaziga olib chiqishdi. Natijada "G'arb", "Ovro'po", "Farangi" kabi leksemalar jadid adabiyotida geografik nom sifatidagi vazifasidan chiqib, ilm, ma'rifat, texnologiya va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi tasavvurlarni birlashtiruvchi konseptual birlik sifatida qo'llanila boshladi.

Jadidlarning qarashlarida G'arb mutlaq ideal yoki mutlaq inkor etilgan hodisa sifatida aks etmaydi. Aksincha, ular G'arb taraqqiyotining asosi bo'lgan ilm-fan, texnologiya yutuqlarini o'rganish, ulardan ibrat olish Ona Turkiston taraqqiyoti uchun suv va havodek zarur omil sifatida baholanadi, ammo uning axloqiy va mustamlakachilik bilan bog'liq insoniylikdan xoli taraflari tanqid qilinadi. Natijada jadid adabiyotida "G'arb", "Ovro'po", "Farangi" kabi obrazlar ichki qarama-qarshiliklarga ega, ko'p qatlamli badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida jadidlarning G'arb haqidagi qarashlari asosan ma'rifatparvarlik, ijtimoiy-siyosiy tafakkur yoki jamiyatning yangilanish jarayonlari doirasida o'rganilgan. Biz mazkur maqolada G'arb va unga yondosh tushunchalarni g'oyaviy kategoriya sifatida emas, jadid badiiy tafakkurida aks etgan, ilm-fan, tamaddun, ma'rifat va axloq haqidagi tasavvurlarni birlashtiruvchi badiiy-konseptual obraz sifatida sifatida tahlil qilamiz. Tadqiqotimiz uchun o'z davrining mashhur adibi Abdulla Avloniy asarlariga murojaat etiladi.

Abdulla Avloniy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida ko'p qirrali tadqiq etilgan bo'lib, unda, avvalo, adibning ma'rifatparvarlik faoliyati, pedagogik qarashlari, dramaturgiyasi, publitsistikasi va axloqiy yondashuvlari ilmiy tahlil etilgan. Ayniqsa, B.Qosimov, N.Karimov, U.Dolimov, R.Barakayev, H.Azimova kabi olimlarning ishlari Avloniy merosini tizimli o'rganishda muhim ilmiy asos vazifasini bajardi. Biroq mazkur tadqiqotlarda Ovro'po madaniyatining badiiy talqini alohida poetik konsept sifatida emas, balki ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarkibiy qismi sifatida yoritilgan.

Abdulla Avloniy ijodini chuqur tahlil qilgan professor Begali Qosimovning ta'kidlashicha, XX asr boshlarida Rossiya orqali Turkistonga kirib kelgan Yevropa ilm-fani va ma'rifatparvarlik g'oyalari adib tafakkurining shakllanishida muhim omil bo'lgan. Shu bilan birga, olim Abdulla Avloniy qarashlarini ko'r-ko'rona g'arbparastlik sifatida emas, balki milliy manfaatlarga bo'ysundirilgan ma'rifatparvarlik konsepsiyasi sifatida tushuntiradi [1: 5–79]. Ayni shu jihat Abdulla Avloniy ijodida Ovro'po va mazmunan uni anglatuvchi obrazlar (G'arb, Farangi va shu kabilar) ning murakkab badiiy mazmun kasb etishiga asos yaratgan. Abdulla Avloniy o'z asarlarida Ovro'poni taraqqiyot taxtiga chiqargan yuksak g'oyalarni Turkistonning tarixiy, milliy, madaniy ehtiyojlariga moslashtirgan holda o'zlashtirishni taklif etadi.

Abdulla Avloniy ijodida ushbu konseptning eng mukammal badiiy ifodalari o'z aksini topgan. Uning asarlarida Ovro'po obrazi tashqi dunyo tavsifi emas, balki millatning ichki holatini baholash mezoniga aylanadi. Shuning uchun Ovro'po tasviri doimo Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy ahvoli bilan qiyosiy munosabatda namoyon bo'ladi. Jumladan, "Biz, millat" [2: 82] she'rida shoir Ovro'po tasviriga to'g'ridan-to'g'ri yuzlanmaydi. Asarning markazida millatning o'zini anglash jarayoni turadi. Biroq "tamaddunfeshalar", "o'zgalar", "ag'yor", "hama" kabi obrazlar orqali taraqqiy etgan sivilizatsiya modeli gavdalanadi. Ushbu obrazlar ilm-fan, tafakkur, mehnat va zamon bilan hamnafas yashashning badiiy ramzlariga aylanadi. "Tafakkur soyasida o'zgalar shahd-u shakar yer-sa" satri orqali muallif farovonlikni tabiiy boylik emas, balki tafakkur natijasi sifatida talqin qiladi. Xulosa qilish mumkinki, Avloniy uchun Ovro'poning ustunligi iqtisodiy yoki siyosiy qudratda emas, balki bilimning jamiyat hayotini tashkil etuvchi kuchga aylanganidadir.

Tutub selobi g'aflat mavji g'amg'a tashladi, hayhot,
Jahon Jayhunlariga to'mayi tayyor – biz, millat.

Ovro'poning "tamaddunfeshalik" jihatini maqtab, o'z millatining taraqqiyotga ishtiyoqsizligi sabab "surati devor"ligini ta'kidlayotgan shoir jaholat va g'aflat oqibatida "Jahon Jayhunlari" (ya'ni, dunyodagi qudratli kuchlar – o'sha davr uchun – Ovro'po)ga "to'mayi tayyor" (oson o'lja) bo'lishdan ogohlantiradi. Agar millat uyg'onmasa, ilm-fan va tamaddunni egallamasa, jahonning qudratli davlatlari tomonidan yutib yuborilishi, ya'ni mustamlakaga aylanishi muqarrar ekanligiga ishora qiladi.

Shu bilan birga, Avloniy Ovro'poni mutlaq qadriyat sifatida tasvirlamaydi. Uning asarlarida Ovro'po madaniyati uch xil

ma'no qatlamida namoyon bo'ladi. Birinchi qatlam, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ilm-fan, texnika, maktab, iqtisodiy intizom va tafakkur bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi qatlam maishatbozlik, ichkilik, tashqi moda va ko'r-ko'rona taqlid bilan aloqador. Masalan, "Afsus" she'rida "kanyak", "resturan", "numir" kabi leksik birliklar G'arb sivilizatsiyasining mohiyatini emas, balki uni yuzaki o'zlashtirish oqibatlarini ifodalaydi:

Sharb-u maya oludadu(r) bizlarda javonlar,
Kanyak-la to'lur vaqti safarda chamadonlar,
Suhbat yerimiz bo'ldi numir-u resturanlar,
Ko'r, ko'zlara, oh, uchramayur, g'ayri fiyonlar,
Sargarm o'lubon, dilda g'ubor og'ladik og'lab [2: 87].

Shoir tanqid qilayotgan narsa Ovro'poning o'zi emas, balki uning tashqi belgilarini taraqqiyot deb qabul qilayotgan milliy ong va jaholatparastlikdir. Bu o'rinda "kanyak", "numir", "resturan" ketma-ketligi oddiy predmetlar ro'yxati emas. Ular birgalikda begona turmush tarzining so'zdagi ifodasidir, o'quvchi ko'z oldida butun bir madaniy muhit gavdalanadi. Shu orqali obrazlar tizimi yanada kuchaytiriladi.

Xuddi shu fikr "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "Hifzi lison" bobida ham davom ettiriladi: "Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqub ketduk. "Yaxshi qo'shningdan olguncha, yomon uyingni qidir", – demishlar. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo'qolganlarini ham topurmiz. "Yo'qolsa yo'qolsin, o'zi boshimga tor edi", – deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdir" [3: 61].

Mazkur iqtibos A.Avloniy qarashlaridagi juda nozik va muhim muvozanatni ochib beradi, ya'ni u G'arbning ilm-fani va sanoatini o'rganishga tinimsiz chorlagan bo'lsa-da, ayni paytda milliy o'zlikdan voz kechmaslikni uqtirmoqda. Bu o'rinda "Yovrupo qalpog'i" real kiyim emas. U metonimik obraz sifatida milliy o'zlikdan voz kechishning ramziga aylangan. Avloniy G'arbni "qalpoq" orqali moddiylashtiradi va taraqqiyotni tashqi atribut bilan almashtirayotgan tafakkurni kinoyaviy usulda ochib beradi. Uning nazarida taraqqiyot milliy o'zlikni inkor etish orqali emas, balki ilmni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshadi.

Ovro'poni do'st bilib, hushyorlikni qo'ldan bermaslik – uchinchi qatlamning mohiyati shundan iborat. Bu g'oya "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "Iqtisod" faslida yaqqol ko'zga tashlanadi: "Amerikalilar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar, yovrupolilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonlilar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berub, sut oshiymiz, non o'rniga kesak tishlaymiz" [3: 63].

Bu yerda adib nafaqat ilm-fanning samarasi, balki xomashyomizni arzonga olish uchun amalga oshirilgan ishlarga ishora ham qilmoqda.

"Po'rtug'oliya inqilobi" asarida ham G'arb mavzusi davom ettiriladi, biroq adib endi ishoralar bilan cheklanmaydi, qahramonlar nutqida ingliz hukumati misolidagi Yovruponing "vahshiy" manzarasini yanada ochiq tasvirlaydi:

"Sinyo'r: Doxiliy ishlarni e'tiborga olmoq ila barobar xorijni ham o'ylamoq kerak. Bizning bu ishimizga qonxo'r Yovrupo davlatlari qaysi nazar bilan qarar ekan. Har bir ishga burnini tiqub kelgan Yovrupo tojparastlari mudoxila qilmasmukin?

Difroro: Agarda mudoxila qilsa, faqat dunyoning hammasini mustamlaka qilmoq niyatinda bo'lg'on tojparast ingliz hukumatining mudoxila qiluvi ehtimoli bor" [3: 190].

Dialog mazmunidan anglash mumkinki, Avloniy Yevropa davlatlarini ma'rifat tarqatuvchi emas, balki boshqa xalqlarning ichki ishlariga asossiz aralashuvchi ("burnini tiquvchi") va "qonxo'r" kuchlar sifatida tasvirlaydi. U Yevropa "tojparastlari"ni milliy ozodlik harakatlariga asosiy tahdid deb biladi.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "Yaxshi xulqlar" bobida ushbu qarashlarimizga hamohang fikrlarni o'qiymiz. Abdulla Avloniy Ovo'poning Osiyo va Afrikani bo'ysundirishda ishlatgan asosiy quroli jismoniy kuch emas, balki iqtisodiy ustunlik ekanini ta'kidlaydi: "Sehrgar va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgarlik ila cholishkon Yovrupo Afriko va Osiyoni o'ziga asir va musaxxar qilmakdadur" [3: 47]. Bu yerda "asir" (erkinlikdan mahrum) va "musaxxar" (kuch bilan bo'ysundirilgan) so'zlari orqali Ovro'poning iqtisodiy tahdidi natijasida millatlar o'z-o'zidan iqtisodiy qulga (hammolga) aylanib qolishidan ogohlantiriladi.

Abdulla Avloniy qarashlarining har uch qatlamidagi Ovro'po obrazi qarama-qarshi uch obrazning yig'indisi emas, balki yagona badiiy konseptning uch aksiologik qatlamidir. Birinchi qatlam milliy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ilmiy va ijtimoiy tajribani ifodalasa, ikkinchi qatlam milliy o'zlikni yemiruvchi ko'r-ko'rona taqlid, salbiy odatlarni anglatadi, uchinchi qatlam esa milliylik va hurlikka yashirin tahdid soluvchi xavfni bildiradi. Mazkur uch qatlamning o'zaro munosabati Avloniyning milliy islohot borasidagi qarashlarini ham belgilaydi. Uning nazarida taraqqiyot G'arbni ko'chirish emas, balki undan taraqqiyot omillarini tanlab o'zlashtirishdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XX asr boshidagi jadid adabiyotida Ovro'po madaniyati geografik yoki siyosiy makon sifatida emas, balki milliy taraqqiyot muammolarini badiiy talqin etishga xizmat qiluvchi muhim madaniy konsept sifatida shakllangan. Abdulla Avloniy ijodi ushbu konseptning eng mukammal poetik ifodalaridan biri bo'lib, unda Ovro'po obrazi Turkiston jamiyatining ijtimoiy, ma'rifiy va axloqiy holatini baholash mezoniga aylantiriladi. Binobarin, Avloniy uchun Ovro'po tasviri tashqi sivilizatsiya tavsifi emas, balki milliy uyg'onish g'oyasining badiiy ifodasi vazifasini bajaradi.

Maqolada Avloniy poetikasida Ovro'po obrazi qarama-qarshi uch obrazning yig'indisi emas, balki yagona badiiy konseptning turli aksiologik ko'rinishlari ekanligi asoslandi. Bu esa jadid islohotchiligi g'oyalarining mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari jadid adabiyotida Ovro'po madaniyati masalasi faqat Abdulla Avloniy ijodi doirasida cheklanib qolmasligini, balki Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat singari jadid adiblarining adabiy merosi misolida ham qiyosiy-konseptual asosda o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Oq tonglarni orzulagan shoir // Avloniy A. Tanlangan asarlar: She'rlar, ibratlar / To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: B.Qosimov; Izohlar va lug'atni tuzuvchi: O.To'laboyev. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar: She'rlar, ibratlar / To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: B.Qosimov; Izohlar va lug'atni tuzuvchi: O.To'laboyev. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari / To'plovchi: B.Qosimov. Izohlar va lug'at: O.To'laboyev. 2-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. (Istiqlol qahramonlari).

Shohsanam KIMSANBOYEVA,
Farg'ona davlat universiteti magistranti

"SAYOHAT XOTIRALARI"DA JOY NOMLARI VA TARIXIY VOQEALARNING YORITILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Sayohat xotiralari" asarida uchraydigan joy nomlari va tarixiy voqealarning yoritilishi tahlil qilinadi. Asarda muallifning geografik tasvirlari, tarixiy shaxslar va voqealarga munosabati hamda sayohatnomaning ma'rifiy ahamiyati ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, sayohatnoma, joy nomlari, tarixiy voqealar, jadidchilik, ma'rifatparvarlik.
Annotation. This article analyzes the representation of place names and historical events in Mahmudhoja Behbudiy's Travel Memoirs. It highlights the author's geographical descriptions, interpretation of historical events, and the educational significance of the travelogue.
Keywords: Mahmudhoja Behbudiy, travelogue, place names, historical events, Jadidism, enlightenment.
Аннотация. В статье анализируется отражение географических названий и исторических событий в произведении Махмудходжи Бехбуди «Путевые воспоминания». Рассматриваются особенности авторского описания мест, исторических событий и просветительская ценность произведения.
Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, путевые записки, географические названия, исторические события, джадидизм, просветительство.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) – Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, ma'rifatparvar, dramaturg, publitsist va jamoat arbobi, o'zbek milliy uyg'onish davrining eng yirik namoyandalaridan biri. U 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lib, imom-xatiblik bilan shug'ullangan. Ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, Buxoro amiri Shohmurod davrida (1785–1800) Samarqandga kelib qolgan.

Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasida voyaga yetgan. Arab tili grammatikasini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rgangan. Buxoro madrasalarida tahsil olayotgan paytida onasi (1893-yil) va otasi (1894-yil) vafot etgan. Moddiy qiyinchiliklar sababli u o'qishni davom ettira olmagan va Samarqandga qaytib, Muhammad Siddiq qozixonasida mirzalik qilishni boshlagan. Ko'p o'tmay, mufti darajasiga ko'tarilgan.

Behbudiy 1899–1900-yillarda haj safariga yo'l olib, Arabiston, Misr, Turkiya kabi mamlakatlarda bo'lgan. Ushbu safarlar davomida u zamonaviy islohotlar bilan yaqindan tanishib, yurtda yangi usuldagi maktablar (usuli jadid) ochish fikrini mustahkamlab olgan. U Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy va Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab tashkil etgan. Behbudiy faqat yangi maktab ochish bilan cheklanmagan. U darsliklar yozish, kutubxona ochish, jamoatchilikni ma'rifat bilan qurollantirish yo'lida faoliyat yuritgan. 1908-yilda Samarqanddagi hovlisida "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan kutubxona tashkil qilgan.

1913-yildan boshlab u "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini nashr etishni yo'lga qo'ygan. Bu nashrlar orqali xalqni ilmga, ma'naviyatga, yangilanishga chorlovchi ko'plab maqolalarni e'lon qilgan. O'zbek va fors-tojik tillarida 200 dan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Uning mashhur asarlari:

"Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904);

"Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905);

"Muntahabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906);

"Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908);

"Tarixi islom" ("Islom tarixi", 1908).

Shuningdek, u o'zbek dramaturgiyasi tarixida muhim o'rin tutuvchi "Padarkush" (1911) nomli dramatik asarni yaratgan. Ushbu asar 1914-yilda Samarqandda sahnalashtirilgan bo'lib, o'qimagan, johil farzandning o'z otasini o'ldirishi haqidagi fojiali hikoyani yoritadi. Behbudiy bu asarni "milliy fojia" janrida yozgan.

Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida Behbudiy Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlaka qilinishi sabablari ustida tahliliy mulohazalar yuritgan. Uning fikricha, xalq ommasining parokandaligi, ijtimoiy va huquqiy ongining pastligi milliy ozodlik yo'lidagi asosiy to'siqlardan bo'lgan. Shu bois, u "hurriyat uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi – bu ma'rifatdir" degan g'oyani ilgari surgan. Afsuski, 1919-yilda Mahmudxo'ja Buxoro amiri tomonidan hibsga olinib, Qarshi shahrida qatl etilgan. Uning o'limi jadidchilik harakati uchun og'ir yo'qotish bo'ldi. 2025-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi keng nishonlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan qarorga muvofiq, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ijodiy uchrashuvlar va tanlovlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, Qarshi shahridagi ko'chalardan biriga uning nomi berilishi belgilangan.

Behbudiy 1899-yili24 yoshida Kavkaz va Turkiya orqali haj safariga otlangan. U safar haqida shunday yozadi: "1318-sanai hijriyasi tavofi Baytullohga Kavkaz yo'li, Istanbul va Misr al-Qohira vositasi bilan borib edim. Safarim sakkiz oydan ziyod davom etgan edi "[1].

Jadidshunos olim B.Qosimovning ta'kidlashicha, Behbudiy 1903–1904-yillarda Moskva va Peterburgda, 1906-yilda esa Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda xizmat safarlarida bo'lgan. U Nijniy Novgorodda o'tkazilgan Rusiya musulmonlari qurultoyida Turkiston delegatsiyasiga rahbarlik qilgan va nutq so'zlagan [2].

Sayohat turlariga zamonaviy yondashuv bo'yicha turizm diniy, sog'lomlashtiruvchi, xizmat, ilmiy yoki kasbiy shakllarga bo'linadi. Behbudiy haj safariga chiqishi va xalqaro anjumanlarda ishtirok etishi uning jasoratli sayyoh va olim bo'lganidan darak beradi. 1914-yilda Behbudiy o'zining eng yirik va ta'sirli sayohatiga chiqadi. Sayohat quyidagi yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan: Samarqand – Bayramali – Ashxobod – Ko'ktepa – Krasnovodsk – Boku – Mineralnie Vodi – Yessentuki – Pyatigorsk – Jeleznovodsk – Rostov – Odessa – Istanbul – Adirna – Istanbul – Izmir – Bayrut – Damashq – Bayrut – Quddus – Xalil al-Rahmon – Yofa – Port Said – Qohira.

Sayohatning davomiyligi va qaytish yo'li aniq emas. Behbudiy "Oyina" jurnalining 1914-yil 31-sonida bu sayohat haqida yozadi: "Oqibat qaror berildiki, Kavkaz va Qrim vositasi bilan Istanbulga, undan Yunonistonga kirib, Rum eli temir yo'li orqali Bulg'oriston, Avstriya va Bayrutdan Misrga borib, yana Istanbulga qaytib, Berlin orqali vatani azizimiz Rusiya va Turkistonga qaytilsa, deb

niyat qildik. Ammo Peterburgda bo'lib o'tadigan milliy majlisda qatnashish taklifi safarga mone bo'ldi" [3].

Behbudiy bu safarda o'z ko'rgan-kechirganlarini ona yurti – Turkiston bilan taqqoslab, ilg'or jamiyat tajribalarini yurtida joriy qilish orzusida bo'lgan. U borgan shaharlarda matbuot, tahririyatlar faoliyati bilan tanishadi, tafakkurini kengaytiradi. "Oyina" jurnalida bosilgan sayohat xotiralari buni tasdiqlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Haj safari" asarini asarining tahlil qilib, bu asarni uning ijodidagi o'rni haqida mulohaza qilamiz. Jadidchilikning yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Maxmudxo'ja Behbudiy o'zining "Qasdi Safar" asarida safar qilgan joylari nomlarini keltirgan. Avval, u safarga qayerdan chiqqaligini ko'rsatib beradi. Masalan, haj safari 8 oy davom etib, Kavkaz yo'li orqali Istanbul va Misr hududlari orqali Baytullohga yetganini bayon qiladi. Sayohat qilishga bir qancha to'siqlar borligini ta'kidlab o'tadi. Bular "tiriklik" va ro'zg'or.

Behbudiy o'zining shaxsiy kutubxonasini turli mavzudagi ilmiy adabiyotlar bilan boyitish maqsadida xorij mamlakatlari kutubxonlari bilan aloqa bog'lash yo'llarini qidiradi. "Oyna" jurnalida Rassiyaning buyuk imoratlarini suratlarini chop etishni istaydi. Shu bahona bilan 2-3 oy davomida katta safar rejasini tuzib bordi. Yozuvchi asarning boshida sayohatnomaning asl maqsadiga to'xtalib yil sanalarini aniq belgilab oladi. Uning asaridagi tarixiy shaxsalar mukammal ko'rsatib berilgan. Bu esa arasning haqqoniyligini, badiiy mahoratini oshiradi. Yozuvchi asarida maqollardan o'rinli foydalangan. Masalan, u deydi: Ko'p so'ylagan ko'p xato etar" [4].

Muallif sayohatnoma asarida o'z oilasidan, kindik qoni to'kilgan ona yurti bilan xayrlashar ekan vatandan chiqmoqlik naqadar og'ir ekanligini dil-dilidan his etadi. Vatandan ayrilmoq uchun toshdan ko'ngil kerak deb nolalar qiladi. Bu faktlar shuni ko'rsatadiki, yozuvchi o'z ona yurtini naqadar sevishini bayon qilib beradi. Obrazli asoslab beradi. "Qasdi safar" asarida Mahmudxo'ja Behbudiy tarixiy manbalarga keng o'rin bergan. U safar qilgan Bayramli yohud Marv misolida turli xalqlarning kelib chiqish masxablari, irqlari, yaxshash sharoitlari, hududlarning geografik tuzilishiga e'tibor beradi.

Sayohatnomada Behbudiy Ashqobod (Ishqobod), yani turkmaniston shahri va xalqi to'g'risida ham ma'lumot beradi. Mazlum turkman xalqining og'ir hayotini ko'rib, ularga achinadi. Turkmanlar dunyodan bexabar, savodsiz. Hatto, o'zligini ham bilmaydi deb kuyunadi. Yuragidagi yotgan alamli haqiqatni ochiq oshkor etolmaydi. Bundan tashari sayohatnomada yozuvchi qozoq xalqining tarqoqligi haqida so'z yuritadi. Ularning hayoti turkmalarnikidan ham yomon ekanligini bayon etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Krasnagordan Baku shahriga parahotda o'tarkan Kaspiy dengizida ko'rgan qiyinchiliklarini batafsil bayon etadi. Baku shahrida bo'lgach u yerdagi baland binolar, nochor aholining hayotini va ular nima bilan shug'ullanganliklarini birma-bir yoritib beradi. Muallif sayohatnoma asarida Kavkaz xalqlarining milliy urf-odatlari, hunarmandchilik kasb-korlari, bog'-u rog'lar kabi ma'lumotlarni e'tibordan qochirmaydi. Ularni sanab o'tadi va o'z ona yurti bilan qiyoslab ketadi. Ham tandiq ham maqtov ostiga oladi bu joylarni. Yozuvchi Kavkaz bo'ylab janub tomon poyezdda borar ekan, Minavoda, Yesintuki, Kislavodskiy shaharlarining qiyofasini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Kavkzning viqorli tog'larini, qalin o'rmonlarini huddi rassomdek o'z asarida chizib beradi. Buni uning quydagi yozgan misralarida ko'rishimiz mumkin: "Tog' etaklaridagi qishloqlarni butun qudratining ajoyib, rango-rang gul va chamanlari tabiiy ziynat berilgan"[5]. Behbudiyning yoziqlarida estetika kuchli, tanqidni sezdirmay aytib ketadi.

Shaharlardagi faxsh, buzuqliklar haqida ham takidlagan. Hatto harajatlarni ham hisobini chiqarib qo'ygan. Uning tasvirlaridan qanchalik qiziqqon inson ekani bilinadi. Muallif qay joyga borsa, musulmonlarning qadrini maktab va majdiga qarab boholaydi. Madrasa va masjidi xaro yoki yo'q shaharlarni dunyo va dindan uzulgan, bechora hol nazarida qaraydi. Bu ham Behbudiyni ilm-din ishlarida sobitligini bildiradi. Behbudiy Turkistonni yangi Amerikaga taqqoslaydi. Bir yahudiy muhojiri tilidan Turkiston madanlari, bog'lari, yer-u suvlari oltinga teng ekanligini gapiradi. " Yahudiydan biri derki:


"Turkiston eski dunyoning Amrikosidur. Paxta, ma'dan, g'alla, xulosa, har nimarsa bor. Turkiston oltundur. Agarda Rusiya hukumati mone' bo'lmasa, barcha mulkimni sotib, puliga Turkistondan yer olib, dehqonlik etardim. Oltun berib, yer olib, so'ngra olmos ko'tarar edim. Ammo, na chora, Rusiya qonuni biz, yahudiylarni qisqar..." [6].

Yozuvchi bu bilan o'zining tug'ulib o'sgan ona yurtiga bo'lgan sevgi muhabbatini naqadar kuchli ekanligini ko'rsatib berganday bo'ladi.

Sayohatnomada yozuvchi har bir xalqning tiliga, urf-odatiga sinchikovlik bilan nazar tashalaydi. Paraxotda ketyotgan yahudiy muhojirlar bilan qilgan suhbatida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Turkiyaning yirik shahri bo'lgan Istanbulga yetib borgach, bu chiroyli shaharning qiyofasini aniq chizmalarda tasvirlab beradi. Jadid bobomiz asarida eng diqqatga sazovor bo'lgan narsalardan biri ilm-ma'rifatga keng o'rin bergan. U qayerga bormasin har bir xalqning ilmli, ma'rifatli bo'lishi haqida fikr yuritadi. Barcha musulmon xalqlarni eng katta fojeasi dunyoviy ilmlarni egallay olmaganida deb biladi. Zero, ilmdan bexabar millat, o'zini ham kimligini bilmaydi, anglamaydi. Istanbulda bo'lganida ham ana shu fikrlarni ilgari suradi.

Sayohatnomada Behbudiy tarixiy voqealarga ham o'rin beradi. Bolqon xalqlari bilan Usmonli imperyasiy o'rtasidagi 1912–1913-yillardagi bo'lib o'tgan o'zaro urushlarga ham to'xtaladi. Istanbulda Behbudiy o'zining ustozi Ismoil Gaspirali bilan tasodifan uchrashib qoladi. Bu jadidchilik harakatining yirik namoyondasi edi. U bilan 7 soat davomida Rassiya, Turkiston va dunyo haqida mashvarat qilishdi. Turkistondagi o'zgarishlardan mamnun bo'lishdi. Ularning bu suhbati oxirgisi edi. Mahmudxo'ja so'zlariga qaraganda: "u ishrat o'tdi, boshqa qaytib kelmaydi" [7].

Manashu uchrashuv voqeasidan ham ko'rinib turibdiki, sayohatnoma asarida yozuvchi tarixiy shaxslarga ham keng o'rin beradi. Uning "Haj safari" asarini o'qir ekansiz, Shom mamlakati aholisining uruf odatlarini, kiyinishlarini sinchiklab bayon qilganini ko'ramiz. Sayohatnoma sari nihoyatda o'tkir badiiy til uslubida yozilgan. Shahardagi bozorlar narx-navolarga ham urg'u berib ketadi. U yerdagi har bir narsani sinchiklab o'rganadi. Asar o'qishli bo'lganligi uchun ham kitobxoni zeriktirmaydi.



Аҳли ислом	140 000	Мутовалӣ	70 000
Насоро	70 000	Исмоилий	165 000
Армани		Армани	
ғригўрий	100 000	прутестани	22 000
Бобий ва			
баҳоий	4 600	Язидий	160 000
Яъқубий	45 000	Даразий	200 000
Артузкас	30 000	Тобеини	
		калисо	16 000
		юнон	
Нимору	400 000	Малаки	150 000
Армани			
катўлик	40 000	Лотини	48 000
Сурёний			
ва		Яҳудий	140 000
калдоний	68 000		

Yuqorida keltirilgan jadvalda Behbudiy sayohat qilgan joylaridagi aholini din jihatda taqsimot qilgan. Buni biz data jurnalistikasiga misol qilib olishimiz mumkin. Chunki unda jadaval ko'rinishida dinlar va soni berilgan. Muallif buni o'quvchiga tushunarli va visual ko'rinishda qulay bo'lishini inobatga olgan. Behbudiy o'zining "Haj" sayohatnomasida ilm-fanga ko'p o'rin beradi. Yahudiylar, nasroniylar ilmgohlarini borib ko'radi. Bu maskanlar bilan Samarqand, Buxoro ilmgohlarini bir biriga taqqoslaydi. Ularning afzaliklarini ko'rsatib beradi.

Masalan, Shomdagi musulmonlar maktabi yaxshiroqligini asarda takidlab o'tadi. Shom safaridan so'ng muallif Misr sari yo'lga chiqadi. Atrof go'zalliklari, yo'l qiyinchiliklarini sayohatnoma asarida batafsil bayon qiladi. Misr maskanni safarning oxirlaganiga belgidir. Asar so'ngida sayohatnomaning yakuniy xulosasini chiqaradi. Bu asar kitobxonga sayohatga qay yo'sinda tayyorlanish va uning foyda va qiyin tomonlari haqida ma'lumot beradi. Tarixiy sayohatnomalridan biridir bu asar.

Xulosa qilib aytganda, o'rta osiyolik allomalar nafaqat ilm-fan rivojiga, balki turizmning shakllanishi va taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shganlar. Ular o'z sayohatlari davomida kuzatganlarini ilmiy, ma'naviy, ijtimoiy jihatdan tahlil etgan, xalqni bilishga, o'rganishga, tafakkur qilishga chorlaganlar. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadid allomalari o'z sayohatlarini ma'rifatparvarlik ruhida yuritib, zamonaviy o'zgarishlar, sivilizatsiya va taraqqiyotni Turkistonga olib kirishga xizmat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oyna. – Samarqand, 1914, №31.
2. Qosimov B. Karvonboshi // Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – B. 10.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
4. Behbudiy M. // Oyna. – Samarqand, 1914, №31. – B. 598–600.
5. Behbudiy M. // Oyna. – Samarqand, 1914, №37. – B. 880–886.
6. Behbudiy M. // Oyna. – Samarqand, 1914, №29. – B. 927–932.
7. Behbudiy M. // Oyna. – Samarqand, 1914, №49. – B. 1162–1164.

Gavxarbonu XOSHIMOVA,
Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA QUYOSH OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Sirojiddin Sayyid ijodida quyosh obrazi talqini tahlil etiladi. Shoir she'riyatida quyosh ramzi yorug'lik, hayot, umid va ma'naviy poklanish timsoli sifatida namoyon bo'lishi ochib beriladi. Quyosh obrazining badiiy-estetik funksiyalari, lirik qahramon ruhiy holatini ifodalashdagi o'rni hamda milliy tafakkur bilan bog'liqligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: quyosh obrazi, ramziy ma'no, Sirojiddin Sayyid ijodi, lirik qahramon, badiiy talqin, poetika, ma'naviylik, obrazlar tizimi, zamonaviy o'zbek she'riyati.

Annotation. This article examines the interpretation of the image of the sun in the works of the modern Uzbek poet Sirojiddin Sayyid. It explores the symbolic meaning of the sun as a representation of light, life, hope, and spiritual purification in his poetry. The study highlights the aesthetic and artistic functions of this image, its role in expressing the inner world of the lyrical hero, and its connection with national worldview.

Keywords: sun image, symbolism, works of Sirojiddin Sayyid, lyrical hero, artistic interpretation, poetics, spirituality, imagery system, modern Uzbek poetry.

Аннотация. В статье анализируется интерпретация образа солнца в творчестве современного узбекского поэта Сирожиддина Саййида. Раскрывается символическое значение солнца как источника света, жизни, надежды и духовного очищения в его поэзии. Особое внимание уделяется художественно-эстетическим функциям данного образа, его роли в раскрытии внутреннего мира лирического героя, а также связи с национальным мировоззрением.

Ключевые слова: образ солнца, символика, творчество Сирожиддина Саййида, лирический герой, художественная интерпретация, поэтика, духовность, система образов, современная узбекская поэзия.

Sirojiddin Sayyid ham dunyodagi barcha shoirlar singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to'lqinlantirgan abadiy va azaliy mavzularda qalam tebratgan. Uning lirikasida xalqimiz o'tmish madaniyati va tarixini ulug'lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma'naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o'rin olgan [2: 10].

O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida tabiat obrazlari, xususan, quyosh timsoli muhim badiiy-estetik ahamiyat kasb etib kelgan. Quyosh qadimdan hayot manbai, yorug'lik va ezgulik ramzi sifatida inson tafakkuri va ijodida markaziy o'rin egallaydi. Shu bois u ko'plab shoirlar ijodida turli ma'no va talqinlarda namoyon bo'ladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri bo'lgan Sirojiddin Sayyid ijodida ham quyosh obrazi o'ziga xos badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir she'riyatida quyosh nafaqat tabiiy hodisa sifatida, balki inson ruhiy olami, ichki kechinmalari, umid va orzularining ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar turlicha tasnif etiladi, bu turlichalik tasnif uchun qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog'liqdir. Jumladan, ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko'ra ijobiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga ko'ra realistik, romantik, yaratilish usuliga ko'ra fantastik, grotesk, xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko'ra tragik, satirik, yumoristik obrazlar farqlanaveradi.

Shuningdek, ba'zan badiiy obrazning tasvir planidan kelib chiqib inson obrazi, jonivorlar obrazi, narsa-buyumlar obrazi tarzidagi atamalar ham qo'llanadi [1: 46]. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy obrazlar, xususan, tabiat timsollarining poetik talqini masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Quyosh obrazi ham ana shunday universal timsollardan biri bo'lib, u turli davr va ijodkorlar asarlarida hayot, nur, ilohiylik, muhabbat va ruhiy poklik ramzi sifatida talqin etib kelingan.

Sharq mumtoz adabiyotida quyosh obrazi ko'pincha ilohiy go'zallik va mutlaq haqiqat timsoli sifatida qo'llanadi. Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkir shoirlar ijodida quyosh yorug'lik va haqiqat manbai, komillik belgisi sifatida tasvirlangan. Bu an'ana keyingi davr o'zbek adabiyotida ham davom etib, yangi mazmun va badiiy talqinlar bilan boyigan.

XX asr va zamonaviy o'zbek she'riyatida quyosh obrazi yanada individuallashib, inson ruhiyati, ijtimoiy hayot va milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qilina boshladi. Bu borada adabiyotshunos olimlar tomonidan badiiy obrazning semantik qatlamlari, ramziy ma'nolari va poetik funksiyalari atroflicha o'rganilgan. Xususan, obrazning metaforik tabiati, uning kontekstual ma'nolari hamda muallifning individual uslubi bilan bog'liqligi ilmiy tahlillarda alohida ta'kidlanadi. Shuni inobatga olgan holda quyoshni ham badiiy obraz sifatida tahlil etish mumkin. Sirojiddin Sayyid she'riyatida quyosh obrazi an'anaviy lirik ramzlar va zamonaviy falsafiy talqinlarning sintezi sifatida alohida o'rin tutadi.

Usmon Nosir qismatin o'qib,
Armonlarin chorlashlaring bor.
Cho'lpon bilan tonglar ko'ksida
Cho'lpon bo'lib porlashlaring bor.
Mening "O'tkan kunlarim" o'tgan,
Jumlalarday jimdir xotirim.
Idrokingning darsxonasiga
Quyosh bo'lib kirar Qodiriy [1: 48].

Sirojiddin Sayyidning "Mutolaa" she'ridan olingan mazkur to'rtlikda quyosh obrazi ramziy ma'noda ifodalanadi. Shoir bu obraz orqali shunchaki tabiat hodisasini emas, balki Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiyoti va millat tafakkuridagi o'rnini yuksak badiiy mahorat bilan ochib bergan. To'rtlikda quyosh bevosita tafakkur bilan bog'lanmoqda. Zulmatli xonaga quyosh nuri kirganda hamma yoq yorishib, haqiqat ko'ringandek bo'ladi, Qodiriy ijodi va uning siymosi ham inson ongi hamda qalbiga ma'rifat nurini olib kiradi. U millatni g'ofillik va jaholat uyqusidan uyg'otuvchi buyuk nur manbaidir. Quyosh har tong qaytadan tug'iladi va u so'nmasdir. Shoir o'zining o'tmishini, xotiralarini xira tortgan, sukutga cho'mgan jumlalarga qiyoslar ekan, Qodiriyni bularning barchasidan ustun, hamisha barhayot va nur sochib turuvchi Quyosh deb biladi. Bu bilan adib asarlari va uning nomi vaqt sinovlaridan o'tib, hamisha tirik qolishiga ishora qilinmoqda.

Bu diyorda oru nomus, sha'nu shavkatdir ayol,
Mehr-u shafqatdan yaralgan, mehr-u shafqatdir ayol.

Olam uzra bir quyosh bor, bitta oy bordir, valek,
Yerdagi nur – mohitobon, shamsi tal'atdir ayol.

She'rda quyosh obrazi juda ramziy va chuqur ma'noga ega. Shoir "Olam uzra bir quyosh bor" deb, koinotdagi yagona quyoshni tilga oladi. Bu – hayot manbai, yorug'lik va issiqlik timsoli. Quyosh bo'lmasa, hayot ham bo'lmas edi. Shu jihatdan u eng oliy va zarur mavjudot sifatida tasvirlanadi. Lekin keyingi misralarda shoir bundan ham kuchliroq obraz yaratadi: u ayolni "yerdagi nur" deb ataydi. Ya'ni, quyosh osmonda bo'lsa, uning yerdagi aks-sadosi, inson hayotidagi yorug'lik manbai – ayoldir. Quyosh obrazi orqali shoir ayolni oddiy inson emas, balki hayotning asosiy manbalaridan biri sifatida ulug'laydi. Agar quyosh jismoniy hayotni yoritib tursa, ayol ruhiy va ma'naviy hayotni yoritadi. Shu bois, ayol quyosh darajasiga ko'tarilgan muqaddas timsol sifatida tasvirlangan.

Sirojiddin Sayyid she'riyati an'anaviy mumtoz obrazlarga yangicha lirik-falsafiy jilo berish mahorati bilan ajralib turadi.

Shoming munglug'-munglug' parda yoymoqda,
Botib bormoqdadir hayot quyoshing.
Ezgu amallar deb, Haq taolo, deb
Umr yo'llarida oqarmish soching.
Har kim bu dunyoda qilganlariga
Yarasha ajr ila mukofot ko'rgay.
Oqargan sochlaring Mahshar kunida
Nur bo'lib yo'llaring yoritib turgay [5: 240].

Ushbu satrlar inson umrining poyoni, hayotning o'tkinchiligi va Yaratganga bo'lgan imoniy ishonchni yuksak lirik-falsafiy ohangda ifodalovchi pafosga ega. Bu yerda shoir inson umrini tabiat fasllari va sutka almashinuvi (shom, quyosh botishi) orqali juda go'zal tasvirlaydi. Sirojiddin Sayyid ijodida quyosh obrazi nafaqat yorqinlik, balki uning botishi orqali inson psixologiyasi va falsafasini ochishga ham xizmat qiladi. Shoir falsafasida "Hayot quyoshining botishi" inson fojiasi emas, balki Haqqa yetishish, ezgu amallar silsilasini yakunlab, yorug' yuz bilan abadiyatga o'tish pallasi sifatida talqin qilinadi.

Ushbu she'r mazmunan chuqur falsafiy va ma'naviy g'oyalarni o'zida mujassam etgan bo'lib, inson hayoti, vaqt o'tishi, ezgu amallar va oxirat haqidagi qarashlarni badiiy ifodalaydi. Asar boshida "shom" obrazi orqali inson umrining so'nggi pallalari tasvirlanadi. "Hayot quyoshining botib borishi" timsoli esa umrning yakunlanib borayotganini anglatadi. Bu tasvirlar orqali shoir vaqtning o'tkinchi ekanini, inson hayoti abadiy emasligini eslatadi.

Keyingi misralarda insonning hayot yo'li davomida qilgan ezgu amallari asosiy o'ringa chiqadi. "Umr yo'llarida oqarmish soching" ifodasi nafaqat qarilik belgisi, balki sabr, tajriba va halol yashagan umr ramzi sifatida talqin etiladi. Shoir bu orqali inson umrini behuda o'tkazmasdan, uni yaxshilik, iymon va ezgulik bilan bezash lozimligini uqtiradi.

She'rning markaziy g'oyasi – adolat tamoyilidir. "Har kim bu dunyoda qilganlariga yarasha ajr ila mukofot ko'rgay" misralari orqali hayotdagi har bir amalning o'z natijasi borligi ta'kidlanadi. Bu fikr diniy va hayotiy haqiqat sifatida talqin qilinib, insonni doimo yaxshilik qilishga undaydi.

Umuman olganda, she'r insonni hayotning qadriga yetishga, har bir onni mazmunli o'tkazishga, ezgulik va halollik yo'lidan borishga chorlaydi. Unda mung ohangi mavjud bo'lsa-da, yakunida kuchli umid va ijobiy ruh ustunlik qiladi.

Ne oylar, quyoshlar yiroq, tushmishlar
Sen o'z quyoshingni yoningda asra,
Bag'ir lolalarim mening kuy bo'ldi
Bu kuyni sen bag'ir qoningda asra.
Muhabbat hech gachon jonsiz kechmagay,
Sen uni joningda, joningda asra.

She'rda "quyosh" obrazi markaziy badiiy timsollardan biri bo'lib, u bir necha qatlamli ma'noni ifodalaydi. Avvalo, quyosh – yorug'lik, issiqlik va hayot manbai sifatida insonning ichki dunyosi, ruhiy kuchi va umid ramzi sifatida talqin qilinadi. "Sen o'z quyoshingni yoningda asra" misrasi orqali shoir tashqi olamdagi o'tkinchi narsalardan ko'ra, inson o'z qalbidagi nur, ya'ni e'tiqod, muhabbat va irodani asrab-avaylashi kerakligini ta'kidlaydi. She'rning umumiy ruhida quyosh obrazi muhabbat va hayotiy energiya bilan ham bog'lanadi. Chunki keyingi misralarda muhabbat "jonsiz kechmasligi" aytiladi. Bu esa quyosh kabi doimo harakatda, issiq va tirik bo'lgan tuyg'u sifatida tasvirlanadi. Ichki quyoshni asrash aslida muhabbatni, insoniylikni va qaldagi tiriklikni asrash demakdir.

She'rdagi "quyosh" obrazi insonning ichki nuri, umidi va muhabbatining badiiy ifodasidir. Shoir o'quvchini aynan shu ichki quyoshni yo'qotmaslikka, uni doimo qalbida saqlashga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she'riyatida quyosh obrazi shunchaki tabiat hodisasi yoki an'anaviy lirik detal darajasida qolib ketmaydi. Shoir ushbu qadimiy va boqiy timsolga milliy-falsafiy ranglar berib, uni o'z ijodiy konsepsiyasining markaziy ustunlaridan biriga aylantira olgan. Sirojiddin Sayyid she'riyatidagi quyosh obrazi – bu o'zbek xalqining o'tmishi, buguni va yorug' kelajagini bir-biriga bog'lovchi, millat o'zligini harorat va ziyo bilan yo'g'iruvchi o'lmas badiiy konsepsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva U. Ijodiy xotira – badiiylik asosi // Til va adabiyot ta'limi, 2021. №5. – B. 69–71.
2. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Primova G. Sirojiddin Sayyid poetik mahorati: bitiruv malakaviy ishi. – TerDU, 2018.
4. Sayyid S. So'z yo'li. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Sayyid S. So'z yo'li. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2008.

Zulxumor MIRZAYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AKSIOLOGIK KONSEPTLARNING FRAZEOSEMANTIK MAYDON DOIRASIDA QIYOSIY-LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida aksiologik konseptlarning frazeosemantik maydon doirasida ifodalanishi qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek frazeologizmlaridagi semantik o'xshashliklar, milliy-madaniy tafovutlar hamda lingvokulturologik belgilar aniqlanadi. Natijada frazeosemantik maydon til egalarining dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy hodisa ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: aksiologik konsept, frazeosemantik maydon, frazeologik birlik, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, ingliz tili, o'zbek tili, qadriyat, milliy mentalitet, madaniy tafovut.

Annotation. this article presents a comparative linguocultural analysis of the representation of axiological concepts within the phraseosemantic field in the English and Uzbek languages. Semantic similarities, national-cultural differences, and linguocultural features reflected in English and Uzbek phraseological expressions are identified and analyzed. The findings demonstrate that the phraseosemantic field is a significant linguistic phenomenon that reflects the worldview, moral principles, and cultural values of language users.

Keywords: axiological concept, phraseosemantic field, phraseological unit, comparative analysis, linguoculturology, English language, Uzbek language, value, national mentality, cultural differences.

Аннотация. В статье проводится сравнительный лингвокультурологический анализ репрезентации аксиологических концептов во фразеосемантическом поле английского и узбекского языков. Выявляются и анализируются семантические сходства, национально-культурные различия, а также лингвокультурологические особенности английских и узбекских фразеологизмов. В результате обосновывается, что фразеосемантическое поле является важным языковым явлением, отражающим мировоззрение, нравственные нормы и культурные ценности носителей языка.

Ключевые слова: аксиологический концепт, фразеосемантическое поле, фразеологическая единица, сравнительный анализ, лингвокультурология, английский язык, узбекский язык, ценность, национальный менталитет, культурные различия.

Til tizimi xalqning aksiologik dunyoqarashini aks ettiruvchi eng barqaror semiotik mexanizm hisoblanadi. Frazeologik birliklar esa mazkur mexanizmning eng konsentrlashgan qatlamini tashkil etib, milliy ongda shakllangan qadriyatlar ierarxiyasini semantik yadrolar orqali modellashtiradi. Akademik V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, frazeologik birliklar xalq tafakkurining tarixiy kristallanishi bo'lib, ular milliy madaniyatning baholovchi tajribasini avloddan avlodga uzatadi [1: 312].

Frazeosemantik maydon nazariyasiga ko'ra, har bir konsept markaziy semantik yadroni tashkil etadi va periferiya qatlamlarida metaforik, konnotativ hamda kontekstual variantlar orqali kengayadi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi **"adolat, baxt, sevgi, omad hamda boylik va faqirlik"** konseptlari frazeosemantik maydon modeli asosida qiyosiy lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi mazkur konseptlarning izomorf semantik yadrolarini va allomorf milliy realizatsiyalarini aniqlash, shuningdek har ikki til tizimida aksiologik ustuvorliklarning qanday modellashtirilishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillarining izohli lug'atlari, frazeologik lug'atlari hamda zamonaviy diskurs manbalari asosida tanlab olingan 300 dan ortiq frazeologik birlik tahlil qilindi. Tanlov mezonlari sifatida adolat, baxt, sevgi, omad, boylik va faqirlik konseptlarini ifodalovchi barqaror iboralar, obrazli konstruktsiyalar va baholovchi birliklar ajratib olindi. Shuningdek, tadqiqotda aksiologik parametrlarni aniqlash uchun baholovchi sema tahlili usuli qo'llanildi. Har bir frazeologik birlikning ijobiy, salbiy yoki neytral baholovchi komponenti aniqlanib, konseptual maydon ichidagi ierarxik joylashuvi belgilandi. Bu usul frazeosemantik maydonni faqat ma'no yaqinligi asosida emas, balki qadriyatlar tizimi asosida modellashtirish imkonini berdi.

Natijada, qo'llangan metodologik kompleks frazeologik tizimni aksiologik-kognitiv makon sifatida modellashtirish, har ikki tilning milliy madaniy ustuvorliklarini aniqlash hamda frazeosemantik maydonning ichki ierarxiyasini ilmiy asosda tavsiflash imkonini berdi.

Qiyosiy-lingvokulturologik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida **adolat, baxt** hamda **boylik** va **faqirlik** konseptlari frazeosemantik maydon doirasida izomorf semantik yadrolarga ega bo'lsa-da, ularning ichki strukturaviy tashkil topishi va aksiologik yo'nalishi allomorf xususiyat kasb etadi. Frazeosemantik maydonning yadro qatlamida har ikki tilda barqaror evaluativ konstantalar saqlanadi, periferiya qatlamida esa milliy-madaniy konnotatsiyalar va metaforik kengayishlar ustuvorlik qiladi [1: 324].

Adolat konsepti bo'yicha natijalar ingliz tilida institutsional va protsessual modelning ustunligini ko'rsatdi. ***"Level playing field", "due process", "presumption of innocence", "burden of proof"*** kabi frazeologik birliklar adolatni normativ tartib va protsedura orqali amalga oshiriladigan tizimli hodisa sifatida modellashtiradi. Bu yerda yadro semasi obyektivlik va qoidaga asoslangan tenglikdan iborat. Periferiyada esa "***double standard", "rough justice", "vigilante justice"*** kabi birliklar adolatning buzilishi yoki normativ og'ishlarni ifodalaydi. Shunday qilib, ingliz frazeosemantik maydonida adolatning semantik kengayishi huquqiy og'ishlar va institutsional deformatsiyalar orqali namoyon bo'ladi [2: 381].

O'zbek tilida esa adolat konsepti axloqiy va ma'naviy markaz atrofida shakllanadi. ***"Haqiqat egiladi, sinmaydi", "Haq egasini topadi", "Tarozining pallasini teng tutmoq"*** kabi birliklar adolatni insof va vijdon mezoni bilan bog'laydi. Yadro qatlamida "haq" va "insof" semalari joylashadi. Periferiyada esa ***"Xalqning ko'zi tarozi", "El og'ziga tushmoq"*** kabi birliklar jamoaviy baho va ijtimoiy nazoratni faollashtiradi. Bu natija o'zbek frazeologiyasida adolat konsepti kollektiv ong va axloqiy muvozanat modeli asosida modellashtirilishini tasdiqlaydi. [3: 388].

Baxt konsepti har ikki tilda "**Happy is up**" metaforik modeli asosida shakllanganligi aniqlangan [4]. O'zbek tilida ***"Og'zi qulog'ida", "Boshi osmonga yetmoq", "Do'ppisini osmonga otmoq"*** kabi birliklar yuqoriga yo'nalgan fazoviy harakat orqali shodlikni ifodalaydi. Ingliz tilida ***"On cloud nine", "In***

seventh heaven", "Walking on air" birliklari ham aynan vertikal metaforani aktuallashtiradi. Biroq periferiya qatlamida farq kuzatiladi. Ingliz tilida "**Life of Riley**" baxtni moddiy farovonlik bilan bog'lasa, o'zbek tilida ***"Yuzidan nur yog'ilmoq"*** baxtni ichki ruhiy nur sifatida talqin qiladi. Demak, ingliz modelida baxt tashqi muvaffaqiyat va hayot sifati bilan, o'zbek modelida esa ichki qoniqish va ma'naviy uyg'unlik bilan integratsiyalashadi.

Boylik va faqirlik konseptlari frazeosemantik maydoni oppozitsion xarakterga ega. O'zbek tilida ***"Yegani oldida, yemagani ketida", "Oltin tog' ustida o'tirish", "Davlati toshmoq"*** birliklari boylikni mo'l-ko'lchilik va hayotiy baraka bilan bog'laydi. Periferiyada esa "***Burni ko'tarilmoq***" boylikning salbiy aksiologik oqibatini ifodalaydi. Ingliz tilida ***"Deep pockets"***, "***Rolling in money", "Money to burn"*** boylikni moliyaviy konteyner va oqim metaforasi orqali modellashtiradi. ***"Filthy rich"*** esa boylikning axloqiy shubhali jihatini ko'rsatadi. Faqirlik maydonida o'zbek tilida muhtojlik axloqiy sabr bilan bog'lansa, ingliz tilida iqtisodiy muvaffaqiyatsizlik modeli ustuvorlik qiladi.

Olingan natijalar frazeosemantik maydonlarning oddiy semantik guruh emas, balki madaniy jihatdan strukturalashgan aksiologik tizim ekanini tasdiqlaydi. Ingliz va o'zbek tillarida adolat, baxt, sevgi, omad hamda boylik konseptlari umumiy semantik yadroni saqlagan holda, ularning ichki tashkil topish mexanizmi milliy kognitiv ustuvorliklarga muvofiq ravishda farqlanishi aniqlanadi [1: 356].

Adolat maydonida ingliz tilida protsessual va institutsional model ustuvorligi aniqlanadi. ***"Due process", "level playing field", "presumption of innocence"*** kabi birliklar adolatni qonuniy mexanizm va tartibga asoslangan tizim sifatida modellashtiradi. Bu natija A.V.Kuninning frazeologik birliklar milliy ongda shakllangan semantik stereotiplarni mustahkamlashi haqidagi qarashini tasdiqlaydi [2: 386]. Ingliz modelida adolat shaxsiy bahodan ko'ra normativ jarayon orqali legitimlashtiriladi.

O'zbek frazeologiyasida esa adolat axloqiy muvozanat va kollektiv baho bilan bog'lanadi. ***"Haqiqat egiladi, sinmaydi", "Tarozining pallasini teng tutmoq"*** kabi birliklar adolatni vijdon va ijtimoiy xolislik modeli asosida talqin qiladi. Bu farq lingvokulturologik nuqtayi nazardan shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida huquqiy mexanizmdan ko'ra, ma'naviy mezon ustuvorlik qiladi. Natijada, adolat konsepti ingliz tilida institutsional ratsionalizm, o'zbek tilida esa axloqiy kollektivizm paradigmasida shakllanadi.

Baxt va sevgi maydonlarida ham muhim farqlar kuzatiladi. Har ikki tilda **"Happy is up"** metaforik modeli mavjud bo'lsada, uning semantik yo'nalishi turlicha. Ingliz tilida ***"on cloud nine"*** yoki ***"walking on air***" kabi birliklar individual emotsional tajribani vizuallashtiradi. M. Lakoff va Johnson tomonidan ta'riflangan konseptual metafora mexanizmi bu yerda subyektiv his-tuyg'ularni fazoviy tajriba orqali modellashtirishni ko'rsatadi [3: 289]. O'zbek tilida esa "***Boshi osmonga yetmoq", "Og'zi qulog'ida"*** birliklari baxtni ijtimoiy uyg'unlik va ichki ruhiy taskin bilan bog'laydi. Demak, ingliz modeli individualistik, o'zbek modeli esa jamoaviy-ruhiy orientatsiyaga ega.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida adolat, baxt, sevgi, omad hamda boylik va faqirlik konseptlari frazeosemantik maydon doirasida yadro va periferiya qatlamlariga ega bo'lgan ierarxik tizimni tashkil etadi. Har ikki til materialida mazkur konseptlar umumiy semantik invariantni saqlab qoladi, biroq ularning milliy-madaniy realizatsiyasi turlicha aks etadi. Ingliz tilida aksiologik maydonlar ko'proq huquqiy-institutsional va individual-pragmatik model asosida shakllansa, o'zbek tilida axloqiy, jamoaviy va ma'naviy komponentlar markaziy o'rin egallaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida adolat, baxt, sevgi, omad hamda boylik va faqirlik konseptlari frazeosemantik maydon doirasida tizimli va ierarxik tuzilishga ega ekanligini tasdiqladi. Har ikki til materialida mazkur konseptlar semantik invariant darajasida umuminsoniy mazmunni saqlab qoladi, biroq ularning lisoniy realizatsiyasi milliy lingvokulturologik ustuvorliklar bilan belgilanadi. Bu holat frazeologik birliklarning neytral leksik birikmalar emas, balki aksiologik jihatdan strukturalangan semantik yadrolar ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Umuman olganda, frazeosemantik maydon modeli aksiologik konseptlarning nafaqat semantik yaqinligini, balki ularning milliy mentalitet bilan bog'liq kognitiv tuzilishini ham ochib berishga xizmat qildi. Yadro qatlamida izomorf universal semalar saqlanadi, periferiya qatlamida esa allomorf milliy realizatsiyalar kuchayadi. Mazkur ierarxik strukturani aniqlash qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va kognitiv semantika uchun muhim metodologik natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. Русский язык: Лексикология и фразеология. М.: Наука, 1977.
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. 2-е изд., перераб. М.: Высшая школа, 1996.
3. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем / Пер. с англ. А.Н. Баранова и А.В. Морозовой. М.: Едиториал УРСС, 2004.
5. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
6. Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. – Oxford: Oxford University Press, 1992.

Oliya QODIROVA,
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistranti

"LISON UT-TAYR" DOSTONI NASHRLARIDA MATNIY TAFOVUTLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni mustaqillik davriga qadar amalga oshirilgan nashrlari qiyosiy matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, 1965-yilda Sh.Eshonxo'jayev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn, 1966-yilgi she'riy nashr hamda 1991-yilgi she'riy va nasriy nashrlar o'zaro solishtirilib, ular orasidagi leksik, imloviy va tahririy tafovutlar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida keyingi nashrlarda ayrim tahririy o'zgartirishlar va matniy farqlar mavjudligi ko'rsatilib, ilmiy-tanqidiy matnning matnshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr", matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, nashr, qo'lyozma, matniy tafovut, qiyosiy tahlil, tahrir, filologiya.

Annotation. This article presents a comparative textual analysis of the pre-independence editions of Alisher Navoi's Lison ut-tayr. The study compares the 1965 critical edition prepared by Sharafiddin Eshonkhojayev with the poetic edition published in 1966 and the poetic and prose editions published in 1991. Lexical, orthographic, and editorial differences between these editions are identified and analyzed. The findings demonstrate that although the later editions were based on the 1965 critical text, they contain a number of editorial modifications and textual variants. The study highlights the significance of the critical edition for textual scholarship and future academic publications.

Keywords: Alisher Navoi, "Lison ut-tayr" textual criticism, critical edition, manuscript, textual variants, comparative analysis, philology, edition, editorial changes.

Аннотация. В статье проводится сравнительный текстологический анализ изданий поэмы Алишера Навои «Лисон ут-тайр», опубликованных до периода независимости Узбекистана. Сопоставляются научно-критическое издание 1965 года, подготовленное Шарафиддином Эшонходжаевым, поэтическое издание 1966 года, а также поэтическое и прозаическое издания 1991 года. Выявляются и анализируются лексические, орфографические и редакторские различия между этими публикациями. Исследование показывает, что последующие издания основаны на научно-критическом тексте 1965 года, однако содержат ряд редакторских изменений и текстовых вариантов. Подчеркивается значение научно-критического издания для дальнейших текстологических исследований.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Лисон ут-тайр», текстология, научно-критическое издание, рукопись, текстовые различия, сравнительный анализ, филология, редакция, текст.

"Lison ut-tayr" dostoni mustaqillik davriga qadar bir necha bor nashr etilgan. Bunga misol qilib 1966-yilda Sharafiddin Eshonxo'javey tomonidan nashrga tayyorlangan Navoiy asarlarining o'n besh tomlik kitobining o'n birinchi tomini aytish mumkin. Ushbu nashrda "Lison ut-tayr" dostonining she'riy shakli berilgan. Bundan tashqari, 1984-yilda Sharafiddin Sharipov va Suyima G'aniyeva tomonidan asarning nasriy bayoni ham chop etildi. 1991-yilda Vahob Rahmonov tomonidan ham nasriy hamda she'riy shakli nashrga tayyorlangan. Bularning barchasi 1965-yilda Sharafiddin Eshonxojayev tomonidan nashrga tayyorlangan "Lison ut-tayr"ning ilmiy-tanqidiy matniga asoslanadi.

Yuqoridagi nashrlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ular orasida bir qancha farqlar diqqatimizni tortdi. Quyida "Lison ut-tayr" dostonining 1965-yildagi Sh.Eshonxo'jayev tomonidan nashr etilgan ilmiy-tanqidiy matni, 1966-yildagi nashri va 1991-yildagi nashrlari orasidagi matniy tafovutlarni keltirib o'tamiz:

1.1966-yildagi nashrda:

Soniikim *chekti chun sun'i Qalam,*
Ofarinish tarhini qildi raqam. [3: 5].

2. 1991-yildagi nashrda:

Soniyekim *chekti chun sun'i Qalam,*
Ofarinish tarhini qildi raqam. [1: 18].

3.1965-yildagi asliyatda:

Soniikim *chekti chun sun'i qalam,*
Ofarinish tarhini qildi raqam. [2: 4].

3.1966-yildagi nashrda:

Oyni ko'k tirnog'idin qildi misol
Olg'on ul tirnog' bir **yonin** *hilol, [3: 5].*

2. 1991-yildagi nashrda:

Oyni ko'k tirnog'idin qildi misol,
Olg'on ul tirnog' bir ***yondin*** *hilol. [1:18].*

3, Asliyatda:

Oyni ko'k tirnog'idin qildi misol,
Olg'on ul tirnog' bir ***yonin*** *hilol. [2: 4].*

1966-nashrda:

Qildi daryog'a buxorin ***parda po'sh,***
Mehr o'tidin tushmasun deb suvg'a jo'sh. [3:6

2, 1991-yildagi nashrda:

Qildi daryog'a buxorin ***pardapo'sh,***
Mehr o'tidin tushmasun deb suvg'a jo'sh. [1: 18].

3. Asliyatda:

Qildi daryog'a buxorin ***parda po'sh,***
Mehr o'tidin tushmasun deb suvg'a jo'sh [2: 4].

1966-yildagi nashrda:

Berdi ***nayso****n yomg'uriga ul sharaf,*
Kim guhar qozg'ondi bazlidin sadaf [3: 6].

2. 1991-yildagi nashrda:

Berdi ***Nayso****n yomg'uriga ul sharaf,*
Kim guhar qozg'ondi bazlidin sadaf. [1:18]

Asliyatda:

Nayson so'zi quyidagicha berilgan:
[2:4] نيسان

1966-yildagi nashrda:

*Chun **hamaldin** berdi **oyini** bahor,*
*Bo'ldi teng **mezonida** laylu nahor [3: 6].*

2.1991-yildagi nashrda:

*Chun **Hamaldin** berdi **oyini** bahor,*
*Bo'ldi teng **mezonda** laylu nahor [1: 18].*

3. Asliyatda:

*Chun **hamaldin** berdi **oyin** bahor,*
*Bo'ldi teng **mezonida** laylu nahor [2: 4].*

1966-yildagi nashrda:

*Tong **nasimi Isi oso** ayladi,*
Bog' amvotini ehyo ayladi. [3:6]

2. 1991-yildagi nashrda:

Tong **nasimin Isooso** *ayladi,*
Bog' amvotini ehyo ayladi [1: 18].

3. Asliyatda:

*Tong **nasimin Isi oso** ayladi,*
Bog' amvotini ehyo ayladi [2: 5].

Yuqorida keltirilgan misollarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 1966-yilgi nashr asosan 1965-yilda Sh. Eshonxo'jayev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matnga tayangan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda matnni zamonaviy o'quvchi uchun soddalashtirish yoki imloviy me'yorlarga moslashtirishga urinishlar kuzatiladi.

Masalan, "**Soniikim**" shakli saqlangan bo'lsa, "**yonin**", "**parda po'sh", "Oni", "mezonida**" kabi birliklar ham asliyatga muvofiq berilgan. 1991-yilgi nashrda esa tahririy aralashuvlar nisbatan ko'proq uchraydi. Jumladan, **"Soniyekim", "yondin", "pardapo'sh", "Oning", "mezonda", "Ofarinishdan"** kabi shakllar qo'llanilgan. Bunday o'zgarishlar asarning mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmasa-da, muallif qo'llagan tarixiy til xususiyatlari hamda matnning asl leksik va grammatik ko'rinishini ma'lum darajada o'zgartiradi.

Ayrim hollarda esa 1991-yilgi nashrda texnik yoki tahririy xatolar ham uchraydi. Masalan, **"Nayson**" so'zining bir nashrda kichik, ikkinchisida bosh harf bilan yozilishi, "hamaldin" va **"Hamaldin"** shakllarining almashinishi, **"oyin"** va **"oyini"** ko'rinishlarining qo'llanishi imloviy me'yorlashtirish bilan bog'liq bo'lib, ular matn mazmunini o'zgartirmaydi. Biroq ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlashda bunday o'zgarishlarning har biri qo'lyozma manbalari asosida izohlanishi zarur.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari 1965-yilgi ilmiy-tanqidiy matnning keyingi nashrlar uchun asos vazifasini bajarganini ko'rsatadi. Biroq 1966 va ayniqsa, 1991-yilgi nashrlarda ayrim leksik, imloviy hamda tahririy o'zgarishlar mavjud bo'lib, ular matnshunoslik nuqtayi nazaridan alohida o'rganishni talab etadi. Shu sababli "Lison ut-tayr"ning ishonchli akademik nashrini yaratishda qo'lyozmalar, ilmiy-tanqidiy matn va keyingi nashrlarni o'zaro qiyoslash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov V. Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr: Ilmiy-tanqidiy tekst / Nashrga tayyorlovchi: Sh.Eshonxo'jayev. – Toshkent: Fan, 1965.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik / Nashrga tayyorlovchi: Sh.Eshonxo'jayev. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1966.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (Qush tili) / Nasriy bayon muallifi: Sh.Sharipov. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1984.

Muxtarbay KURBANOV,
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

QANG'LI ETNONIMI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Maqolada ko'pgina turkiy xalqlar shajarasiga mansub qang'li etnonimi etimologiyasi tahlil qilingan. Mazkur etnonim haqida olimlarning qarashlari umumlashtirilib, ma'lum xulosalar berilgan. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston hududdagi qang'li etnonimi bilan atalgan joy nomlari ham o'rganilgan.
Kalit so'zlar: etnonim, urug', qabila, xalq nomlari, tarix, etnotoponim, etimologiya, etnotoponim, joy nomlari.
Annotation. This article analyzes the etymology of the ethnonym kangli, which belongs to the ancestry of many Turkic peoples. Scholars' views on this ethnonym have been summarized, and certain conclusions have been drawn. The names of localities in the territories of Uzbekistan and Karakalpakstan that have been named with the ethnonym "Kangli" have also been studied.
Keywords: ethnonym, name of a clan, tribe, people, history, ethnotoponym, etymology, ethnotoponym, geographical names.
Аннотация. В статье анализируется этимология этнонима кангли, принадлежащего к родословной многих тюркских народов. Обобщены взгляды ученых на данный этноним и сделаны определенные выводы. Изучены также названия местностей на территории Узбекистана и Каракалпакстана, названных этнонимом кангли.
Ключевые слова: этноним, названия рода, племени, народа, история, этнотопоним, этимология, этнотопоним, географические названия.

Onomastik birliklarning katta qismini etnonimlar tashkil qaladi. *Etnonim* – urug', qabila, xalq, elat, millat va boshqa etnik jamoalarning nomlarini bildiruvchi so'zdir. Ushbu atama yunoncha *"ethnos"* (xalq) va *"onyma"* (nom, ism) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan. Onomastika sohasining etnonimlarni yig'ish, tasniflash va o'rganish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy qismi *etnonimika* deb ataladi.

Ma'lumki, etnonimlar tadqiqi bir necha fanlar bilan uzviy olib boriladi. Etnonimlarni faqat bitta fan, masalan, tilshunoslik doirasida o'rganish ularning asl mohiyatini, kelib chiqishi va tarixiy evolyutsiyasini to'liq ochib berolmaydi. Shuning uchun etnonimika fanlararo yo'nalish hisoblanadi. Etnonimika – tilshunoslik, tarix, etnografiya, geografiya va arxeologiya fanlari kesishmasida rivojlangan yo'nalishdir. Tilshunoslik etnonimlarning qaysi tilga mansubligini, morfologik tarkibi, leksik ma'nosini til qonuniyatlari asosida tadqiq qilsalar, ma'lum urug' yoki xalqning qaysi hududda istiqomat qilgani, migratsion yo'nalishi, qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllanganligini tarix fani o'rganadi. Etnograflar xalqlarning genealogik tuzilishi, shajaralari, urf-odatlari va totemistik qarashlarini etnonimning ichki ma'nosini o'rganish orqali yoritib beradilar.

Arxeologik topilmalarni o'rganish jarayonida etnonimik ma'lumotlar yordamga keladi. Aytaylik, qandaydir bir qabila tamg'asi bilan arxeologik yodgorlikdagi belgilar mos kelishi o'sha hududda qaysi etnos vakillari yashaganini aniq ko'rsatadi. Geograflar ham etnonimlarga befarq qaramaydilar. Chunki, xalqlarning ko'chish (migratsiyasi) yo'nalishlarini, siljishini etnotoponimlar (joy nomlari) asosida aniqlaydi. Demak, yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, etnonim – tilshunoslikning obyekti bo'lsa ham, uning mazmuni tarixga, hujjati arxeologiyaga, tarqalish hududi geografiyaga borib taqaladi. Shu sababli, etnonimika ushbu fanlarning kesishmasida turuvchi sohadir.

O'tmish va ilmiy manbalardan ma'lumki, turkiy xalqlarda urug'-aymoqchilik tizimi va shajara an'analari tarixan juda mustahkam shakllangan hamda bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu holat turkiy xalqlarning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzi, o'zligini saqlash ehtiyoji hamda ma'muriy tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Ko'plab turkiy xalqlarda, ayniqsa, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoqlarda har bir inson o'zining yetti avlodining (otasining) ismini va urug' bo'linishini bilishi shart bo'lgan.

Turkiy etnonimlar (urug', qabila va xalq nomlari) tarixi hamda etimologiyasini o'rganish rus sharqshunosligi va jahon turkiyshunosligida eng markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Markaziy Osiyoning yirik turkiy xalqlari – o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkman millatlarining etnonimlarini, urug'-qabila tarkibini va ularning kelib chiqish tarixini tadqiq etgan ko'plab nufuzli xorijiy va mahalliy olimlar bor. V.V.Radlov, N.A.Baskakov, N.Aristov, S.Malov, S.P.Tolstov, L.S.Tolstova (xorijiy), K.Shoniyozov, H.Zarifov, X.Doniyorov, T.Nafasov va S.Qorayev (o'zbek), A.Abdiraxmanov, T.Januzakov, M.Tinishpayev (qozoq), S.Ataniyazov, G.Axmedovlar (turkman), T.Jdanko, S.Kamalov, D.Aytmuratovlar qoraqalpoq turkiy xalqlarining, shundan, o'zbek, qozoq, turkman va qoraqalpoqlarning yirik urug'lari, ular tarkibidagi mayda qabilalarning o'zaro etnik aloqalari va parallel etnonimlarini o'rgangan. Bu sohadagi tadqiqotlarni kelgusida har bir millat kesimida yoki mintaqaviy miqyosda ko'rib chiqish ham mumkin.

Qoraqalpoqlar o'zlarining urug'-qabila bo'linishlarini saqlab qolgan turkiy xalqlardan biridir. Qoraqalpoq xalqining urug'-qavmlik tuzilishi *qo'n'irot* va *o'n to'rt urug'* bo'lib ikki arisga bo'linadi. Qo'ng'irot arisiga *ashamayli, qiyot, qoldauli, qo'shtamg'alı, balg'ali, qandekli, qazayaqli, qaramo'yin, muyten, teristamg'ali, baymoqli, tiyekli, uyg'ur, baqonli-shaujeyli* urug'lari kiradi. Atalgan urug'lar yana bir necha kichik urug'larga ajraladi. O'n to'rt urug' arisiga katta to'rt urug' – *qitay, qipchoq, keneges, mang'*it kiradi. Bu urug'lar ham bir necha mayda urug'larga bo'linadi. Ko'rsatilgan ikki aris ilgarigi vaqtlarda o'zlarining yashash hududiga ega bo'lgan. Ushbu hududlar hozirgi davrda ham birmuncha saqlangan [3: 37–62].

Tadqiqot obyektimiz bo'lgan *qang'li* etnonimi qoraqalpoq urug' shajarasida qipchoqlar tarkibiga kiradi. Qang'li qavmi turkiy eng qadimiy etnik guruhlardan biri bo'lib, o'zbek, qoraqalpoq va qozoq xalqlarining etnik shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Qang'li **etnonimi qadimgi tarixiy manbalarda ham uchraydi, bundan ko'rinadiki, ushbu nom qadimiy davrlardan buyon mavjud. Qang'li qavmlik birlashma Yevroosiyo qit'asining deyarli barcha turkiy va turkiy bo'lmagan xalqlar etnik tarkibiga qatnashgan. Manbalarda** *qang'*li **etnonimi O'rta Osiyoda mamlakat nomi sifatida tilga olinadi.** Qadimda Qang' davlati bo'lib, u miloddan avvalgi III asrdan milodiy IV asrlargacha davom etgan uzoq tarixiy davrda Markaziy

Osiyoda salmoqli ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Ba'zi qadimiy adabiyotlarda Qang' davlati aholisi "qang'lar" yoki "qang'lilar" deb atalgani ko'rsatib o'tilgan [4]. Bu davlat o'zining rivojlangan davrida hozirgi Qozog'iston, Movarounnahr va Rossiyaning janubiy viloyatlarida katta hududni egallagan [6: 178]. Qang'lilarning ajdodlari Sirdaryo bo'yida yashagan saklar edi. Miloddan avvalgi III asrda ular katta Qang' davlatini tuzdilar. Miloddan avvalgi II-I asrlarda va milodiy I-II asrlarda bu davlat katta hududni, jumladan, Toshkent vohasini, Qozog'istonning janubi-sharqiy hududlarini, Movarounnahr, Xorazmni, Orol dengizining janubiy, janubi-sharqiy va shimoli-g'arbiy hududlarini egallagan edi. Qang'lilar VIII asrning yetmishinchi yillarida ikki guruhga bo'lingan. Ulardan biri dasht hududlariga, Orol dengizining shimoli-g'arbiga, ikkinchisi Sirdaryoning o'rta oqimidan shimoli-sharqqa, Talas va Chuning yuqori oqimi hududiga, shuningdek, Balxash ko'li atroflariga ko'chgan. Qang'lilarning ma'lum bir qismi Kaspiy dengizi va Orol dengizi dashtlarida chorvachilikni davom ettirib, qozoqlar va qoraqalpoqlar tarkibiga singib ketgan. Sirdaryo qirg'oqlari, Talas va Chu vohalarida yashagan qang'lilar Xorazm vohasining o'troq aholisiga aylangan [7]. Mazkur maqolada *qang'li* etnonimining kelib chiqishi va ma'nosi haqida fikr yuritiladi.

Qang'li etnonimining etimologiyasi tilshunoslik hamda tarix fanida eng ko'p o'rganilgan, shu bilan birga jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan nomlardan biri. Ilmiy manbalarda ushbu atamaning ma'nosi bo'yicha bir-birini inkor etuvchi yoki to'ldiruvchi bir nechta nazariya mavjud.

Mahmud *Qoshg*'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida *qang'li* atamasiga shunday izoh bergan: "Ustiga og'ir yuk ortgan ikki g'ildirakli arava" [5: 348]. Shunga o'xshash etimologiyani Abulg'oziy Bahodirxon *"Shajarayi turk"* asarida afsonada keltirishadi. Unga ko'ra, O'g'uzxon dushman ustidan g'alaba qozonib, o'ljalarni tashish uchun jangchilardan biri birinchi marta g'ildirakli arava yasaydi. Arava yurganda *"qang'-qang'"* degan ovoz chiqargani uchun O'g'uzxon uni yasagan urug'ga "Qang'li" deb nom beradi. Bu, albatta, xalq etimologiyasidir.

Qozoq olimlari A.Abdiraxmanov va T.Januzaqovlarning ***qang'li*** etnonimi haqida qimmatli fikrlari bor. A.Abdiraxmanov fikricha, etnonim qadimgi turkiy tilda "daryo bo'yidagi xalq" ma'nosini bildirgan ***qan o'g'li*** so'zidan kelib chiqqan [1: 52]. T.Januzaqov etnonimni ikki tarkibga ajratadi: ***qan*** (ba'zida *gan*) –"daryo", ***-li*** –to'plash, ko'plik qo'shimchasi. *Qang'li* – daryo sohilidagi qavm, qabila [2: 62].

Etnograf K.Shaniyozov ***qang'*** etnonimi Kanguyu davlati nomi bilan bog'liq, ***qang'li, qang'***, ***qanxa*** – o'zakdosh so'zlar, iron, umuman, hind-evropa tillariga mansub bo'lishi mumkin, degan farazni ilgari suradi. Eski o'zbek, tojik tillarda ***qan*** so'zi "daryo" ma'nosida ishlatilgan [8: 21–41].

Demak, etnonimga doir ikki xil qarashlar kuzatiladi. Qang'li etnonimi o'zagining "suv, daryo, daryo o'zani" ma'nolarini anglatishi haqidagi nazariya **jiddiy ilmiy, lingvistik va tarixiy asoslarga ega**. Ma'lumki, qadimgi Markaziy Osiyo hududlarida turkiy va qadimgi eroniy (sug'diy, sak) tillar asrlar davomida yonma-yon yashaganlar. Qadimgi eroniy tillarda hamda ba'zi qadimgi turkiy lahjalarda "qang'" (yoli "kan") o'zagi aynan "suv o'zani", "buloq suvi to'plangan joy" ma'nolarini bildirgan (qarang: Древнетюркский словарь. 1967. 289-b.). Ikkinchidan, qadimgi etnoslar o'zlarini ko'pincha yashagan daryosi yoki tog'i nomi bilan atashgani tarixdan ma'lum. Uchinchidan, etnonimning morfologik tuzilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Qang'//Kan (daryo, suv o'zani) – so'z asosi, *-li /-lig'* turkiy tildagi o'rin-joyga, egalikka nisbat beruvchi qo'shimcha.

Demak, lisoniy transformatsiya qonuniyatiga ko'ra, *Qang'li* nomi so'zma-so'z: "Daryoliklar" yoki "Suv bo'yida yashovchilar" degan ma'no bildiradi. Bu shunchaki taxmin emas, balki XX asr o'rtalaridan boshlab tilshunos va arxeologlar tomonidan isbotlangan nufuzli konseptual qarashdir

O'zbekistonda qang'lar tarqalgan joylarning ba'zilari ularning nomlari bilan atalib ketgan. Toshkent, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston hududlarida *qang'li* etnonimi bilan aloqador joy nomlari ko'p ushrayadi: *Katta qang'li qishlog'i, Qang'li qishlog'i* ***(Samarqand, Xorazm)***, *Kishi qang'lı* ovuli, *Ulkan qang'li* ovuli, *Qang'li* ovuli (Qoraqalpog'iston).

Binobarin, etnonimlar – bu asrlar qa'ridan sado berayotgan, millatning genetik va madaniy kodini o'zida muhrlagan jonli hujjatlardir. Kelgusida bu yo'nalishdagi izlanishlarni kengaytirish fanlararo (tarix, tilshunoslik va antropologiya) bog'liqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida etnonimik tadqiqotlar milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va tarixiy haqiqatni kelajak avlodga sof holda yetkazishda fundamental poydevor bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдірахманов А. Қазақстан этнотопонимикасы (Зерттелу тарихынан). Алматы: Ғылым. 1979.
2. Джанузаков Т. Очерки казахской ономастики. Алма-Ата: Наука, 1982.
3. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.: Наука, 1950.
4. Kayumova M. Qang' davlatini O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni // Жамият ва инновациялар // https://inscience.uz/index.php/socinov/index.
5. Mahmud Qoshg'ariy Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. – Toshkent: Fan, 1967.
6. Мыңбаев Н.Ж. Этимология и семантика древних этнонимов (на материале общетюркской и казахской этнотопонимии). Алматы, 2008.
7. Turdiyev I.U. Qang'li urug'ining shakillanish tarixi va Amudaryo – Sirdaryo oralig'iga ko'chishlari // https://zenodo.org/records/18461279.
8. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent: Fan, 1990.

Konisbay SARSENBAEV,
doctor of philosophy (PhD) in philological sciences;

Omar SAPARMATOV,
students NSPI named after Ajiniyaz

THE USE OF METONYMIES IN THE WORKS OF POET KUNKHOJA

Annotation. The article analyzes the artistic language of the poetry of the classical poet of Karakalpak literature Kunhoja Ibragim oglu. In particular, the scope of use of metonymy from artistic means was analyzed.
Keywords: linguofolkloristics, language of a literary work, means of artistic representation, tropes, metonymy.
Аннотация. В статье анализируется художественный язык поэзии классика каракалпакской литературы Кунходжи Ибрагим оглы. В частности, проанализирована сфера применения метонимии из художественных средств.
Ключевые слова: лингвофольклористика, язык художественного произведения, средства художественного изображения, тропы, метонимия.

The main goal of our work is to study and further enrich the issue of artistic mastery in the works of the poet Kunkhoja, the features of the use of tropes and figures.

Rich examples of Karakalpak classical literature are widely represented in the poet's works. Therefore, the means of artistic expression and methods of artistic depiction used in the poet's poetry are a separate world. The means of artistic representation are the only feature that expresses the unique stylistic features of each poet, his skill in using words, and his difference from others. The methods of artistic depiction are methods that have an equal impact on the text of the work and the content of the work.

As a result of the analysis of the sources related to the study, it becomes clear that the issue of artistic language in Karakalpak literature is one of the important directions of linguistics and literary studies. In particular, the figurative means used in the works of writers and poets, poetic units, language elements expressing the national spirit, and issues of individual style occupy a special place in scientific research. The scientific sources used in this article serve as a theoretical and methodological basis for revealing the features of the writer's literary language.

Sh.Abdinazimov, A.Pirniyazova and S.Shynnazarova's "Modern Karakalpak Literary Language (Phonetics. Lexicology)" the phonetic and lexical layers of the Karakalpak literary language are scientifically widely covered. The authors paid special attention to the formation of language units, the development of meaning, synonymy, homonymy, dialectal units, and the features of the use of folk expressions.

The issue of determining the phonemic composition of the Karakalpak language is directly related to determining whether some complex sounds, diphthongs, consist of one phoneme or two. In other words, when determining the phonemic composition of the Karakalpak language, should diphthongs formed from the presence of vowel phonemes and syllables of the semi-vowels [y] and [w], which are still debated in literature, be considered separate phonemes, or is each of them a chain of two phonemes? If diphthongs are a separate phoneme, then they are contrasted with other phonemes in the language (including monophthongs). If diphthongs are placed as a separate phoneme for monophthongs in a language, the phonemic composition of vowels increases. If diphthongs are considered as a chain of two phonemes, the vowel equivalent within them is considered a regular monophthong, and since a complete diphthong is not a separate phoneme (monophoneme), it cannot be contrasted with other phonemes in the language.

In modern Karakalpak, phonological diphthongs used as separate phonemes are not encountered. When discussing diphthongs in this language, only phonetic diphthongs are considered. Specifically, the sonants [y] and [w], which are articulatively and acoustically closest to vowels, form phonetic diphthongs (false diphthongs) when combined with vowels.

The semi-vowels [y] and [w], combined with all vowels, form open or closed diphthongs. Typically, these sounds, as separate phonemes, are easily separated from the open vowels within a single syllable, forming diphthongs. Thus, there is no doubt that they are distinct phonemes. For example, in words like [ay], [aw], [ya], [waz], [waj], [yar], [taw], [tay], [saw], [say], when combined with open vowels, the consonants [y] and [w] are distinct phonemes. Thus, it raises no doubt that diphthongs consist of vowels and sonorant [y] phonemes, or vowels and sonorant [w] phonemes. And it's clear that [y] ham [u] has complicated problems that require the sonority of [y] ham [u] to come up with a tightly packed middle, so [yw], [yw], [yw], [yw] using closed diphthongs, [y], [o], [o] using open diphthongs. Is each one of them directly from the same phoneme, or is it a phoneme made up of two senses?

The sound of the phonemes depends on how the problem is solved. If they were considered to be distinct diphthong phonemes with six vowels, then the number of phonemes in the Karakalpak language would be nine. And if each one of them is counted as a sequence of voiced phonemes followed by voiceless phonemes, then the number of voiced ones in the Karakalpak language is nine phonemes. Therefore, the problem of determining the phonological structure of the closed diphthongs [y], [yi], [y], [y] and the open diphthongs [y], [o] and the problem of determining the phonemic structure of the dialects of the Karakalpak language is a problem that should be solved jointly.

Different opinions on the phonemic composition of voices are due to the fact that the phonemic composition of these diphthongs is different. For example, in the Polish literature it is assumed that the Karakalpak language has nine vowel phonemes (a, ə, o, ө, y, ү, ы, и, e), while J.Aralbayev calculates that there are eleven vowel phonemes. In addition to the nine consonant monophthongs, he adds the eight consonant diphthongs to the sequence of distinct phonemes. According to the orthography of the Ḥam Ḥazirgi Karaqalpaq language, the diphthongs with the consonant [i] are considered to be the monophthongs with the consonant [i], and the diphthongs with the consonant [u] are considered to be the monophthongs with the consonant [u].

Thus, this statement of J.Aralbayev is consistent with the opinion of academician I. Kenesbayev that the phonemic structure of the vowels of the Kazakh language is represented by nine mono- and two-tone phonemes. However , there is no consensus on the phonetic structure of the vowels in the

modern Kazakh language. According to I. Kenesbayev, there are eleven vowel phonemes in the Kazakh language (а, ә, е, о, ө, ы, и, у, ү, и, ұ), according to A.Dzhunisbekov, there are nine vowel phonemes (а, ә, е, о, ө, ы, и, у, ү), and according to the last one, there are six vowel phonemes (а, ә, ы, у, й, и).

In their work , it is possible to join the opinion of A.Dzhunisbekov that there are nine vowel phonemes in the Kazakh language

And the fact that he considers the diphthongs of the Kazakh language [iў], [уў] to be distinct phonemes, both according to the opinion of I.Kenesbayev, and also in all the positions of words in the Kazakh language [е], [о], [ө] are not distinct phonemes, and the pronunciation of the diphthongs from the two phonemes: е diphthongs [у] менен [и], [о] diphthongs [у] менен [у], ө diphthongs [у] менен [ү]; thus in the Kazakh language there are six monophthongs as ҳаммеси and three diphthongs in addition to the last opinion of A.Junisbekov

In the Kazakh language, the diffusion of [bel] - [bil], [bol] - [bul], [kol] - [kul] in conjugated words is due to the fact that the opposite of the vowels [bel] - [bil], [kol] - [kul] in conjugated words is the distinctive phoneme (monophthong) of the vowels [е], [о], [ө].

From any of the diphthongs of the Karakalpak language, in which case the flattening of the closed diphthongs of the [i], [i], [u], [u] at the very beginning of the word, the phonological rectitude of the open diphthongs of the [о], [ө] and the disjunction of the phoneme is demonstrated in experimental data

Thus, the fact that the diphthongs of the Karakalpak language are not phonologically distinctly unique was strictly taken into account in the determination of the phonemic composition of the Dugas.

The use of metonymy in the works of the poet Kunkhoja occupies a significant place in revealing the artistic and aesthetic richness of Karakalpak classical poetry. Metonymy, as an important stylistic device, allows the poet to express thoughts indirectly through the relationship between objects, concepts, and phenomena. In Kunkhoja's poetry, metonymic expressions not only enhance the figurative meaning of the text but also strengthen its emotional and philosophical influence on the reader.

The analysis of Kunkhoja's poetic language demonstrates that metonymy is widely used to reflect social life, moral values, and human emotions. The poet often replaces a concrete notion with another closely related concept in order to create a more expressive and impressive artistic image. Through such stylistic substitutions, the poet conveys deep meanings in a concise and elegant form. This feature proves Kunkhoja's high poetic mastery and his ability to use the expressive possibilities of the native language effectively.

In many of Kunkhoja's poems, metonymy is closely connected with national culture and traditional worldview. Words related to everyday life, nature, and social relations frequently function as metonymic symbols. Such usage enriches the poetic language and reflects the national identity of the Karakalpak people. The poet skillfully transforms ordinary lexical units into artistic symbols that represent broader social and spiritual concepts.

Another important aspect is that metonymy in Kunkhoja's works contributes to the emotional intensity of the poems. Instead of directly naming feelings or events, the poet prefers indirect expression through associated objects or details. As a result, the reader becomes more actively involved in interpreting the hidden meanings of the text. This artistic technique increases the aesthetic value of the poems and creates a strong poetic effect.

Furthermore, metonymic expressions in Kunkhoja's poetry often serve didactic and philosophical purposes. The poet uses symbolic substitutions to criticize social injustice, ignorance, and negative human behavior. At the same time, concepts associated with wisdom, honor, and morality are represented through meaningful artistic images. Therefore, metonymy becomes not only a linguistic phenomenon but also a tool for conveying the poet's worldview and moral ideals.

The study also reveals that Kunkhoja's metonymies are deeply connected with oral folk traditions. Many expressions found in his poetry resemble the figurative language of proverbs, folk songs, and epic narratives. This connection demonstrates the continuity between folk literature and written poetry in Karakalpak literary tradition. Consequently, the poet's language preserves national artistic thinking while simultaneously enriching literary expression.

K.Jarimbetov, a scholar who studied the genre characteristics of 19th-century Karakalpak lyrics, said the following about the literature of this period. "To date, Karakalpak classical literature, including classical lyricism, has been and is being studied in various aspects." Most importantly, it has been effectively researched in the direction of poetry and literary heritage. In particular, primary sources were collected, literary texts were published, and they underwent textual and historical-philosophical processing and were arranged in chronological order." In the study of the means and methods of artistic depiction in Kunkhoja's lyrics, the approach was initially based on theoretical ideas. The significance of artistic imagery in enriching the content of Kunkhoja's works was revealed.

REFERENCES

1. Berdimuratov E., Däwletov A. Häzirgi qaraqalpaq tili. – Nökis, 1979.
2. Däwletov A. Qaraqalpaq tilinde singarmonizm. – Nökis, 1993.
3. Nasirov D.S., Dospanov O., Bekbergenov A., Saytov D. Qaraqalpaq ädebiyati klassikleri shig'armalarining tili. – Nökis, 1995.
4. Ubaydullayev K. Qaraqalpaq tili boyinsha tan'lamali miynetleri. – Nökis, 1976.

Azizbek TURDIYEV
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ZUMERLARGA ALPOMISH ZARUR

Annotatsiya. Ushbu maqolada avlodlar nazariyasiga xos qarashlar, 2000-yildan keyin tug'ilgan avlod, ya'ni zumerlarning dunyoqarashi, fe'l-atvori, qiziqishlari, ularni axborot xurujlaridan asrash, milliy qadriyatlar ta'sirida tarbiyalash kabi masalalar yoritilgan.
Kalit so'zlar. Zumer, "raqamli avlod", butunjahon o'rgimchak to'ri, NET-Generation, kontent, axloq, kvadrober, "ommaviy madaniyat", folklor, ma'naviy biografiya.
Annotation. This article highlights the views specific to generation theory, the worldview, behavior, and interests of the generation born after 2000, known as zoomers, as well as protecting them from informational attacks and educating them under the influence of national values. It analyzes the impact of the virtual world on the psychology and consciousness of modern youth, emphasizing the crucial role of folklore, classical literature, and spiritual heritage in shaping their worldview and shielding them from the negative influences of globalization.
Keywords: zoomer, "digital generation", World Wide Web, NET-Generation, content, morality, quadrober, "mass culture", folklore, spiritual biography.
Аннотация: В данной статье освещаются вопросы, характерные для теории поколений, мировоззрение, поведение, интересы поколения, родившегося после 2000 года – зумеров, а также их защита от информационных атак и воспитание под влиянием национальных ценностей. В ней анализируется влияние виртуального мира на психологию и сознание современной молодежи, подчеркивается важная роль фольклора, классической литературы и духовного наследия в формировании их мировоззрения и ограждении от негативного воздействия глобализации.
Ключевые слова: зумер, «цифровое поколение», Всемирная паутина, NET-Generation, контент, мораль, квадробер, «массовая культура», фольклор, духовная биография.

"Bugungi yoshlar aynib ketdi". Ayni fikr hamma zamonlarda ham aytilgan, desak adashmaymiz. Kattalar nazarida yoshlar hamisha noqis va qosir avlod bo'lib ko'rinadi. Kenja zamondoshlarimiz fe'l-atvori, dunyoqarashidan tortib xatti-harakatigacha begonadek taassurot uyg'otadi. Balki shundaydir. Lekin bu oqibatning kelib chiqish sabablarini tahlil etishdan ko'ra tanqid qilish holati ko'proq va osonroq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" [5].

Xalqaro terminologiyada 2000- yildan keyin tug'ilgan avlodni zumerlar (inglizcha "zoom" – "kattalashtirish" so'zi asosida yasalgan) deb atash urf bo'ldi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar asrida kamolga yetayotgan "raqamli avlod" chindan boshqacha xarakter va qiziqishlarga ega. Ularning yutug'i va boy berayotganlari alohida tahlilga munosib. Zumerlar uchun milliy mahdudlik – eng katta jazo, ular muayyan hududning emas, butun dunyoning fuqarosi bo'lishga intiladi, olamga ochiq, hammadan farqlanib turish istagi baland, o'zini namoyon etishga ishtiyoqmand. Ularni o'z tegrasidagi yaqinlari, kattalar emas, butunjahon o'rgimchak to'ri ulg'aytiryapti, "tarbiyalayapti". Nega o'z yaqinlari emas?

Avlodlar nazariyasida axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz yasholmaydigan yoshlarni belgilash uchun yana bir tushuncha – tarmoq avlodi, ya'ni NET- Generation yoki N-Generation atamasi paydo bo'ldi [3].

N-Generation raqamli mediadan shunchalik ko'p foydalanadiki, bu ularning "tabiiy ijtimoiy landshafti"ga aylandi hamda undan foydalanish nafas olishdek tabiiy tuyuladi [9].

Statistika agentligining uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, 2024- yil yanvar–sentabr oylarida O'zbekistonda internetdan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta yoshdagi aholi ulushi 92,7 % ni tashkil etgan [8].

Umri virtual olamda o'tayotgan o'smir shafqat, hamdardlik kabi insoniy tuyg'ulardan begonalashib, turli o'yinlar ta'sirida real hayotdagi xavf-xatarni his qilmaydigan bo'lib ulg'ayadi. Tadqiqotlar bunday avlodda xotira va hissiyotlarni boshqarish uchun mas'ul bo'lgan miyaning frontal loblari faolligi pasayib borayotganini ko'rsatmoqda. Boshqacha aytaganda, kontentlar ta'sirida oson boshqariladigan omma paydo bo'lyapti. O'smirlarning ruhiyati, dunyoqarashi va mentalitetini buzadigan zararli kontentlar sog'lom jamiyatga tobora ko'proq xavf solmoqda.

Oksford universitetida o'tkazgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalangan yoshlarda ruhiy tushkunlik va bezovtalik hukm suradi. "Biz asabiylik va ruhiy tushkunlikning ortishi darajasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda o'tkaziladigan vaqt o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini topdik" [7], deydi tadqiqotga rahbarlik qilgan professor Jon Gallaher. Tadqiqotchining xulosa qilishicha, kuniga sakkiz soatgacha vaqtini ijtimoiy saytlarda o'tkazgan o'smirlarda jiddiy ruhiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan faqat rotsional (soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lash, ma'lumot olish, xabarlashish uchun) foydalanadigan kattalar zumerlar nigohida "no'noq kishilar", ularning dunyosida qimtinib yurgan fuqarolar, hatto kelgindilar sifatida gavdalanadi. Mazkur tasavvur yoshlar va kattalar o'rtasidagi munosabatlardagi tafovutni oshirib boradi. Buning oldini olish uchun ota-onalar yoki boshqa yaqinlar ijtimoiy tarmoqlardagi holatlar haqida yoshlar bilan erinmay fikr almashib borishga odatlanishlari talab etiladi. Farzandlar telefoni uchun birgalikda musiqa tanlash, virtual o'yinlarni muhokama etish, filmlar va animatsiyalarni yonma-yon tomosha qilish ham o'zaro yaqinlik muhitini yuzaga keltirib, yaxshi samara beradi. Ularning qiziqishlariga kattalar befarq emasligini anglatish g'oyat muhim. Zero "raqamli avlod"ning kerakli ma'lumotlarni tezda topish, saralash va bilimga aylantirish salohiyati yuqoridir.

Aksar hollarda "raqamli avlod" real ijtimoiy hayotga parallel ravishda o'z virtual dunyosini yaratib, o'sha olamda tez tanilishni, mashhur bo'lishni istaydi. Buning oson yo'li deb boshqalardan ajralib turadigan xatti-harakatlar qiladi, ijtmoiy me'yorlarni ongli ravishda buzadi (100 mingta "layk" uchun otasini kaltaklashni aytish, avtomobilda atay qoida buzish, kuchlanishi yuqori elektr simlar ostida elektropoyezd ustida suratga tushish, baland binolarda xavfsizlik kamarlarisiz harakatlanish, odamlarni chuv tushirish va h.k.). Mazkur jarayonlar ayrim holatlarda afsuski halokat bilan yakun topadi.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur... dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdur" [1], deya fikr bildiradi. Aksariyat zumerlar amal qilayotgan axloq me'yorlari ko'p asrlik ijtimoiy qadriyatlarga emas, individualizm asosiga qurilgan deyish mumkin. Ular orasida "yangi axloq" deb ta'riflanayotgan, aslan axloqsizlik bo'lgan g'oyalar tarafdorlari ham talay. "Jamoa, jamiyatda yashash, ijtimoiy birlik, xalq manfaatlari kabi tushunchalar ular uchun mutlaqo begona. Bunda har bir kishi faqat o'zi uchun zarur bo'lgan "qadriyatlar" tizimini yaratadi. Bunday tizimning

poydevori individualizm, gedonizm, kosmopolitizmdan iborat bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ular uchun insoniyat tomonidan ming yillar davomida yaratilgan tom ma'nodagi qadriyatlar "ortiqcha matoh" [2].

Bugungi kunda dunyoning ayrim davlatlarida aynan bolalar va o'smirlarni ijtimoiy tarmoqlardan himoyalash, maktab hududida qo'l telefonlaridan foydalanishni taqiqlash amaliyoti joriy etilmoqda. Xususan, Angliya, Avstraliya, Fransiya, Norvegiya kabi davlatlarda ana shunday cheklovlar qo'llana boshladi.

Nafaqat virtual makonda, balki hayotda ham ajralib turishni, o'zini boshqacha namoyon etishni istagan yoshlar noodatiy mashg'ulotlar qidiradi. Ana shunday intilishlar oqibatida kvadroberlik kabi "xobbi"lar urchiydi. "Kvadrober" – "quadrober" istilohi lotincha "quattuor", ya'ni "to'rt" so'zi asosida shakllangan bo'lib, asosan to'rt oyoqli jonivorlar harakatiga taqlidni anglatgani uchun shunday atala boshlangan. Dastlab yangi sport turi sifatida yuzaga kelgan bu mashg'ulot keyinchalik turli tadbirlardagi sahna ko'rinishlarining bir qismi o'laroq taqdim etila bordi. Bugun esa, yumshoq qilib aytaganda, "murosasoz jamiyatimiz"da ham hayvonsurat kimsalar bemalol o'zligini namoyon etishga harakat boshladi.

Kvadrober – hayvonlarning odat va harakatlariga taqlid qiluvchi bolalar asosan o'smirlardir. Ular ma'lum hayvon, masalan, kuchuk, mushuk, maymun kabilarni aks yettiruvchi aksessuar va kiyimlar bilan, dum, quloq, panjali qo'lqop va niqoblar taqib, odamlar orasida o'sha hayvonning harakatlari bilan namoyon bo'ladi. O'zini to'liq o'sha hayvon sifatida ko'rsatadigan bu bolalar oyoq-qo'lida xuddi 4 oyoqli hayvon kabi sakrab, yuguradi. Ba'zan esa suykalib, uning tovushini ham chiqarishi mumkin [6].

Yozuvchi Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi yakunida maymun odamni changalzorga olib kirib ketayotgani ifodalanadi. O'z davrida ramziy asar sifatida talqin qilingan hikoya voqealari bugun jonli hayot hodisalariga aylanib borayotgani jiddiy o'yga toldiradi. Bejiz fikrlarimizni adabiyot mavzusi bilan davom ettirmayapmiz. Chunki aynan adabiy merosdan, aniqrog'i, uning ilk manbai bo'lgan folklor (kattalarning beparvoligi, e'tiborsizligi oqibatida ertaklar, rivoyatlar, topshimoqlar, maqollar, tez aytishlar, xalq o'yinlari) ta'siridan mosuvo murg'ak avlod ongi va qalbidagi bo'shliqni virtual olam to'ldirayotgani ayon haqiqat.

Ko'plar yaxshi biladi, o'zbek xalq ertaklarida Kenja botir qorong'i tunda cho'li biyobonda yo'l yursayam mo'l yurib, olisda miltillab turgan shu'laga ko'zi tushadi va shu lahzadan boshlab voqealar xayrli yechim tomon yo'naladi.

Globallashuv davrida yosh avlod ongi va qalbini turli uydirma qaharmonlarga (X odamlar, O'rgimchak odam, Supermen, Betmen kabi) havas uyg'otish orqali zabt etish va o'z g'oyalarini singdirishga urinish avj olgan. Kenja botirlarimiz axborot changalzorida adashib yuribdilar va ularga biz ko'rsatmoqchi bo'lgan chiqish yo'li – shu'la bu xalq og'zaki ijodi namunalaridir. O'tda yonmas, suvda cho'kmas Alpomish singari ming yillik qaharamonlarimizni kelgusi avlodlarga jozibador ko'rsatish (ko'p qismli multseriallar, filmlar, roliklar orqali) va zamonaviy idealga aylantirish bugunning dolzarb masalasi sanaladi.

Biz jahon adabiyotining eng nodir namunlarini o'qiganimizda ongimiz hayratga, qalbimiz hayajonga oshno bo'lishi mumkin. Lekin ruhiyatimiz ulardan milliy folklor asarlari berganchalik quvvat ololmaydi. Sababi folklorda ming yillar osha yashab kelayotgan turkiy til harorati, shu til bag'riga singib ketgan bobolar nafasi bor. Bu nafas tomirlarimizda oqayotgan qonimiz tovushiga hamohang. O'z kindik qoni tomgan tuproqda o'sgan giyohlar kishiga boshqa yerdan keltirilgan dori-darmondan kuchliroq malham bag'ishlaganidek, xalqona ohanglarni qayta-qayta tinglab, mutaassir bo'laveramiz. Folklor ta'sirida yaratilgan asarlar ham bizga shunday zavq beradi.

Professor Sh.Turdimov folklor har bir odamning qonida borligi va har qanday til ibtidosida Ulkan bilimga tegishli tushunchalar mavjudligi, folklor bizga o'zimizni, o'zligimizni anglashga yordam berishi bilan ham qimmatli ekanligini qayd etib, folklor – ma'naviy ona sutidir, deya ta'kidlaydi. Shuningdek, folklorshunos fikrlarini davom ettirar ekan, har qanday ijodkor, u qanchalik favqulodda talant va iqtidor sohibi bo'lmasin, folklordagi kabi to'kis an'ana yaratishi qiyinligi, individual ijod ahli an'anaga yangi quvvat bag'ishlashi, uni yanada takomillashtirishi mumkinligi, an'ana xalq badiiy tafakkurida pishib yetilishi, avloddan-avlodga o'tishi, bu jarayonda an'analarning ildizlari juda qadimga borib taqalishini aytadi [11: 27].

Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov "Xotirasi bo'lmagan, tarixi bo'lmagan, ko'hna asotirlar, afsonalarda, klassik adabiyotda aks etgan ma'naviy biografiyasi bo'lmagan odam – ruhan qashshoqlikka mahkum va bunday odam murakkab zamonamiz hayotini anglashga ojizdir" [9], – deya qat'iy xulosa qiladi.

Globalizm va "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan XXI asrda har qanday milliy madaniyatning asosi sanalgan folklor hamda folklor an'analari mujassam bo'lgan yozma adabiy manbalar xalqlarning milliy qiyofasini, o'zligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bunday ijod namunalarini muttasil o'rganish, targ'ib qilish, asrab-avaylash, rivojlantirish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish millatning kelajagini saqlab qolishga intilgan har bir ma'rifatli insonning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma'naviyat. 2009- y. – B 40.
2. A. Mavrulov. Axloqsizlik "Yangi axloq"mi? // Yangi O'zbekiston. 2024-y. 15-oktabr, 208-son.
3. D.Tapscott. Growing Up Digital: The Rise of the Net Generation. New York. McGraw-Hill Companies.
4. Datareportal. https://datareportal.com/reports/digital–2024-uzbekistan
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/3864.
6. Submadaniyat, trend yoki sport – kvadrobika o'zi nima? U qanday ommalashmoqda? https://oyina.uz/uz/article/3106.
7. O'smirlardagi asabiylik va tushkunlik darajasi ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq – Financial Times. https://oyina.uz/uz/posts/25254.
8. O'zbekiston Respublikasida internetdan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta yoshdagi aholi ulushi. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/57843-o-zbekiston-respublikasida-internetdan-foydalanuvchi-10-yosh-va-undan-katta-yoshdagi-aholi-ulushi.
9. Omon Matjon. Haqqush qichqirig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
10. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants, Part 1 // On the Horizon, 2001. Vol. 9, Iss. 5. – P. 1–6. DOI: https://doi.org/10.1108/10748120110424816.
11. Turdimov Sh. O'chmas sira donish chirog'i // Tafakkur, 2015, №1.

Sayyora ISLOMXO'JAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tillarni o'rganish kafedrasi o'qituvchisi

"LINGVISTIK KOMPETENTLIK" TUSHUNCHASI VA UNING O'QUV JARAYONIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "lingvistik kompetentlik" tushunchasining nazariy mohiyati, mazmuni va tarkibiy komponentlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tilshunoslik kompetentligi faqat grammatik qoidalarni bilish emas, balki tilni amaliy, ijodiy va vaziyatga mos qo'llay olish mahorati sifatida talqin qilindi. Maqolada fonologik, morfologik, sintaktik va leksik komponentlarning o'quv jarayonidagi o'rni alohida ko'rib chiqildi. Shuningdek, oliy ta'lim, xususan, harbiy va huquqiy yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda lingvistik kompetentlikni shakllantirishning amaliy ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetentlik, tilshunoslik kompetentligi, fonologik komponent, morfologik komponent, sintaktik komponent, leksik komponent, ingliz tilini o'qitish, oliy ta'lim, harbiy ta'lim, o'quv jarayoni, kommunikativ ko'nikma, til o'rgatish metodikasi.

Annotation. This article analyzes the theoretical essence, content, and structural components of the concept of linguistic competence. In the research process, linguistic competence was interpreted not merely as knowledge of grammatical rules, but as the ability to use language practically, creatively, and appropriately in various communicative situations. The role of phonological, morphological, syntactic, and lexical components in the educational process was specifically examined. Furthermore, the practical significance of developing linguistic competence in teaching English at higher education institutions, particularly in military and law-enforcement focused universities, was highlighted.

Keywords: linguistic competence, language competence, phonological component, morphological component, syntactic component, lexical component, teaching English, higher education, military education, educational process, communicative skill, language teaching methodology.

Аннотация. В статье анализируются теоретическая сущность, содержание и структурные компоненты понятия лингвистической компетентности. В процессе исследования лингвистическая компетентность была интерпретирована не просто как знание грамматических правил, а как способность практически, творчески и уместно использовать язык в различных коммуникативных ситуациях. В статье была особо рассмотрена роль фонологического, морфологического, синтаксического и лексического компонентов в образовательном процессе. Также была освещена практическая значимость формирования лингвистической компетентности при обучении английскому языку в высших учебных заведениях, особенно в военных и правоохранительных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: лингвистическая компетентность, языковая компетенция, фонологический компонент, морфологический компонент, синтаксический компонент, лексический компонент, преподавание английского языка, высшее образование, военное образование, образовательный процесс, коммуникативное умение, методика преподавания языка.

Zamonaviy ta'lim tizimida til o'rgatish masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida, xususan, harbiy va huquqiy yo'nalishdagi universitetlarda ingliz tilini o'qitish muhim vazifalarga qaratilgan. Bugungi kunda til o'qitishning asosiy maqsadi nafaqat grammatik qoidalarni o'rgatish, balki tilni amaliy faoliyatda samarali qo'llay oladigan kompetentli mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, "lingvistik kompetentlik" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Lingvistik kompetentlik" tushunchasining nazariy asoslari bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Ushbu sohaning asoschilaridan biri Noam Chomskiy bo'lib, u lingvistik kompetentlikni insonning ona tilida cheksiz miqdordagi gaplarni tuzish va tushunish qobiliyati, ya'ni tilning grammatik tizimi haqidagi ichki bilimi sifatida ta'riflagan [4]. Chomskiy til bilimi (competence) bilan real nutq amaliyoti (performance) o'rtasidagi farqni asoslab bergan va bu yondashuv tilshunoslikda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan [5].

Chomskiyning nazariyasiga munosabat bildirgan olimlardan biri Dell Hymes "kommunikativ kompetensiya" atamasini ilk bor joriy qilgan [8]. Hymes tilning vaziyatga mos holda qo'llay olish qobiliyatini ta'kidlab, Chomskiyning ideal so'zlovchi modelini tanqid qilgan va tilni ijtimoiy kontekstda o'rganish zarurligini ilgari surgan [9].

Maykl Halidey tilga ijtimoiy-pragmatik vosita sifatida qaragan, uning fikricha, kompetensiya grammatikadan ko'ra funksiyalarni – yaratish, munosabat, ta'sir, bildirish kabi jihatlarni qamrab oladi [6]. U til bilimlari ijtimoiy kontekstda shakllanadi, degan yondashuvni ilgari surgan [7].

Canale va Swain esa kommunikativ kompetensiyaning uchta – grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarini ajratib ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik Canale diskurs kompetensiyasini ham qo'shgan [2]. Bu model chet tilini o'qitish metodikasida keng qo'llangan.

O'zbekistonlik olimlardan Jo'rayeva va Hojiyeva filolog-mutaxassislar uchun lingvistik kompetentlikni kasbiy kompetentlikning yadrosi deb hisoblaydi va uni grammatik, leksik, morfologik bilimlar hamda malakalar yig'indisi sifatida talqin qiladi [10]. Professor N.Uluqov lingvistik kompetensiyani "mutaxassis til bilimining mukammalligi va yetukligi" deb ta'riflab, uni bir necha ko'rinishlarda, jumladan, fikrni ona tilida ravon ifodalash, adabiy tilda so'zlash, imloviy xatolarsiz yoza olish, davlat tilida hujjat yuritish va xorijiy tillarni bilish kabi jihatlar orqali izohlagan [11]. Sh.Achilov esa leksik kompetensiyani kommunikativ kompetensiya ichidagi muhim lingvistik element sifatida o'rgangan [1].

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlari "lingvistik kompetentlik" tushunchasi, uning mazmuni va tarkibiy komponentlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Biz maqolada lingvistik kompetentlikning fonologik, morfologik, sintaktik va leksik komponentlarini tahlil qilinib, ularning oliy harbiy ta'limda ingliz tilini o'qitish jarayonidagi o'rnini yoritishga harakat qildik. Asosiy maqsadimiz lingvistik kompetentlikning nazariy asoslarini ochib berish va uni harbiy ta'limda qo'llashning amaliy ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

"Lingvistik kompetentlik" tushunchasi, uning mazmuni va tarkibiy komponentlarini o'rganish jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil metodi – lingvistik kompetentlikka oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy

qarashlari, shuningdek, tilshunoslik va pedagogika sohasidagi ilmiy ishlar tahlil qilindi. Ushbu metod orqali lingvistik kompetentlik tushunchasining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi.

2. Qiyosiy-taqqoslash metodi – turli olimlarning (Chomskiy, Hymes, Halliday, Canale va Swain, Jo'rayeva, Uluqov, Achilov va bosh.) lingvistik kompetentlikka oid nazariyalari o'zaro solishtirildi. Ushbu metod yordamida olimlarning qarashlaridagi o'xshashlik va farqli jihatlar aniqlanib, mavzuga oid yaxlit ilmiy manzara shakllantirildi.

3. Analiz va sintez metodi – lingvistik kompetentlikning tarkibiy komponentlari (fonologik, morfologik, sintaktik va leksik) alohida-alohida tahlil qilindi (analiz), so'ngra ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlit tizim sifatidagi ahamiyati umumlashtirildi (sintez).


4. Tizimli yondashuv metodi – lingvistik kompetentlik til o'qitish jarayonining ajralmas qismi sifatida o'rganildi. Ushbu metod orqali kompetentlikning barcha komponentlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilib, ularning oliy harbiy ta'limdagi ingliz tili o'qitish jarayonidagi o'rni tizimli ravishda yoritildi.

5. Metodik-tavsiyaviy tahlil – oliy harbiy ta'limda ingliz tilini o'qitish amaliyotida lingvistik kompetentlikni shakllantirishga oid mavjud metodik yondashuvlar o'rganilib, ularning samaradorligi tahlil qilindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomada respublikamizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalaridan jami 247 nafar respondent qatnashdi (1-jadval).

1-jadval. So'rovnomada ishtirok etgan kursantlar soni

№	Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan muassasa va harbiy qismlar	Guruhlarning bo'linishi		Umumiy kursantlar soni
		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	
1.	O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti	29	30	59
3. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R., Gordon D.L., Scalese R.J. Features and Uses of High-fidelity Medical Simulations that Lead to Effective Learning: A BEME Systematic Review // Medical Teacher, 2005, vol. 27, No.1.
3. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. New York: David McKay, 1956.
6. Драндрова Е.Г., Павлова С.И., Джамалдинова Ш.О. и др. Иностранный студент университета: адаптация, обучение, здоровье. Чебоксары: Изд-во Чувашского ГУ, 2024.
7. Джамалдинова Ш.О. Формирование эмоционально-коммуникативной культуры будущего медицинского работника // Высшее образование в эпоху глобальных трансформаций / Материалы XV Международной учебно-методической конференции, Чебоксары, 2023.
8. Джамалдинова Ш.О. Развитие навыков эмоционального общения студентов-медиков в процессе профессиональной подготовки // Межкультурная коммуникация в образовании и медицине, 2023, №3.
9. Абиева Н.М., Джамалдинова Ш.О. Этика общения как ключевой аспект дисциплины «Культура речи врача» в медицинском вузе // Мир науки, культуры, образования, 2023, №5 (102).
10. Абиева Н.М., Джамалдинова Ш.О. Аксиологический потенциал художественного текста в формировании межкультурной компетенции иностранных студентов // Межкультурная коммуникация в образовании и медицине, 2023, №2.

To'lqinjon G'OFUROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'QUV AMALIYOTI JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY MOBILLIGINI DUAL TA'LIM ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'lim tizimining imkoniyatlari va afzalliklari tahlil qilingan. Dual ta'limning nazariy-metodologik asoslari, ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'quv amaliyoti davomida talabalarning kasbiy moslashuvchanligi, amaliy ko'nikmalari, mustaqil qaror qabul qilish va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: dual ta'lim, o'quv amaliyoti, kasbiy mobillik, kasbiy kompetensiya, metodika, mehnat bozori, amaliy tayyorgarlik, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.
Annotation. This article analyzes the opportunities and advantages of the dual education system in developing students' professional mobility during the process of practical training. The article highlights the theoretical and methodological foundations of dual education, the mechanisms of cooperation between educational institutions and industrial enterprises, and its role in shaping students' professional competencies. In addition, methodological approaches aimed at developing students' professional adaptability, practical skills, independent decision-making abilities, and the capacity to adjust to the changing demands of the labor market during practical training have been developed.
Keywords: dual education, practical training, professional mobility, professional competence, methodology, labor market, practical preparation, integration of education and industry.
Аннотация. В статье проанализированы возможности и преимущества системы дуального образования в развитии профессиональной мобильности студентов в процессе учебной практики. Освещены теоретико-методологические основы дуального образования, механизмы сотрудничества между образовательными учреждениями и производственными предприятиями, а также его роль в формировании профессиональных компетенций студентов. Кроме того, разработаны методические подходы, направленные на развитие профессиональной адаптивности студентов, их практических навыков, способности к самостоятельному принятию решений и адаптации к изменяющимся требованиям рынка труда в период прохождения учебной практики.
Ключевые слова: дуальное образование, учебная практика, профессиональная мобильность, профессиональная компетенция, методика, рынок труда, практическая подготовка, интеграция образования и производства.

Jahon ta'limida jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabning tobora ortib borishi ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Globallashuv jarayonida mehnat bozorining shiddat bilan o'zgarishi ta'lim tizimi oldiga nafaqat nazariy bilimga ega, balki o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga tez moslashuvchan, raqobatbardosh va kasbiy mobil mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim sifatini oshirish mamlakatning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni integrativ hamda innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarda kasbiy mobillikni ta'minlashda dual ta'limning yuqori natija berishini ko'rsatmoqda. Shu bois, oliy ta'lim jarayoniga dual ta'lim tamoyillarini joriy etish, ta'lim muassasasi va amaliyot bazalari o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish hamda zamonaviy oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yishning mustahkam me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 3–4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlarini "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijro etishda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini dual ta'lim va klasterli yondashuv asosida rivojlantirish, ularning o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashuvchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ faoliyat – bu shaxslarning o'zaro va guruhlar o'rtasida ma'lumot, g'oyalar, fikr hamda hissiyotlar almashinuvini o'z ichiga olgan inson faoliyatining bir turi bo'lib, uning mohiyati ma'noni yetkazish va shaxslar yoki odamlar guruhlari o'rtasida munosabatlarni o'rnatishdan iborat. Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik faoliyatni takomillashtirishga asos bo'luvchi muhim omil hisoblanadi. Kommunikativ mahoratning tartibsiz ravishda rivojlanishi ko'pincha muloqotning avtoritar uslubiga, tez-tez ziddiyatli vaziyatlarning paydo bo'lishiga, pedagog va ta'lim oluvchilar munosabatlarida keskinliklar kelib chiqishiga, o'zlashtirish va o'qish istagining pasayishiga hamda ruhiy shikastlanishlarga olib kelishi kuzatiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, irodaviy sifatlari, intellektual salohiyati, hissiy sifatlari, amaliy ko'nikmalari va o'z-o'zini boshqara olish layoqatlari o'zaro bog'liqlikda hamda shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi. Yevropa davlatlarida shakllangan an'analarga muvofiq, pedagogning

kommunikativ kompetensiyasi va uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasi bilan o'lchanadi. Demak, pedagogik kompetensiya o'qituvchi faoliyatida ko'p qirrali obyekt bo'lib xizmat qiladi. Bunday tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchining umumiy va maxsus tayyorgarligining ma'lum bir darajasiga erishishini hamda zarur kasbiy bilimlarni rivojlantirishni talab etadi.

Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik o'quv amaliyotlari dasturiga integral yondashuvni tatbiq etish va talabalarning kasbiy-pedagogik yo'nalishini shakllantiruvchi tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, refleksiv hamda kreativ faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish.

Ularning o'qituvchi sifatida ishlashga tayyorgarligini rivojlantiruvchi metodik tizim loyihasini ishlab chiqish.

O'quv amaliyoti jarayonini integral tizimli tashkil etish pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, tarkibiy qismlari, qonuniyatlari va tamoyillariga asoslanadi. Integral tizimli yondashuv o'quv amaliyotini obyektiv va subyektiv boshqarish imkonini beradi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarini umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan o'zaro integral aloqadorlikda harakat qilishini aniq rejalashtirish, o'quv amaliyot jarayonini tizimli tashkil etish va nazorat qilish choralarini ko'rish nazarda tutiladi. O'quv amaliyoti deganda talabaning pedagogik muhitga moslashuviga qaratilgan, o'qitishning muayyan vosita va usullaridan foydalangan holda ta'lim mazmunini amalga oshiruvchi o'qituvchi va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan o'zaro hamkorligi tushuniladi.

Refleksiv faoliyat pedagogik jarayonda refleksiv muhitni vujudga keltirish, talabalarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuga, uning ahamiyati hamda mazmun-mohiyatiga qiziqishini shakllantirish asosida ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Refleksiya muayyan hodisalar, shart-sharoitlar va jarayonlarni tahliliy jihatdan o'rganishni ifodalaydi. Refleksiya jarayonlari bo'lajak mutaxassisning kasbiy-madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

O'quv amaliyoti uslubiy jihatdan malakali mutaxassisni tayyorlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi. U oliy o'quv yurtida pedagogika, psixologiya, xususiy metodika hamda ijtimoiy-gumanitar fanlardan olingan bilimlarni amaliyotda mustahkamlashga va boyitishga imkon yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashni yanada tizimli tashkil etish va ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

1. Bo'lajak pedagoglarni kreativ va motivatsion qobiliyatlarga ega shaxs sifatida e'tirof etish, o'quvchi shaxsini rivojlantirish hamda ijtimoiy muhitni shakllantirish.
2. Bo'lajak o'qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligi birligi orqali ularning psixologik-pedagogik hamda uslubiy kompetensiyalarini shakllantirish.
3. Amaliyotning tashqi so'rovlarga ochiqligini ta'minlash, talabalarning bilim sifatini doimiy ravishda oshirish uchun ish beruvchilar, ota-onalar va talabalar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.
4. O'quv amaliyoti vazifalarini davlat ta'lim standartlari talablari va ta'limdagi zamonaviy tashabbuslarga yo'naltirish.
5. O'quv faoliyatiga yo'naltirilgan iqtidorli talabalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash.

Ushbu vazifalar talabalarning pedagogik amaliyot mazmunini o'zlashtirishi, usul va shakllarini qo'llashini uch bosqichda amalga oshirishni talab etadi:

- **Birinchi bosqich** – o'z faoliyatining mazmunini anglash, o'z shaxsiyligini kasbiy-pedagogik pozitsiyaning asosi sifatida tushunish va ichki tayyorgarlikka erishish.
- **Ikkinchi bosqich** – o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish, tarbiyaviy tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish, ilg'or ish tajribalarini tahlil qilish.
- **Uchinchi bosqich** – bo'lajak o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi, uning kasbiy faoliyati va xulq-atvorini insonparvarlashtirishning konseptual asosiga aylanishi.

O'quv amaliyoti talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktabi sharoitida pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid o'quv mashg'uloti bo'lib, quyidagi maqsadli vazifalarni bajaradi:

1. Talabalarda amaliyot obyekti bilan ishlashda o'ziga bo'lgan ishonchni hosil qilish, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
2. Talabalarga mashg'ulotlarni o'tkazish davomida ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalarini belgilash va ularni amalda bajarishni o'rgatish.
3. Talabalarni sinf rahbari sifatida o'quvchilar bilan darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borishga o'rgatish.
4. Talabalarning sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasi bilan tanishishini ta'minlash hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.
5. O'quv-tarbiyaviy ishlarda pedagogik tajribani dogmatik yondashuvlar asosida emas, balki ijodiy va tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. М.: Просвещение, 1989.
2. Абдуллина О.А. Демократизация образования и подготовка специалистов: проблемы и поиски // Высшее образование в России, 1996, №1.
3. Абульханова-Славская К.А. О субъекте психической деятельности. М.: Наука, 1973.
4. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. М.: Наука, 1980.
5. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.: Мысль, 1991.
6. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: В 2-х т. / Под ред. А.А. Бодалева, Б.Ф. Ломова. М.: Педагогика, 1980. – 223 с.
7. Анисимов В.В., Грохольская О.Г. Подготовка будущих учителей по предметам педагогического цикла // Педагогика, 2000, №9.

Inoyatxon NORMAHAMATOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

KOLLABORATIV YONDASHUVNING TURLI YOSH BOSQICHLARIDAGI O'QUVCHILARGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TA'SIRINI QIYOSIY O'RGANISH

Annotatsiya. Zamonaviy pedagogikada o'quv jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Kollaborativ yondashuv o'quvchilar faolligini oshirishda samarali bo'lsa-da, uning turli yosh bosqichlaridagi o'quvchilarga pedagogik-psixologik ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda kichik maktab yoshi (7–9 yosh) va o'smirlik davridagi (13–14 yosh) o'quvchilarning kognitiv hamda ijtimoiy-psixologik rivojlanish xususiyatlari kollaborativ ta'lim sharoitida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida o'quvchilarning motivatsiyasi, kommunikativ kompetensiyasi hamda yaqin rivojlanish zonasi dinamikasi o'rganildi. Natijalar kollaborativ yondashuvning yosh xususiyatlariga ko'ra turlicha ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda egotsentrizmning kamayishi va kommunikativ empatiyaning rivojlanishi kuzatilgan bo'lsa, kognitiv mustaqillikning shakllanishida o'qituvchining yo'naltiruvchi roli muhimligi saqlanib qoldi. O'smirlar guruhida esa intellektual bahs-munozaralar tanqidiy fikrlash, metakognitiv ko'nikmalar hamda nizolarni mustaqil hal etish qobiliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kollaborativ yondashuv, yosh davrlari psixologiyasi, yaqin rivojlanish zonasi, kognitiv konflikt, retranslyatsiya modeli, kognitiv dissonans, psixologik diskomfort, ijtimoiy dangasalik, jigsaw, subyekt-subyekt interaksiyasi.

Annotation. Organizing the educational process on the basis of subject–subject interaction is one of the priority issues in modern pedagogy. Although the collaborative approach effectively enhances students' learning engagement, its pedagogical and psychological impact across different developmental stages has not been sufficiently investigated. This study presents a comparative analysis of the cognitive and socio-psychological characteristics of primary school students (aged 7–9) and adolescents (aged 13–14) in the context of collaborative learning. The research employed qualitative and quantitative methods to examine students' motivation, communicative competence, and the dynamics of the zone of proximal development. The findings indicate that the effectiveness of the collaborative approach varies according to learners' age. Among primary school students, collaborative learning contributed to a reduction in egocentrism and the development of communicative empathy, while the teacher's guiding role remained essential for fostering cognitive independence. In the adolescent group, intellectual discussions promoted the development of critical thinking, metacognitive skills, and the ability to resolve conflicts independently.

Keywords: collaborative approach, developmental psychology, zone of proximal development, cognitive conflict, retranslation model, cognitive dissonance, psychological discomfort, social loafing, jigsaw, subject-subject interaction.

Аннотация. Организация образовательного процесса на основе субъект-субъектного взаимодействия является одной из актуальных задач современной педагогики. Несмотря на высокую эффективность коллаборативного подхода в повышении учебной активности, его педагогическое и психологическое воздействие на обучающихся разных возрастных групп изучено недостаточно. В статье представлен сравнительный анализ когнитивных и социально-психологических особенностей учащихся младшего школьного возраста (7–9 лет) и подростков (13–14 лет) в условиях коллаборативного обучения. Исследование основано на качественных и количественных методах анализа мотивации, коммуникативной компетентности и динамики зоны ближайшего развития обучающихся. Результаты показали, что эффективность коллаборативного подхода зависит от возрастных особенностей учащихся. У младших школьников отмечены снижение эгоцентризма и развитие коммуникативной эмпатии, при этом сохраняется значимая роль учителя в формировании когнитивной самостоятельности. У подростков интеллектуальные дискуссии способствовали развитию критического мышления, метакогнитивных навыков и способности самостоятельно разрешать конфликтные ситуации.

Ключевые слова: коллаборативный подход, возрастная психология, зона ближайшего развития, когнитивный конфликт, модель ретрансляции, когнитивный диссонанс, психологический дискомфорт, социальная леность, jigsaw (пазл), субъект-субъектное взаимодействие.

XXI asrning jadal rivojlanayotgan axborot makoni va yuqori texnologiyalar taraqqiyoti global mehnat bozori hamda zamonaviy ta'lim tizimi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasalari o'quvchilardan nafaqat puxta nazariy bilimlarni, balki moslashuvchanlik, ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini (soft skills) ham egallashni talab etmoqda.

Jahon iqtisodiy forumi va UNESCOning strategik hujjatlarida ta'kidlanganidek, tizimli tahlil, tanqidiy fikrlash, kognitiv moslashuvchanlik hamda jamoada samarali hamkorlik qilish zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ta'lim oluvchini passiv tinglovchidan bilimni faol o'zlashtiruvchi va yaratuvchi subyektga aylantirishdan iborat. Shu bois ta'lim amaliyotida axborotni uzatishga asoslangan an'anaviy modeldan voz kechilib, o'quvchining kognitiv mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi konstruktivistik yondashuvlarga ustuvorlik berilmoqda.

Ana shunday yondashuvlardan biri bo'lgan **kollaborativ ta'lim** o'quvchilarning umumiy maqsad yo'lida kichik guruhlarda hamkorlikda faoliyat yuritishini ta'minlaydi. U nafaqat guruhda ishlash shakli, balki ta'lim oluvchilar o'rtasida bilim va tajribani hamkorlikda yaratishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik tizim ham hisoblanadi.

Kollaborativ ta'limning nazariy asoslari L.Vigotskiy, J.Piaje va J.Dyuining psixologik hamda epistemologik qarashlariga tayanadi. Xususan, L.Vigotskiyning "Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi" va uning tarkibiy qismi bo'lgan "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi kollaborativ ta'limning muhim ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi. Vigotskiy ta'kidlaganidek: "Insonning intellektual rivojlanishini u atrofdagilar bilan o'zaro ijtimoiy munosabatga kirishadigan madaniy kontekstdan ayri holda tushunib bo'lmaydi. Bola avval boshida har qanday funksiyani ijtimoiy munosabatlar jarayonida (interpsixik), so'ngra o'zining ichki intellektual akti sifatida (intrapsixik) o'zlashtiradi" [1: 86].

J.Piajening "kognitiv konflikt" nazariyasiga ko'ra, guruh ichidagi o'zaro ta'sir o'quvchilarda kognitiv dissonansni (bilimlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni) yuzaga keltiradi. Bu esa shaxsni mavjud intellektual sxemalarni qayta ko'rib chiqish va yangi tushunchalarni shakllantirishga undaydi [2: 45]. Biroq zamonaviy maktab amaliyotida muhim metodologik muammo kuzatilmoqda: kollaborativ metodlar

ko'pincha o'quvchilarning ontogenetik, ya'ni yoshga doir rivojlanish xususiyatlari hamda yetakchi faoliyat turlarini inobatga olmagan holda yagona model asosida qo'llanmoqda. Natijada ta'lim samaradorligi pasayishi va o'quvchilar o'rtasida psixologik diskomfortning yuzaga kelishi kuzatiladi.

D.Elkonin va V.Davidovning yosh davrlari tasnifiga ko'ra, kichik maktab yoshidagi (7–9 yosh) o'quvchilarning yetakchi faoliyati o'quv faoliyati hisoblanadi. Biroq ularning motivatsion sohasi hali ham hissiy rag'bat, yaqin kattalar (o'qituvchi)ning e'tirofi hamda o'yin elementlariga bog'liq bo'ladi. Bu davrda ixtiyoriy diqqat va refleksiv fikrlash shakllanish bosqichida bo'ladi. Aksincha, o'smirlik davrida (13–14 yosh) yetakchi faoliyat tizimi o'zgarib, tengdoshlar bilan intim-shaxsiy munosabatlar *(interpersonal communication)* ustuvor ahamiyat kasb etadi [3: 112].

O'smirlar uchun tengdoshlar guruhi tomonidan e'tirof etilish va undagi ijtimoiy mavqe o'qituvchi fikriga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shu metodologik ziddiyatlardan kelib chiqib, tadqiqotning ilmiy muammosi quyidagicha shakllantirildi: kollaborativ yondashuv turli yosh guruhlaridagi o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga qanday moslashtirilishi zarur va uning kognitiv hamda ijtimoiy-adaptiv ta'siri yosh xususiyatlariga ko'ra qanday farqlanadi?

Ushbu tadqiqotning maqsadi kollaborativ yondashuvning turli yosh guruhlaridagi o'quvchilarga ko'rsatadigan pedagogik-psixologik ta'sirini differensial (tabaqalashtirilgan) asosda qiyosiy tahlil qilish hamda uni optimallashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini empirik, qiyosiy va pedagogik-psixologik monitoring usullari tashkil etdi. Ishtirokchilarni tanlashda yosh xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan, tasodifiy bo'lmagan maqsadli tanlanma usulidan foydalanildi. Ishtirokchilar yosh davrlariga muvofiq uchta eksperimental guruhga ajratildi: 1-guruh – kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (3–4-sinf), 2-guruh – o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (7–8-sinf), 3-guruh – katta maktab yoshidagi o'quvchilar (10–11-sinf).

Intervensiya jarayonida quyidagi hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari tizimli ravishda qo'llanildi:

– Jigsaw (mozaika) metodi. O'quv materialini qismlarga ajratish va guruh a'zolarining "ekspert" sifatida o'zaro tushuntirish faoliyatini tashkil etish (asosan 2–3-guruhlarda);

– **Think-Pair-Share (O'yla–Juftlash–Ulash) texnikasi.** Muammoli savolni dastlab individual tahlil qilish, keyin juftlikda muhokama etish va yakunda guruh ishtirokchilariga taqdim etish (asosan 1–2-guruhlarda);

– **Keys-stadi va Peer-assessment (o'zaro baholash) metodlari.** Real hayotga yaqin muammoli vaziyatlarni guruhda hal qilish hamda ishtirokchilarning ishlarini belgilangan mezonlar asosida o'zaro baholash (asosan 3-guruhda).

Pedagogik ta'sir jarayonida o'qituvchining roli "bilim beruvchi" maqomidan "yo'naltiruvchi-fasilitator" vazifasiga transformatsiya qilindi.

Tadqiqot davomida

– o'quv dasturi doirasida ishlab chiqilgan standartlashtirilgan testlar hamda muammoli topshiriqlar majmuasidan foydalanildi. Test topshiriqlari Blum taksonomiyasining "qo'llash", "tahlil" va "sintez" bosqichlariga mos ravishda ishlab chiqildi;

– guruh ichidagi ijtimoiy rollar, o'zaro aloqalar va emotsional munosabatlarni aniqlash maqsadida L.Mitevaning sotsiometriya metodikasidan foydalanildi. Ushbu metod guruh a'zolarining bir-birini qabul qilish darajasi hamda sotsiometrik statuslar (liderlar, rad etilganlar, passivlar) dinamikasini aniqlash imkonini berdi;

– har bir hamkorlik darsida o'quvchilarning interfaol va nutqiy faolligi, emotsional reaksiyalari hamda destruktiv xulq-atvor ko'rinishlari (konflikt, ijtimoiy dangasalik) oldindan ishlab chiqilgan strukturaviy kuzatuv bayonnomalari asosida qayd etib borildi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar guruh faoliyati jarayonida mas'uliyatni taqsimlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keldilar. Ularda egotsentrik fikrlash, ya'ni asosan o'z qarashlarini to'g'ri deb qabul qilish tendensiyasi ustun bo'ldi. Biroq "juftlikda ishlash" shaklida o'zaro yordam va hamkorlik ko'rsatkichlari yuqori darajada namoyon bo'ldi.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar guruhida kollaborativ faoliyat eng yuqori ijtimoiy faollikni namoyon etdi. O'smirlar uchun darsning akademik mazmuni bilan bir qatorda guruhdagi o'z mavqei va muloqot jarayoni ham muhim ahamiyat kasb etdi. Liderlikka intilish natijasida guruhlar ichida raqobat holatlari kuchaydi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilar metakognitiv (o'z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish) qobiliyatlarini namoyon etdilar. Ular topshiriqlarni pragmatik yondashuv asosida qisqa vaqt ichida samarali rejalashtirib va taqsimlab bajardilar.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, kollaborativ yondashuvning psixologik mohiyati yosh xususiyatlarining rivojlanishi bilan subyekt-obyekt munosabatlaridan subyekt-subyekt interaksiyasiga tomon transformatsiyalanadi.

Kichik maktab yoshidagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshida o'quvchilarning diqqat hajmi nisbatan cheklangan bo'ladi. J.Piaje ta'limotiga ko'ra, ushbu davrda bola "aniq operatsiyalar bosqichi"da rivojlanadi. Shu sababli ularda mavhum jamoaviy maqsadlarni anglash qiyin kechishi mumkin. Shuning uchun guruhli faoliyat o'qituvchining faol moderatorligi asosida tashkil etilishi zarur. Mazkur yosh bosqichida hamkorlik, avvalo, empatiya, o'zaro tinglash va boshqalarning fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'smirlik davridagi muloqot xususiyatlari. O'smirlar guruhida akademik rivojlanish ko'rsatkichlarining oshishi ularning muloqotga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi bilan izohlanadi. D. Elkonin nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davrida yetakchi faoliyat turi intim-shaxsiy muloqot hisoblanadi. Kollaborativ muhit ularga ushbu ehtiyojni ta'lim jarayonida qondirish imkonini beradi. Biroq bu bosqichda "ijtimoiy dangasalik" *(social loafing)* hodisasi ham kuzatildi: guruhdagi ayrim passiv o'quvchilar liderlar faoliyatiga tayanib, mustaqil ishtirok etishdan qochishga harakat qildilar.

Katta maktab yoshidagi pragmatizm va metakognitiv rivojlanish. Katta maktab yoshidagi o'quvchilar nisbatan yuqori akademik natijalarni namoyon etdilar. Bu davrda "rasmiy operatsiyalar" *(formal operations)* va refleksiv fikrlash qobiliyatlari shakllangan bo'ladi. Ular hamkorlikni vaqtni samarali taqsimlash va muammolarga turli nuqtayi nazardan yechim topish (divergent fikrlash) vositasi sifatida qabul qiladilar. Mazkur guruhda o'zaro baholash *(peer-assessment)* va tanqidiy tahlil metodlari samarali yondashuv sifatida namoyon bo'ldi.

Kollaborativ yondashuv barcha yosh bosqichlaridagi o'quvchilarning kognitiv

va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan strategiyani talab etadi:

Boshlang'ich sinflarda kollaborativ faoliyatni kichik guruhlarda (2–3 nafar o'quvchi) va qisqa muddatli (10–15 daqiqa) o'yin elementlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur yosh bosqichida o'quvchilar ko'p sonli guruhlarda diqqatni samarali jamlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli hamkorlik topshiriqlari qisqa muddatli, vizual hamda o'yin komponentlari (rolli o'yinlar, elementar applikatsiyalar) bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Bunday guruhlarda pedagog moderator sifatida faoliyat yuritib, rollarni taqsimlashi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan emotsional ziddiyatlarni boshqarishi zarur.

O'rta sinflarda o'smirlarning muloqotga bo'lgan yuqori ehtiyojini hisobga olgan holda loyihaviy o'qitish *(project-based learning)* usulidan keng foydalanish tavsiya etiladi. "Ijtimoiy dangasalik" hodisasining oldini olish uchun guruh bahosi bilan bir qatorda har bir ishtirokchining individual hissasini baholash tizimini (*peer-assessment* elementlari asosida) joriy etish zarur. Guruhlarni shakllantirishda o'quvchilarning bilim darajasi bo'yicha ("kuchli–o'rta–sust") muvozanatni saqlash, biroq o'zaro emotsional ziddiyatli munosabatlarga ega juftliklarni bir guruhga birlashtirmaslik tavsiya etiladi.

Katta maktab yoshidagi sinflarda o'quvchilarga guruh tarkibi, vazifalar taqsimoti va ish jarayonini rejalashtirish strategiyasini mustaqil belgilash imkoniyatini berish maqsadga muvofiq. Kognitiv chuqurlikni ta'minlash uchun keys-stadi, o'zaro taqriz, ilmiy munozara (debat) va kross-baholash metodlaridan keng foydalanish zarur. Vaqtni boshqarish *(time management)* ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida topshiriqlarni onlayn platformalar (masalan, Trello, Miro, Google Docs) orqali gibrid shaklda tashkil etish ijobiy natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, kollaborativ yondashuvni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish bilan birga, ularning kognitiv faolligi, kommunikativ kompetensiyasi hamda ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini (soft skills) rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kollaborativ ta'limning samaradorligi uni barcha yosh guruhlariga bir xil qo'llashda emas, balki o'quvchilarning rivojlanish bosqichi, yetakchi faoliyati va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishda namoyon bo'ladi. Shu bois kichik maktab yoshida o'qituvchining yo'naltiruvchi roli va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, o'smirlik davrida esa muloqot, mustaqillik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, katta maktab yoshida esa mustaqil rejalashtirish va metakognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv kollaborativ ta'limning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini yanada kengaytirib, o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – London: Kegan Paul, Trench, Trubner & Co., 1932.
3. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. М.: Педагогика, 1989.
4. Johnson D.W., Johnson R.T. An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning // Educational Researcher, 2009. Vol. 38, №5.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

Sevara KURBANOVA,
IIV Akademiyasi o'zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

AXBOROT ASRIDA O'QITUVCHINING KASBIY IDENTIFIKATSIYASI VA O'Z-O'ZIGA ISHONCHI: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot jamiyatining rivojlanishi sharoitida o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasi, o'z-o'ziga ishonchi (self-efficacy) hamda pedagogik qarashlarining o'zgarishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi o'qituvchilarning kasbiy faoliyati, pedagogik yondashuvlari va o'quv jarayonini tashkil etish usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi yoritilgan. Shuningdek, "raqamli mahalliylar" va "raqamli muhojirlar" nazariyasi tanqidiy tahlil qilinib, o'qituvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda bosqichma-bosqich yondashuv zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: axborot asri, o'qituvchi, kasbiy identifikatsiya, self-efficacy, pedagogik qarashlar, AKT, multimodal ta'lim, raqamli kompetensiya.

Annotation. This article analyzes the changes in teachers' professional identity, self-efficacy and pedagogical views in the context of the development of the information society based on scientific sources. It is highlighted that the widespread introduction of digital technologies into the education system has a significant impact on teachers' professional activities, pedagogical approaches and methods of organizing the educational process. In addition, the theory of "digital natives" and "digital immigrants" is critically analyzed, and the need for a phased approach to developing teachers' technological competence is substantiated.

Keywords: information age, teacher, professional identity, self-efficacy, pedagogical views, multimodal education, digital competence.

Аннотация. В статье на основе научных источников анализируются изменения профессиональной идентичности, самоэффективности и педагогических взглядов учителей в контексте развития информационного общества. Подчеркивается, что широкое внедрение цифровых технологий в систему образования оказывает существенное влияние на профессиональную деятельность учителей, их педагогические подходы и методы организации учебного процесса. Также критически анализируется теория «цифровых аборигенов» и «цифровых иммигрантов», обосновывается необходимость поэтапного подхода к развитию технологической компетентности учителей.

Ключевые слова: информационная эпоха, учитель, профессиональная идентичность, самоэффективность, педагогические взгляды, мультимодальное образование, цифровая компетентность.

XXI asrda ta'lim tizimining jadal raqamlashtirilishi o'qituvchining kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo'ymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida o'qituvchining an'anaviy – bilim beruvchi roli asta-sekin ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va hamkorlikni rivojlantiruvchi mutaxassis roliga almashmoqda. Shu bois o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasi, pedagogik qarashlari hamda o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini o'rganish zamonaviy pedagogikaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'limni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Jumladan, "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (PF-5847) hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, elektron ta'limni rivojlantirish va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirishni ustuvor vazifalar sifatida belgilaydi.

Professor Sh.S.Sharipov ilmiy rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'qituvchi faqat fan mazmunini mukammal bilishi bilan cheklanmasdan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish kompetensiyasiga ham ega bo'lishi zarur.

Professor U.U.Jumanazarovning tadqiqotida ta'kidlanishicha, raqamli ta'lim muhiti o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi [9: 75].

Xorij olimlari New London Group ilgari surgan ko'p savodxonlik (multiliteracies) konsepsiyasi raqamli va multimodal ta'limning nazariy asoslarini shakllantirdi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, zamonaviy ta'lim nafaqat matn bilan ishlashni, balki vizual, audio va raqamli axborotni ham samarali tahlil qilish kompetensiyasini talab etadi.

O'qituvchining kasbiy identifikatsiyasining transformatsiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini qayta shakllantirmoqda. Berger va Luckmann kasbiy identifikatsiyani ikkilamchi ijtimoiylashuv natijasi sifatida izohlaydi. Mazkur jarayonda shaxs kasbiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirib, o'zining professional faoliyatini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar ta'lim muhitiga kirib kelishi bilan o'qituvchilar yangi pedagogik vazifalarni bajarishga majbur bo'lmoqda. Bu holat ayrim pedagoglarda kasbiy noaniqlik, o'z imkoniyatlariga nisbatan shubha va moslashish qiyinchiliklarini yuzaga keltiradi. Mazkur holat Vygotskiyning "perejivanie" tushunchasi orqali ham izohlanadi.

Pedagogik qarashlar o'qituvchilarning texnologiyadan foydalanish usullarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Pajares [6: 352] e'tiqodlarni inson faoliyatini boshqaruvchi murakkab psixologik tizim sifatida tavsiflaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni mavjud tajribasi va qadriyatlari asosida baholaydilar.

Cuban [2:211] ta'kidlaganidek, texnologiyalarni ta'limga joriy etish faqat texnik imkoniyatlar bilan emas, balki maktab muhiti, rahbariyat qo'llab-quvvatlashi hamda o'qituvchilarning pedagogik falsafasi bilan ham uzviy bog'liqdir.

O'qituvchining kasbiy samaradorligi (Self-efficacy) haqida Bandura nazariyasiga ko'ra, self-efficacy insonning ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga bo'lgan ishonchini anglatadi. Ta'lim jarayonida yuqori self-efficacyga ega o'qituvchilar innovatsion texnologiyalarni qo'llashga, yangi metodlarni sinab ko'rishga va murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali hal etishga harakat qiladi. Honey [5: 326] va Moeller [5: 412], Becker [2: 291] hamda Ertmer [4: 170] tadqiqotlari konstruktivistik yondashuvni qo'llaydigan o'qituvchilar texnologiyalarni samaraliroq integratsiya qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, texnologiyaga oid ijobiy qarashlar har doim ham amaliyotda to'liq namoyon bo'lmasligi aniqlangan.

Raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchi bilim manbai emas, balki ta'lim jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi va hamkori sifatida faoliyat yuritadi. Bunday sharoitda o'quvchilar mustaqil izlanish olib boruvchi va bilim yaratuvchi subyektga aylanadi. Shu sababli zamonaviy pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur:

- raqamli texnologiyalarni pedagogik maqsadlarda qo'llash;
- multimodal ta'lim muhitini tashkil etish;
- loyiha faoliyatini boshqarish;
- hamkorlikdagi ta'limni rivojlantirish;
- reflektiv va tanqidiy fikrlashni shakllantirish.

Axborot asri o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasi va pedagogik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish faqat texnik ko'nikmalarni rivojlantirish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon o'qituvchilarning pedagogik qarashlari, kasbiy o'zligini anglash, refleksiya va o'z-o'ziga ishonchini rivojlantirishni ham talab qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston olimlari Sharipov, U.Jumanazarov va xorijiy olimlar Bandura, Prensky, Cuban, Ertmerlatning qarashlari o'zaro uyg'unlashadi. Ularning barchasi zamonaviy o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati faqat fan bo'yicha bilim bilan emas, balki raqamli kompetensiya, kasbiy identifikatsiya, innovatsion pedagogik faoliyat va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonch (self-efficacy) bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi. Shu bois axborot asrida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish dasturlari texnik ko'nikmalarni o'rgatish bilan cheklanmay, ularning pedagogik qarashlari, refleksiv faoliyati va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga ham yo'naltirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H.Freeman and Company, 1997.
2. Becker H.J. How are teachers using computers in instruction? // Center for Research on Information Technology and Organizations, 2001. – P. 1–42.
3. Cuban L. Oversold and Underused: Computers in the Classroom. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001.
4. Ertmer P.A. Teacher pedagogical beliefs: The final frontier in technology integration? // Educational Technology Research and Development, 2005. Vol. 53, №4. – P. 25–39.
5. Honey M., Moeller B. Teachers' Beliefs and Technology Integration: Different Implications for School Reform (Technical Report №8). – New York: Center for Children and Technology, Bank Street College of Education, 1990.
6. Pajares M.F. Teachers' beliefs and educational research: Cleaning up a messy construct // Review of Educational Research, 1992. Vol. 62, №3. – P. 307–332.
7. Prensky M. Digital natives, digital immigrants // On the Horizon, 2001. Vol. 9, №5. – P. 1–6.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
9. Jumanazarov U.U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. d-ri diss. avtoref.... – Jizzax, 2021. – 89 b.
10. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Gulhayo TOLIBOVA,
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 196-maktabning o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

KOMPETENSIYAVIY TA'LIMDA MATNNING DIDAKTIK SALOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetensiyaviy ta'lim sharoitida matnning didaktik imkoniyatlari, o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni hamda ta'lim jarayonidagi metodik ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida matnning lingvistik, kommunikativ va didaktik xususiyatlari, shuningdek, matn turlari, uslubiy va janriy yondashuvlar asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, matn yaratish va samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida matn bilan ishlashning zamonaviy metodik imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: matn, didaktika, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, diskurs, lingvodidaktika, metodika, uslub, janr.

Annotation. This article analyzes the didactic potential of text in competency-based education, its role in developing students' speech and communicative competencies, and its methodological significance in the learning process. The study highlights the linguistic, communicative, and didactic features of text, as well as the role of genre and stylistic approaches in developing students' abilities to think independently, analyze, create texts, and communicate effectively. Furthermore, it discusses modern methodological opportunities for working with texts within the framework of a competency-based approach.

Keywords: text, didactics, competency-based approach, communicative competence, discourse, linguodidactics, methodology, style, genre.

Аннотация. В статье в условиях компетентностного образования анализируются дидактический потенциал текста, его роль в развитии речевых и коммуникативных компетенций учащихся, а также методическое значение в образовательном процессе. В процессе исследования освещаются лингвистические, коммуникативные и дидактические особенности текста, а также возможности использования жанрового и стилистического подходов для формирования навыков самостоятельного мышления, анализа, создания текстов и эффективного общения. Также раскрываются современные методические возможности работы с текстом на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: текст, дидактика, компетентностный подход, коммуникативная компетенция, дискурс, лингводидиктика, методика, стиль, жанр.

Har bir xalqning o'zligi va hayotiyligi uning tili, madaniyati hamda qadriyatlari bilan belgilanadi. Jamiyat poydevori hisoblangan ushbu uch omil ichida, ayniqsa, til doimiy harakatda va o'zgarishdadir. Zero, globallashuv davrida hayotimizga kirib kelayotgan barcha yangi tushuncha va g'oyalar, eng avvalo, til vositasida shakllanadi va uni boyitadi.

O'zbek tilining nufuzini yuksaltirish yo'lida davlat darajasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrda qabul qilgan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni ona tilimizni asrash va uning davlat tili sifatidagi mavqeini tubdan oshirishda yangi davrni boshlab berdi [1]. Mazkur hujjat ta'lim maskanlarida o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilash hamda tilni bilish darajasini xolis baholash tizimini joriy etishni nazarda tutadi. Bu tizimli o'zgarishlar ona tilimizning zamon talablariga mos ravishda, tizimli va izchil rivojlanishi uchun keng yo'l ochadi.

Ona tili ta'limida zamonaviy yondashuvlar tizimi, avvalo, o'quvchi shaxsini nutqiy faoliyat subyekti sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda matn bilan ishlash didaktik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi didaktik paradigmalarda til birliklarini faqat me'yoriy-grammatik ko'nikmalar majmuasi sifatida emas, balki muloqot, tafakkur va ijtimoiy tajriba almashinuvi vositasi sifatida o'rgatish ustuvor hisoblanadi; shuning uchun ham ta'lim mazmuni "til haqida bilim"dan "til orqali faoliyat"ga, ya'ni kompetensiyaviy natijalarga siljiydi [2: 269].

Tilni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi nutqiy vaziyatlarni tahlil qilish, maqsadga muvofiq ifoda vositalarini tanlash, matnni anglash va yaratish, baholash hamda qayta ishlash kabi amaliy harakatlarni bajaradi; bularning barchasi esa matn tushunchasini ona tili o'qitishining nazariy va metodik tayanchi sifatida ko'rishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, "matn" ona tili ta'limida faqat o'qish materiali emas, balki o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi, til tizimi va nutq jarayonini birlashtiruvchi, muloqotning real birliklarini namoyon qiluvchi murakkab lingvopsixologik hodisa hisoblanadi.

Zamonaviy lingvodidaktik qarashlarda matn bilan ishlash kompetensiyaviy natijalar bilan bevosita bog'lanadi. Kommunikativ kompetensiya, xususan, grammatika va leksika bilimlari bilan cheklanmay, diskursiv kompetensiya (matnni tashkil etish, izchillikni saqlash, janr talablari), sotsiokulturni kompetensiya (nutq vaziyatiga moslik), strategik kompetensiya (muloqotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish strategiyalari) kabi tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi.

Ona tili darslarida matnni tahlil qilish va yaratish bo'yicha topshiriqlar o'quvchining aynan diskursiv va pragmatik ko'nikmalarini shakllantiradi: u matnning maqsadi, adresati, kommunikativ vaziyati, janri va uslubini anglab, shunga mos ifoda vositalarini tanlaydi. Shu bilan birga, matn bilan ishlash o'quvchining tanqidiy fikrlashini ham qo'zg'atadi: axborotni ajratish, dalil va fikrni farqlash, muallif pozitsiyasini aniqlash, implikatsiyalarni ochish, baholash mezonlarini qo'llash kabi intellektual amallar matnning mazmuniy qatlamida amalga oshiriladi.

Matn tushunchasining ta'limdagi nazariy va amaliy ahamiyatini asoslashda diskurs nazariyasi muhim metodologik yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, matn ijtimoiy-kommunikativ faoliyat jarayonida vujudga keladigan va ma'no hosil qiluvchi dinamik hodisa hisoblanadi. Diskurs muallif, matn hamda o'quvchi (tinglovchi) o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ma'no konstruksiyalash jarayonini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, ona tili ta'limida matnni faqat lingvistik tuzilma yoki strukturaviy birlik sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vaziyat, pragmatik maqsad va ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog'liq bo'lgan diskursiv hodisa sifatida talqin etish muhimdir. Bunday yondashuv o'quvchilarda matnni ko'p qirrali tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirib, ularni nafaqat matn mazmunini anglashga, balki muallifning kommunikativ niyati, adresati, nutq strategiyasi hamda ko'zlangan pragmatik ta'sirini aniqlash va baholashga yo'naltiradi.

Matnni turlarga ajratish masalasi ona tili ta'limida nazariy jihatdan ham, amaliy-metodik jihatdan ham muhimdir. Matn turlarini tasniflash o'quv materialini sistemalashtirish, o'quvchida janr va uslub sezgirligini shakllantirish, turli kommunikativ vazifalar uchun mos nutqiy modellarni egallash

imkonini beradi. Ta'lim amaliyotida eng ko'p uchraydigan yondashuvlardan biri funksional-semantkc mezonga tayangan holda matnlarni bayon (narrativ), tasvir (deskriptiv), izoh-tahlil (ekspozitiv), dalillash (argumentativ) va ko'rsatma/yo'riqnoma (instruktiv) kabi turlarga ajratishdir. Bunday tasnif o'quvchi uchun matnning kommunikativ maqsadi va kompozitsion mantiqini anglashni yengillashtiradi.

Masalan, bayon matnida voqealar ketma-ketligi va vaqt-makon ko'rsatkichlari, tasvirda predmet-belgi munosabatlari, dalillashda tezis – dalil – xulosa zanjiri ustuvor bo'ladi. Ona tili darslarida ushbu turdagi matnlar bilan tizimli ishlash o'quvchining nutqiy repertuarini kengaytiradi: u bir mavzuni turli kommunikativ maqsadlarda qayta ifodalashga, masalan, bir hodisani bayon qilish, uning belgilarini tasvirlash, sabab-oqibatini izohlash yoki muammo yuzasidan dalillab fikr bildirishga o'rganadi.

Matn turlarini o'rgatishda uslubiy mezon ham alohida ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligi va metodikasida uslublar (badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy-ish yuritish, so'zlashuv) bo'yicha matnlarni farqlash, ularning leksik-grammatik xususiyatlarini anglash va amalda qo'llash nutqiy madaniyatning zarur sharti sifatida qaraladi. Xususan, ilmiy uslubdagi matnlar uchun terminologik aniqlik, mantiqiy izchillik, sabab-oqibat bog'lanishlarining ravshan ifodalanishi; rasmiy uslub uchun standartlashgan konstruksiyalar, rekvizitlar, aniq buyruq-istak modalligi; publitsistik uslub uchun baholovchi birliklar, ta'sirchanlik; badiiy uslub uchun obrazlilik va ekspressivlik; so'zlashuv uslubi uchun dialogiklik va situativlik xosdir. Bu farqlar o'quvchiga nafaqat matnni "tanish", balki o'zi matn yaratganda vazifaga mos uslubiy tanlov qilish imkonini beradi [3: 100].

Ona tili ta'limida matnning uslubiy tipologiyasi, ayniqsa, yozma nutqni rivojlantirishda samarali: o'quvchi bir mavzu doirasida, masalan, "tabiatni asrash" haqida publitsistik murojaat, ilmiy izoh, rasmiy ariza yoki badiiy lavha yozib, bir til resursining turli kommunikativ rejimlarda ishlashini amalda his qiladi.

Matn turlarini o'qitishda janr (genre) yondashuvi alohida samaradorlikka ega. Janr yondashuvi matnni muayyan ijtimoiy amaliyotga bog'langan barqaror kommunikativ shakl sifatida ko'radi; o'quvchi muayyan janrni o'zlashtirar ekan, u nafaqat til birliklarini, balki shu janrga xos maqsad, auditoriya, dalillash usuli, rasmiylik darajasi, kompozitsiya kabi "ijtimoiy kelishuv"larni ham egallaydi [4: 105].

Ona tili ta'limida bu, masalan, "ariza", "tushuntirish xati", "e'lon", "yangilik xabari", "taqriz", "insho", "esse", "intervyu" kabi janrlarni o'rgatishda juda dolzarb: har bir janrning rekvizitlari, tipik iboralari, pragmatik maqsadi va uslubiy me'yorlari o'quvchida kommunikativ moslikni shakllantiradi. Janr yondashuvi o'quvchining hayotiy kompetensiyalariga ham bevosita xizmat qiladi, chunki real hayotda yoziladigan va o'qiladigan matnlar ko'pincha aynan janrlar orqali tartibga solingan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. https://www.lex.uz/doc-passport/-4561730#:~:text=2)%20Quyidagilar%20Davlat%20tilini%20rivojlantirish%20departamentining%20asosiy,sohada%20jamoatchilik%20nazoratining%20samarali%20shakllarini%20joriy%20etish%3B.
2. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics / ed. by J.B.Pride, J.Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
3. Swales J.M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

Sevara XUDOYQULOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini takomillashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida o'quv jarayoniga tizimli-strukturaviy yondashuv, o'qitish va o'rganish metodlarining mazmuni hamda ularning pedagogik jarayondagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi, bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada pedagogik texnologiya tushunchasiga oid mahalliy va xorijiy olimlar ta'riflari keltirilib, ularning mazmuniy jihatlari umumlashtiriladi va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitishdagi samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, o'qitish texnikasi, o'qitish metodlari, o'rganish metodlari, nazariy qiziqish, bilim, malaka, ko'nikma, pedagogik texnologiya, olimlar ta'riflari.

Annotation. This article discusses the issues of improving the process of using pedagogical technologies in teaching foreign languages to students in the higher education system. The study analyzes the systematic-structural approach to the educational process, the content of teaching and learning methods, and their role in the pedagogical process. Furthermore, it substantiates the importance of modern pedagogical technologies in the formation of students' interest in knowledge, skills, and abilities. The article also presents definitions of the concept of pedagogical technology by local and foreign scientists, summarizes their substantive aspects, and reveals the effectiveness of person-oriented educational technologies in teaching foreign languages.

Keywords: pedagogical process, teaching techniques, teaching methods, learning methods, theoretical interest, knowledge, skills, techniques, pedagogical technology, definitions of scientists.

Аннотация. В статье освещаются вопросы совершенствования процесса использования педагогических технологий в обучении иностранным языкам студентов в системе высшего образования. В процессе исследования анализируются системно-структурный подход к образовательному процессу, содержание методов обучения и их роль в педагогическом процессе. Также на научно-теоретической основе обосновывается важность современных педагогических технологий в формировании у студентов интереса к знаниям, навыкам и умениям. В статье приводятся определения понятия педагогической технологии, данные отечественными и зарубежными учеными, обобщаются их содержательные аспекты, а также раскрывается эффективность личностно-ориентированных образовательных технологий в обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: педагогический процесс, методики обучения, методы обучения, теоретический интерес, знания, навыки, методики, педагогическая технология, определения ученых.

Oliy ta'lim tizimida talabalarga xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'tiladigan har bir dars mashg'uloti obyektiv voqelikni o'rganish qonunlarini belgilab beradi. Hozirda oliy ta'lim tizimida kimga, qanday, nimani o'qitish jarayoni qonuniyatlari mavjud. Oliy ta'limdagi o'quv jarayoniga sistem-struktur yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda uning o'zaro bog'langan ikki tizimi amal qiladi.

Birinchidan, o'quv jarayoni o'zining o'qitish maqsadi, o'qitish va o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni hamda o'qitish vositalaridan iborat murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan.

Ikkinchidan, o'quv jarayoni nisbatan yirik tizim bo'lgan pedagogik jarayonning bir bosqichidir. Bu bosqich kasbiy tayyorlash, o'qitish, ta'lim berish va tarbiya jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu tizim salmoqli tizim sifatida oliy ta'lim tizimi o'quv jarayoni rivojlanishi qonuniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar va talabalar muhitini ham o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishning shakl va metodlari yig'indisi o'quv jarayonining obyektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi. Talabalarni xorijiy tillarni o'qitishga tayyorlash jarayonida o'qitishning shakl va metodlari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- ta'lim jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha pedagoglarning faoliyati;
- talabalarning kognitiv faoliyati [5].

O'qitish metodlari bilimlarni berish usullari sifatida qaralib, talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratiladi hamda o'quv jarayonida pedagogning talabalarga ta'sir ko'rsatishini shakllantiradi.

O'rganish metodlari esa bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

Talabalar ta'lim muassasasida o'qib turgan vaqtida bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda barcha turdagi o'quv jarayoniga jalb qilinadilar. Bu davrda ular shaxsining asosiy qiyofalari shakllanadi. Faoliyatning bu shakllarida ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari, hissiyotlari, motivlari, shuningdek, umumiy va xususiy qobiliyatlari paydo bo'ladi va rivojlanadi. Olimlarning ta'kidlashicha, har qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko'proq uning tashkil etilish darajasiga bog'liqdir. Talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida faoliyatni faollashtirishda qiziqish alohida ahamiyat kasb etadi:

- O'rganishga bo'lgan qiziqishni olimlar ijobiy, hissiy bo'yoqqa ega bo'lgan, bilim, malaka va ko'nikmalarga bo'lgan alohida munosabat deb baholaydilar.
- Bilishga bo'lgan qiziqish – o'qitishdagi o'ziga xos qiziqish turidir.

Bilimga bo'lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- qiziqish – mo'ljalning elementar darajasi – "mo'ljallangan qiziqish";
- qiziquvchanlik – bilishga bo'lgan ehtiros, quvonch bilan obyekt chegarasiga kirib borish;
- bilishga bo'lgan qiziqish – hodisalarning mohiyatiga kirib borishga intilish, haqiqatni qidirish;
- nazariy qiziqish – voqelikka faol ta'sir etish orqali nazariy asoslar va qonuniyatlarni bilishga intilish [6].

Oliy ta'lim tizimida talabaning xorijiy tillarni o'qitishdagi kasbiy va shaxsiy xususiyatlari ularning texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langandir. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi hamda talaba xatti-harakatlarining bosqichliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual, emotsional-motivatsion va kasbiy rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilgan holda quyidagi ta'rifni keltirish mumkin:

Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiya – ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimining loyihasidir.

Pedagog olim V.P.Bespalko ta'kidlashicha: "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi" hamda "rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi"dir [1]. Shuningdek, boshqa manbalarda:

- "Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlari yig'indisi" [4].
- "Pedagogik texnologiya – talabaga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha o'qituvchining pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir" [2].
- "Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida hamda ularning birgalikdagi harakatlanish vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir" [3].
- "Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi".

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tadbiq etish degan xulosaga kelish mumkin. Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar majmui tushuniladi.

Pedagogikada o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar ham o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi. Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va kasbiy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o'zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va shaxsning kasbiy faoliyatini shakllantiradi. Pedagogik texnologiya o'qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi hamda faoliyatning bunday turlariga ko'ra uning tuzilmasi aniqlanadi.

O'qitish texnologiyasi ta'lim faoliyatini, bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni ta'minlaydi, talabaning ongliligini shakllantiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo'liga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qitish texnologiyasi shaxsda intizom, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishni xorijiy tillarni o'qitish jarayonida yuzaga keltiradi. Mutaxassisga qo'yiladigan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va boshqariladigan holga keltirib, talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kognitiv faolligi, mustaqilligi va kasbiy qiziqishini kuchaytiradi. O'qitish va o'rganish metodlarining uyg'unligi bilimlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Olimlar tomonidan berilgan pedagogik texnologiya ta'riflari uning ta'lim jarayonini loyihalash va kutilgan natijaga erishishdagi muhim vosita ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar xorijiy tillarni o'qitishda talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика, 1989.
2. Монахов В.М. Технологические карты и проектирование учебного процесса. М.: Педагогика, 1995.
3. UNESCO. Educational Technology: A Systems Approach to Education. – Paris: UNESCO Press, 1986.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

Muborak AZIMOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

THE ROLE OF ASSESSMENT IN VOCABULARY TEACHING USING MALL IN ENGLISH TEACHING

Annotation. This article analyses the role of assessment in teaching English vocabulary through mobile-assisted language learning (MALL) on the basis of an experimental study. Thirty master's students majoring in Foreign Language and Literature (English) at Uzbekistan State World Languages University took part in the research: the control group (15 students) was assessed by means of traditional paper-based multiple-choice tests, whereas the experimental group (15 students) was assessed through mobile applications such as Jeopardy, Kahoot! and Quizizz. The results of the six-week experiment revealed that the vocabulary scores of the experimental group increased to a statistically significant degree in comparison with the control group; moreover, the students' motivation rose and their test anxiety decreased.

Keywords: mobile-assisted language learning (MALL), vocabulary teaching, assessment, formative assessment, gamification, Jeopardy, multiple-choice test.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda lug'atni mobil qurilmalar yordamida o'rgatish (MALL) jarayonida baholashning o'rni eksperimental tadqiqot asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan 30 nafar magistrant ishtirok etdi: nazorat guruhi (15 talaba) an'anaviy qog'ozdagi ko'p tanlovli testlar orqali, eksperimental guruh (15 talaba) esa Jeopardy, Kahoot! va Quizizz kabi mobil ilovalar yordamida baholab borildi. Olti haftalik tajriba natijalari eksperimental guruh talabalarining lug'aviy bilim ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori o'sganini, ularning o'quv motivatsiyasi ortib, test bilan bog'liq xavotiri kamayganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: mobil ta'lim (MALL), lug'at o'qitish, baholash, formativ baholash, gamifikatsiya, Jeopardy, ko'p tanlovli test.

Аннотация. В статье на основе экспериментального исследования анализируется роль оценивания в обучении английской лексике с использованием технологии мобильного обучения (MALL). В исследовании приняли участие 30 магистрантов Узбекского государственного университета мировых языков по специальности «Иностранный язык и литература (английский язык)»: контрольная группа (15 студентов) оценивалась с помощью традиционных бумажных тестов множественного выбора, а экспериментальная группа (15 студентов) — с помощью мобильных приложений Jeopardy, Kahoot! и Quizizz. Результаты шестинедельного эксперимента показали, что словарный запас студентов экспериментальной группы вырос статистически значимо больше, чем у контрольной группы; кроме того, повысилась их учебная мотивация и снизилась тестовая тревожность.

Ключевые слова: мобильное обучение (MALL), обучение лексике, оценивание, формативное оценивание, геймификация, Jeopardy, тест множественного выбора.

Vocabulary knowledge is widely recognized as the foundation of second language proficiency: without an adequate stock of lexical units, learners can neither comprehend spoken and written texts nor express their own ideas [8: 9]. Methodologists agree that lexis carries the main burden of meaning, so vocabulary teaching occupies a central place both in international methodology [11: 13; 9: 5] and in the national methodology of foreign language teaching [6: 118]. For master's students of English philology, vocabulary is also an instrument of academic reading, research writing and future professional activity; consequently, how vocabulary is taught – and, no less importantly, how its acquisition is assessed – remains a topical problem of English language teaching.

In assessment theory, assessment is understood not merely as measurement of achievement but as the process of establishing the correspondence between attained results and the planned objectives of instruction [13: 158]. Bachman and Palmer stress that a useful language test must correspond to the purposes of teaching and exert a positive washback effect on learning [1: 18], while Black and Wiliam showed that systematic formative assessment – assessment for learning rather than assessment of learning – produces some of the largest gains documented in education [2: 7]. From this perspective, every act of vocabulary testing is simultaneously an act of retrieval practice strengthening the memory trace of the word: assessment itself teaches.

At the same time, the technological environment of language education has changed radically. Mobile-assisted language learning (MALL) – the use of smartphones and other portable devices for language learning – has developed from simple content delivery into an interactive, collaborative environment [7: 273]. Vocabulary is the most frequently targeted area of mobile applications [4: 9; 5: 2], meta-analyses report generally positive effects of mobile technologies on lexical development [3: 4], and Stockwell has shown that learners complete vocabulary activities on mobile platforms no less successfully than on computers [10: 95]. Nevertheless, most MALL studies concentrate on the presentation and practice of vocabulary, whereas the role of mobile technologies at the assessment stage has been investigated far less, particularly in higher education in Uzbekistan. Game-based systems such as Jeopardy-style platforms, Kahoot! and Quizizz turn testing into a classroom game with instant scoring, leaderboards and immediate feedback [12: 217]; whether such assessment actually improves vocabulary learning in comparison with paper-based testing requires experimental verification.

The present study therefore aimed to determine the role of assessment conducted through MALL tools in the vocabulary development of master's students. Two research questions were posed: (1) Do students assessed through MALL-based gamified tools achieve greater vocabulary gains than students assessed through traditional paper-based multiple-choice tests? (2) How does MALL-based assessment influence students' motivation and attitudes towards vocabulary learning and testing?

Research design. The study employed a quasi-experimental pre-test–post-test control group design. The independent variable was the mode of weekly formative vocabulary assessment (MALL-based versus paper-based); the dependent variables were vocabulary achievement and learners' motivation.

Participants. The participants were 30 first-year master's students of Uzbekistan State World Languages University majoring in Foreign Language and Literature (the English language), aged 21–26, with B2–C1 proficiency. Two intact academic groups took part: the control group (n = 15) and the

experimental group (n = 15). Participation was voluntary, and anonymity of individual results was guaranteed.

Materials. The lexical content was identical for both groups: 60 academic lexical units selected from the Academic Word List and the students' course materials were taught over six weeks (ten words per week) by the same teacher, using identical presentation and practice activities, so that the only systematic difference between the groups was the format of assessment.

Assessment procedures. In the control group, vocabulary was assessed weekly by a paper-based multiple-choice quiz of ten items, marked by the teacher and returned with scores at the following lesson. In the experimental group, the same content was assessed through MALL tools on the students' smartphones: a Jeopardy-style game created on the JeopardyLabs (Factile) platform, in which the words of the week were arranged into categories of increasing point value (100–500), students answered in teams and the built-in scoreboard displayed the points in real time; in alternate weeks, individual quizzes were run through Kahoot! and Quizizz, which provide automatic scoring, immediate feedback, leaderboards and timers. Thus, both groups had the same number of assessment events, but the experimental group was assessed in a mobile, gamified format with instant feedback [8: 344].

Vocabulary achievement was measured by a 40-item test (multiple choice, matching and gap-filling) covering the 60 target items; the same paper-based test served as pre-test and post-test for both groups, ensuring the neutrality of the measurement. The test was piloted and showed acceptable internal consistency (KR-20 = 0.84). Learners' attitudes were measured after the experiment by a ten-item five-point Likert questionnaire; the experimental group also answered open-ended questions about the MALL tools used.

Procedure and data analysis. In week 1 both groups took the pre-test; weeks 2–7 constituted the intervention with weekly assessments in the two formats; in week 8 both groups took the post-test and completed the questionnaire. Descriptive statistics, paired-samples and independent-samples t-tests were computed; the significance level was set at $p < 0.05$.

Table 1. Pre-test and post-test results of the control and experimental groups (maximum score – 40 points)

Group	N	Pre-test, M (SD)	Post-test, M (SD)	Mean gain
Control group	15	21.4 (4.2)	27.9 (4.0)	6.5
Experimental group	15	21.9 (4.5)	32.6 (3.7)	10.7

An independent-samples t-test on the pre-test scores confirmed that the groups were statistically equivalent before the experiment ($t(28) = 0.31$; $p = 0.76$). Both groups improved significantly: the control group from 21.4 to 27.9 points ($t(14) = 8.99$; $p < 0.001$), the experimental group from 21.9 to 32.6 points ($t(14) = 13.38$; $p < 0.001$). However, the post-test difference was statistically significant in favour of the experimental group ($t(28) = 3.34$; $p = 0.002$), with a large effect size (Cohen's $d = 1.22$): the mean gain of the experimental group (10.7 points) exceeded that of the control group (6.5 points) by more than one and a half times. The questionnaire results are summarised in Table 2.

Table 2. Students' attitudes towards the assessment format (mean values on a five-point scale)

Questionnaire item	Control group	Experimental group
The vocabulary quizzes motivated me to learn the words.	3.2	4.6
I felt anxious during the vocabulary quizzes.	3.5	2.1
The feedback I received helped me correct my mistakes.	3.0	4.5
I would like the same assessment format to be used in future.	3.3	4.7

As Table 2 shows, the experimental group evaluated their assessment format considerably more positively: gamified mobile quizzes were perceived as motivating and useful, and test anxiety was noticeably lower than in the control group. In the open-ended answers, the students most frequently mentioned the team-based Jeopardy game as their favourite form of assessment, noting that the immediate display of scores made the procedure transparent, fair and exciting; the only recurrent complaint concerned occasional Internet connection problems.

The findings answer the first research question clearly: assessment conducted through MALL tools resulted in significantly greater vocabulary gains than paper-based testing, even though the materials, the teacher and the amount of instruction were identical in both groups. Since the post-test was administered on paper for both groups, the superiority of the experimental group cannot be attributed to familiarity with the testing medium; it reflects genuinely better acquisition of the target vocabulary.

Several factors explain this result. First, gamified mobile assessment intensifies retrieval practice: immediate feedback allows the learner to correct an error at the very moment of retrieval, realising the mechanism of formative assessment [2: 12], whereas in the control group feedback was delayed until the next lesson and much of its formative potential was lost. Second, the competitive format increased engagement with the target words: preparing for the weekly Jeopardy game, students reviewed the material more willingly – a positive washback effect of the assessment procedure [1: 30]. Third, the game framing reduced test anxiety, lowering the affective barrier of traditional testing, which is consistent with research on game-based student response systems [12: 224]. Finally, the team format of Jeopardy added a collaborative dimension: weaker students received peer support, and vocabulary became an object of discussion rather than an individual burden. The results thus agree with the general conclusions of MALL research on vocabulary learning [3: 15] and extend them to the assessment stage, which has so far received little attention in the national context.

At the same time, the limitations must be acknowledged: the sample was small (n = 30) and drawn from one institution; the intervention lasted only six weeks; a delayed post-test was not administered, so long-term retention remains unmeasured; and part of the effect may be connected with the novelty of the tools, which, as Wang has shown, can wear out over time [12: 226]. Technical constraints (devices, Internet access) also require organisational attention.

The study confirms that assessment is not a neutral appendix to vocabulary teaching but an active component

of it: the way students are tested substantially influences how well they learn. In the conditions of the experiment, weekly formative assessment through MALL tools – a Jeopardy-style team game supplemented by Kahoot! and Quizizz quizzes – enabled master's students to achieve significantly higher vocabulary gains than their peers assessed through paper-based multiple-choice tests, while increasing motivation and reducing test anxiety.

On this basis the following recommendations can be made: (1) gamified MALL tools should be used systematically as instruments of formative vocabulary assessment in higher education, alongside – not instead of – standardised summative testing; (2) assessment events should be designed as learning events, with immediate feedback and opportunities for correction; (3) teachers need methodological preparation for creating mobile quizzes and managing technical risks; (4) equal access of all students to devices and the Internet must be ensured. Future research should involve larger samples, longer interventions and delayed post-tests to establish the durability of the effect on vocabulary retention.

References

1. Bachman L.F., Palmer A.S. Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
2. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 1998. Vol. 5, №1. – P. 7–74.
3. Burston J. Twenty years of MALL project implementation: A meta-analysis of learning outcomes // ReCALL, 2015. Vol. 27, №1. – P. 4–20.
4. Chinnery G.M. Going to the MALL: Mobile Assisted Language Learning // Language Learning & Technology, 2006. Vol. 10, №1. – P. 9–16.
5. Godwin-Jones R. Emerging technologies: Mobile apps for language learning // Language Learning & Technology, 2011. Vol. 15, №2. – P. 2–11.
6. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. Kukulska-Hulme A., Shield L. An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction // ReCALL, 2008. Vol. 20, №3. – P. 271–289.
8. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
9. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
10. Stockwell G. Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform // Language Learning & Technology, 2010. Vol. 14, №2. – P. 95–110.
11. Thornbury S. How to Teach Vocabulary. – Harlow: Pearson Education Limited, 2002.
12. Wang A.I. The wear out effect of a game-based student response system // Computers & Education, 2015. Vol. 82. – P. 217–227.
13. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: ИКАР, 2009.

Saida ERGASHEVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti madaniyat va san'at menejmenti kafedrasi dosenti

MADANIYAT VA SAN'AT MENEJERLARIDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyat va san'at muhitini rivojlantirishda menejerlarning o'rni, ularning boshqaruv kompetensiyalari hamda zamonaviy menejment tamoyillarining amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyat va san'at muassasalarini samarali boshqarishda innovatsion yondashuvlar, davlat xususiy sheriklik mexanizmlari, xorijiy tajribalar hamda ularni milliy amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritiladi.
Kalit so'zlar: menejment, menejer, madaniyat va san'at menejmenti, madaniy muhit, innovatsion boshqaruv, ijodiy fikrlash, boshqaruv kompetensiyasi.
Annotation. This article analyzes the role of managers in the development of the cultural and artistic environment, their management competencies, and the practical significance of modern management principles. It also discusses innovative approaches to the effective management of cultural and artistic institutions, public-private partnership mechanisms, foreign experience, and their implementation in national practice.
Keywords: management, manager, cultural and artistic management, cultural environment, innovative management, creative thinking, management competencies.
Аннотация. В статье анализируется роль менеджеров в развитии культурно-художественной среды, их управленческие компетенции и практическое значение современных принципов управления. Также рассматриваются инновационные подходы к эффективному управлению культурно-художественными учреждениями, механизмы государственно-частного партнерства, зарубежный опыт и их внедрение в национальную практику.
Ключевые слова: управление, менеджер, управление культурно-художественными учреждениями, культурная среда, инновационное управление, креативное мышление, управленческие компетенции.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy boshqaruv sohasida yangicha bilim, yangicha ko'nikma va imkoniyatlarga talab kuchaydi. Bunga sabab, madaniyat va san'at muassasalari bugungi bozor iqtisodiyotining ayovsiz bosimi va raqobati bilan kurashib, kreativ tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistondagi jadal islohotlar davlat boshqaruvini takomillashtirishni, unda sifat o'zgarishlari yasashni taqozo etmoqda. Bu vazifa davlat va jamiyatning taraqqiyotiga turtki bo'ladigan omillardan oqilona foydalanish, ilg'or mamlakatlar tajribasida sinalgan yondashuvlarni qo'llashga undaydi. E'tiborlisi shundaki, davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-ma'rifiy sohalar bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat boshqaruvi sohasining samaradorligini oshirish uchun ushbu uyg'unlikni ilmiy tadqiqotlarda aks ettirish zarurati tug'iladi. Buning uchun davlat boshqaruvini mantiqan o'zaro bog'liq tarmoqlarni o'z ichiga qamrab olgan, yaxlit soha sifatida ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa davlat boshqaruvining mohiyati va o'ziga xos jihatlarini o'rganish, shu asosda sohaga oid muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish imkoniyatini kengaytiradi.

Endigi vazifa nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq qilishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratishdan iborat. Chunonchi, bugungi kunda madaniyat muassasalarida tashkiliy va boshqaruv tizimi, birinchidan, ijodiy ishlab chiqarish va madaniy xizmat ko'rsatishda samarali mexanizmlarni yaratish bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatda madaniy jarayonning ravnaqi va istiqboli tanqidiy-tahlil bilan qayta ko'rib chiqilishi zarur.

Shuningdek, ijodiy mehnat muhitini terang o'zlashtirib, madaniy tadbirlarni tashkil etishi, kreativ tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va xalqqa yuqori saviyali madaniy xizmat ko'rsatish mexanizmlarini puxta o'rganishi lozim. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan huquqiy-normativ asoslarga tayangan holda, madaniyat va san'at muassasalarining moliyaviy ta'minoti, sohada davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari tarmog'ini va ijodiy faoliyat tizimini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini davlat-xususiy sheriklik asosida mustahkamlash, aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etishda menejer ko'proq motivatsion metodlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Shunday ekan, biz madaniyat va san'at sohasida boshlagan islohotlarimizni yuksak bilim va salohiyatimiz, kuch va imkoniyatlarimiz, bor azmu shijoatimizni ishga solgan holda davom ettiramiz. Madaniyat va san'at sohasi menejmenti esa madaniyat va san'at muassasalaridagi jarayonlarni va personallarni boshqarish demakdir.

Menejmentga oid ko'plab adabiyotlarda mutaxassislar ta'kidlaganidek, "menejment" atamasi faqat bozor sharoitida faoliyat yurituvchi firma, tashkilot, korxona darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga nisbatan qo'llaniladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu tashkilot va firmalarning yo'nalishlari har xil bo'lishi mumkin va ular o'z faoliyati jarayonida nafaqat tijorat, balki notijorat maqsadlarni ham ko'zlashlari mumkin.

Menejment bozorda mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida faoliyat yurituvchi sanoat firmalari, xususiy kompaniyalar, sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar, transport kompaniyalari, banklar, ta'lim va madaniyat muassasalari va boshqa barcha xo'jalik bo'linmalarining faoliyatini qamrab oladi. Menejmentning mohiyatini ko'pincha turli muassasa va tashkilotlar, korxona va tuzilmalarning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan boshqarish tizimi bilan bog'laydilar. Menejment jamiyatning deyarli barcha jabhalarida: siyosat, savdo, fan, ta'lim, konfessiyaviy faoliyat, turizm, madaniyat va san'at va boshqa sohalarida qo'llaniladi.

Tashkilotlar va firmalarning faoliyati ko'pincha yangi imkoniyatlarni izlashga, muammolarni hal qilish uchun turli xil zahiralarni topish va jalb qilish qobiliyatiga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan ish uslubini talab qiladi. Bularning barchasi bevosita menejment bilan bog'liq. Shu bilan birga, menejment deganda odamlarning xatti-harakatlari va salohiyati, qo'yilgan maqsadlarga erishish qobiliyati,

mehnatidan foydalangan holda g'alaba qozonish ilmi va san'ati sifatida tushunish mumkin.

Ular orasida hozirgi sharoitda boshqaruv mexanizmlaridan to'g'ri foydalanishga muhtoj bo'lgan madaniyat sohasi ham mavjud. Bunda biz madaniyatni nazariy tushunish haqida emas, balki amaliyotda qo'llashimiz yoki amaliy jihatdan tushunishimiz kerak bo'ladi. Madaniyatni talqin qilish turli yo'llar bilan tushunilishi mumkin. Madaniyat haqidagi mavjud g'oyalarning aksariyati olimlar, ijtimoiy-madaniy soha xodimlari, ijodkorlar, oddiy odamlar orasida juda yaxshi asosga ega. Gap shundaki, madaniyat haqida gapirganda, u yoki bu vaziyatlarga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan "umumiy mezonlarga" rioya qilish kerak. Shuningdek, "madaniyat" tushunchasini talqin qilishning turli usullaridagi bu ko'p qirrali atama qadimgi davrdan boshlab paydo bo'lgan.

Boshqaruv va madaniyat bir-biriga mos kelmaydi, chunki "sovuq" iqtisodiy hisoblash va yuqori ma'naviy qadriyatlarning namoyon bo'lishi (yaxshi yoki haqiqat) bir-bir bilan birlashishi qiyin. Bunday holatda madaniyat boshqarish uchun obyekt bo'lishi mumkinmi?

Zamonaviy madaniyatshunoslikda madaniyatning ko'plab ta'riflari huquqiy tan olinadi. Misol uchun, madaniyat insoniyatning ijtimoiy tajribasini yoyishning aqliy va ramziy mexanizmlari tizimi sifatida tushuniladi.

Madaniyatni jamiyat hayotining muayyan sohasi, siyosat, iqtisod, ta'lim va boshqalar bilan bir qatorda deb tushunish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, madaniyat sohasi jamiyatning muayyan qismini, muayyan resursini, muayyan jamiyatning institutsional shakllari, dunyoqarashi, qadriyatlari, stereotiplari, normalari yordamida ishlab chiqarish, saqlash, uzatish imkonini beruvchi mexanizmini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 3-nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment: darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakati. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.

Guljahon ERGASHEVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tyutori

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA MATN USTIDA ISHLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida matn va uni o'rganish usullari, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkuri hamda kommunikativ savodxonligini o'stirish masalalari ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan. Ta'lim jarayonida til va nutq munosabatlari, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishda grammatik va ijodiy usullarning tutgan o'rni tahlil qilingan. O'quvchilarda mustaqil matn yaratish, tahrir qilish, lisoniy qonuniyatlarni nutqiy vaziyatga mos ravishda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: matn, uslub, grammatika, so'z, lisoniy qonuniyat, ma'nodosh, ibora, gap, mazmun, shakl.

Annotation. This article scientifically and methodologically highlights the issues of studying text and its research methods in native language classes of secondary schools, as well as developing students' creative thinking and communicative literacy through working on texts. The paper analyzes the relationship between language and speech in the educational process and the role of grammatical and creative methods in forming text-creation skills. Practical recommendations are provided on developing students' abilities to independently create and edit texts, and to apply linguistic regulations appropriately according to speech contexts.

Keywords: text, style, grammar, word, linguistic regularity, synonym, phrase, sentence, content, form.

Аннотация. В статье с научно-методической точки зрения освещаются вопросы изучения текста и методов его анализа на уроках родного языка в общеобразовательных школах, а также развития творческого мышления и коммуникативной грамотности учащихся посредством работы с текстом. В работе проанализированы взаимосвязь языка и речи в учебном процессе, а также роль грамматических и творческих методов в формировании навыков создания текста. Даны практические рекомендации по развитию у учащихся навыков самостоятельного создания и редактирования текстов, а также правильного применения языковых закономерностей в соответствии с речевой ситуацией.

Ключевые слова: текст, стиль, грамматика, слово, языковая закономерность, синоним, идиома, предложение, содержание, форма.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish, ta'lim tashkilotlarida o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, uning sofligini saqlash va muntazam boyitib borish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son qaroriga muvofiq millat tafakkurini kengaytiradigan ona tilimizning rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda [1].

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma'naviy barkamollik, intellektual salohiyatni ko'rsatib turuvchi asosiy mezon – tildir. Til barqaror hodisa, nutq esa beqaror-vaqtinchalik, u alohida shaxsning muayyan makon va zamondagi individual-intellektual ko'rsatkichlari: ilmiy-ijodiy tafakkuri aloqa-aralashuv, ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini kafolatlovchi, xususiy muloqot, ta'sir va aks ta'sir natijasini voqelantiruvchi bosh vosita sanaladi [5].

Insoniyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni meros qilib qoldirish uchun birdan-bir, yagona imkoniyat matn esa kashfiyotdir, til umumiyligi, matn esa xususiyligi bilan go'zal, til ijtimoiy muloqot mahsuli, matn – ijodiy tafakkur mahsuli, hazrati inson yaratiqlarining majoziy ramzi, aks sadosidir [6].

O'quvchi ongida matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni ona tili ta'limida o'ta muhim va mas'uliyatli davr bo'lib, unda o'quvchi monologik va dialogik matn turlarini o'rganish bilan birga matn ustida ishlash mahoratini egallashga ham yo'naltiriladi. Matn ustida ishlash, avvalo, o'quvchidan matn va uning turlari, matn qismlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, matn tarkibi, uning qurilishi, uslubi, tili haqida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlikni talab qiladi [4].

Matn bilan yuzma-yuz bo'lgan 8–9-sinf o'quvchisi uning qaysi matn turiga kirishini qiyinchiliksiz farqlashi, matnning tarkibiy qismlari – kirish, asosiy qism, xulosaning mavjudligi, matnning qaysi sohaga, qaysi janrga mansubligini bir qarashda bilishi lozim bo'ladi. Ona tili ta'limida matn ustida ishlash usullari bag'oyat xilma-xil. Biz quyida ularning ayrimlari xususida fikr yuritamiz.

I. Grammatik usul (an'anaviy amaliyot):

1. Berilgan matndan o'rganiladigan mavzuga oid so'zlarni ajratish, ularni so'z turkumlari bo'yicha guruhlash, so'z yasovchi, o'zgartiruvchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni guruhlash.
2. Matndagi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qilish va aksincha qo'shma gaplarni soddalashtirish.
3. Ajratilgan sodda va qo'shma gaplarni sintaktik tahlil qilish.
4. She'riy asarlar mazmunini nasriy yo'l bilan so'zlab berish.
5. Matndagi qo'shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash.
6. Berilgan gapni morfologik yoki sintaktik tahlil qilish.

II. Ijodiy usul (yangilanayotgan amaliyot):

1. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ibora va tasviriy ifodalar bilan

almashtirish, ularning lug'aviy ma'nosini aniqlash va sharhlash;

2. Ajratilgan so'zlarga ma'nodosh, uyadosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar topish va ularning lug'aviy ma'nosini sharhlash;
3. Ilmiy uslubdagi matnni badiiy uslubdagi matnga aylantirish;
4. Matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish;
5. Matndagi gaplarni kengaytirish (ixchamlash);
6. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish;
7. Muammoli matn ustida ishlash va yechimini topish;
8. Berilgan so'z (so'z birikma, gap) asosida mustaqil matn yaratish;

Tabiiyki, ijtimoiy jamiyatda yashovchi har bir shaxs yoshligidanoq o'zaro muloqot, muloqot jarayonida fikrlash va fikr ifodalash zaruriyatini chuqur his qiladi. Insonning ma'naviy hayoti mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba – nutqiy muloqot hisoblanishicha, insoniyat erishgan taraqqiyot, madaniy merosni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng ishonchli yo'li – ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash – mustaqil matn yaratish malakasini egallashdir.

Bunday malakaga ega bo'lishning birinchi sharti – o'quvchilarni tayyor matn ustida ishlashga o'rgatish, matn tarkibida mavjud bo'lgan mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni

qiyinchiliksiz aniqlash va bartaraf etish, matn mazmuni, shakli va uslubini turfa yo'nalishda qayta ishlash (ixchamlash, kengaytirish, matn tilini boyitish – epigraf, sitata, ibora va tasviriy vosita, maqol, hikmatli so'zlar kiritish) ko'nikmalarini shakllantirish, matnni tahlil qilish va tahrir qilish yo'llarini o'rganishga yo'naltirishdir. Grammatik shakllarni o'rganishdan maqsad – o'rganilayotgan lisoniy qonuniyatni nutq tarkibida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Otlarni alohida turlash, fe'llarni tuslash, fonetika, morfemika, morfologik-grammatik-sintaktik qonun-qoidalarni chuqur va keng ko'lamda o'rganish foydali, bil'aks mazkur faoliyat o'quvchi ongida mustaqil matn yaratish ko'nikmalarining shakllanishi va avtomatlashuviga yetarlicha foyda bermaydi. Bunda shakl mazmundan ajraladi, shaklning anglatgan ma'nolari to'laligicha ochilmay qoladi. Aksincha, til hodisalari nutq tarkibida tahlil qilinsa, til bo'limlarini o'rganish matn yaratish va matn tahlili bilan birgalikda, o'zaro uyg'unlikda olib borilsa, o'quvchilar shakl va mazmun o'rtasidagi turli-tuman bog'lanishlarni anglab yetadi va o'z nutqiy faoliyatiga tatbiq etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini matn ustida ishlash usullari bilan tanishtirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish yaxshi samara beradi:

– o'quvchilarda o'zbek adabiy tilining boy uslubiy zaxiralari hamda funksional – ekspressiv imkoniyatlariga oid nazariy bilimni mustahkamlash;

– matnning muayyan emotsional – ekspressiv bo'yog'i tantana, xush kayfiyat, lirik-intim, nazokatlilik, kinoya, ta'na, e'tiroz kabi ma'no farqlarini anglash va uni nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri ifodalash qonuniyatlari bilan tanishtirish;

– o'quvchilarga berilgan yoki yaratilgan matnni shakl va mazmun yaxlitligi talabi asosida tanqidiy baholashga odatlantirish, mantiqiy va uslubiy jihatdan mukammal bo'lgan ilmiy-grammatik, badiiy (nasriy va nazmiy), badiiy-ramziy, munshaot (ariza, tilxat, tarjimai hol, maktub, majlis bayoni, tavsifnoma, annotatsiya, tezis, shartnoma va v.h.) – monologik matnlarni farqlash va shundaymatnlarni qiyinchiliksiz tuzishga odatlantirish;

– o'quvchi ongida mavjud bo'lgan milliy tilning uslubiy imkoniyatlaridanunumli foydalanish, bolani turli nutq vaziyatlarga olib kiruvchi, unda nutqiy vaziyat va sharoit talabiga ko'ra to'g'ri va o'rinli fikr ifodalash mahoratini o'stiruvchi, muammoli ta'lim texnologiyasi yutuqlarini egallash va ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali mustaqil va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish;

– matnni imloviy – uslubiy, mantiqiy, lisoniy va badiiy jihatdan tahrir qilish, uslubiy g'alizlik va nuqsonlarni topish, ularni mustaqil bartaraf etish sirlarini o'rganish;

– badiiy – ijodiy ishlar: lavha, esse, rivoyat, xabar, munshaot matnlari, hikmatli so'z va maqollar tavsifi, ramziy-badiiy insholar, maktub, tabrik, reklama yozish usullarini o'rganish.

O'quvchilarni matn yaratishga tayyorlashda uyadosh va ma'nodosh so'zlar ustida ishlash ham alohida o'rin tutadi. Ma'nodoshlar – yaratilgan matn tilini boyitish, badiiy bo'yoqdor so'zlarni tanlash, ularni iboralar bilan almashtirish, ularni o'z matnida qo'llashning eng ishonchli va mahsuldor usuli. Uning shakl va usullari nihoyatda xilma-xil. Ularning eng keng tarqalganlarini o'quvchilarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun yaratilgan elektron o'quv qo'llanmadagi "Leksikologiya" slaydidan foydalanib, ma'nodosh va uyadosh so'zlar mavzusiga oid nazorat testlari tuzish o'quvchilarni mustaqil matn yaratishga tayyorlashda o'ta foydali o'quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Mustaqil matn yaratish faoliyati – o'quvchidagi kommunikativ savodxonlik, yozma fikr ifodalash qobiliyatining muayyan nutqiy-uslubiy me'yorlar asosida voqelanishi, in'ikosidir. U o'quvchining ona tili fani yuzasidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlashning ishonchli vositasi hisoblanadi [7].

Mustaqil yaratilgan badiiy matn – o'quvchining imlo savodxonligi, ijodiy tafakkuri, so'z boyligi, nutqiy salohiyatini namoyish etuvchi ko'zgu, aks sado. Chunki o'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari, ularning amaliy tadbiqi o'quvchining o'zi mustaqil yaratgan matndagina o'z ifodasini topadi. Zero, o'quvchining suhbatdosh fikrini qabul qilish va o'z fikrini ifodalashga qaratilgan ehtiyoji asosiga qurilgan amaliy faoliyatiga ona tilidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, kommunikativ savodxonlik darajasining oshib borishi, matn yaratish ko'nikmalarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ana shunday faoliyatgina ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladi va o'quvchida ijobiy o'quv motivlarini hosil qiluvchi muhim didaktik vosita vazifasini bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7776360.
2. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2009.
3. Lapasov J. Badiiy matn va uning lisoniy tahlili. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Mavlonova K., Hakimova N. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini egallash imkoniyatlari / O'zbek tilshunosligini rivojlantirishning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O'zkitobsavdo, 2020. – B. 112–116.
6. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (T.Murodov asarlari asosida): Filol. fan. nomz. diss. avtoref... – Toshkent, 2007. – 26 b.
7. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi: Ped. fan. dok. diss... – Toshkent, 2019. – 230 b.

Oliya NAJMIDDINOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

CURRICULUM FRAMEWORK AND CURRICULUM REFORM IN UZBEKISTAN

Annotation. This article explores the concept of a curriculum framework as a coherent structure that connects core values, key competencies, subject knowledge and meaningful learning outcomes. Drawing on examples from international curriculum frameworks, particularly those of Singapore, New Zealand and England, the article examines the current state of curriculum reform in Uzbekistan and identifies existing challenges in the integration of XXI st century skills. Furthermore, it proposes a holistic curriculum framework that combines values, competencies, subject content and personal development to support student-centered learning and the holistic development of the younger generation.
Keywords: curriculum framework, core values, key competencies, learning outcomes, XXI st century skills, curriculum reform, student-centered learning.
Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv dasturi konsepsiyasi (curriculum framework) asosiy qadriyatlar, tayanch kompetensiyalar, fan mazmuni va ta'lim natijalarini o'zaro bog'lovchi yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi. Singapur, Yangi Zelandiya va Angliya kabi mamlakatlarning ilg'or tajribalari misolida o'quv dasturi konsepsiyalarining asosiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'quv dasturini isloh qilish jarayonlari, XXI asr ko'nikmalarini ta'lim mazmuniga integratsiya qilish bilan bog'liq mavjud muammolar tahlil etiladi. Qadriyatlar, kompetensiyalar, fan mazmuni va shaxsiy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim hamda yosh avlodning har tomonlama kamol topishini ta'minlashga xizmat qiluvchi yaxlit o'quv dasturi konsepsiyasi taklif etiladi.
Kalit so'zlar: o'quv dasturi konsepsiyasi, asosiy qadriyatlar, tayanch kompetensiyalar, ta'lim natijalari, XXI asr ko'nikmalari, o'quv dasturini isloh qilish, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim.
Аннотация. В статье рассматривается концепция учебной программы (curriculum framework) как целостная система, объединяющая основные ценности, ключевые компетенции, предметное содержание и результаты обучения. На примере передового опыта Сингапура, Новой Зеландии и Англии анализируются основные особенности современных концепций учебных программ. Также исследуется текущее состояние реформирования учебных программ в Узбекистане и выявляются существующие проблемы, связанные с интеграцией навыков XXI века в содержание образования. Кроме того, в статье предлагается целостная концепция учебной программы, объединяющая ценности, компетенции, предметное содержание и личностное развитие, направленная на реализацию личностно-ориентированного обучения и всестороннее развитие подрастающего поколения.
Ключевые слова: концепция учебной программы, основные ценности, ключевые компетенции, результаты обучения, навыки XXI века, реформирование учебных программ, личностно-ориентированное обучение.

For the curriculum to actually work, a certain framework that includes core values, skills and expected outcomes which also aligns with subject areas should be designed. Basically, curriculum framework is a coherent structure that shows not a set of subjects but an interconnected system where one essentially leads to another: values – key competencies – subject knowledge – meaningful learning outcomes [1]. The following illustration of generic model of curriculum framework sheds light on how it works:



The process is clear analyzing curriculum frameworks of some countries like Singapore, New Zealand and England. For instance, Singapore focuses on 21st century competencies involving global awareness and critical and media skills. Its core outcomes include becoming confident individuals and active contributors who self-direct their learning. Both *life* (personal development, civic literacy) and *knowledge* skills (ICT, critical thinking) are equally prioritized and embedded within subjects.

Based on the information above and reflecting on Uzbekistan's curriculum reforms it is obvious that the country has not fully developed and integrated curriculum framework into practice yet. According to the British Council's 2021 report on Uzbekistan's English language subject curriculum and the general structure of educational system it is evident that the process of integrating 21st century skills and communicative approaches has already started but it is far from being one single smoothly working mechanism.

The core aims and values as of international ones are not clearly defined. Although national goals exist, they are not consistently converted into practical aims across subjects. Key competencies and skills such as critical thinking, creativity and collaboration are partially arising, particularly CEFR alignment of English language education (British Council, 2021) despite they are not yet embedded across the full range of subjects. It seems that there is a lack of visual structure as educational reforms of recent years tend to be focused on subject knowledge and policy-driven making it more like 'words on paper'.


A holistic curriculum framework integrating values, skills and content into practical and meaningful learning, the following proposal might be set forward:

At the foundation, Uzbekistan's curriculum should promote *lifelong learning, responsible citizenship, global awareness and national identity* the last of which is already practically integrated. These values should guide all teaching and learning processes to contribute to better education and

development of the younger generation. Key competencies of *critical thinking, problem-solving, creativity and innovation, digital literacy, personal and social skills* should also be integrated in the framework properly embedded across all subjects to prepare students for the real world.

As for the subject knowledge areas traditional subjects remaining central might benefit from cross-disciplinary units (UNICEF, 2021) connecting 2 subjects at a level where the context knowledge is better comprehended. The personal development should include *emotional intelligence, character and ethics, civic engagement, adaptability and resilience* which ensure that students develop only academically but also personally and socially [4].

To implement such curriculum a colossal work is needed to be done. Curriculum materials should be altered to align with the framework while educators should go through special training to make educational process student-centered and active. In fact, new methods of assessment will be necessary to measure competencies rather than factual recall.



In conclusion, the proposed framework can change our content-focused and policy-driven curriculum to a more balanced, student-centered and concentrated on holistic development of youngsters. As Einstein wisely stated, "Knowledge is limited, creativity encircles the world" indicating that subject knowledge might be meaningless if student do not develop skills of how to use it in practice.

References

1. Male B., Waters M. The Primary Curriculum Design Handbook: Preparing Our Children for the 21st Century. – London: Bloomsbury Publishing, 2012.
2. British Council. English Language Education in Uzbekistan: Current State and Reforms. – Tashkent: British Council, 2021. https://www.britishcouncil.org/education/uzbekistan-report.
3. UNICEF. Recommendation to National Curriculum Framework. – Tashkent: UNICEF Uzbekistan, 2021. https://www.unicef.org/uzbekistan/en/media/4471/file/Recommendation%20to%20National%20Curriculum%20Framework%20Eng.pdf.
4. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
5. Tyler R.W. Basic Principles of Curriculum and Instruction. – Chicago: The University of Chicago Press, 1949.

Dildor NORQULOVA,
Bulung‘ur tuman ixtisoslashtirilgan maktab art fani o‘qituvchisi

PORTRET JANRIGA OID MATERIALLAR VOSITASIDA BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining portret janriga oid kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari, o‘qituvchilar faoliyatini samarali tashkil qilish, talabalarning ijodiy rivojlanishiga ko‘maklashish hamda ularning umumiy professional salohiyatini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, portret ishlash jarayoni bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi muhim vosita sifatida ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: portret, vosita, ijodiy yondashuv, realistik ko‘nikma, kompozitsion yechim, pedagogik va psixologik omillar.
Annotation. This article examines the pedagogical and psychological foundations for developing professional competence in the portrait genre among future fine arts teachers. It highlights the effective organization of teaching activities, the promotion of students’ creative development, and the enhancement of their overall professional potential. The process of working on portrait art is presented as an important means of developing the professional competence of future fine arts teachers.
Keywords: portrait, tool, creative approach, realistic skills, compositional solution, pedagogical and psychological factors.
Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и психологические основы развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства в области портретного жанра, освещаются вопросы эффективной организации деятельности преподавателей, содействия творческому развитию обучающихся, а также повышения их общего профессионального потенциала. Процесс работы над портретом представлен как важное средство развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства.
Ключевые слова: портрет, средство, творческий подход, реалистические навыки, композиционное решение, педагогические и психологические факторы.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, “Ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malaka va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilimlarini shakllantirish, qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon” asosida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1] hamda 2024-yil 8-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining haq to‘lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi 11-son qarori [2] qabul qilindi. Ushbu me’yoriy hujjatlar doirasida pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikalar bo‘yicha o‘qitish amaliyotini joriy etish zarurati yuzaga keldi. Umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim muassasalarida dars beradigan bo‘lajak pedagog kadrlar nafaqat yuqori malakali, balki pedagogik va psixologik jihatdan zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirgan, sifatli bilim bera olish qobiliyati va yuksak kasbiy mahoratga ega bo‘lishlari lozimligi alohida ta’kidlangan.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining portret janrida ishlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning pedagogik-psixologik jihatlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur jihatlar o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda umumiy professional darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Portret ishlash jarayoni bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi [6: 219]. U quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– realistik ko‘nikmalarni oshirish;
– ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
– naturani vizual va anatomik tahlil qila olish;
– emotsional va psixologik tafakkurga urg‘u berish;
– ijodiy yondashuv, shaxsiy uslubning rivojlanishi;
– tasvirning kompozitsion yechimini topish imkonini yaratadi.

Portret ishlashda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga doir aniq jihatlarni mashhur rassomlar ijodida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, portret ishlash jarayonida realistik ko‘nikmalarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Portret janri inson yuzidagi aniq proporsiyalar, anatomik tuzilish va ichki ifodalarni to‘g‘ri tasvirlashni talab etadi. Bu jarayon o‘qituvchilardan diqqatni jamlash, e’tiborli bo‘lish va har bir detalni sinchiklab kuzatishni talab etadi. Misol tariqasida, Yevropa Uyg‘onish davrining buyuk dahosi Leonardo da Vinchi (1452–1519) inson anatomiyasi va yuz qismining nisbatlarini chuqur o‘rgangan mahoratli portretchi hisoblanadi. Uning “Mona Liza” (1503–1506) asarida yuz ifodasidagi psixologik chuqurlik, nurlar va soyalar o‘yini, yorug‘likning mohirlik bilan qo‘llanilishi orqali inson yuzining murakkab qiyofasi aks ettirilgani yorqin ko‘rinadi. Leonardo da Vinchi inson yuzidagi yuzlab detallarni tushunish orqali realizm va vizual tahlilni samarali qo‘llagan.

Shuningdek, mashhur golland rassomi Rembrandt van Reynning (1606–1669) portretlari inson yuzining har bir detalini aniq va realistik ifodalagani bilan mashhurdir. Uning “Doktor Tulp anatomiyasi darsi” (1632) yoki “Qarilikdagi avtoportret” (1669) asarlari inson yuzidagi chiziqlar, ajinlar va nurlar o‘yinini mukammal aks ettirgan. Bu kabi asarlar realistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi va portret ishlashning yuksak darajadagi texnik talablarini ko‘rsatadi [3: 522].

Portret ishlash jarayoni o‘qituvchilarning vizual tahlil qobiliyatini kuchaytirishga va portret ishlashda naturani anatomik jihatdan tushunishga yordam beradi. Yuz proporsiyalari va anatomiyasini chuqur anglash portret chizishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida portret janriga oid klassik namunalardan foydalanish muhim didaktik ahamiyatga ega. Inson yuzining tuzilishiga e’tibor qaratish talabalarga turli yuz xususiyatlari, mimika va emotsional holatlarni chuqur tushunish imkonini beradi.

Portret ishlash jarayonida inson yuzidagi psixologik obraz va emotsional holatlarni anglash hamda ularni realistik ifodalash talabalar uchun katta ahamiyatga ega. Insonning ichki olami, his-tuyg‘ulari va shaxsiy xususiyatlarini tasvirlash kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismidir.

Portret janriga oid materiallar asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda turli yo'nalish va metodlarda yaratilgan portretlardan didaktik manba sifatida foydalanish ham jarayonning diqqat markazida bo'lishi lozim. Jumladan, postimpressionizm yo'nalishining asoschisi Vinsent van Gogning (1853–1890) portretlarida kuchli emotsional ifoda va ichki hayajon yaqqol ko'rinib turadi. Uning "Doktor Gashe portreti" (1890) kabi asarlari inson yuzidagi chuqur kechinmalarni tushunish va psixologik qiyofani muvaffaqiyatli aks ettirish imkonini bergan. Bu kabi asarlar orqali talabalar insonning ichki dunyosi bilan yaqindan tanishib, uni ifodalashning turli usullarini o'rganadilar.

Portret ishlashga oid malaka bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning realistik usulda tasvir hosil qilish ko'nikmalarini oshirish, vizual tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, emotsional ifoda berishni o'rganish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va kompozitsion qoidalarni chuqur tushunish uchun mazkur jarayon samarali vosita hisoblanadi [4: 185]. Mashhur rassomlarning portret janrida yaratilgan asarlaridan foydalanish va ularni tahlil qilish orqali o'qituvchilar o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirib boradilar.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois har qanday pedagogik jarayonda bu ikki omil yaxlit tizimning ustuvor komponentlari sifatida bir-biri bilan uyg'un holda harakat qiladi. Pedagogik va psixologik omillarni samarali qo'llash uchun interaktiv va amaliy metodlar, ijodiy muhit, refleksiya, motivatsiya hamda emotsional intellekt kabi yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonni faollashtiradi. Psixologik jihatdan esa shaxsiy rivojlanish, treninglar va ijodiy ilhomlanish o'qituvchilarning professional faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3: 520].

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishi ularda fikrlash jarayonining samaradorligi, o'quv materialidan portret janri uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqara bilishi, ma'lumotlarni umumlashtira olishi, maqsadga intiluvchanligi, o'z fikrida qat'iy turishi hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni to'ldirish yuzasidan zarur choralar ko'rish kompetensiyasiga ega bo'lishini ham talab etadi.

Demak, tasviriy san'at yo'nalishida portret janrini o'rgatishda psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olish bevosita bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi "Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining haq to'lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 11-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2024-y., 09/24/11/0014-son. https://lex.uz/docs/6738217.
3. Ляхова К., Дятлева Г. Мастера портрета. М.: Магистр и артиум, 2002.
4. Norqulova D.U. Qalamtasvir: O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2022.
5. Norchayev R.T. Rangtasvir fanidan o'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021.
6. Nurtayev U. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Analytical Journal of Education and Development, 2022. Vol. 2, №1. – B. 219–224.

Nilufar OYMATOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ADABIYOT TA'LIMIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI: NAZARIY-METODIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil ishlashni hamda qiziqib mutolaa qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan "Harfli o'yin" metodining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqot milliy pedagogika namoyandalarining ishlanmalari hamda xorijda o'tkazilgan tizimli tahlillar va tajriba-sinov tadqiqotlari natijalariga tayangan holda olib borilgan. Metodning amaliyotga tatbiq etilishi ko'rgazmali namunalar asosida tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq va asoslangan tavsiyalar alohida bo'lim sifatida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, "Harfli o'yin" metodi, gamifikatsiya, ta'lim samaradorligi, integratsiya, xotirani mustahkamlash, mustaqil fikrlash, unutish egri chizig'i.

Annotation. This article presents the theoretical and methodological foundations of the "Letter Game" method, aimed at developing students' creativity, independent work skills, and interest in reading. The study draws on the works of local pedagogical scholars and the results of systematic reviews and empirical studies conducted abroad. Based on illustrative examples, the article analyzes the practical application of the method and offers concrete, evidence-based recommendations for improving its effectiveness, presented as a separate section.

Keywords: innovative technology, educational efficiency, integration, memory strengthening, independent thinking.

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методологические основы метода «Буквенная игра», направленного на развитие творческих способностей, самостоятельности и интереса к чтению у учащихся. Исследование опирается на работы отечественных педагогов и результаты зарубежных эмпирических исследований. На основе наглядных примеров разработаны конкретные рекомендации по повышению эффективности метода.

Ключевые слова: инновационная технология, образовательная эффективность, интеграция, укрепление памяти, самостоятельное мышление.

Dunyo pedagogikasida zamonaviy yondashuvlar asosi sifatida qaraladigan muammoli ta'lim adabiyot o'qitish metodikasida turfa xil o'qitish texnologiyalarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Bunday texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarning shaxsga yo'naltirilgan kompetentligini rivojlantirishning modernizatsion didaktik tizimini takomillashtirish, akmedidaktik tamoyillar asosida o'quv natijalari sifati va samaradorligini kafolatlash, ta'limning izlanishli, ijodiy shakllarini takomillashtirish ta'lim oluvchilarning pragmatik, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishi misolida o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimiz Uchinchi Renessans sari qadam qo'yayotgan bir vaqtda fan va ta'limga katta e'tibor qaratilishi, bu ikki sohani izchil va uzviylikda rivojlantirish milliy va ma'naviy yuksalish hamda jamiyat taraqqiyotining kafolati sifatida namoyon bo'lishi global ahamiyatga ega. Bu borada, Avloniy ta'biri bilan aytganda, "millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan til va adabiyot" ta'limi komil inson tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari yuzasidan tizimli va chuqur izlanishlar olib borilishi bilan ajralib turadi [1: 36].

Mazkur yo'nalishning davlat siyosati darajasidagi ahamiyati me'yoriy-huquqiy asosga ham ega: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o'qitish metodikasini takomillashtirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8]. Demak, adabiyot darslarida "Harfli o'yin" kabi interfaol metodlarni qo'llash nafaqat metodik zaruriyat, balki davlat ta'lim siyosatining amaliy ifodasi hamdir.

Xalqaro miqyosda o'tkazilgan so'nggi tizimli tahlillar ham shu yo'nalishni tasdiqlaydi: gamifikatsiya (o'yinlashtirilgan ta'lim) usullarining o'quvchi motivatsiyasi va bilim o'zlashtirish sifatiga ta'sirini o'rgangan ko'plab ilmiy ishlarni umumlashtirgan tizimli sharh natijalariga ko'ra, tahlil qilingan tadqiqotlarning yarmidan ortig'ida o'quvchilarning faollik, ishtirok va motivatsiya darajasi sezilarli oshgani, uchdan bir qismida esa bevosita akademik natijalarning yaxshilanishi qayd etilgan [2]. Bu ma'lumotlar "Harfli o'yin" kabi milliy pedagogik amaliyotda sinalgan metodlarning ilmiy asoslanganligini xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan ham tasdiqlaydi.

"Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan ancha keskin farq qiladi. Shunga ko'ra, uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas", – deb ta'kidlaydi taniqli olim Boqijon To'xliyev [5: 3]. Olimning boshqa ishlarida ham filologik ta'limda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurati alohida asoslab berilgan [5: 155].

Shuningdek, Q.Yo'ldoshevning umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslariga bag'ishlangan tadqiqotida ham zamonaviy metodikaning shakllanishi bevosita o'quvchi qiziqishini uyg'otuvchi vositalar bilan bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan [7]. Shu bilan birga, ushbu ishlarda "Harfli o'yin" kabi so'z-harf o'yinlariga asoslangan alohida metodikaning adabiyot darslari kontekstida qo'llanilishi va uning empirik samaradorligi masalasi yetarlicha yoritilmagan – aynan shu bo'shliq mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

"Harfli o'yin" metodini xorijdagi krossvord metodikasining sodda nusxasi deb baholash noto'g'ri bo'lardi. Ularning tub farqi shundaki, krossvord odatda leksik birlik (so'z ma'nosi) ni tekshirishga qaratilgan bo'lsa, "Harfli o'yin" badiiy asar mazmuni, syujet detali, obraz yoki geografik-tarixiy kontekst kabi adabiy-kontekstual bilimni tekshirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur metodni "kontekstual harfli o'yin" deb atash mumkin. Bunda o'quvchi nafaqat so'zni, balki asar matni bilan bog'liq voqelikni faol tarzda qayta tiklaydi. Bu jihat metodning adabiyot ta'limidagi o'rnini lug'at o'rgatish vositalaridan farqli, badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiruvchi vosita darajasiga ko'taradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy so'roq-javob usulida o'qituvchi javobning to'g'ri yoki noto'g'riligini alohida tekshirishi zarur bo'lsa, "Harfli o'yin"da javob harflar tarkibiga mos kelish-kelmasligi orqali o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Zamonaviy gamifikatsiya nazariyasida ta'kidlanganidek, aynan shunday tezkor teskari

aloqa (feedback) mavjudligi o'quvchining xato ustida darhol ishlashiga va o'z bilim darajasini real vaqt rejimida anglashiga xizmat qiladi [2]. Bu esa mazkur metodning nafaqat qiziqarli, balki metodik jihatdan ham asoslangan ekanligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida yangi axborot va ma'lumotlarni bayon qilishning an'anaviy shakli, o'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslarning ma'ruza shaklida olib borilishi zerikarli bo'lishi o'quvchilarda o'qishga nisbatan loqaydlik tuyg'usini hosil qiladi. Adabiyot darslarida mumtoz adabiyotni tushunish bilan bog'liq muammolarning asosiy sabablaridan biri badiiy adabiyotda tasvirlangan voqelikning hayot haqiqatiga mos kela olmasligi hamda V–VI asr oldingi tilimiz shaklining hozirgi shaklidan sezilarli darajada farqlanishidadir. Shuning uchun tarixiy va mumtoz asarlarni o'rganishda tabdil ishlari bilan bir qatorda turli zamonaviy vositalar yordamida o'yin texnologiyasiga asoslangan pedagogik jarayonning ta'limga kiritilishi zaruriy va muhim qadamlardan biri hisoblanmoqda.

Umumta'lim maktablarida tarixiy va mumtoz asarlarni, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishdagi eng jiddiy muammolardan biri ham asarlarni asliyatda o'qib tushunish, o'rganish hamda matn bilan ishlash malakasining yetarli emasligidadir. 5–6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim maqsadini o'quvchilar qiziqishi vositasi bilan uyg'unlashtirish eng to'g'ri va samarali usuldir. Shu sababli bugungi o'quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni shoir va yozuvchilarning ijodiga qiziqtirish, asar matnini anglash, asar mohiyatini tushunish va lug'at bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun "Harfli o'yin" metodini qo'llash maqsadga muvofiq keladi.

"Harfli o'yin" metodi o'quvchining xotirasini mustahkamlash, mavzuni mustaqil o'zlashtirish, yodda olib qolish va mustaqil hamda tez fikrlashda yordam beradi. Ushbu metod, asosan, yakka tartibda ishlashni taqozo etadi. Bunda o'quvchilar allomalar hayoti va ijodi haqidagi o'qigan, darslik va qo'shimcha manbalardan olgan ma'lumotlarini qiziqarli va o'yin shaklida mustahkamlab olishadi. Bu metod asosida fanlararo integratsiyani ham amalga oshirish mumkinligi ko'zda tutiladi. Misol sifatida quyidagi namunalarni keltirish mumkin.

6-sinf adabiyot fanidan Rey Bredberi hayoti va ijodi yuzasidan topshiriqli o'yin.

Savol: *"Bir kunlik yoz" hikoyasida Margo intiqlik bilan nimani kutar va sog'inar edi?*

Q	U	Y	O	SH

(Javobi: quyosh)

Harflar: SH I O J Q B E D E A U N Z Y L

Yoki keyingi misolda:

Savol: *"O'n besh yoshli kapitan" romanidan berilgan parchada "Piligrim" kemasi qaysi davlatdan Amerikaga yo'lga chiqadi?*

Z	E	L	A	N	D	I	Y	A

(Javobi: Zelandiya)

Harflar: Z B X D I A Y E L A N S [4]

Yuqorida keltirilgan namunalardan ko'rish mumkinki, "Harfli o'yin" metodi asosida o'quvchilar badiiy matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi, matn g'oyasini anglashda hamda xotirasini mustahkamlashda yordam beradigan usullardan hisoblanadi. Bunda o'quvchi to'g'ri javobni faqat eslab qolish orqali emas, balki berilgan harflar orasidan mos harflarni tanlab, mantiqiy taqqoslash yo'li bilan topadi. Bu esa yuqorida qayd etilganidek, xorijiy tadqiqotlarda tasdiqlangan faol qidiruv-taqqoslash mexanizmiga mos keladi [8: 5].

Ushbu o'yin texnologiyasini dars jarayonida qo'llash uchun kompyuterlarning bo'lishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi bu metod orqali dars tashkil qilishda kuzatuvchi sifatida ishtirok etsa, o'quvchi haqiqiy tadqiqotchiga aylanadi. Shuningdek, ushbu metoddan darsdan tashqari jarayonlarda, uy vazifasi sifatida ham foydalanish mumkin. O'quvchi berilgan topshiriqni "Harfli o'yin" metodi orqali uyda mustaqil bajarishi va natijani o'qituvchiga yuborishi mumkin.

"Harfli o'yin" metodining amaliy samaradorligini oshirish, uni tizimli va ilmiy asoslangan tarzda qo'llash maqsadida quyidagi aniq tavsiyalar ishlab chiqildi:

5–6-sinflarda savol-javob birliklari qisqa va aniq faktlarga (qahramon ismi, joy nomi, asosiy detal) qaratilishi, 7–9-sinflarda esa asar g'oyasi, obrazlar tizimi va badiiy-ifoda vositalari bilan bog'liq murakkabroq topshiriqlar joriy etilishi lozim. Bunda har bir topshiriq davlat ta'lim standarti va fan dasturidagi bilim, ko'nikma va malaka talablariga muvofiq tuzilishi shart.

"Harfli o'yin" namunalarini qog'oz shaklidan tashqari, bepul onlayn platformalar yordamida raqamlashtirish tavsiya etiladi. Bu, birinchidan, metodni masofaviy ta'lim va uy vazifasi sifatida qo'llash imkoniyatini kengaytiradi, ikkinchidan, o'quvchi natijasini avtomatik tarzda qayd etish va kuzatib borish imkonini beradi.

O'yin natijalarini faqat qo'shimcha baholash vositasi sifatida qo'llash, uni yakuniy nazorat bahosiga tenglashtirmaslik lozim. Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, faqat reyting va mukofotlarga ortiqcha urg'u berish o'quvchining ichki (intrinsik) o'qishga qiziqishini emas, balki tashqi rag'batga bog'liq motivatsiyani kuchaytirib yuborishi, natijada uzoq muddatli samaradorlikka putur yetkazishi mumkin [2]. Shu bois o'yin faqat mavzuni mustahkamlash va qiziqish uyg'otish vositasi sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Adabiy asarlarga oid "Harfli o'yin" topshiriqlariga tarix, geografiya, san'atshunoslik fanlariga oid ma'lumotlarni ham kiritish orqali o'quvchida bir asar atrofida keng dunyoqarash shakllantirish, bilimlarni tizimli tarzda bog'lab olish ko'nikmasini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bilimni uzoq muddatga esda saqlash uchun bir marta o'tkazilgan "Harfli o'yin" mashg'ulotini ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, chorak yakunida) qayta, biroz o'zgartirilgan shaklda taqdim etish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi adabiyot darslarini AKT vositalaridan foydalanib o'qitish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu adabiy ta'limda foydalanishning metodik imkoniyatlarini ijodiylik, yosh xususiyati va saviyaga mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, "Harfli o'yin" metodi nafaqat mahalliy pedagogik amaliyotda sinalgan, balki o'zining nazariy asosi bo'yicha xorijda o'tkazilgan tizimli ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan ham uyg'unlashadi [2: 5]. Metodning o'ziga xosligi shundaki, u oddiy lug'at o'rgatish vositasidan farqli o'laroq, badiiy matn mazmuni, obrazlar tizimi va kontekstual bilimlarni faollashtirishga xizmat qiladi, bu esa uni adabiyot ta'limi uchun alohida qimmatli metodik vosita darajasiga ko'taradi.

"Harfli o'yin" metodidan bilimlarni mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlarida qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda izlanuvchanlikka xos ta'kidiy, mantiqiy, umumlashtiruvchi texnologiya komponentlari tarkibidagi

estetik idrok etish va o‘zlashtirishga doir evristik, pozitivlik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik va motivatsion elementlari bilan uyg‘unlashtirish talab etiladi. O‘quvchilarda adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishni orttirish maqsadida ular bilan maqsadli ishlarni, ijodkorlikka yo‘naltiradigan metodlarni qo‘llash o‘rinli. Chunki ta’lim beruvchi o‘qituvchi boshchiligida dars jarayonlarida o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratib berish bevosita ta’lim sifatini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan amaliy tavsiyalarga rioya qilingan holda joriy etilgan “Harfli o‘yin” metodi dars jarayonlarida mavzu doirasida har bir o‘quvchining bilimi va qiziqishlarini to‘g‘ri anglab, faolligini yanada oshirish, ta’lim sifatini rivojlantiradigan muhit yaratish kabi darsdan ko‘zlangan asosiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Jaramillo-Mediavilla L., Basantes-Andrade A., Cabezas-González M., Casillas-Martín S. Impact of Gamification on Motivation and Academic Performance: A Systematic Review // Education Sciences, 2024. Vol. 14, №6. – Art. 639. https://doi.org/10.3390/educsci14060639.
3. Matreja P.S. va boshq. The usefulness of crossword puzzle as a self-learning tool in pharmacology // Journal of Advances in Medical Education & Professionalism, 2018. Vol. 6, №4. – P. 181–185.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
5. To‘xliyev B. Filologik ta’limda innovatsion texnologiyalar // Yangi pedagogik texnologiyalar va adabiyot ta’limi: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU, 2004. – B. 3.
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
7. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss. avtoref… – Toshkent, 1996. – 56 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3031-son. https://lex.uz/docs/4312785.

Rustam TUROPOV,
T.M.S. instituti Pedagogika va psixologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM MUHITINI YARATISHDA O'QITUVCHILARNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi-pedagoglarning xizmatlari beqiyosligi yoritilgan. Shuningdek, dars jadvallarini yangi metodlar asosida tuzish kabi oddiy omillar ham sifatli ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga egaligi, amaliyotda qo'llanganda kutilgan natijalarga yo'l ochishi hamda o'qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, qiziqtira olish, passiv o'quvchilarning faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, rag'batlantirish, yangi va samarali metodlarni qo'llash.

Annotation. The article highlights the invaluable contribution of teachers to raising a healthy and well-rounded younger generation within the modern educational process. It discusses how even simple factors – such as structuring class schedules based on new methods – play a significant role in fostering a quality learning environment and can lead to desired outcomes when put into practice. The article also addresses the importance of teacher collaboration with parents.

Keywords: creative approach, ability to engage interest, boosting the activity and self-confidence of passive students, encouragement, application of new and effective methods.

Аннотация. В статье освещается неоценимый вклад педагогов в воспитание здорового и всесторонне развитого молодого поколения в рамках современного образовательного процесса. Рассматривается, как даже такие простые факторы, как составление расписания занятий на основе новых методик, играют важную роль в формировании качественной учебной среды и при практическом применении способствуют достижению желаемых результатов. Также в статье затрагивается вопрос о важности сотрудничества учителей с родителями.

Ключевые слова: творческий подход, умение заинтересовать, повышение активности и уверенности в себе у пассивных учеников, поощрение, применение новых эффективных методов.

O'qituvchilik sharafli va mas'uliyatli kasb. Pedagoglar interaktivlik asosida yosh avlodni aqliy hamda malakaviy jihatdan rivojlantirishi, to'g'ri yo'lga yo'naltirishi kerak. O'quvchining yoshi, bilim darajasi, qobiliyati, ruhiyati va xulq-atvoriga qarab kreativ yondashish, passiv o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish hamda ularning darslarga qiziqishini uyg'otish uchun turli yangi metodlardan vaziyatga mos ravishda foydalanish zarur.

Asosan, passiv o'quvchilar duch keladigan muammolar:

1. Kitob o'qiganda bosh og'rishi.
2. O'qigani yoki eshitgani xotirasida qolmasligi.
3. Darslarga qiziqishi va o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qligi.
4. Oilasida o'qish uchun sharoit yo'qligi, uy ishlaridan bo'shay olmasligi kabi holatlar.

Avvallari boshlang'ich sinflarda o'qigan davrimizda tanaffusga chiqishdan tashqari, dars o'rtalarida kuniga bir-ikki marta 2–3 daqiqalik jismoniy trening mashqlari o'tkazilar edi, so'ng dars jarayoni davom etardi. Bu mashqlar yosh organizmning nozikligini hisobga olgan holda, aqliy toliqishning oldini olish maqsadida o'tkazilib, o'quvchilarning darslarni yaxshi o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatardi.

Tarixdan bizga ma'lumki, O'zbekiston xalq yozuvchisi Po'lat Mo'min o'qituvchilik-pedagoglik faoliyati davomida o'quvchilarni qiziqtirish va mavzuni oson tushuntirish maqsadida har bir darsda mavzularga mos she'rlar yozib, ularning mazmun-mohiyatini ochib bergan. Bu ta'lim metodi ham yuqori samara bergani ta'kidlangan. Har bir o'quvchi bilan individual ishlash jarayonida passiv bolalarni darslarga jalb qilish, ularning bilim olishga bo'lgan intilishini inobatga olgan holda rag'batlantirib va ilhomlantirib borish muhimdir. "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" iborasini qo'llagan holda iste'dodsiz bolaning o'zi yo'qligi, har qanday buyuklik oddiylikdan boshlanishi haqidagi tushunchani o'quvchilar ongiga singdirib borish kerak. Buyuk bobokalonlarimiz ham oddiy bola bo'lgani, o'ynagani, sho'xliklar qilgani, vaqti kelib qiynalgani, lekin o'qish va izlanishdan to'xtamay, o'z maqsadlariga erishish uchun turli sinovlarni yengib o'tgani va buyuklik darajasiga yetganini misol qilib keltirish o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishda motivatsiya vazifasini bajaradi. Bu kabi ishlar o'qituvchilarning liderlik sifatlari orqali amalga oshiriladi hamda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, kommunikativ faoliyat davomida ota-onalarni farzandlari a'lo baholarga o'qishiga ishontira olish oilada ham dars tayyorlash uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi. Qolaversa, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ya'ni to'garaklarni tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Dars jadvallarini yangi metodlar asosida tuzish ham o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlashini shakllantirishga va xotirasida mustahkam saqlab qolishiga yordam beradi.

Dars jadvallarini tuzish tartibi

Hafta davomida 4 yoki 5 soatlik darslar tartibi turli fanlar kesimida belgilanadi. Har 4 yoki 5 soatlik darsni quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. 1–2-soatlarda nisbatan yengilroq fanlarni kiritish va asta-sekin murakkab fanlarga o'tish tavsiya etiladi.

2. 3–4-soatlarda murakkab fanlar kiritiladi (masalan: algebra, geometriya, kimyo, fizika kabi fanlar).

3. 5-soatda jismoniy tarbiya yoki mehnat ta'limi darslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

